

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va  
mavqeyini oshirish – asosiy vazifamizdir”.

**Shavkat Mirzoyoyev**

**“SAN’AT VA MADANIYAT:  
ILMIY-AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK  
ODIMLAR” MAVZUSIDAGI DOKTORANT,  
MUSTAQIL IZLANUVCHILAR, MAGISTRANT  
HAMDA BAKALAVR TALABALARINING  
ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
MATERIALLARI**

**I qism**

Toshkent – 2022

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’at va madaniyat: ilmiy-amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” mavzusidagi doktorant, mustaqil izlanuvchilar, magistrant hamda bakalavr talabalarining ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan san’at va madaniyat sohasi mutaxassisleri, fan o‘qituvchilari, magistratura va bakalavriat talabarlari foydalanishlari mumkin.  
(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir)

**Mas’ul muharrir:**

I.J.Yuldashev, f.f.d., professor, O‘zDSMI rektori

**Tahrir hay’ati:**

S.Jumayev, professor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

M.Yuldashev, f.f.d., professor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

M.Dustmurodov, o‘qituvchi, Kengashi kotibi

Z.Norqo‘ziyeva, Iqtidorli talabalar bo‘limi boshlig‘i

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida professor-o‘qituvchilari jamoasi

**Texnik muharrir:**

Bunyodbek Shukurov, talaba

*To‘plam O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Kengashining  
2022-yil 29-apreldagi 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## SO‘Z BOSHI

O‘z kelajagi haqida qayg‘urgan, qadim ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan ma‘naviy an‘analari, tafakkur mahsulini keyingi avlodga yetkazishni ko‘zlagan davlat yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratadi. Millatning millatligi, uning ma‘naviy-ijtimoiy mohiyati san‘at va madaniyatida aks etar ekan, bu sohadagi iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy salohiyati va imkoniyatlarini hisobga olish, ularni erkin fikrlovchi, mas‘uliyatli, bilimli va ilmiy tafakkuri keng shaxs bo‘lib shakllanishi uchun zarur bo‘lgan ilmiy muhitni qaror toptirish muhimdir. Zero, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti zimmasiga ilmiy, amaliy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarni, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan davr talablariga javob beradigan yuksak malakali kadrlar tayyorlash vazifasi qo‘yilgan. Ushbu anjuman ham shu niyatda tashkil etilgandir.

Institutda yosh izlanuvchilarning bahorgi an‘anaviy ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilib, izlanish natijalari ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola qilinmoqdi. Ilmiy maqolalardagi yoshlik g‘ayrati, shijoati, ilm olamiga qadam qo‘yishi, yangilik yaratish ishqida kuyunchaklik bilan izlanayotganligi bizni quvontiradi. Bu esa, soha kelajagi porloq ekanligi, uning yangi avlod tadqiqotchilari yetishib chiqayotganligidan nishonadir.

Mana shunday g‘ayratli yoshlarimiz saflari yanada kengayib borishini chin dildan istab, barchalariga oq yo‘l tilaymiz.

**Ibrohim Yuldashev,**  
**O‘zDSMI rektori**  
**filologiya fanlari doktori, professor**

# I SHO‘BA

## YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA SAN‘AT VA MADANIYATNING O‘RNI

---

### UCHINCHI RENESSANS – YANGI O‘ZBEKISTONDA SAN‘AT VA MADANIYAT

**Artikova Umida Raimovna,**  
*O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti*  
*“Ashula va raqs” yo‘nalishi*  
*2-kurs magistranti*  
*Ilmiy rahbar: dotsent D.M.Malikova*

#### **Annotatsiya**

Maqolada yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san‘at sohasidagi o‘zgarishlar, oldinga qo‘yilgan vazifalar hamda ushbu sohani yanada rivojlantirish borasida dolzarb fikr- mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Konsepsiya, renovatsiya, yo‘l xaritasi, reprezentativ, mualliflik huquqi, ijodiy uyushma, palata

#### **Annotation**

The article discusses the changes in the field of culture and art in the development of Uzbekistan, the tasks ahead and current issues for further development of this sector.

**Key words:** Concept, renovation, road map, representative, copyright, creative association, ward

*“Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga  
kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni  
rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”.*

**Shavkat Mirziyoyev.**

Madaniyat va san‘at hayotimizning ajralmas bir qismidir. Go‘dak dunyoga kelar ekan, san‘atning eng oddiy va oily namunasi – ona allasi bilan dunyoni taniydi, hayotni idrok etadi. Quvonchli kunlarimizda ham, iztirob chekkanimizda ham kuy-qo‘shiq bizga hamroh bo‘ladi. Sirasini aytganda, san‘atga oshno bo‘lgan insondan yomonlik chiqmaydi. Maqomlar, dostonu laparlar, spektakllar, muzey eksponatlari, sirk tomoshalari har birimizni olijanoblik, mehr-oqibat, do‘stlik, ahillik, vatanparvarlik, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois o‘zini hurmat qilgan har qanday xalq o‘z san‘atini asraydi, ardoqlaydi. Uni avlodlarga bus-butun yetkazishga harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san’atimizni rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo‘llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi.

Prezidentimiz xalqimizning ma’naviy kamolotida ijodkorlarning xizmati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida barcha sohalar vakillari qatori madaniyat va san’at ahlidan ham yanada faollik, yangi-yangi ijodiy g‘oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi talab etilayotganini ta’kidladi. Shuningdek, **“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir”**( 1, 1-b) - deb yurtimizning o‘zining noyob iste’dodi va mahoratini xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga bag‘ishlagan, inson qalbining muhandislari bo‘lgan ijodkor ziyolilarga doimo g‘amxo‘rlik masalasi O‘zbekistonda bugun olib borilayotgan davlat siyosatida alohida o‘rin egallashini ta’kidlab o‘tdilar. Davlatimiz rahbari ushbu ma’ruzada madaniyatimiz va san’atimizning rivojlanish jarayonlari, bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta’siri holisona va tanqidiy baholanib, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida atroflicha fikrlar yuritdilar.

Ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o‘rni va vazifasi haqida muhim va dolzarb fikrlar bayon qildi. Shu bilan birga Prezidentimiz bo‘lib o‘tgan ochiq va samimiy muloqotning ahamiyati, mantiqiy natijasi haqida so‘z yuritib, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi” (2, 1-b), degan fikrni qat’iyat bilan ta’kidlagan edi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi;

ikkinchidan, madaniyat va san’at tashkilotlarining “do‘stlar klublari” faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratildi;

uchinchidan, muzeylar renovatsiya dasturi qabul qilindi, o‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san’ati namunasi bo‘lgan “Xorazm lazgisi” YUNESKONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro‘yxatiga kiritildi;

to‘rtinchidan, madaniy meros obyektlari va san’at ashyolarini restavratsiya qilish bo‘yicha milliy maktab, shuningdek, xalq cholg‘ulari, milliy raqs, maqom yo‘nalishlarida respublika ko‘rik-tanlovlari qayta tiklandi;

beshinchidan, mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali hamda “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalari va an‘analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, Konsepsiyani amalga oshirish, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimi yaratilmagan.

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, buning uchun respublikaning barcha hududlarida teatr, muzey, ko‘chma sirk va hayvonot bog‘lari faoliyatini doimiy ravishda yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Keyingi yillarda esa ushbu qaror ijrosini ta’minlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi, biroq shunga yarasha sohada hali bir qancha muammolar mavjud va o‘z yechimini topishi kerak edi. Ushbu sohani tubdan isloh qilish maqsadida, keyingi yillarda, O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” va chora-tadbirlar dasturlarini qabul qilishda mazkur tasdiqlanayotgan maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni nazarda tutishi belgilandi.

Prezidentimizning «Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori mazmun-mohiyatida ana shunday ezgu maqsad-muddaolar mujassam ekani xalqimizni nihoyatda mamnun etdi. Tan olishimiz kerak, sohada uzoq yillardan beri o‘z yechimini kutib yotgan, xalq tili bilan aytganda, oyog‘imizga kishan bo‘lib turgan muammolar talaygina edi. Undan xalos bo‘lmasdan turib, soha taraqqiyoti haqida hech qanday so‘z bo‘lishi mumkin emasdi. Achinarlisi, bugun soha xodimlarining tizimga doir farmon va qarorlar bilan to‘liq tanishmayotgani, ularning ichiga chuqur kirib bormayotgani, shuningdek, ularning mazmun-mohiyati, ijrosi quyi bo‘g‘inlargacha ham yetib bormayotgani ham tizim rivojiga to‘sqinlik qilayotgan

edi. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi natijasida endi anashu dolzarb masalalar o'z yechimini topadi, desak, mubolag'a bo'lmas.

**“Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalaikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbob bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishda boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda,”**- deb aytgan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov (3, 141-b).

Ushbu fikrlarning ifodasi sifatida esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ 112- sonli qarorida ko'rsatilgan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq “a” bandida: endilikda, Xalq ta'limi Vazirligi tasarrufidagi umumta'lim maktablari bitiruvchilari cholg'u asboblarining kamida bittasida chalishni o'rganishi hamda bilishi o'sib kelayotgan yosh avlodning nafaqat musiqiy bilimi va madaniyatini oshirishga, balki, kelgusida o'zbek oilalarida milliy musiqiy madaniyatni ufurib turishi uchun zamin yaratishiga asos bo'la oladi. Zero, O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov aytganidek, “Qudratli tarixga voris bo'lgan, o'z o'tmishidan g'ururlanishga haqli o'g'il- qizlar ulug'vor ma'naviy buloqlardan tafakkur chanqoqligini qondirib, buyuk qahramonliklarga yuz burishadi. Bunday kamolotga yetishgan avlodlarning ertangi kuni yorug', manglayi yarqiroq, kelajagi, albatta, buyuk bo'ladi” (4, 92b).

Madaniyat va san'at shu darajada keng qamrovli sohaki, u bir-birini takrorlamaydigan, bir-biriga o'xshamaydigan, mustaqil ijodni talab etadigan tizimlarni o'zida birlashtiradi. Prezidentimiz Farmonida mana shu keng ko'lamlı sohaning har bir halqasi manfaati hisobga olinib, muhim chora-tadbirlar belgilandiki, ularning hayotda to'la o'z ifodasini topishi madaniyat va san'atning bir zanjir o'laroq mustahkam uyg'unlikda rivojlanishiga zamin bo'ladi.

Ma'lumki, yurtimizda yosh iste'dodlar ko'p. Ko'p hollarda uchraydigani, yoshlarning o'z ijod na'munalarini ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlarida qo'yib borishlari va ba'zilari keng omma ichida e'tirof etilib, olqishga sazovor bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu albatta yaxshi, lekin ularning keying ijodiy faoliyatini yuksalishi uchun bular kamlik qiladi. Yuqoridagi hujjatlarda ana shunday yosh iste'dodlarni izlab topish, ularning ta'lim olishi va iqtidorini namoyon etishiga sharoit yaratish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan, ana shu yo'lda “Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va axborot-multimedia markazi” davlat muassasasi, boshqacha aytganda, prodyusserlik markazi tashkil etilishi, shuningdek, endilikda notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan chop etilishi, ta'lim muassasalariga to'liq yetkazib berilishi ko'plab imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyida keltirgan mulohazalarini ham ta'kidlab o'tmoq joizdir: **Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak**

**intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz (5,14-b).**

Eng katta yangiliklardan biri sifatida san'atkorlarning intellektual va mulkiy huquqlarini himoya qilishning yangi tizimi joriy etilayotganini qayd qilish joiz. Ya'ni endilikda san'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi tashkil etilmoqda hamda unga bir qator vakolatlar berilyapti. Mazkur palata, birinchi navbatda, ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan asarlarni huquqiy jihatdan himoya qiladi. Bu san'atkorni o'z iqtidorini namoyon etishga, umrboqiy asarlar yaratishga undaydi. Zero, u mana shu yaratayotgan ijod namunasi chinakam san'at asari darajasiga ko'tarilsa, unga bo'lgan talabdan butun umr moddiy rag'bat topishini biladi. Shunga ko'ra, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qonun bilan 15-aprel "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni" sifatida belgilandi. Ushbu qonunga muvofiq 2021-yildan e'tiboran, mamlakatda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, o'zbek milliy madaniyati va san'ati nufuzini jahon miqiyosida oshirish, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida fidokorona mehnat qilgan va yuqori natijalarga erishgan yurtdoshlarimiz aynan mana shu bayram kunida "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi soha vakillari orasida katta olqishlar bilsn kutib olindi. 2021-yil 27-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri O.Nazarbekov

"1 - oktabr O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida sohada olib borilayotgan va kelgusida amalga oshiriladigan rejalar haqida so'z olib borganda 2022-yildan boshlab, madaniyat va san'at sohasida bir qancha yutuqlarga erishgan ustozlar mehnatini yuksak baholash maqsadida "Yilning eng yaxshi o'qituvchisi" tanlovini o'tkazilishini aytganda, qarsak va olqishlar bilan qabul qilindi.

Muhtaram Prezidentimizning keyingi 2021–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi davlat dasturining **5-strategiyasining** madaniyat va san'at sohasi rivojlanishiga qaratilganligi ushbu sohaga alohida e'tibor berilganligini ko'rish mumkin.

Bugun biz Uchinchi Renessansni oldimizga katta maqsad qilib qo'ydik. Bu boradagi islohotlarda madaniyat va san'at sohasi xodimlari eng old safda bo'lishi kerak. To'g'rirog'i, birinchi galda bizning o'zimiz ana shu maqsad mohiyatini chuqur anglab olishimiz kerak. Fuqarolarimizda ham jamiyat rivojida, uyg'onish davrida mening ham hissam bo'lishi kerak, degan fikrni shakllantira olsak, rejalarimiz, intilishlarimiz yanada tez va yuqori samara bera boshlaydi.

Fikrimcha, Prezidentimiz qarorlarining amalda bajarilishi, yangicha islohotlarning olib borilishi sohada faoliyat yuritayotgan har bir insonga cheksiz g'urur bag'ishlashiga zamin yaratadi. Binobarin, bu ham bizga ko'rsatilayotgan e'tibor va ehtiromning hayotdagi yana bir ifodasidir.

Xulosa o'rnida aytganda, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan madaniyatimiz, san'atimizning qadrlanishi, uning yuksak cho'qqilarga ko'tarilib,



e'tibor berilishiga xizmat qilayotgan, shuning bilan birga madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rnini hamda ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan ushbu hujjatlar yangi O'zbekiston tarixining, ya'ni uchinchi Renessansning madaniy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Ma'naviyat, T., 2008.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston NMIU, 2016.
3. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". Xalq so'zi. 2017-yil, 4-avgust.
4. Feruza Asqar. Musiqa va inson ma'naviyati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2000.
5. Vatandosh Allomalarimiz. Insoniy fazilatlar haqida hikmatlar. Yangi asr avlodi, T., 2019.
6. Internet saytlari: Lex. Uz.; Ziyonet.net

### **KINO VA YOSHLAR (KINONING IJTIMOIIY VAZIFASI NIMADA?)**

**Shuxratbek Islomov Hamroyevich,**  
O'zDSMI "Kino, TV va radio san'ati" fakulteti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasida  
"Kino san'ati tanqidi va tahlili" talabasi  
[islomovshuhrat101@gmail.com](mailto:islomovshuhrat101@gmail.com)  
Ilmiy rahbar: **Zumriniso Kozimova,**  
O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasida o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Maqolada kino va seriallarning o'rnini, ularning shaxs kamolotidagi ahamiyati borasida fikrlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Kino, bugungi seriallar, tarbiya, madaniyat, shaxs kamoloti.

#### **Аннотация**

В статье речь идёт о роли кино и сериалов в общественной жизни и личностном развитии.

**Ключевые слова:** Кино, сегодняшние сериалы, воспитание, культура, зрелость личности.

San'at insonni tarbiyalaydimi? Uning shaxs tarbiyasiga dahldorligi bormi? Bu kabi savollarga har qadamda duch kelmoqdamiz. Hattoki, "to'g'ri berilgan o'n besh, yigirma yillik tarbiya bir-ikki soatlik tomosha bilan buzilmaydi", degan tushunchani ilgari surayotgan toifalar ham shakllanmoqda. Achinarlisi esa bu holni qarsaklar bilan

olqishlayotganlar ham kam emas. San'atning ham xuddi fizik qonun singari qonuni, geografik teorema singari teoremasi bor. U ham insondagi eng ezgu xislatlarni tarbiyalamog'i, yovuzlikka bo'lgan nafratini uyg'otmog'i, ertangi kunga bo'lgan ishonchini shakllantirmog'i darkor. Shunday ekan, barcha san'at turlarining sintezi bo'lgan kino bundan mustasno emas. Ayni paytda kino qurol, qurol bo'lganda ham dahshatli qurol. Chunki, bugun globallashib borayotgan bir davrda ma'naviyatga, milliy mafkuraga tahdid soniya sayin ortib bormoqda. Dahshatlisi, ular o'zlarining qabih g'oyalarni kinoda silliq qilib, astalik va ustalik bilan, seriallarda esa mayda-maydalab jamiyat ongiga singdirib yuborishyapti. Bu go'yoki, insonga asta-sekin tasir qiladigan og'uni zarralarga bo'lib berganday gap. Bu "zarra"larning salbiy tasiri allaqachon u yoki, bu shaklda jamiyatimiz orasida namoyon bo'lmoqda. Fojia shundaki, bir bizning millatimiz emas, balki butun insoniyat uchun isnod bo'lgan illatlarning keng quloch yoyib, unga oddiy hol singari qaralayotganidir.

Negaki, biz har kuni bunga o'xshash o'nlab voqealarni ijtimoiy tarmoqlarda, turk va xorij filmlari, seriallarida ko'raverib hech qanday hadiksiz hazm qilib yuboradigan darajaga kelib qoldik. Fikrlarimizni quyidagi misollar bilan ifodalasak. So'zimiz turk kino ijodkorlari tomonidan suratga olinib, "Sevimli" telekanalidan namoyish qilingan, "Qora niyat" serialining ba'zi bir jihatlari haqida. Xalid ismli qahramonning to'rtta farzandi bor. To'rttalasining ham otasi bir-u, onasi boshqa. Bu ham mayli, bir paytlar yangasining eri bo'lgan qahramonimiz uning qayin singlisi bilan ham ahdi paymon qilishga ulguradi. Yanga tushmagur ham serialning keyingi qismlarida Kaya ismli ilk muhabbati bilan turmush quradi. Natijada, ikki ayol bir uyda yashay boshlaydi. Sirtidan qarasangiz, hammasi risoladagiday, bir tom ostida yashab, bir dasturxon atrofida o'tirib, ikkalasi ham bir-biriga choh qazish bilan ovora. Serialdagi barcha voqealar yolg'on, aldov, xiyonat va fitna kabi eng chirkin illatlarga qurilgan. Qahramonlar talqinida esa ikkiyuzlamachilik va munofiqlikning eng oliy darajasi targ'ib qilinadi. Aynan, bunday misollarni turk seriallaridan son-sanoqsiz keltirish mumkin. Opa-singilning qallig'iga ko'z olaytirishi, yoki aksincha. Go'ho, ukasiga jufti halol bo'laman deb turgan qizning akasiga ko'ngil qo'yishi talqinidagi sahnalarni bugun bizning tomoshabin qanday qabul qilyapti? Ertaga buning natijasi qanday bo'ladi? - degan savollarni ko'ndalang qo'yish o'rniga, yuqoridagi kabi mavzu, g'oyalarni dasturulamal qilib, o'sha o'zanda suzayotganlar ming afsuski, o'zbek kinosida ham bo'y ko'rsatyapti. "Tatarkino" agentligi bilan hamkorlikda rejissor Rashid Malikov tomonidan suratga olingan "Sumbul" filmi syujetida aynan biz yuqorida tilga olgan holatlarga ergashish yaqqol seziladi. Filmdagi Sumbul ismli qizga avval Bulat ismli yigitning uylanishi hamda parallel ravishda boshqa bir qiz bilan ishqiy hangomasini davom ettirishi tufayli Sumbul qo'lida chaqalog'i bilan Buxoraga tog'asining oldiga keladi. Biroz vaqtdan so'ng Bulatning ukasi yangasini izlab boradi. Mehmonni esa bo'lgan voqealardan xabardor qizning tog'asi oila a'zolari bilan birga go'yoki, eski bir qadrdonini qarshilaganday kutib oladi. To'g'ri, bo'lgan ishlarda yigitning aybi yo'q. Ammo, uning akasi sabab jiyanining tug'ilgan joyidan, mushtipar onasidan olisda qo'lidagi chaqalog'i bilan yolg'iz qolgani ma'lum. Mantiqan olib qaraganda, shu kartinada Sumbulning tog'asi yolg'iz jiyanining himoyachisi sifatida mavjud vaziyatga reaksiyasi bo'lishi kerak edi.

Biroz fursatdan soʻng yigit sobiq yangasining holidan, jajji jiyanining ahvolidan xabar olishga emas, balki unga uylangani kelgani maʼlum boʻladi. Maqsadiga erishadi ham, tabiiyki, yosh oila farzandli boʻladi. Ayolini, farzandini hamda jiyanini olib yigit Tataristonga qaytadi. Aka-ukalar va sobiq er-xotinning uchrashuvidagi holat qahramonlar talqinida xuddi tabiiy bir jarayonday yoritiladi. Toʻgʻri, bizni tariximizda va “Muhabbat mojarasi” (Shuhrat Abbosov), “Soʻnggi oʻq” (Haybatilla Aliyev), “Ilhaq” (Jahongir Ahmedov) filmlarida shunday voqealar bor. Biroq, bu filmlar va „Sumbul” filmi qahramonlarining holati bir-biridan tubdan farq qiladi. Ijodkorlar yuqoridagilarni xaspoʻshlash uchun, yoki tanqidiy fikrlardan himoyalash maqsadida ukaning asrab olinganligidan qalqon sifatida foydalanmoqchi boʻlishgan. Ammo, bu dramaturgiyaga shu darajada joʻn kiritilganki, aybdor talabaning bahonasiday syujet voqealaridan boʻrtib turibdi. Biz yuqorida taʼkidlab oʻtganlar bir qarashda oddiy bir ekrandagi holat. Sizga, bizga mutloqo aʼloqasi yoʻqday. Ammo, tanganing ikkinchi tomonidan nazar tashlasak, bu bir targʻibotga, chorlovga oʻxshab qolmayaptimi? Aqlini tanigan, oq-u qorani bilgan yoshdagilar koʻrmas, koʻrsa ham adashib tushgan qoʻngʻiroq singari unutib yuborar. Lekin, bugun kamolot ostonasida turgan, maʼnaviy tushunchasi toʻla shakllanib ulgurmagani yoshlarchi, ular koʻrgan narsasini mustaqil tahlil qilishga qodirmi? Koʻzni quvontiradigan zangori ekrandagi namoyishni ideal deya qabul qilmaydi, deb kim kafolat bera oladi? Nega bugun oʻzidan boshqani oʻylamaydiganlar, bir taraflama qarashi bilan qarorlar qabul qiladiganlar, faqatgina, “men” degan tushuncha bilan yashaydiganlar koʻpayib bormoqda? Chunki, ular koʻrayotgan kino, seriallar fisq-u fasod, egoistik kayfiyat bilan yetarlicha, obdon sugʻorilgan. Umumning dardi shaxsga emas, kerak boʻlsa oʻz dardini umumga koʻchirishga intilayotganlar toifasi urchib bormoqda. Tarixdan maʼlumki, koʻpchilikning dardi shaxsga koʻchib, qahramonlar paydo boʻlgan va ular haqida umrboqiy filmlar ishlangan. Bunga Melis Afzalovning “Suyunchi”, Bahodir Odilovning, “Qarzdor”, Jahongir Qosimovning, “Suv yoqalab” singari filmlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu filmlardagi qahramonlarning barhayotligi ular oʻzining emas, oʻzgalarning dardi bilan yashaganligida. Ayniqsa, “Oʻzbekiston xalq artisti”, “Mehnat shuhrati ordeni” sohibi Erkin Komilov ijro qilgan rollari har tomonlama badiiy yetukligi, hayotiyliigi hamda qahramonning mavjud holatidan kelib chiqib, pafosga boyliigi bilan ajralib turadi. Qahramonimiz Isamat Ergashov rejissorligida suratga olingan “Yuzsiz” filmida bosh rolni Begimqul obrazini ijro qilgan. Film satirik komediya janrida suratga olingan boʻlib, uning muvaffaqiyatli chiqishida E. Komilovning aynan qahramon psixologiyasini toʻgʻri anglagan holda uni yuksak isteʼdod bilan talqin qilgani yotadi. Sanʼatkor ijro qilayotgan rolidagi gap soʻzlari, xatti-harakatlari, oʻzini tutishidan tortib jest va mimikalarini ham shunday ifodalaydiki, natijada tomoshabinda film qahramonining hissiyotlariga burkangan ichki dunyosi bor boʻy-basti bilan namoyon boʻladi. Yana bir qiziq tomoni aktyor diologlarni ijro qilish jarayonida qahramon holatlariga mos harakatlar bilan ifodalagani diqqatga sazovor. Yaʼni, birga ishlaydigan Tolib akaga (Hojiakbar Nurmatov) aytgan soʻzlaridagi harakatlarni yoki, Sanobar opadan (Rimma Ahmedova) qarz soʻrashini Muhsindan (Tolib Hojiyev) joylarni almashtirishni iltimos qilgandagi lavhalarni bir eslang. Bu

epizodlarda aktyorning qahramon va jamiyat orasidagi munosabatni ko'rsatishda naqadar psixologik ruhiyatdan kelib chiqib yondashganining guvohi bo'lishingiz mumkin. Chunki, kino satirik komediya bo'lgandan so'ng mana shu ichki kinoyani ssenariydan anglab ijroda ko'rsatish ijodkordan o'z sohasining chuqur bilimdoni bo'lishni talab qiladi. Xalqimiz ardog'idagi san'atkorning betakror filmlaridan yana biri kinorejissor Jahongir Qosimov tomonidan sur'atga olingan "Suv yoqalab" filmidir. Film janri psixologik drama unga bosh qahramon Bolta Mardon bilan bevosita bog'liq bo'lgan voqealar asos qilib olinadi. Bu voqealarni yoritish jarayonida film qahramonining dunyoqarashi oila azolariga va atrofdagilarga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi. Suv yoqalash bahonasida B.Mardon siymosining butun hayoti yoritiladi. "Suv yoqalab" filmining "Yuksiz" filmidan farqi shundaki, aktyor ichrosida janrdan kelib chiqqan holda falsafiylik juda kuchli. Bu uning o'z oila azolari va qishloqdoshlarga aytgan so'zlarida, harakatlarida, qarashlarida yaqqol o'zining ifodasini topgan. "Yuksiz" filmida gapdonlik, dialoglardagi satiraga xos bo'lgan kinoya qahramonning yutug'ini ta'minlagan bo'lsa, "Suv yoqalab" filmida esa didaktik tabiatga mos keng mushohada, vazmin tabiat, bir so'zlilik ijrochini qahramonlik martabasiga ko'tadi. Bunda esa shaksiz talqin qilinayotgan siymolarning ichki ruhiyatini ne chog'lik to'g'ri anglanganligini aytib o'tish joiz. Navbat Murod Rajabov rejissorligida suratga olingan "Ulfatlar" komediyasiga. Endi, bu filmida yuqoridagi ikki filmga ham o'xshamagan Temur obrazining o'zgacha jihati shuki, qahramon xarakterida realistik xususiyatlarning birinchi planga olib chiqilganligidir. Filmida ko'pgina holatlarda sodir bo'lgan kulguli voqealar shu rolning ishtirokida va uning atrofga qaytargan reaksiyasi orqali kuzatiladi. Bunga sport klubiga do'stlari bilan borib boks tushgandagi holat, devor tiklash jarayoni, qolaversa, avtobusda qaytish chog'ida yo'lovchi otaxonning savoliga qaytargan javobi misol bo'ladi. Boks tushish sahnasidagi tabiiy harakatlar zarbalar berishi, Uchqunga (Mirzabek Xolmedov) qarab "senga qaraymi?, unga qaraymi?" degan javobi tomoshaviylikni taminlagan shu bilan birga birinchi round tugagandan keyingi holatining o'ziyoq ekran ortidagi insonda tabiiy kulgini tug'diradi. Yoki, "devorni urib beramiz, yiqilib tushsa bizdan emas", degan javobidagi ohangning o'zidagi yumor xarakterni tabiiyligini va qiziqarligini ta'minlagan. Sanab o'tilgan har uchala filmida bosh rol ijrochisi Erkin Komilovning eng katta yutug'i dramaturgiyadan kelib chiqqan holda qahramonning barcha psixologik kechinmalarini to'g'ri talqin qila olganida deyish mumkin. Shu uchun ham xilma-xillik, tabiiylik, bir-biridan tubdan farqlanuvchi xususiyatlar sabab hali hanuz bu filmlar xalq uchun qadrlil. Takror va takror teleekranlarda namoyish qilinsada, muxlislar qayta va qayta ko'rishdan aslo zerikmaydi. "O'zbekkino" durdonalaridan bunday misollarni o'nlab, yuzlab keltirish mumkin. Ulardagi har bir aktyor va aktrisa ijro qilgan rollar, ular yaratgan obrazlar shu san'atkorning ismiga go'yo butun umrga payvandlangandek. "Shaytanat" Yodgor Sadiyev, "Shum bola" Abdurayim Abduvohobov, "O'tkan kunlar" O'lmas Alixo'jayev va Gulchehra Jamilova, "Mahallada duv-duv gap" Lutfixonim Sarmisoqova, Maryam Yoqubova hamda Rahim Pirmuhammedov, "To'ylar muborak" Obid Yunusov, "Navoiy" Razzoq Hamroyev, "Temir xotin" Murod Rajabov "Dilxiroj" Alisher Hamroyev bu filmlar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Sanab o'tilgan

kinolar va shu ijod na'munasi bilan o'zining nomini tarixga muhrlagan aktyorlarning va aktrisalarning yutug'i gavalantirayotgan obrazi psixologiyasini, ruhiyatini obdan o'rganib, uning dardini, quvonchini o'zida his qilgandan so'ng talqin qilinganidir. Bir so'z bilan aytganda, "Kechinma" san'atidan ustalik bilan foydalanishgan. Nazarimda, Bugun ba'zi bir serial va filmlarimizning oqsab qolayotgani ham, ijrodagi holat va talqin yetishmayotgani ham qahramon xarakterini puxta o'rganmaslik, shunchaki "Xo'ja ko'rsin"ga yondashilayotganining mevasidir. Bunday kinolar har bir insonni nima uchun yashayotganligi to'g'risida, umuminsoniy fazilatlar haqida chuqurroq mulohazaga chorlaydi. Agarda, tomoshabin to'g'ri xulosa chiqara olsa, kundalik tashvishlar bilan o'ralashib, hayotning ushug'iga aylanib, yo'q bo'lib ketmaslikka, yuqoriroq cho'qqilarni, oliy maqsadlarni ko'zlab yashashga undaydi. Jamiyat doimo bunday filmlarga ehtiyoj sezgan. Ayniqsa, bugun uning ijtimoiy vazifasi, dolzarbligi yana bir karra oshganday. Demak, kinoning shaxs kamolotidagi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati beqiyos!

#### **Adabiyotlar:**

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. O'zME davlat ilmiy nashriyoti. T., 2009.
2. Safo O. Mustaqillik, ma'naviyat va tarbiya asoslari. T.: O'qituvchi, 1995.
3. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. T.: O'zbekiston, 1993.

### **YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYAT, ODOB-AXLOQ VA MA'RIFATNING O'RNI**

**Abdumannofova Xushnavoz Abduxamid qizi,**  
(O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,  
"Xalq ijodiyoti" fakulteti, "Madaniyat va san'at  
muassasalarini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishi)  
E-mail: xabdumannofova@gmail.com  
Telefon raqami: +998976973137

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifatning o'rni va xalq orasida madaniyatni yuksaltirish uchun qilinayotgan sayi harakatlar to'g'risida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat, intellektual, salohiyat, e'tiqod, jamiyat.

#### **Аннотация**

В данной статье описывается роль духовности, нравственности, просвещения в развитии обновленного Узбекистана и предпринимаемые усилия по популяризации культуры среди народа.

## Annotation

This article describes the role of spirituality, morality, education in the development of a renewed Uzbekistan and the ongoing efforts to popularize culture among the people.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo, tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma‘naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bejizga “Har qaysi davlat, har qaysi xalqning intellektual salohiyati, yuksak ma‘naviyati bilan qudratlidir”, deb ta‘kidlaganlar.

Ma‘naviyat ko‘p qirrali tushunchadir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi zohiriy va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab oladi. “Ma‘naviyat o‘zi nima?”- degan savolga aniq va lo‘nda javob topish qiyin. Unga har xil, ba‘zan esa bir-biriga qarama qarshi, noaniq sayoz javob va fikrlar bildirilgan. “Ma‘naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta‘riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma‘naviyat” tushunchasi keng ma‘noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma‘rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma‘naviy hodisa ekanligidir. Aslida, ma‘naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma‘naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gulto‘ji deyilganda, uning ushbu xislati, ya‘ni yuksak ma‘naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma‘naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta‘minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz maxluqotlarga xos. Ma‘naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma‘naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. Ma‘naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asarida: “Ma‘naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” deb ta‘riflagan edilar. Bu ta‘rifda inson faoliyatining barcha ma‘naviy qirralari qamrab olinganini ko‘rish mumkin.

A.Erkayevning fikricha, “Ma‘naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya‘ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”. M.Imomnazarov dastlab “Ma‘naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...”, - deb yozgan bo‘lsa, keyinchalik “Ma‘naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta‘rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta‘rifdir, zotan boshqacha ta‘rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi”, - deb

yozadi. T. Mahmudov "...Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir", -degan ta'rifni beradi.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarni ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki, qayerda, qaysi mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo'rlik, g'iybat qilishlik, ko'rolmaslik, yovuzlik, qo'paruvchilik, o'z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar. Shaxsning millat vakili sifati maqomida: milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma'suliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik va boshqalar bo'lsa; shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishdagi ma'sullik, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolariga befarq bo'lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligini anglash, insonning tabiatining bir bo'lagi ekanligi, uni asrashda ma'sullik va boshqa bir qator tushunchalarni kiritishi mumkin.

Axloq-odob qanday fazilat? Ma'naviyat tarkibiy qismlaridan eng muhimi – axloq va odobdir. Axloq arabchadan olingan bo'lib, xulq, odob, atvor, fe'l degan ma'nolarni anglatadi. Rus tilida ishlatiladigan "moral", so'zi "mocheya", so'zidan olingan bo'lib, u ham axloq ma'nosini bildiradi. Yunoncha "ethos", so'zidan olingan odat, odob, rasm-rusum, fe'l (xarakter) ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha Arastu (e.o.384-322 yy) tomonidan axloqning sinonimii sifatida ishlatilgan. "Odob", (arabcha "adab", so'zining ko'pligi) xulq-atvori, yurish-turish madaniyatning tashqi va ichki jihatlarni ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning xatti-harakatida, o'zaro munosabatida (oilalar, mehnat jamoasi va h.k.) namoyon bo'ladi. "Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloqiy tarbiya bilan yakunlanadi". Abu Nasr Forobiy "Axloqiylik deganda, biz faqat tashqi muomalani ko'zda tutmaymiz, balki niyatning butun ichki mohiyatini tushunamiz". Y.A. Komenskiy.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo'lgan omillar, unsurlar to'g'risida to'xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar. Bular: axloqiy anglash (axloqiy ong), - axloqiy his etish (axloqiy hissiyot) - axloqiy munosabatlar (axloqiy xatti-harakatlar). Ba'zi mutaxassislar (chunonchi, mashhur rus axloqshunosi A.I. Titarenko) axloqning asosiy

tushunchalarini (kategoriyalarini), axloqiy me'yorlar va tamoyillarni axloq – odobning bir butun qon tomiri tarzida taqdim etadilar. Shunday qilib, axloq tuzilmasi uch asosiy omilni: axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur uch omil- unurning birortasiz axloq tushunchasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, axloqni inson ko'zi oldida gavdalantiruvchi axloqiy munosabatlarni his etish va axloqiy anglashsiz yuzaga chiqishi, ya'ni mavjud bo'lishi mumkin emas. Axloq-odob qoidalarini anglasak, nima mumkinu, nima mumkin emas va qanday yashamoq kerak savollariga javob topa olamiz.

Axloq-odob to'g'risida gapirganda, axloqiy ong nimaligani ham bilish kerak. Axloqiy ong- kishilarning jamiyatdagi axloqiy xatti-harakatlari, yurish-turishlari, yashash qoidalari, tamoyillari, shuningdek, ularning o'zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy guruhlarga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi qarashlari, tasavvurlari, nazariyalarining jamidir. Axloq-odob axloqiy qarashlarni bilish va anglash orqali shakllanadi. Axloqiy ong, axloq, odobning mazmuni, mohiyati, jamiyatdagi kishilar hayoti, faoliyati, taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati to'g'risidagi qarashlar g'oyalarning tizimidir. Axloq – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisidir. Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Ma'rifat deganda nimani tushunamiz? Ma'rifat-pedagogika nuqtai nazaridan ta'lim va tarbiya so'zlarining qo'shma birligini bildirib, ta'lim-bilim berish, tarbiya esa olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishlik ya'ni olingan bilimlarga ko'nikma hosil qilish, avlodlar tarbiyasini odamlarga o'rgatish ma'nosida talqin etiladi. Ma'rifat – ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – jamiyat va insonlarni ma'rifatli qilish uchun kurashuvchi, ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir. Ma'rifat qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf qiladi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat ato etadi. Shuning uchun barcha zamonlarda ozodlik uchun kurashuvchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb bildilar va ma'rifat uchun kurashdilar.

O'tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg'oniy, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Buxoriy, Termiziy, Marg'iloniy, Motrudiy, Zamaxshariy va boshqalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallabgina qolmay, uni, ya'ni ma'rifatni keng targ'ib etganlar, o'rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar. Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Is'hoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma'rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Ma'rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir", - degan g'oyasi ma'rifatparvarlik harakatining dasturini tashkil etgan.

Ma'rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug'lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma'rifatli bo'lish, insonlar turli sohalarda qiyinchilikka duch kelganda moddiy va ma'naviy jihatdan g'alaba qilishi uchun zarur. Bilimsiz, ma'rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma'rifat keng ma'noda, odamlarga bilim berish, ko'nikma va malaka hosil demakdir. U ma'naviyatni shakllantiruvchi, jamiyatning yaratuvchanlik,



bunyodkorlik quvvatini oshiruvchi inson faoliyati sohasidir. Boshqacha aytganda, ma'rifat jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan inson faoliyatini qamrab oluvchi tushunchadir.

Ma'naviyat har doim ma'rifat bilan, ya'ni bilim bilan uyg'un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg'unligiga erisha olsakina yoshlarimizning ma'naviy barkamol, iymon-e'tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo'lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqida Abu Hamid Muhammad G'azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar "Ilm bo'lgach, amalga hojat yo'q qablida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o'zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilar e'tiqodi bo'lib, ular uchun ilm hosil bo'lsa-yu, amal bo'lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo'qligini bilishmaydi. Holbuki o'qib o'rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir".

Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan, ma'naviy barkamol, komil zotlar o'zlarida ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo'lganlar. Ular ma'naviyat va ma'rifat chiroqlarini mash'ala singari yoqqanlar. Yuksak ma'naviyat va ma'rifat tufayli Turon zamini yer yuzida shuhrat qozongan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo'li mana shu yo'l bundan boshqa yo'l yo'q. Ma'naviyat va ma'rifat xalqimizning, millatimizning, Vatanimizning porloq kelajagi uchun suv va havodek zarur. Ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro birligi, uyg'unligi, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishlarimizni birga olib borish taraqqiyotimiz taqazosi. Ularni bir-biridan ajralgan holda, boshqa-boshqa olib borib bo'lmaydi. Zero, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi", chunki inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas... Bu so'zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlanmoqda".

Ma'naviyat va ma'rifat, uni egallash masalasiga yondashuvga hadislarda aytilgan "Bu dunyoni deb, u dunyoni, oxiratni deb, bu dunyoni unutmang" degan mazmundagi naqlini hech qachon esdan chiqarmasligimiz zarur. Chunki tarix va hayot tajribasi dunyoviy va diniy qadriyatlar, ilm ma'rifat doimo bir-birini to'ldirib, boyitib kelganligi shu asosda kishilar ma'naviy kamolot cho'qqilariga erishganligidan dalolat beradi. Ma'naviy va ma'rifiy qashshoqlik bilan hech bir millat, u yashayotgan mamlakat hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy taraqqiyotning yuksak cho'qqilariga erisha olmaydi.

### **Ma'naviyat va ma'rifatning ahamiyati haqida namunalar:**

Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. **Sh.M.Mirziyoyev**

Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymonirodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch... **I.Karimov**

Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. **I.Karimov**

Ma'naviyatni anglash o'zlikka qaytish demakdir. I.Karimov. **I.Karimov**

Har bir kishining qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishida.  
Beruniy Oldiga qo'rganini yemak – hayvon ishi,  
Og'ziga kelganini demak – nodon ishi. **Alisher Navoiy**

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot,  
yo najot – yo halokat,  
yo saodat – yo falokat masalasidir. **A. Avloniy**

Ma'naviyat olamida badavlat xalqimiz,  
Ma'rifat tarqatgan donishmand Sharqimiz.  
Yigitlikda yig'ilmning mag'zini,  
Qarilik chog'i harjt qilgil ani. **A. Navoiy**

Zabt etayin desang sen ilmu hunar,  
Inson, kamolin et o'zingga rahbar.  
Bedil Agar kim ilmdan kiygay toj,  
Ul bosh osmondan undiradi boj. **X.Dehlaviy**

Insonning qimmati emas simu-zar,  
Insonning qimmati ilm ham hunar.  
Bedil Ilm inson ko'zini ochar, qulog'in ochar,  
Fan miyaga idrok bilan yorug'lik sochar. **M. Shayxzoda**

Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotdir, Ilm inson uchun g'oyat oliy muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir. **A. Avloniy**

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
3. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: O'zbekiston, 1993
4. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. T.: Ma'naviyat, 1997

5. Imomnazarov M. Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent: Sharq, 1996
6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T.: Sharq, 1999
7. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: Universitet, 1998
8. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T.: Sharq, 2001
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi, 1992
10. Bo'ri Ziyomuxammadov. Ma'rifat asoslari. T.: Chinor EHK, 1998
11. Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. T.: Kamalak, 1991
12. Abu Hamid Muhammad G'azzoliy. Oxiratnoma. Buxoro, 1992. Uch buyuk qadriyat: MA'NAVIYAT

## **TASVIR ORQALI HIDNI HIS QILISH MUMKINMI?**

**Mahkamboyev Sarvarbek Shamsiddinovich,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
2-bosqich "Kino va televideniye rejissyorligi"  
yo'nalishi magistranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola hujjatli va ilmiy-ommabop filmlarda badiiy film unsurlarining qo'llanilishi: film kompozitsiyasi, kadr, musiqa, ovoz va hatto hidni tasvir orqali tomoshabinga his qildirish usullari haqida

**Kalit so'zlar:** kino, film, intervyu, kadr, rejissor, musiqa, televideniye, ovoz, dramaturgiya, makro plan. **Аннотация**

Данная статья об использовании элементов художественного кино в документальных и научно-популярных фильмах.

**Ключевие слова:** кино, фильм, интервью, кадр, режиссёр, музыка, телевидение, звук, драматургий. макро план.

### **Annotation**

This article is about the use of feature film elements in documentaries and popular science films.

**Key words:** cinema, film, Interview, frame, director, music, television, sound, dramaturgy, Macro cinematography.

Kino san'ati vaqt va inson his-tuyg'ularini mohirona boshqara oladigan noyob san'at turiga kiradi. Filmda qahramonlarning har xil holatini: bo'g'iq va rangsiz kadrlarda uning qayg'uli, hech qanday shtativsiz qo'lda olingan titroq kadrlarda qahramonning stress hamda hayajonli, musiqalar orqali uning xursand yoki g'amgin holatini, shovqin, ya'ni ovoz bilan mohirona ishlagan holda, bomba portlagandan keyingi shok vaziyatga tushib qolgan askarning holatini, yoki bo'lmasa umuman kar insonning bu dunyoni qanday ko'rishini tasvirda ifodalab berish mumkin. Tasvirda rakurslar, rapid kadrlar orqali qahramonni ulug'vor yoki ko'rimsizgina salobatsiz

insonga ham aylantirish mumkin. Kinoda barcha jarayonni amalga oshirsa bo'ladi, ammo ular orasida ta'm, biron narsani ushlagandagi holatyoki hidni tomoshabin ham his qila oladigan darajada ko'rsatish ancha mushkul vazifalardan biri. Lekin buning iloji yo'q degani emas.

To'g'ri filmda har doim ham joyning hidini sezdirishga zarurat bo'lishi shart emas. Ammo u biror personajning xarakterini, joyning sharoiti yoki aynan hid orqali qandaydir masalaga yechim topilib, qahramonni oldinga undaydigan vaziyat bo'lsa, albatta uni tomoshabinga ham his qildirishga jiddiy yondashish, filmning kuchi hamda qadrini shubhasiz oshiradi. Hidni ifodalashning oddiyroq usullaridan biri bu so'z orqalidir, ya'ni qahramon o'zi his qilayotgan hidni so'zi orqali tasvirlab berishi zarur. Xuddi "Ayol ifori" ("Zapax jenshini") filmidagi (restorandagi epizod) Al Pachino ijro etgan qahramon singari. Lekin bu biroz dangasaroq usuli. Yana qahramonining reaksiyasi orqali ko'rsatish usullari mavjud. Masalan, filmdagi sahna badbo'y manzarani aks ettirsa, har doimgidek burnini berkitishi, yoqimli hid bo'lsa ko'zlarini yumgancha chuqur nafas olib ushbu hiddan bahramand bo'lishi, o'ta badbo'y bo'lsa hatto qayt qilish darajasigacha olib borish mumkin. Eng asosiysi buning uchun qahramon mohir aktyor bo'lishi va tomoshabinni o'zi o'ynayotgan rolga ishonтира olishi zarur. Shundagina tomoshabin qahramon bilan birga kulsa kuladi, yig'lasa qo'shib yig'laydi, hushbo'y hiddan bahramand bo'lganda yoki badbo'y hiddan asabi buzilganda ular ham xuddi qahramonlar singari filmdagi vaziyatni his qilishadi. Axir filmning asosiy vazifasi tomoshabinga hidni his qildirish emas, o'sha hidga qahramonning munosabati orqali vaziyatga baho berishdan iborat. Asosiysi o'sha hidni tuyganda qahramonda qanday his-tuyg'u paydo bo'lganini tomoshabinga yetkazib berish muhimroq, nazarimda.

Qahramonning hushbo'y hiddan rosmana bahra olayotganini ko'rgan tomoshabin o'zi eng yoqtirgan hidni tasavvur qilib, film qahramoni bilan birga shu epizoddayashaydi. Xuddi shunday tasavvuridagi eng badbo'y hidni his qilgandek, qahramoni bilan birga undan jirkanadi.

Hidni ayniqsa, multfilmlarda tasvirlash ancha osonroq. Hushbo'y pishloq hidi sariq tutun bilan, badbo'y hid esa yashil tutun bilan ifodalanadi. Bu tutun multfilm personajlarining burniga yetib borganda ular bu hidga munosabat bildirishadi. Ayrim hollarda o'sha hidlarga ham jon kirgizishadi, ya'ni hushbo'y hid bo'lsa, sariq tutun chiroyli qizning qo'li shaklida uning burnini mayin silaydi, badbo'y yashil hid esa boks qo'lqopiga aylanib multfilm personajining tumshug'iga tushiradi. Yoki "Ratatuy" multfilimidagi sichqon ko'zlarini yumgancha pishloq va qulupnayni qo'shib yeganda, ajoyib ta'm tufayli uning ichida klassik musiqa sadolari ostida rang-barang jiloli salyutlar otiladi.

Multfilmlarda shunga o'xshash ajoyib hamda qiziqarli usullar orqali hid va ta'mni qanday ekanini tomoshabinga yetkazishadi. Kinoga bunday uslubni shundayligicha ko'chirsak hamma janrlarga ham mos kelmasligi va bir oz tomoshabinga erish tuyulishi mumkin. Ammo bu uslublarni bir oz kinobop qilinsa va kino tilga murojaat qilgan holda bundan-da, qiziqarli usullarini topsa bo'ladi, albatta.

Masalan, “Xarobadan chiqqan millioner” filmidagi bosh qahramon qo‘lida Amitabh Bachchanning suratini ko‘targan holda axlat to‘la hojatxonaga o‘zini tashlagan joyini esga olaylik. U yerda badbo‘y hidlar bo‘ladigan joydagi barcha detallarni jamlashgan. Badbo‘y hid taraladigan joyning obrazini yaratishgan, ya’ni vizillab turgan pashsha, itning chala chirigan o‘ligi, atrofdagi axlat uyumini ko‘rsatish orqali tomoshabinning miyasida o‘z-o‘zidan o‘sha yerda bo‘lganimda qanday hidlarni sezardim, - degan fikr paydo bo‘ladi. Qolaversa, axlatga o‘zini tashlayotgan bolakayning kiyimi toza bo‘lgani uchun tomoshabinda bu ishni qilmaslik xohshini oshiradi. Bolacha esa axlatga sakraganda “bilchchillagan”, ya’ni qo‘pol bo‘lsa ham axlat bosgandagi ovoz keladi. Tomoshabinning yuzida beixtiyor irganish ifodasi paydo bo‘ladi. Hidni tasvirlashning yana bir meynstrim filmlarga xos bo‘lgan ajoyib yo‘lini Tom Tikver o‘zining “Parfyumer: Istoriya odnogo ubiysi” filmida namoyish etolgan.

Patrik Zyuskinning bu romani asosida film yaratib bo‘lmaydi deyishardi. Chunki unda judayam ko‘p turli iforlar ta‘riflangan. Romanning asosi hidga aloqador voqealardan tashkil topgan. Shuning uchun bu romanni ekranlashtirish befoyda deb bilishardi. Ammo rejissor Tom Tikver va operator Frank Grike bunga ajoyib yechimlar topib tarixdagi eng ajoyib filmlardan birini suratga olishga muvaffaq bo‘ldi.

Film hid bilish qobiliyati oddiy odamlarnikidan anchagina yuqori bo‘lgan parfyumer yigit haqida. Filmida ranglar orqali hidning, atmosferaning holatini ochib berishgan. **Parfyumer** yigit tug‘ilgan Fransiyaning XVIII asrdagi eng badbo‘y bozoridagi ranglarda: bo‘g‘iq, kulrang, sovuq atmosferani beruvchi ko‘chalar orqali tasvirlanadi. **Parfyumer** katta shaharga borganda esa filmga rang-baranglik qo‘shila boshlaydi. Ya’ni yigit eng yoqtirgan hushbo‘y hid keladigan detallar rangli ko‘rsatila boshlaydi. Qancha hushbo‘ylik darajasi yuqori bo‘lgan narsaga kuchliroq rang kira boshlaydi. Filmida super yirik planlardan va ovozlardan mohirona foydalanilgan. Yigit his qilayotgan narsaning hidi, masalan, olma bo‘lsa uning super yirik planigacha, ya’ni kameradagi planni (nayezd) yaqinlashtirib po‘stlog‘idagi eng kichik detallarigacha aniqlik bilan ko‘radigan darajaga keladi. Olmaning tishlaganda qarssillab suvi oqqan kadri va ovozi miyada uning hushbo‘y hidini o‘z-o‘zidan uyg‘otadi. Nihoyat, u, o‘zi izlagan iforni topganda batamom kontrastlik vujudga keladi. Rangsiz, kulrang atmosfera hamda yag‘ir kiyimlarda panjara ortida turgan parfyumer va hashamatli xonasida kiyinayotgan oppoq tanali, sochlari qizil rangdagi go‘zal boyning qizi. U shu qizning iforiga intilib keladi. Bu yerda qiz rangli qilib suratga olinganki, havorang ko‘zining ichidagi qorachig‘ini kengayishigacha bemalol ko‘ra olasiz. Eng qizig‘i, hattoki hid bo‘lib ham kadr qo‘yilgan, ya’ni g‘alati eshitilsa ham hidga subyektiv kamera qo‘yilgandek qilib suratga olingan. Hidni bolaning burniga yetib kelishi, hid qanday harakatlanishigacha tasvirlangan. Buni ajoyib manzara deyish mumkin.

Hozirda texnika taraqqiy etgan davrda grafika orqali ham his-tuyg‘ularning ifodasini ko‘rsatib berish mumkin. Aynan “**Parfyumer**” filmida ham shu uslub o‘rinliqo‘llanilgan. Yigitning, **parfyumer** ustozi, u yaratgan atirni hidlab ko‘rganida, iforning hushbo‘yligidan xayolan o‘zi eng chiroyli deb biladigan tabiat qo‘yniga borgandek bo‘ladi. Atrofta turfa ranglar jilolanadi. Bu ham hushbo‘y hidni ifodalashning samarali usullaridan biridir.

1967-yili Gollivudda “Ifor siri” (“Zapax tayni”) nomli detektiv film yaratilgan. Bu filmda ham hid muhim rol o‘ynagan. Aynan ushbu film uchun prodyusserlar kinoteatrda “Smell-o-vision” maxsus sistemasini o‘ylab topishgan. Bu filmning ma’lum bir vaqtda, ya’ni hidni tuyish kerak bo‘lgan paytda kinozalga hushbo‘y hid sepadigan maxsus moslama qo‘yilgan. Lekin film **prokati** muvaffaqiyatsiz bo‘ladi. Chunki ayrim tomoshabinlar sepilgan hid bizgacha yetib kelmadi deb shikoyat qilsa, ayrimlariga bu hid yoqmay, film namoyishi davomida yo‘talib o‘tirishgan. Aslida filmning muvaffaqiyatsiz bo‘lishi bunga bog‘liq emas edi. Shunchaki filmning dramaturgiyasi sayoz, **intrigalarsiz**, qiziqarli xarakterga ega qahramonlarsiz sust ishlangandi. Purkash uslubi nega davom etmaganining sababi esa, sepilgan hid tomoshabinni tasvirda bo‘layotgan voqeadan chalg‘itadi, deb o‘ylayman. Qolaversa hammaning didi har xil. Kimgadir yoqqan hid, kimgadir yoqmasligi tabiiy.

Film tomoshabinning ham fantaziyasini ishlashiga imkoniyat berish kerak. Tasvirdagi voqealarni imkoni boricha tomoshabinning yuragiga yetib boradigan qilib ko‘rsatish, qolganini tomoshabin his qilishiga daxl qilish kerakmas. Toki tomoshabin tasavvuridagi eng hushbo‘y hidni, eng mazali ta’mini, teginganda yuz beradigan holatnitasavvuridan kelib chiqqan holda fantaziya qilolsin.

Aslida filmning muvaffaqiyatli chiqishi avvalo, uning mukammal ssenariysi, rejissorning ajoyib topilmalari, aktyorlarning mohirona ijrosi, **intrigalarga** boyligi, qiziqarli xarakterlarning mavjudligi, yondashuvning noodatiyligiga bevosita bog‘liqdir.

Hujjatli filmlarda ham yuqorida so‘z yuritilgan uslublardan foydalangan holda film olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylayman. Chunki hujjatli filmlarda ham biron bir mashhur atir yoki shokoladning yaralish tarixi haqida film suratga olinganda shunday uslublardan foydalanish filmning qadrini oshirib, umrini uzaytiradi. Hujjatli filmlar tarixni tasmaga muhrlash bilan birga mavjud sharoit va atmosferasini ham to‘laqonli o‘zida mujassam etish kerak, deb o‘ylayman. Shundagina kelgusi avlod ushbu filmlarni qiziqish va eng asosiysi, ijodkorlarga hurmatni saqlagan holda qayta va qayta tomosha qilaverishi aniq.

#### **Adabiyotlar:**

1. Aristotel. Poetika. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr., 1980.
2. Mitta A. Kinoda rejissura va dramaturgiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014.
3. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.

## YANGI MA'NAVIY MAKON

**To'ychiyev Jo'rabek Muqimjon**  
**o'g'li,**  
O'zDSMI tayanch doktoranti (PhD)  
E-mail: Jorabek\_bbb@mail.ru  
Telyefon raqami: 998909306515

### Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda yangi ma'naviy makonni yaratish bo'yicha kerakli ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, Yangi ma'naviy makon, ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj, sog'lom ma'naviy ehtiyoj, ijtimoiylik.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar, amalga oshirilayotgani islohotlarning ko'lami kengligi bilan xarakterlanadi. Jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish o'z navbatida avvalo, yoshlarimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi. Shu o'rinda tarixga bir nazar tashlasak.

Ma'naviyat hamma zamonlarda ham dunyo xalqlarining eng buyuk boyligi bo'lib kelgan va uni har tomonlama mustahkam asrab avaylab avlodan-avlodga bezavol yetkazib kelingan [1]. Bugungi kunning talabi ham tarixiy boy ma'naviyatimizni kelajak avlodlarga sofligicha yetkazish har bir jamiyatimiz fuqarosining oldidagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi dunyoda barqaror taraqqiyotga erishishning eng muhim vazifalaridan biri sifatida "yangi ma'naviy makon"ni yaratish lozimligi to'g'risida alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimiz rahbari ushbu kitobida shunday deydi: "Yangi ma'naviy makon nima?" Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir [2].

Haqiqatdan ham bugungi yangilanayotgan O'zbekiston jamiyatida barcha sohalarda kechayotgan islohotlar taqdiri, milliy taraqqiyotimiz jamiyatining milliy qiyofasiga bog'liq.

Joriy yilning 10-12-mart kunlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning huzuridagi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati tomonidan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiasida belgilangan maqsad va ustuvor vazifalar" mavzusida respublika o'quv seminari bo'lib o'tdi. Ushbu o'quv seminarda respublikadagi barcha ma'naviy-ma'rifiy sohalarda faoliyat yuritayotgan ma'rifat targ'ibotchilari va ziyolilar ishtirok etishdi.

Shuningdek, bo'lib o'tkan mazkur o'quv seminar yakuniy hulosasi bo'yicha respublikamizdagi barcha mahallalarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng

ko‘lamli islohotlar va taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar, ezgu maqsadlar hamda bajarilishi lozim bo‘lgan masalalarni keng jamoatchilikka tushintirish ishlarini tizimli tashkil etish masalalari ilgari surildi.

Mahallalarda ijtimoiy ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash maqsadida “Mahallabay” tizimida ishlashga o‘tish, “Bir ziyoli – bir mahallaga ma‘naviy homiy”, “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” kabi tamoyillar yangi ma‘naviy makonni barpo etishda alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Biz bugun yangilanayotgan yangi ma‘naviy makon qachon o‘z natijasini ko‘rsatadi? Qachonki, biz tafakkurdagi xafsalasizlik, ma‘naviy hayotdagi mudroqlik, o‘z shaxsiy maqsadlarimizni jamiyat ijtimoiy mo‘ljaliga uyg‘unlashtirishdagi no‘noqligimizni bartaraf etsakkina, bunday makonga erisha olamiz.

Har bir inson o‘z oldiga maqsad qo‘yishi va unga ishonch hissi uyg‘onishi, yangi ma‘naviy makonning barpo etilishi, fikrimizcha, yana bir muhim muammoning hal etilishiga bog‘liq. Bu insonlarda sog‘lom ma‘naviy ehtiyojning shakllanishiga bog‘liq.

Inson va jamiyat taraqqiyotining asosi, uni rivojlantirishga undovchi kuch ehtiyojdir.

Odatda, ehtiyojlar tabiiy va ma‘naviy turlarga bo‘linadi. Tabiiy ehtiyojlar tana a‘zolarimizning rohatlanishi, ovqatlanish, dam olish kabi bitmas-tuganmas holatlarga bog‘liq. Uning chegaralari juda keng. Ma‘naviy ehtiyojlarni qondirish chegarasi esa yanada kengroq. Ma‘naviy ehtiyojlar bir tomondan shaxsning o‘zining ma‘naviy yetukligiga, kamolotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unlashuvi faoliyat orqali jamiyat taraqqiyotiga o‘z ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi.

Sog‘lom ma‘naviy ehtiyoj insondagi qobiliyat, imkoniyat va iste‘dodni oqilona kuch-qudratga asoslangan holda yuzaga chiqaradi. Inson o‘zidagi bu imkoniyatlarni muntazam ravishda takomillashtirib, yaratuvchilik faoliyatiga safarbar etishi va shu asosda ma‘naviy kamolotiga erishib borishi zarur.

Sog‘lom ma‘naviy ehtiyojlar haqiqatga, go‘zallikka, poklikka, imon-e‘tiqodga, yaxshilikka, adolatga intilish kabi sohalarni o‘z ichiga olganligi uchun bilish ehtiyoji estetik ehtiyoj, axloqiy ehtiyoj, diniy ehtiyojlar shaklida namoyon bo‘ladi. Bu ehtiyojlarning ayrimlari inson sezgilari, tasavvuri, idroki, tuyg‘ulari orqali shakllanadi, boshqalari esa tafakkur jarayoni bilan bog‘liq tarzda kechadi.

Yoshlarning sog‘lom ma‘naviy ehtiyojini har tomonlama asoslangan mafkura, insoniylikka tayangan milliy g‘oya asosidagina shakllantirish va qondirilishiga erishish mumkin. Chunki milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an‘analariga, udumlariga, dunyoqarashiga, tafakkuriga, tiliga, milliy qadriyatlariga asoslangan.

Biz bugun Yangi O‘zbekistonda yangi ma‘naviy makonni barpo etishga kirishar ekanmiz, shubhasiz, ana shunday makonni yaratishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishimiz muhim. Buning uchun, **birinchidan**, fuqarolarimizning bugungi ma‘naviy qiyofasi holatini, darajasini o‘rganishimiz lozim. Ya‘ni bugungi aholi, ayniqsa, yoshlarimizda o‘z ma‘naviy olamini yuksaltirishga ehtiyoj bormi, bor bo‘lsa ular nimani o‘qimoqchi, qaysi kino, sahna asarini tomosha qilmoqchi, madaniyat va



san'atning qanday janrlarida o'zini sinab ko'rmoqchi? Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, biz bugungi fuqarolarimizning ma'naviy portretini shakllantirishimiz kerak.

**Ikkinchidan**, yoshlarimizning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ularga yurtimizda bir necha asrlar davomida yaratilgan, to'plangan madaniy-ilmiy boyliklardan emin-erkin foydalanishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratishimiz lozim. To'plangan madaniy-ilmiy merosdan foydalanish, ularni mukammal o'zlashtirish, fuqarolarimizda, ayniqsa, yoshlarimizda mutafakkir ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissasidan fahrlanish tuyg'usini uyg'otadi, natijada ana shu merosni yanada boyitishga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Bugun mamlakatimizda vujudga kelayotgan yuksak yangi ma'naviy makonning poydevori avvalo, ijtimoiylik, ma'naviy yetuklik, axloqiy poklik, va insonning vijdon amri bilan yashashi tufayli quriladi. Ma'naviy makonda inson o'zini o'zi ruhiy jihatdan yenga oladi, turli lazzatlardan ongli ravishda voz kechadi. Ayni paytda u o'zining ma'naviy barkamolligi natijasida jamiyat talablari va davlat qonunlariga so'zsiz amal qiladi, umummilliy manfaatlar yo'lida ma'naviy mardlik ko'rsatishga tayyor bo'ladi. Yangi ma'naviy makonda inson tanasi uning ruhiga bo'ysinadi.

Mazkur fenomen hodisa Yangi O'zbekistonning yangi mazmunga ega bo'lgan yangi qadriyatidir.

#### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – "O'zbekiston" nashriyoti, –T., 2021, 276 bet.
2. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". – "O'zbekiston" nashriyoti, –T., 2011, 124 bet.
3. Mavrulov A. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-y, 28-dekabr, 263 son.

### **ZAMONAVIY O'ZBEK KINOSINING BUGUNGI KUNDAGI YUTUQLARI**

Azizova Shaxnoza Agzamovna  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti  
Kutubxona-axborot faoliyati yo'nalishi  
bo'yicha 4-kurs talabasi

Elektron pochta: [tutah94@gmail.com](mailto:tutah94@gmail.com)

Telefon raqami: +998(97)7277990

#### **Annotatsiya**

Maqolada O'zbek kinosining bugungi yutuqlari haqidagi qarashlar yoritilgan. O'zbek kinosi durdonalariga aylanib borayotgan filmlarning xalqaro hamjamiyatda qanday o'rinlarga sazovor bo'layotgani yoritilgan. O'zbek kinosining so'ngi yillardagi rivojlanish bosqichlari va istiqbollari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kino, o'zbek kinosi, xalqaro, rivojlanish, eng yaxshi asar.

### Аннотация

В статье рассматриваются современные достижения узбекского кинематографа. Подчеркивается роль фильмов, ставших шедеврами узбекского кинематографа, в мировом сообществе. Приводится информация об этапах развития и перспективах узбекского кино в последние годы.

**Ключевые слова:** Кино, узбекское кино, международное, развитие, лучшее, произведение.

### Annotation

The article discusses the current achievements of Uzbek cinema. It highlights the role of films that are becoming masterpieces of Uzbek cinema in the international community. Information is provided on the stages of development and prospects of Uzbek cinema in recent years.

**Key words:** Cinema, Uzbek cinema, international, international, best, work.

Zamonaviy o‘zbek kinosining bugungi kundagi yutuqlari avvalo mamalakatda olib borilayotgan adolatli siyosat va ajoyib islohotlar natijasida amalga oshmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 8-avgustdagi “Milliy kinomatografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va uning ijrosi fikrimizning yaqqol dalilidir [2]. Qarorni ijrosini ta‘minlash uchun O‘zbek kinomatografiya agentligi, “O‘zbekfilm” studiyasi bilan hamkorlikda xalqimiz uchun manzur bo‘lgan filmlar yaratildi. Jadidlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Behbudiy”, “Avloniy” [4], “Abdulla Qodiriy” [6], “Ibrat” kabi filmlar sahnalashtirildi [4]. Ikkinchi jahon urushi davrini yanada kengroq ochib berish uchun “Ilhaq”, “Berlin Oqqo‘rg‘on” kabi badiiy filmlar dunyo yuzini ko‘rdi. Tarixiy janrlardagi “Islomxo‘ja” va “Elparvar” nomli filmlar suvratga olindi. Kino sohasidagi so‘ngi yillardagi o‘zgarishlar ayniqsa salmoqli bo‘lmoqda. Jumladan 2021-yilning 8 sentabridan-3 oktabrigacha O‘zbekistonning qator shaharlarida “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali o‘tkazildi. Festival doirasida dunyoning 13 mamlakati – Ozarbayjon, Belarus, Misr, Isroil, Hindiston, Italiya, Eron, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Polsha, Rossiya, Tojikiston, Turkiya, O‘zbekiston va jahon kinosi premyeralari bo‘lib o‘tdi [5]

Bu 13 mamlakat vakillari ishtirokidagi filmlarning premyerasi 29-sentabrdan boshlab mamlakatning barcha kinoteatrlarida namoyish etildi. Namoyishlar doirasida yosh kinoijodkorlar bilan ijodiy uchrashuvlar, taniqli rejissor va ssenariy mualliflarining ma‘ruzalari va mahorat darslari ham o‘tkazildi. Yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlardan 150 dan ortiq taniqli kinoijodkorlar Toshkent va O‘zbekistonning turli shaharlaridan ishtirok etishdi. Ular orasida rejissorlar, aktyorlar, namoyish etilayotgan filmlar prodyuserlari, kinoprokat kompaniyalari, xalqaro kinofestivallar va tashkilotlar vakillari ham bo‘lib, ijodkorlar bilan jahon kinosi bo‘yicha fikr almashildi [7]

Kinofestival doirasida o‘tkaziladigan tanlov g‘oliblari diplomlar, statuetkalar, pul mukofotlari bilan taqdirlandi. Jumladan:

Gran-pri – Sherzod Nazarov “Ipak yo‘lida” filmi uchun;

“Ipak yo‘li durdonasi” – Pak Su Min “Takror xotiralar” filmi uchun;

Hay‘atning maxsus sovrini – Saida‘lo Ma‘sudxonov “Ob‘ektiv” filmi uchun;

“Eng yaxshi rejissyorlik ishi uchun” – Xuan Antonio Martines “Bir juft poyafzal” filmi uchun;

“Eng yaxshi ssenariy uchun” – Vanja Viktor va Kabir Tognola “Tovuqli kechki ovqat” filmi uchun;

“Eng yaxshi erkak roli uchun” – Tursunboy Pirjonov “Ipak yo‘lida” filmi uchun,

“Eng yaxshi ayol roli uchun” – Madina Mahmudova “Obyektiv” filmi uchun.

Kinofestivalning “Dunyo yoshlari kinosi Yangi O‘zbekistonda” ko‘rik-tanlovi g‘oliblari:

“Eng yaxshi film” – Manzarali Sherah “Yuk” filmi uchun;

“Eng yaxshi rejissyorlik ishi uchun” – Dmitriy Semyonov “Franka” filmi uchun;

“Eng yaxshi erkak roli uchun” – Abdulkarim Mashrab “Yuk” filmi uchun;

“Eng yaxshi ayol roli uchun” – Marina Poddubnaya “Franka” filmi uchun [8].

Kino sohasini rivojlantirish uchun 2021-yil 6-8-dekabr kunlari Qozog‘istonda “O‘zbek kino kunlari” bo‘lib o‘tdi. Unda taniqli kinoijodkorlardan iborat o‘zbek delegatsiyasi ham ishtirok etishdi. Kinematografiya agentligi tomonidan suratga olingan o‘zbek filmlari Qozog‘iston milliy telekanallarida namoyish etildi. O‘zbek telekanallarida esa qozoq milliy filmlarining namoyishlari bo‘lib o‘tdi [9].

Mazkur tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga tashrifi chog‘ida madaniy hamkorlik aloqalarini yanada tiklash maqsadida tashkil etildi.

2021-yil 8-12-noyabr kunlari esa Turkiyada “Korkut Ata” turkiy tili davlatlar xalqaro kinofestivali o‘tkazildi. Mazkur kinofestivalda Rashid Malikovning Kinyematografiya agentligi buyurtmasiga binoan suratga olingan “Tutqunlik” filmi hay‘at azolarining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi. Ali Hamroyevning “Xalq jasorati” filmi esa hujjatli kino yo‘nalishida ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, kinomatografiya agentligi Bosh direktori Firdavs Abduxoliqovga “Turkiy dunyo madaniyatiga qo‘shgan hissasi uchun” maxsus mukofoti topshirildi. Bu festivallar O‘zbek kinosini xalqaro darajaga olib chiqish uchun ajoyib namoyishlarning boshlanishi **bo‘la boshladi** [10].

Yangilanayotgan yurtimizda barcha sohalarga e‘tibor qaratilib, “Inson qadri uchun...” nomli yuksak gumanizm g‘oyalariga e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yaqin tarixda kinomatografiya sohasidagi keng ko‘lamli islohotlar natijasida qator milliy filmlarning xalqaro kinofestivallarda muvaffaqiyatli namoyish etilib, nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘la boshladi. Jumladan, 2006-yil rejissor Yusuf Roziqovning “Cho‘pon qiz”, 2011-yilda rejissor Yolqin To‘ychiyevning “O‘smir” filmlari Vezul (Fransiya) shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro kinofestivalning Gran-prisiga sazovor bo‘lgan. 2009-yilda rejissor Ayub Shahobiddinovaning “O‘tov” filmi Kemer shahrida (Turkiya) o‘tkazilgan Xalqaro kinofestivalning Gran-prisi, 2013-yilda “Parizod” filmi Nyu-Yorkda (AQSH) o‘tgan Yevrosiyo kinofestivalida “Eng yaxshi rejissorlik ishi uchun” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib bo‘ldi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumatining kino sohasiga oid imzolagan rasmiy qarorlari va olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlari o‘z ijobiy natijasini bermoqda. Bugungi kunda respublikaning kino sohasi “oddiy davr”ni ortda qoldirdi. Agar so‘nggi

besh yil ichida budjetdan ajratilgan mablag'lar evaziga 60 dan ortiq badiiy film suratga olingan bo'lsa, mustaqil va tijorat tuzilmalari ayni shu davr ichida 200 dan ortiq badiiy filmlarni suratga olishga muvaffaq bo'ldi [8].

Ijodkor borki, qilgan ishi ko'zga ko'rinishini, odamlar tiliga tushishni istaydi. Siz katta roman yozasizmi yoki kichik lavhani suratga olasizmi, farqi yo'q, baribir odamlardan maqtov, shirin gap, e'tirof kutishingiz tabiiy. Ana shunday yoqimli hislarga bir qator kino ijodkorlarning ishlari jahon kinosiga aylanib, xalqaro Gran-prilarga munosib ko'rilmogda. Masalan: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida dotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Jahongir Ahmedovning Prezidentimiz topshirig'iga binoan tasvirga olingan "Ilhaq" filmi Belarusda o'tkazilgan "Listopad" xalqaro Minsk kinofestivalida Gran-pri va Belarus Respublikasi Prezidentining Kinoda ma'naviyat va insonparvarlik g'oyalari uchun maxsus mukofoti bilan taqdirlandi [3].

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1-bosqich magistranti, yosh rejissor Shokir Xoliqov animatsion filmlar vatani bo'lgan Yaponiyada bir yo'la ikki mukofotni qo'lga kiritdi. Yaponiyada o'tkazilgan DigiCon6 Asia animatsion filmlar festivalida Shokir Xoliqovning "Qiz va Bulut" animatsion filmi ikki mukofotni: "Mintaqaning oltin filmi" va "Festivalning oltin filmi" mukofotlariga sazovor bo'ldi hamda 3 ming dollar pul mukofoti bilan taqdirlandi [3].

Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Shokir Xoliqov bungacha 40 dan ortiq xalqaro festivallar g'olibi bo'lgan edi. U boshchiligidagi o'zbekistonlik yosh kinoijodkorlar tomonidan ishlangan qisqa metrajli "Messi" nomli filmi ham "48 Hour film race" festivalining biryo'la ikkita mukofoti "Eng yaxshi film" hamda "Eng yaxshi drama" nominatsiyalari bo'yicha g'olib deb topilgan [3].

Rejissorlik (kino va televideniye rejissyorligi) yo'nalishi 3-kurs talabasi Eldor Qudratullayevning "Dunyo va men" filmi Hindistonda o'tkazilgan kinofestivalda "Faxrli film" nominatsiyasida g'olib deb topildi. Shuningdek, u Sankt-Peterburgda o'tkazilgan Pavel Kadochnikov nomidagi san'at festivalida "Eng yaxshi ssenariy muallifi" deb topildi. Eldor Qudratullayevning to'rtta filmi Turkiyada o'tkaziladigan "Rofife" xalqaro kinofestivalida g'oliblik uchun raqobatlashayotgani haqida xabar berildi. *Jumladan, "He and He" filmi "Eng yaxshi studentlik ishi" nominatsiyasida, "Me and me" filmi "Eng yaxshi eksperimental film" nominatsiyasida, "World and me" filmi "Eng yaxshi qisqa metrajli film" nominatsiyasida hamda "This is my world" filmi "Eng yaxshi hujjatli film" nominatsiyasida g'alaba qozonish uchun bellashdi [3].*

Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Kino, televideniye va radio rejissorligi" kafedrasida "Rejissorlik (kino va televideniye rejissorligi) yo'nalishi 2-bosqich talabasi Bobosoliyev Mirzoxonning "Muhtoj" filmi Buyuk Britaniyada o'tkazilayotgan "Sessions 2022. Lift off global network" xalqaro qisqa metrajli filmlar festivalining saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tib, yakuniy **bosqichga yo'l oldi**. Endilikda talabamiz suratga olgan film g'oliblik uchun kurashadi. Ushbu festivalda bir nechta yo'nalishlar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi. G'oliblarga Buyuk Britaniyada festival tashkilotchilari tomonidan ish taklif qilinadi [3].

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbek kinosida ham katta-katta o‘zgarishlar va rivojlanish kuzatilayapti. O‘ylaymizki, o‘zbek kinosi yanada yangi marralarni zabt etib, dunyo kino asarlarining shoh asarlaridan o‘rin egallaydi va nafuzli xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. <https://dsmi.uz/yangiliklar/o-zdsmi-talabasining-navbatdagi-xalqaro-mukofoti>
2. <https://lex.uz/docs/-3298092>
3. [https://t.me/dsmi\\_uz/19047?single](https://t.me/dsmi_uz/19047?single)
4. [http://asilmedia.tv/films/ozbek\\_kinolar/page/2/](http://asilmedia.tv/films/ozbek_kinolar/page/2/)
5. <https://darakchi.uz/oz/77985>
6. <https://uzbekkino.uz/uz/press/news/abdulla-odirij-uzhzhatli-filmi-premera-ilindi-83>
7. <https://uzbekkino.uz/uz/press/news/ipak-jli-durdonasi-toshkent-halaro-kinofest>
8. <https://uzbekkino.uz/uz/cinema/history>
9. <https://sof.uz/uz?fbclid=IwAR3lRbnG4tu6JEQ7HKouLd6Yk3c3BWx3LxVtoUGe80hhVRoUbRp5Ab1meRk&load=1530>
10. <https://daryo.uz/2021/11/12/turkiyada-o%CA%BBzbek-kinosi-kuni-bo%CA%BBlib-o%CA%BBtdi/>

## **ARTISTIC CULTURE AS A SPECIAL FIELD OF CULTURE**

**D. Ikramova,**

Self-sufficient competitor of the State Institute  
of Arts and Culture of Uzbekistan

#### **Annotation**

The article discusses the concepts of artistic creativity, artistic thinking, the structure of artistic culture and that artistic culture is a separate area of culture.

**Keywords:** artistic culture, artistic thinking, artistic style, artistic image, artistic method.

#### **Аннотация**

В статье рассматриваются понятия художественное творчество, художественного мышления, структура художественной культуры и что художественная культура является отдельной областью.

**Ключевые слова:** художественная культура, художественное мышление, художественный стиль, художественный образ, художественный метод.

Artistic culture is a complex, multifaceted phenomenon associated with various artistic and creative aspects of human creation, arousing interest as an object of study, terminologically began to be comprehended from the second half of the last century [1].

Structural art culture includes:

- appropriate artistic creativity (both individual and group);

- its organizational infrastructure (creative associations and organizations for placing orders and selling art products);
- its physical infrastructure (production and demonstration sites);
- art education and advanced training;
- art criticism and scientific art criticism;
- artistic images;
- aesthetic education and enlightenment (a set of means to stimulate the interest of the population in art);
- restoration and preservation of artistic heritage;
- technical aesthetics and design;
- state policy in this field.

**Art occupies a central place in artistic culture** - literature, painting, graphics, sculpture, architecture, music, dance, art photography, arts and crafts, theater, circus, cinema, etc. Artistic works are created in books, paintings, sculptures, performances, films, etc. In the scientific literature there is no consensus on the definition of the elements that make up artistic culture. However, with all the differences in points of view on this issue, all authors include elements such as artistic thinking, artistic style, artistic image and artistic method into artistic culture.

**Artistic thinking** is a special kind of human thinking, a type of intellectual activity that manifests itself in the figurative-sensual comprehension of the world, in the organic synthesis of the results of the action of the rational and emotional mechanisms of imagination. Its basis is the emotional activity of human consciousness, expressed in the ability to build the so-called parallel world, the world of artistic images. [2]

Based on their artistic thinking, each artist forms an artistic style and artistic image. In world art culture, the word «style» is very common. In ancient Rome, the style (stylus) was a pointed stick for writing on tablets covered with a thin layer of wax. Since each person has his own handwriting, it was also called style. Subsequently, this word began to denote special, unique features of the artists' work. At present, the artistic style is a combination of means of artistic expression, creative techniques, due to the main features of the work of the writer, composer, etc.

Various ways of creating works of art are usually defined by the term «artistic method». The artistic method usually means a historically conditioned type of imaginative thinking, a system of principles that govern the process of creating works of art. The determining factors for the formation of the artistic method are considered to be:

- reflected reality in all its richness and diversity;
- artistic and ideological orientation of the epoch and its subjective tendentiousness;
- the artistic potential accumulated by mankind in previous eras and supplemented by modern accents;
- technological possibilities of fixing the artistic image in combination with personal characteristics of the presentation of figurative content [3].



Based on these factors, it becomes clear that the artistic method is not born through artificial construction, it arises as a result of a combination of subjective and objective factors inherent in the corresponding era. Different artistic methods can take shape in the same era. So, for example, the 20th century became a period of coexistence of romanticism, modernism, critical realism and other trends, which, with their various combinations, created their various variants and combinations. Such diversity is explained by the diversity of layers, spheres of life and forms of activity in society, various artistic and worldview values of this historical era.

The place of artistic culture in culture as a whole is determined by significant differences between the material, spiritual and artistic forms of activity. Their differences should not be understood in the sense that one is only and purely material, the other is only and purely spiritual, the third is neither material nor spiritual. There is no doubt that the products of spiritual activity must be materialized - otherwise they simply could not exist, as well as the fact that spiritual goals, plans, models are embodied in material activity. As for artistic creativity, in it the spiritual and the material penetrate each other, forming something third, for they do not simply unite, as in the spheres of material and spiritual production, but organically merge, mutually identify. This spiritual and material integrity is called «artistic».

Consequently, artistic creativity should be interpreted not as a material embodiment inherent in the outcomes of a person's spiritual activity as a result of the work of his thinking, but as thinking in the material, i.e. through the representation of color, plasticity, sound. That is why such thinking cannot be recoded, i.e. translated into another material language, it is impossible to retell either in word or language, another type of art.

The functions of artistic culture, as well as the functions of culture as a whole, are determined by its existence in space and time. In the social space, i.e. in the simultaneous life of the people of the country, region, all mankind, artistic culture is designed to ensure maximum efficiency of both the processes of creativity, the creation of artistic values, and the processes of their perception by the public, in accordance with their various spiritual needs.

If we consider the historical life of artistic culture, i.e. its existence in time, we will see that its main functions are to ensure the protection of artistic values, their transmission from generation to generation, since the historical variability of social life does not lead to the destruction of the artistic heritage, but requires its actualization, its inclusion in the spiritual life of each new era. At the same time, artistic culture must ensure the constant renewal of art in accordance with the changes taking place in public life, in other areas of culture, and the logic of art's own development. Thus, artistic culture is called upon to transmit traditions, creative experience, ways of artistic development of the world accumulated over the centuries and ensure the constant movement of art, its renewal, improvement.

### References:

1. Khamidova M.A., Yusupova N.Yu. Artistic culture, art in the aspect of theoretical understanding. T., «NURON-IQBOL» 2018.
2. Karikh V.V., Ageeva A.A. Artistic thinking as phenomenological. M., 2017.
3. P.V. Sobolev. Artistic culture of personality. Leningrad., 1986.
4. L.N. Kogan. Artistic culture and artistic education. M., 1979.
5. Artistic culture. Terms and concepts. Moscow., 1970.

## РОЛЬ БАЛЕТНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Исаева Галия Абдухатовна,**  
Институт культуры и театрального  
искусства Республики Узбекистан  
Соискатель на степень PhD  
+998909801182

### Abstract

Special attention was paid to the role of the art of choreography in the harmonious development of the spiritual and cultural life of modern Uzbekistan.

**Key words:** Culture, science, ballet art, education, pedagogy, spirituality.

### Аннотация

Особое внимание было уделено роли искусства хореографии в гармоничном развитии духовной и культурной жизни современного Узбекистана.

**Ключевые слова:** Культура, наука, балетное искусство, образование, педагогика духовность.

В богатой и многогранной культуре нашей страны особое место принадлежит Государственному академическому Большому театр имени Алишера Навои, который по праву считается ведущим театром Узбекистана, его национальной гордостью, притягательным центром музыкально-театральной культуры. Приобщая жителей Ташкента и многочисленных гостей республики к высокому искусству оперы и балета, этот театр за многие десятилетия стал одной из вершин национального достояния нашей страны. Театр имеет славную историю, богатую замечательными традициями, творческими поисками и достижениями, открытием новых имён. История театра - мощный фундамент той высокой культуры и мастерства, благодаря которым театр оперы и балета снискал мировую известность. На протяжении почти вековой истории в театре накапливались достижения, шлифовался круг выразительных средств, совершенствовался опыт, вырабатывались и развивались гуманистические принципы.

Театр впитал в себя все богатство национального и мирового классического наследия и создал уникальные образцы узбекского музыкально-



сценического искусства. В частности, в стенах театра обрели сценическую жизнь персонажи классических балетных спектаклей, а также исторические герои узбекского народа, на протяжении веков сражавшиеся за свободу и независимость родной земли от иноземных захватчиков.

Балет - тот вид искусства, в котором недосказанность имеет особый смысл, ведь слова здесь отсутствуют, что, тем не менее, не мешает рассматривать балет как особую форму коммуникативного послания, своеобразный «невербальный нарратив», основанный на пластическом выражении мыслей и чувств.

Научный анализ классического балета в значительной мере затруднён в силу ряда факторов: неравнозначной подготовки аудитории к адекватному восприятию балетного текста, синкретизма средств передачи классического балетного искусства (симфоническая музыка, танец, пантомима, декорации, литературный текст-основа, индивидуальные особенности выражения роли конкретным артистом). Однако специфические особенности классического балета - синкретичность, зрелищность, универсально-национальный язык прочтения, коммуникативная природа действия - наделяют его мощным потенциалом социокультурной востребованности.

Можем ли мы говорить о том, что классический балет выполняет особую функцию медиатора в разнообразии современной художественной жизни, или же речь идёт, скорее, о забвении классического балетного искусства, специфически-одностороннем характере его восприятия немногочисленными группами любителей классического наследия?

Вопрос духовного развития личности всегда являлся актуальным и продолжает таковым оставаться в современном обществе.

Обретение нашей страной государственного суверенитета обозначило начало нового периода в истории Узбекистана. Под руководством первого Президента Республики Узбекистан И. А. Каримова был разработан и осуществлен целый комплекс мероприятий, направленных на дальнейшее развитие сферы культуры и искусства.

За годы независимости в хореографическом искусстве Узбекистана, так же, как и во всех сферах художественного творчества, произошли существенные перемены. Несмотря на сложные экономические условия, связанные с переходом на рыночные отношения, были созданы благоприятные условия для наиболее полного раскрытия творческих способностей молодых талантов, овладения ими богатым творческим опытом предшествующих поколений, продолжения и развития лучших традиций национального искусства, в том числе и в области балетного искусства.

Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-1695 от 8 января 1997 года «О развитии национального танца и искусства хореографии в Узбекистане» явился еще одним проявлением заботы и внимания нашего государства о развитии культуры и искусства, в данном случае – танцевального искусства.

Данный Указ определил новый период в истории узбекского хореографического искусства, имеющего древнюю историю и многовековые традиции.

В принятой по инициативе Президента нашей страны Ш.М.Мирзиёева Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах определены масштабные цели по укреплению и развитию социальной сферы, в том числе культуры, науки, литературы и искусства. В повышении культурного обслуживания населения значительное внимание уделяется театральному, музыкальному и танцевальному искусству.

Следует особо отметить, что государство оказывает поддержку развитию узбекского танца не только как виду творческой деятельности, но и как бесценному культурному наследию узбекского народа.

В Узбекистане уделяется большое внимание сохранению и изучению богатого культурного наследия, пропаганде вклада нашего народа в общечеловеческую цивилизацию.

Значительными вехами в новейшей истории балетного искусства Узбекистана стали такие события, как создание Ташкентской государственной высшей школы национального танца и хореографии, укрепление материально-технической базы ГАБТ им.А.Навои, Расширяется география гастрольных маршрутов, в результате чего балетное искусство Узбекистана, в условиях независимости, получает возможность свободного выхода на мировую сцену. Ведущие солисты и талантливые молодые исполнители достойно представляют национальный танец на престижных международных конкурсах и фестивалях, где удостоиваются призовых мест.

В ГАБТ им.А.Навои активно развивается и международное сотрудничество - для постановки спектаклей были привлечены ведущие балетмейстеры из зарубежных стран,такие как Г. Алексидзе, поставивший спектакль «Хумо» на музыку А.Эргашева,М. Балкан осуществивший постановку спектакля «Дама с камелиями» на музыку А. Хачатуряна,а в сентябре прошлого года на сцене ГАБТа им. А. Навои прошла премьера первого современного балета « Лязги»,постановку которого осуществил немецкий балетмейстер Раймондо Ребек, приглашённый Фондом развития культуры и искусства в Узбекистане, созданный по постановлению Президента Республики Узбекистан от 16 сентября 2017 года № ПП 3325 « О создании Фонда развития культуры и искусства при Министерстве культуры». Обогатившие репертуар театра новые балетные произведения,,в полной мере соответствуют требованиям современного зрителя.

Таким образом, балетное искусство является неотъемлемой составной частью духовной жизни современного Узбекистана. Оно является одной из тех сфер художественной деятельности, где творческие поиски молодого поколения находят своё органическое сочетание с богатым и многообразным художественно-эстетическим опытом, накопленным предшествующими поколениями в области балетного искусства.

Также, одну из ключевых ролей в развитии балетного искусства имеет и образовательная система по подготовке кадров артистов балета, преподавательского состава и научно-исследовательских учреждений. Главной задачей в системе образовательного является попытка заглянуть в будущее, определить основные черты образования, в новом тысячелетии. Во все большей степени XXI век познается нами не просто как межэтапное время мирового календаря - оно подводит нас к осмыслению прошлого и новому пониманию смысла жизни, к объединению наших действий, направленных на создание лучшего будущего. Формирование профессиональной компетентности осуществляется через системно-профессиональное содержание образования, включающее в себя не только перечень учебных предметов, но и профессиональные навыки и умения, которые формируются в процессе овладения методологией науки. Особенно остро это затрагивает сферу искусств, для овладения которым необходимо высокое личное исполнительское мастерство.

В соответствии с вышеперечисленными требованиями, в 1997 году была открыта ТГВШНТиХ для подготовки преподавательского состава в хореографическом училище. В структуре института 3 факультета по трем направлениям специальности первой ступени: педагог-хореограф. Балетмейстер-хореограф и руководитель хореографических кружков, относящихся к кафедре хореографии. Преподавательскую деятельность осуществляли 27 специалистов в области хореографии – заслуженные артисты и деятели искусств, а также специалисты по гуманитарным предметам. Ведущие учреждения высшего образования в сфере танцевального искусства переданы институту в соответствии с указом президента РУз И. Каримовым с целью создания условий для развития творческой молодежи. Но подготовка кадров в основном сводилась к практической деятельности студентов, и первые шаги в научно-исследовательской работе заключались в описании системы методических занятий. Возникла необходимость в создании второй ступени специального образования, т.е. магистратуры. На базе ТГВШНТиХ в 2013 году создается учреждение для получения магистерского образования, научно-педагогический центр исследования узбекской и мировой культуры, фиксации и трансляции истории и развития национального танца, балетного искусства и достижения мировой науки и культуры. Началась подготовка научных кадров по четырем специальностям: педагогов-хореографов, балетмейстерское искусство, руководство хореографических кружков и искусствоведение в области хореографии. Начали работу советы по защите диссертации по теории и истории хореографического искусства, а также научно-исследовательская работа по методологии классического, национального, современного и народного танца.

Постановлением президента Узбекистана: “О мерах кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и дальнейшему развитию потенциала в сфере танцевального искусства”, подписанного Ш.М,

Мирзиёевым 4.02.2020, ТГВШНТиХ была преобразована в Государственную Академию хореографии Узбекистана и была включена в систему министерства культуры в форме Государственного Высшего образовательного учреждения.

Академия хореографии Узбекистана предпринимает системно-организованные усилия, планирует и реализует свою научно-методическую и учебную деятельность в соответствии с обозначенными действиями и приоритетами.

В заключении, следует обратить особое внимание тому, что балетное искусство Узбекистана имеет многогранное развитие, ограниченное не только балетными постановками на сцене ГАБТа, но также укрепляет научно-образовательную инфраструктуру в области хореографии, что влияет на общий подъем духовной и культурной жизни Республики Узбекистан .

## **YANGI O‘ZBEKISTONDA KUTUBXONALAR VA KITOBXONLIKKA QARATILAYOTGAN E’TIBOR**

**Axamatov Abdulla Odil og‘li,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati yo‘nalishi

4-kurs talabasi

[abdullajonahmadov4@gmail.com](mailto:abdullajonahmadov4@gmail.com)

Tel: +9989779899109

Ilmiy rahbar: Zumriniso Kozimova,

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Maqolada Yangi O‘zbekistonda kutubxonalar va kitobxonlik masalalariga qaratilayotgan masalalariga qaratilayotgan e’tibor haqida yoritilgan. Yangi ochilgan kutubxonalar faoliyati, kitobxonlik tadbirlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini yanada rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorining ahamiyati haqida muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Qaror, tashabbus, kitob, kitobxon, kutubxona, bibliobus, book cafe.

### **Annotation**

The article highlights the focus on libraries and reading in New Uzbekistan. There is information about the activities of newly opened libraries, reading activities. They also discussed the importance of the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan «On a comprehensive program of measures to further develop the system of printing and distribution of books, increase and promote the culture of reading and reading».

**Key words:** Decision, initiative, book, reader, library, bibliobus, book cafe.

## Аннотация

В статье освещается внимание к библиотекам и чтению в Новом Узбекистане. Есть информация о деятельности вновь открытых библиотек, программ чтения. Обсуждено также значение Постановления Президента Республики Узбекистан «О комплексной программе мер по дальнейшему развитию системы книгопечатания и распространения книг, повышению и популяризации культуры чтения и чтения».

**Ключевые слова:** Решение, инициатива, книга, читатель, библиотека, библиобус, книжное кафе.

Ma'lumki, Yangi O'zbekistonda yurtboshimiz tashabbusi bilan "Inson qadri uchun" [1] shiori ostida yangicha qarashlar, yangicha qadriyatlar va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi ezgu g'oyalar shakllanmoqda. Kiyingi yillarda mamlakatimizda shunday ezgu g'oyalar asosida katta-katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangidan-yangi binolar, ko'zni quvnatadigan bog'-u rog'lar, zamonaviy infratuzilmaga ega zavodlar, davlatni rivojlantirish dasturlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va san'at, siyosat, mudofaa, tadbirkorlik, so'z erkinligi kabi bir qator sohalar rivojlanmoqda. Ularni esa inson manfaatlariga to'la mos keluvchi qarorlar va farmonlar mustahkamlab borayapti. Jumladan, birgina 2017-yil 13-sentabrdagi: "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini yanada rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar dasturi to'g'risida"gi [2] qarorga asosan so'ngi yillarda axborot-kutubxona muassasalarini ishida yangicha innovatsiyalar kirib kela boshladi. Kitobxonlikni jarayonlari respublika bo'ylab keng targ'ib qilina boshlandi. "Yosh kitobxon" ko'rik-tanloving tashkil qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, Prezidentimizning shaxsan o'zlari 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan video-selektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qildilar va sohalariga taalluqli 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdilar. Bular quyidagilar:

**Birinchi tashabbus** yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha.

**Ikkinchi tashabbus** yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari bo'yicha.

**Uchinchi tashabbus** aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari bo'yicha.

**To'rtinchi tashabbus** aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha.

**Beshinchi tashabbus** xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish masalalari bo'yicha [5].

Tashabbuslar orasida to'rtinchi o'rinda turgan aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari

bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish haqida topshiriq berdilar. Shu munosabat bilan barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida kitobxonlik keng targ'ib qilina boshlandi. Natijada yosh avlodda kitobga bo'lgan qiziqish shakllana boshladi. Faol kitobxonlar guruhi paydo bo'la boshladi. Nashriyotlar ishi jonlanib turli asarlarni keng ko'lamli chop qilish ishlarini boshlab yubordi. Qolaversa ijod ahliga ham bu manzur bo'la boshladi.

Kutubxonalar ishini yanada takomillashtirish [2] maqsadida qolaversa, kadrlar tayyorlash milliy dasturi [3] doirasida Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kutubxona faoliyati yo'nalishi bo'yicha talabalarni o'qishga qabul qilish jarayonlari boshlandi.

Mamalatimizda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [5].

Shuningdek, o'zbek adabiyoti durdonalari, jahon adabiyoti durdonalari, bolalar adabiyoti, ommabob adabiyot namunalari, diniy adabiyotlar, bestsellerlar savdosi yo'lga qo'yidi boshland. Ko'plab kitob do'konlari va nashriyotlar ochildi. Yangidan yangi kitobxonlik tadbirlari, kitob taqdimotlari bo'lib o'tdi. Shu jumladan bunday tadbirlar uzluksiz davom etib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan kitobxonlar uchun audio kitoblar tayyorlanib ularning kitobga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga harakat qilib kelinmoqda.

Yangi O'zbekiston shiori ostida qurilayotgan davlatimizda Prezident kutubxonasi qad rostlamoqda. Bu muhtasham kutubxona malakatimiz tarixida yangi va madaniy-marifiy ziyo tarqatuvchi maskan bo'lishi rejalashtirilgan. Shuningdek 2019-yilning 26-dekabrda Prezidentimiz Abdulla Qodiriy maktabiga tashrifi davomida "Turon" kutubxonasi faoliyati bilan ham tanishdi. Kutubxonada Milliylik an'analari va zamonaviy imkoniyatlar uyg'unligi asosida qurilgan yangi kutubxona fondida jami 392 045 ta kitob mavjud [4].

Foydalanuvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida AKM elektron kitoblar bazasiga 2019-yil davomida 15073 nomda elektron nashrlar va 140 nomda audio kitoblar kiritilgan.

Kutubxonada 1918-yildan buyon nashr qilingan gazetalar jamg'armasi, shuningdek, hozirgi kunda chop etilayotgan 70 nomga yaqin davriy nashrlar yig'ib boriladi [4].

Bundan tashqari har bir mahallada kitobxonalar ochila boshladi. "Book Cafe" (Kitob o'qish bilan birga qahva ichish mumkin bo'lgan kutubxona) [7], "Bibliobus" (Kitobxonasi ichida joylashgan ko'chma aftobus) [8] kabi innavatsion loyihalar start oldi. Kitob shaklidagi mobil ilovalar soni ko'paya boshladi. Kitobxon oila, kitobxon mahalla, Kitobxonlik haftaligi, yosh kitobxon kabi tadbirlar keng ommalashdi.

#### **Adabiyotlar:**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/27/mirziyoev-program>

2. <https://lex.uz/docs/-3338600>
3. <https://hozir.org/kadrlar-tayyorlash-milliy-dasturi-uning-maqadi-tarkibiy-qismla.html>
4. <https://kun.uz/uz/news/2019/12/26/prezident-abdulla-qodiriy-maktabiga-tashrifi-davomida-turon-kutubxonasi-faoliyati-bilan-ham-tanishdi>
5. <https://lyceum.wiut.uz/uz/5-tashabbus/qisqacha-ma-lumot>
6. <https://lex.uz/docs/-3107036b>
7. <http://library.academy.uz/2018/07/10/book-cafega-nima-diysiz/>
8. <http://marifat.uz/marifat/ruknlr/manaviat/2513.htm>

## SPECIFIC TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH SOCIAL CULTURE IN THE RENEWAL OF UZBEKISTAN

*Nishonova Jumagul Ibrahimjon qizi*

Uzbek State Institute of Arts and Culture

“Cultural Studies” specialty 2nd year master’s degree

[Arjumandbegim4696@gmail.com](mailto:Arjumandbegim4696@gmail.com)

+998940594040

### Annotatsiya

Ushbu maqola Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida san’at va madaniyat sohasini yanada rivojlantirish istiqbollari va yoshlar ijtimoiy madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Modernizatsiyalashuv, madaniyatlararo kommunikatsiya, madaniyatlararo hamkorlik, madaniy meros, jahon hamjamiyati, konsepsiya, milliy madaniyat, “Katta langar Qur’oni”, “Xusayin Boyqaro Devoni”, “Temur Tuzuklari”, “Ravzat – ussafo”, “Me’rojnom”, “Xorazmning mashhur kishilari”.

### Аннотация

В данной статье написано о перспективах дальнейшего развития искусства и культуры в условиях развития современного Узбекистана и современных тенденциях развития молодежной социальной культуры.

**Ключевые слова:** Модернизация, межкультурная коммуникация, межкультурное сотрудничество, культурное наследие, мировое сообщество, концепт, национальная культура, «Великий Якорный Коран», «Хусейн Бойкаро Девони», «Темур Тузуклари», «Равзат-усафо», «Мерожнома», «Знаменитые люди Хорезма».

### Annotation

This article is written about the prospects for further development of the arts and culture in the development of modern Uzbekistan and current trends in the development of youth social culture.

**Keywords:** Modernization, intercultural communication, intercultural cooperation, cultural heritage, world community, concept, national culture, «The Great

Anchor Qur'an», «Hussein Boyqaro Devoni», «Temur Tuzuklari», «Ravzat-ussafo», «Merojnoma », « Famous people of Khorezm ».

It is noted that in the modernization of Uzbek culture, special attention is paid to the role of intercultural cooperation, the cultural heritage of Uzbekistan and its role in world civilization, as well as the concept of further development of national culture in Uzbekistan. Science is a product of human consciousness, intellect, and thinking. And human intelligence has no limits. His mind is like a fountain that flows constantly. He always continues to create a variety of innovations, discoveries, inventions. They contribute to the development of life, to the development of civilization. That is why science has always been and will continue to be the eternal source of progress.

In today's rapid process, no country can determine its own path of development without cooperation with the world community. The development of science also requires the strengthening of cooperation between scientists around the world. There is a great philosophical meaning in the words of the great Spanish writer Cervantes: «... history is a treasure of our activity, a witness to the past, an example and lesson for today, a warning for the future.» Because a person who does not know history makes mistakes at every step, and a nation that is not proud of its history cannot imagine its future. Today, humanity is facing new global challenges. These include acute problems such as climate change, ecosystem and biodiversity conservation, depletion of natural resources, peacekeeping, and human spiritual ecology. Their rational solution is to increase the intellectual potential of each person, to rediscover and re-evaluate the laws that have emerged during conservation, to conduct a comprehensive study of the world around us, and to draw theoretical conclusions through proper scientific research and experiments. indicates the need. First of all, a person must be able to think, to cultivate in the imagination to create something new, to be able to express in words, to convey to others the mature idea. After that, it is necessary to implement it in life, to serve the world civilization. This is how our distant ancestors defined the role of science in the development of life. There have been times in the history of the world when science has been hindered, when scientists and the minds of science have been persecuted, repressed, and the path to progress has been blocked. But this life could never push back civilization. In ancient times, scientists and intellectuals were revered in the Orient.

In this regard, Abu Rayhan Beruni's book «Famous people of Khorezm» tells a story: «Khorezmshah left the palace to drink wine. He approached my house and told me to come. I was a little late to go to him. He was standing in front of my room, trying to get off his horse. I begged him not to dismount. He looked at me; «Knowledge is the best of all possessions, everyone strives for it, it does not come by itself. If it weren't for such laws in the old world, I wouldn't have come to you, I have come, not me, but your knowledge is higher. To date, no country can determine its own path of development without cooperation with the world community. The development of science also requires the strengthening of cooperation between scientists around the world. Because now all cultures have to modernize to maintain their identity. It should



be noted that the first medieval civilization in the East had a positive effect on the whole West, and later the civilization formed in the West had an impact on the development of the East. At the same time, civilizations have played a positive role in the rapprochement of nations, peoples and countries.

Today, UNESCO is leading important initiatives to strengthen dialogue and research in Central Asia. The six-volume series, entitled History of Central Asian Civilizations, is the result of an in-depth and important study of the history, culture, and scientific achievements of the region. In addition, UNESCO has launched an innovative initiative, the Silk Road online platform, aimed at bringing together scientists and researchers through a variety of scientific approaches to share knowledge on the Great Silk Road. The initiative, which brings together 55 countries from Asia, Africa and Europe, is rebuilding the Great Silk Road in a modern digital space for international cooperation, development and dialogue. There are many examples of the importance of scientific values in the spiritual development of man and society. The great thinkers who grew up in Central Asia encouraged the general public to reconcile the evidence of faith with the evidence of reason, and to acquaint the general public with the mysteries of the secular and religious sciences. The influence of Eastern worldviews on modern Western thought, the harmony of the microcosm and the macrocosm, the philosophical understanding of the inner world of man are all related to moral and aesthetic ideas. As noted by our cultural scientist, Professor AAMavrulov, the West has achieved important indicators and results in the theoretical study of the external world (nature), while the East has achieved significant achievements in the field of knowledge of the inner world (man). achieved. In the socio-cultural integration of the East and the West, in the rise of science and culture, the medieval thinkers Abu Nasr al-Farabi, Abu Abdullah al-Khwarizmi, Musa al-Khwarizmi, Abu Rayhan Beruni, Ibn Sina The services of Zamakhshari, great hadith scholars Imam Bukhari, Hakim Termezi, theologian Abu Mansur Maturidi, the great jurist, Burhaniddin Marginoni, mystics Ahmad Yassavi, Najmiddin Kubro, Abdukholiq Gijduvani, Bahauddin Naqshband are great. Originally from Fergana, Ahmad Ibn Muhammad al-Farghani systematized the scientific heritage of the ancient Greeks in astronomy and geography. His scientific works were translated into Latin in the 12th century and spread throughout Europe. which was. Al-Farghani's major astronomical work, Celestial Movements and General Science, was published twice in Latin in Europe in the twelfth century, in the form of Alfraganus, in other European languages, and was used as a basic textbook in astronomy in European universities. European scholars Dalambr, Brokelman, IY Krachkovsky, AP Yushkevich, H. Zuter, B.A. Rosenfeld also respected the cultural heritage of our Eastern thinkers and brought their work to the world.

Due to global changes, each period, year, day and minute of human and human life has a different meaning. This period has led to the aggravation of common problems of Eastern and Western civilizations, as well as universal problems for humanity and all aspects of its life. This, of course, requires a critical re-analysis of the spiritual culture of the East and the West on the basis of new thinking.

Today, on the initiative of President Shavkat Mirziyoyev, the study, preservation, study and promotion of the rich cultural heritage of the Uzbek people, the study of artifacts created by the intellect, hard work and skill of our ancestors, the masterpieces of our cultural heritage preserved in different parts of the world. Extensive work is being done on the study.

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan «On measures to further improve the system of preservation, study and promotion of ancient written sources» (May 24, 2017) On Cultural Research Abroad ”(June 20, 2017), “On Organization of the Center for Islamic Civilization in Uzbekistan under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan” (June 2, 2017). August) decisions are aimed at these goals and many positive results are being achieved. President Shavkat Mirziyoyev's initiative in the field of science and culture is attracting the attention of the general public. Local scholars and foreign experts are involved in the preservation and enhancement of Uzbekistan's cultural heritage. The project “Uzbekistan's Cultural Heritage in World Collections” is a shining example of cooperation in this field. can be compared to an iceberg. Many people know about the part of it that is visible from the water surface. Thousands of masterpieces of our people are still kept in many libraries, museums and scientific institutions around the world. It's just a part of the treasury of a nation that still has a great civilization.

At the initiative of state and public organizations such as the National Association of Electronic Mass Media of Uzbekistan, the Center for the Study of Uzbek Cultural Heritage Abroad under the Cabinet of Ministers, the Center for Islamic Civilization, the Ministry of Culture, Eriell Group Konrad Adenauer Foundation and UNESCO The project, which is sponsored by the United Kingdom, Germany, Russia, the United States, Turkey, the Czech Republic, France and Japan.

The project will acquaint the population, especially young people, with the invaluable spiritual wealth of the Uzbek people about the cultural heritage of Uzbekistan preserved in world museums, the contribution of great scientists born on Uzbek soil to the development of world civilization. allows you to create a complete database of our cultural heritage collections stored in museums around the world.

Within the framework of the project, a lot of work was done in 2017. More than 30 scientific trips have been organized to gather information about artifacts stored in foreign museums and private collections. 10 books-albums dedicated to the memory of material and artistic culture of our country kept in the Russian Federation have been published. More than 50 scientists from different countries took part in this work.

Original copies of medieval manuscripts from the collection of the Institute of Oriental Manuscripts of the Russian Academy of Sciences, such as «The Great Anchor Qur'an», «Hussein Boykaro Devoni», «Temur Tuzuklari», «Ravzat-ussafo», «Me'rojnom» were transferred and donated to government agencies. The creative team of the project shot 16 documentaries. International forums were held in Tashkent-Samarkand in May 2017 and in Tashkent in November. It was attended by more than 500 scientists from 45 countries and more than a hundred scientific lectures. The event

was attended by UNESCO Deputy Director-General for Cultural Affairs Ernesto Renato Otton Ramires.

In his interview, Ramires spoke about the importance of measures taken in recent years to preserve the material and spiritual heritage of Uzbekistan. «Uzbekistan's rich cultural heritage is preserved not only in the country, but all over the world - in major museums in Europe and the United States and in other countries, and a lot of work is being done to show it to the world,» said Ernesto Ramires. - I think that Uzbekistan's serious approach to this issue - research, development, new scientific structures and the creation of these projects - is an example for many countries. Research is a unique way of transmitting not only academic knowledge, but also important concepts to our children, the new generation. We are very pleased that UNESCO is actively working with Uzbekistan.

#### **REFERENCES:**

1. Mirziyoev - «Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan» Uzbekistan - 2017.
2. Mirziyoev -»Critical analysis requires strict discipline and personal responsibility a daily rule of every leader.»
3. Abu Nasr Faroobi. A city of noble people. - T .: AQodiriy National Heritage Publishing House, 1993. - P.188
4. D.Alimova's «History of mankind is the history of ideas and ideologies» - T .: The world of creativity. 2002.
5. Begmatov A, Rustamova R «Propaganda of national ideas and cultural and educational activities» - T .: Spirituality. 2008.
6. «The ideology and development of national independence» by H. Boboev, Z. Gafurov, Z. Islamov -T .: New generation. 2008.

### **YANGILANAYOTGAN O`ZBEKSTONDA SAN`AT VA MADANIYAT SOHASI MASALALARI**

**Davletbaeva Gulayim Daryabay qizi**

(O`zbekston Madaniyat va san'at instituti Nukus filiali,  
Sanatshunoslik fakulteti, Madaniyat va san'at  
muassasalarini tashkillashtirish va boshqarish yo`nalishi 2-kurs)

Email:gulayimdawletbayova@gmail.com

Telefon: 998996706325

Ilmiy rahbar: i.f.f.d. G. Abipova

#### **Anontatsiya**

Mazkur maqolada Yangi O`zbekstonda madaniyat va san`atga qaratilgan e`tabor va shu bo`yich qilingan va qilinajak ishlar to`g`risida fikir yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Strategiya, milliy madaniyat, soha, rivojlanish, san'at, farmon

### Annotation

This article discusses the attention paid to culture and art in New Uzbekistan and the work done and to be done in this regard.

**Key words:** Strategy, national culture, industry, development, art, decree

O`zbekiston Respublikasida bugungi kunda siyosiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma`rifiy sohalarida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida barcha sohalarida yangidan-yangi o`zgarishlar va yangiliklar amaliyotga joriy qilinmoqda. Shu bilan birga bu sohadagi yig`ilib qolgan muamolarga yechimlar topish bugining vazifasidir. Ayniqsa, san`at va madaniyat sohalaridagi innovatsion va transformatsion jarayonlarni barcha O`zbekiston fuqarolari his qilmoqdalar.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san`at sohasi rahbari bilan uchrashuvda shunday ta`kidlagan edi. “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san`at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma`noda, madaniyat-bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O`zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz bunda avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishimiz lozim”. Darhaqiqat, madaniyat va san`at millat ko`zgusidir. Boshqa sohaga qaraganda chet elliklar avvalo, bizning madaniyatimizga va bu sohada olib borilayotgan ishlarga ko`proq e`tibor qaratadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “2017-2021-yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasi” haqidagi farmon tasdiqlandi. Mazkur hujjat mamlakatimiz hayotida dolzarb ahamiyatga ega bo`lib, unda davlat va jamiyat rivojlanishining muhim tamoyillari o`z aksini topdi. Harakatlar strategiyasi IV yo`nalishi - Ijtimoiy sohalarga yo`naltirilgan bo`lib, uning to`rtinchi bandida ta`lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e`tabor qaratilgan. Ushbu bandeda keltirilgan madaniyat sohasiga oid barcha zarur shora tadbirlar belgilandi. Ya`ni, uzluksiz ta`lim tizimni takomillashtirish yo`lini davom ettirish, Madaniyat va san`at muassasalarini qurish, makatabgacha ta`lim muassasalarida san`at va madaniyat faoliyatini rivojlantirish hamda bu sohaga imkoniyatlar va sharoitlar yaratilib berish.

Madaniyat sohasiga oid bo`lgan tarixiy qaror hisoblangan “2018-yil 28-noyabr kuni Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan “O`zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorida asrlar davomida shakllangan xalqimizning ma`naviy merosini, ma`naviy qadriyatlarini asrash va avaylash, jahondagi yuqori darajadagi madaniyatlar bilan tenglashishga harakat qilish va ular bilan uyg`un holda rivojlanish, milliy madaniyatimizni keng targ`ib qilish, uning jahondagi madaniy maydonda tutgan o`rnini va mavqeini asrash, mustahkamlash va yanada yuksaltirish borasidagi vazifalarni birma-bir ta`kidlab ko`rsatayotgani uchun ham bu qaror juda qimmatlidir. Bu qaror bizning milliy otabobolarimizdan qolgan qadriyatlarni yoshlarimiz va xalqimizga keng targ`ib qilish, nafaqat O`zbekiston yoshlari, balki chet el yoshlari ham bizning milliy madaniyatimiz haqida bilishlari qiziqishlari uchun juda ajoyib imkoniyat beruvchi farmonlardan biridir.

Har qanday soha boshqalardan ajralgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki, madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ilarni tarbiyalaydi.

Sohadagi tubdan yangilanish uchun imkoniyatlar kengaygani barobarida milliy madaniyatimizni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklar ham talaygina. Masalan, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyishma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarga ta'lim tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida tayinli tizim mavjud emas. Busiz madaniyat sohasiga yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholi madaniy ehtiyojlarini qondirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish qiyin vazifa. Bundan tashqari aksariyat madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga mos kelmaydi, bu esa ularning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun imkon bermaydi".

Boshqa sohalar kabi madaniyat va san'at sohasi boshqaruvda ham mamlakatimizda olib borilayotgan jahonshumul islohotlar jaroyonida o'zgartirishlar kiritilib, ayrim tizimlarda qayta tashkil etilib, yangilanib, takomillashib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi ikkiga ajratildi. Madaniyat vazirligi qayta tashkil qilindi.

Madaniyat va san'at sohasi boshqaruv ishlarini takomillashtirish maqsadida tomosha san'ati an'analari o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnik negizini yanada mustahkamlash, islohotlarda madaniyat va san'at ahlining faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol asarlar yaratish kabi masalalarni amalga oshirish maqsadida yuqoridagi farmon e'lon qilingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasiga" ya'ni Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni 2022-yil 29-yanvarda imzolandi. Taraqqiyot strategiyasi 7ta yo'nalishtan iborat bo'lib, strategiya bech bosqishda amalga oshiriladi, ularning har biri aniq maqsadlardan iborat va hammasi bo'lib 100 maqsad mavjud. Strategiyaning 5-yo'nalishiga asosan ma'naviy ma'rifiy sohalar rivojlantiriladi. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston- ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustivor ahamiyat qaratildi

Yurtimizda xalqimiz madaniyatini yukaltirish, san'atni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa milliy

madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir. Chunki milliy madaniyatli xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo`ladi.

### **Adabiyotlar:**

1.Sayyora To`ychiyeva. Madaniyat va san`at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish. Toshkent, 2020. 8-16betlar.

2.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil madaniyat sohasi rahbarlari bilan ushrashuvda so`zlagan nutqidan.

3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-2021yillarga mo`ljallangan "Harakatlar strategiyasi".

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekitoning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida"gi FQ-60-son farmoni.

5. A.Haydarov. Madaniyat va san`at sohasini boshqarish asoslari.Toshkent, 2016. 42-45

## **ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС В ГЛАЗАХ КАРАКАЛПАКСКОЙ МОЛОДЕЖИ**

**Бектурсынова Гулмира Жолдасбаевна**

(Преподаватель кафедры культуры и библиотечно –  
информационной деятельности Нукусского филиала  
Узбекского государственного института искусств и культуры).

[gulmira.bektursinova@mail.ru](mailto:gulmira.bektursinova@mail.ru)

+998990076238

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Yangi O`zbekiston ichida yangi Qoraqalpogiston va qoraqalpoq zaminidagi buyuk bobolarimiz avlodlari ular meros qoldirgan an`analar haqida ma`lumot berilgan.

**Kalit so`zlar.** Mustaqillik ,qadiryat,ma`naviyat, tarix, ta`lim, kitobxon,baxshi,

### **Аннотация**

В данной статье представлена информация о традициях, унаследованных потомками наших великих предков в Новом Каракалпакстане и земле Каракалпакстана в Новом Узбекистане.

**Ключевые слова.** Независимость, достоинство, духовность, история, образование, читатель, бахсы.

### **Abstract**

This article provides information about the traditions inherited by the descendants of our great ancestors in the new Karakalpakstan and the land of Karakalpakstan in New Uzbekistan.

**Key words.** Independence, dignity, spirituality,history, education, reader, bakhsi.

В своем выступлении по случаю двадцать девятой годовщины независимости Республики Узбекистан Президент Шавкат Мирзиёев сказал, что словосочетание “Новый Узбекистан” используется сегодня, когда о нашей стране говорят во всем мире. В древности земля Узбекистана была колыбелью двух великих возрождений - Первого Ренессанса IX-XII веков, называемого Шавкатом Мирзиёевым “просветительским”. Известный Швейцарский востоковед, арабист Адам Мец обозначает этот период “Мусульманским Ренессансом”. Именно тогда появилось созвездие великих ученых, обладателей энциклопедических знаний, известных мыслителей Востока, окончивших Маъмунскую академию. Огромный и неопределимый вклад в развитие точных наук внесли Мухаммад Хорезми, Абу Али Ибн Сино, Абу Бакр Рази, Абу Райхан Беруни, Ахмад Фергани. Великие произведения Имама Бухари, Хакима Термези, Бурханиддина Марғинани, Абу Мансура Матуриди, Абу Бакра Аш Шоши, Махмуда Замахшари и других признанных в мире наших предков неимоверно обогатили сокровищницу человеческого мышления, подняли на качественно новый уровень исламское право [3].

Второго (Темуридского) Ренессанса XIV-XV веков. Несравнимы роль и значение великой империи, созданной Амиром Темуром и объединившей 27 государств. Он собрал в Самарканде ученых, писателей, архитекторов и ремесленников из разных регионов мира, поощрял науку, просвещение и профессии. Его внук Мирзо Улуғбек - выдающийся математик, астроном, просветитель и поэт, ученый - энциклопедист основал одну из важнейших обсерваторий, построил богатую библиотеку, создал Самаркандскую школу ученых. Недавно мы праздновали 600-летие Медресе Улуғбека.

Оба Ренессанса Востока - уникальное явление в истории человечества в целом - были пронизаны благородными идеями великих предков о науке, просвещении, религиозной толерантности и гуманизме.

В нашей стране идет еще один важный ренессансный процесс. Именно поэтому слова “Новый Узбекистан” и “Третий Ренессанс” находят отклик в нашей жизни и вдохновляют наш народ на великие цели. Глава республики подчеркивает, что Новый Узбекистан для нас - это государство:

Во-первых, главной целью которого является обеспечение свободной, благоустроенной и благополучной жизни нашего многонационального народа. Это открытое гражданское общество, где ценится и является приоритетным человеческое достоинство, и подлинно народное и народолюбивое, заботящееся о человеке государство;

Во-вторых, развивающееся в строгом соответствии с общепризнанными принципами и нормами международного в области демократии, прав и свобод человека, опирающееся на принципы дружбы и сотрудничества с международным сообществом [4]. С первых дней своего президентства глава нашего государства подчеркивал, что самой большой проблемой для нашей страны является нехватка современных кадров, необходимость новаторского и творческого мышления во всех сферах, внедрение передовых технологий. Потому

что качество образования в школах снизилось в трудный переходный период. Отсутствие творческих школ, культурных центров, невнимание к деятельности клубов создали ряд серьезных проблем. Наша молодежь растет невежественной, часть из них заблудилась, часть скитается за границу. Поэтому Шавкат Мирзиёев счел этот вопрос своей заботой и болью, подчеркнув, что будущее нашей страны зависит от современных кадров, и в этих целях коренным образом совершенствовать систему образования, воспитывая молодежь в духе патриотизма, высокой духовности в качестве приоритета [2:9,10].

Действительно, если мы посмотрим на историю развитых стран, то увидим, что реформы, направленные на изменение жизни общества, в них начинались, прежде всего, с системы образования, детского сада, школы, воспитания. Потому что невозможно изменить человека, общество без регулирования школы и образования.

Как подчеркнул глава нашего государства, чтобы укрепить уверенность в завтрашнем дне Узбекистана, быть достойным предков, реформы должны начинаться с науки. Потому что без знаний не будет результата ни в одной области. За последние три года проведена масштабная работа по эффективному решению этих вопросов и коренному совершенствованию системы подготовки кадров в нашей стране. С этой целью принят ряд указов и постановлений, создающих прочную правовую базу для комплексной работы в этом направлении. Содержательно и качественно обновляется система дошкольного, общего и высшего образования. В ходе визита в Республику Каракалпакстан в ноябре прошлого года глава нашего государства подчеркнул необходимость подготовки нового поколения кадров для вывода страны на новый этап развития, для чего создана новая категория школ Президентские школы - будут установлены в каждом регионе.

20 - февраля текущего года Президент принял постановление “О мерах по созданию президентских школ”. По его словам, в Ташкенте за короткий срок была построена первая Президентская школа.

В 2019-году в Нукусе Республики Каракалпакстан была создана Президентская школа. Цель – подготовить будущих лидеров, студентов, которые будут побеждать на международных олимпиадах, конкурсах и поступать в лучшие университеты мира, воспитать лидеров, способных конкурировать на мировой арене. Это требование третьего ренессанса. Конкурсы «Юная читательская семья», «Юный читатель», «Самая читающая школа» прошли по всей стране, и наша молодежь активно участвует в этих конкурсах.

В целях освоения многовековых приемов оперного исполнительства и подготовки квалифицированных специалистов оперного искусства на базе детской музыкально-художественной школы № 24 г. Нукуса Республики Каракалпакстан с 2021-2022 гг. учебный год. В годы независимости здесь развивалась и опера. Основной целью создания таких школ является изучение нашей истории, культуры и самобытности.



Бахсы – великая традиция каракалпакского народа, и мы создадим все условия для ее развития, – сказал Президент Шавкат Мирзиёев во время посещения оперы и школы - интерната бахсы в Нукусе 2 октября[4]. Мы уверены, что последователи народного артиста Узбекистана Женисбека Пиязова, детища каракалпакского народа, будут расти в этом священном месте, прославляя славу нашей страны и представляя ее миру. Народ Каракалпакстана имеет древнюю и богатую историю. Его национальная культура, привлекательное искусство, классическая литература, ценности, обычаи и традиции известны во всем мире. Благодаря независимости народ Каракалпакстана смог восстановить многие свои ценности. Сбылись мечты отважных, пламенных сердцем детей каракалпакского народа, таких как Ерназар Алакоз и Аллаяр Досназаров, которые боролись за справедливость и равенство, свободу и волю. Он открыл путь к становлению национальной культуры и духовности, полному восстановлению творческого наследия поэтов-классиков каракалпакского народа Бердақа и Ажинияза, прославлению их священной памяти. Сегодня достойное место в духовной сокровищнице нашего народа занимают произведения каракалпакских писателей и поэтов, таких как Ибраим Юсупов, Толепберген Қайпбергенов, Тилеуберген Жумамуратов. Великие ученые, такие как Сабыр Камалов и Шаржау Абдиров, внесли большой вклад в развитие науки Узбекистана. У каждой нации будут великие дети, которые откроют миру свою идентичность, национальный статус и достоинство, их бессмертное наследие определит не только прошлое, но и настоящее, и будущее этой нации.

Каждая нация отличается своей национальностью. Народ Каракалпакстана всегда был богат своей национальной музыкой и ее искусным исполнением. Их приятными голосами и умелым исполнением мы можем гордиться нашими дорогими людьми, которые оставили неизгладимый след в истории нашей страны, прославив народ, показав народу свои таланты. В сентябре 2021 года в Нукусе прошел II Международный фестиваль искусства бахсы. В фестивале приняли участие 44 участника и множество иностранных гостей из 22 стран мира. Неслучайно этот фестиваль проходил в Каракалпакстане. Потому что на этой земле жили и работали множество наших великих предков. Например: Соппаслы Сыпыра жырау, Доспанбет жырау, Жиен жырау, Нурабилла жырау, Курбанбай жырау, Жаксылык Сырымбетов и многие другие. Если рассматривать развитие искусства бахсы, то этот путь начинается со школы Ақимбета бахсы.

Шоқан Уалиханов известный учёный, исследователь казахского народа, описал легенду каракалпаков в своей книге “О формах казахской народной поэзии”: Каракалпаки - Сахра булбиллери !

Песнь, путешествуя по миру, однажды остановилась ночевать в стойбищах Каракалпаков, по ту сторону реки Сыра. Весть о прибытии невиданной и неслыханной гостьи разнеслась с быстротою стрелы во все стороны. Бесчисленное множество Каракалпаков, собравшись в счастливом ауле, слушали дивную гостью с самого начала вечера и до самой утренней зари, пока наконец Песня устала и легла спать. Тысячи рассказов, повестей, песен и историй

голосистой гостыи сохранили в памяти бесчисленные Каракалпаки, Киргизы и Туркмены, стоявшие далеко вверх по реке Сыру на краю стойбища, - все родные племена тогда ночевали вместе, прибыли поздно ночью и слышали только окончание чудных звуков. Весть о прибытии Песни к Каракалпакам достигла даже Сартов, живших по ту сторону реки Сыра; но пока они собирались по своим городкам и пока успели доехать до Сыра, заря взошла, и Песня уже опочивала. Сарты, остановившись на берегу реки, услышали вой нескольких собак в Каракалпакских аулах и, приняв эти звуки за голос Песни, со вниманием слушали вплоть до восхождения солнца. Поэтому-то Каракалпаки почитаются в степях первыми поэтами и песенниками, потом Киргизы и Туркмены, а песни Сартов никто не может слушать без смеху» [4].

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ :

1. Выступление Мирзиёева Ш.М. на избирательном собрании, состоявшемся 10 ноября 2016 года в Бозатауском районе Республики Каракалпакстан.
2. Ш.М. Мирзиёев. Новый Узбекистан - страна демократических преобразований, больших возможностей и практических дел. Ташкент-2021.9-10.
3. Ш.М. Мирзиёев. Стратегия Нового Узбекистана Ташкент 2021. Ст.18
4. М.Нызанов «Каракалпаки». Билим. Ноқис. 2020.373.
5. [inform@parliament.gov.uz](mailto:inform@parliament.gov.uz)

### YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI (Folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoalari misolida)

**Meyliyeva Maknuna Toshmurod qizi**  
*O‘zDSMI Xalq ijodiyoti: (folklor va etnografiya)*  
*ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi*  
**Ilmiy rahbar: Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich**  
*O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedراس*  
*katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*  
[assunnatillayev92@bk.ru](mailto:assunnatillayev92@bk.ru)  
+998998782729

### Аннотация

Bugungi kunda folklor-etnografik jamoalari xalqimizning qadimiy an‘analari, xalq og‘zaki ijodining noyob na‘munalarini saqlashda, ularga sayqal berib, yana xalqimizning o‘ziga qaytarishda jonbozlik va fidoyilik ko‘rsatuvchi ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tab kelmoqda. Ushbu maqolada yoshlarni ma’naviy-ahloqiy qiyofasini shakllantirishda, kelajagi buyuk o‘zbek yurtining haqiqiy egalari bo‘lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qilayotgan folklor etnografik jamoalarining o‘rni va ahamiyati ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Yoshlar, maʼnaviyat, qadriyat, folklor, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, folklor-etnografik jamoalari, komil inson, tarbiya.

### **Annotation**

Today folklore and ethnographic communities serve as a creative laboratory of diligence and dedication in preserving the ancient traditions of our people, unique examples of folklore, polishing them and returning them to our people. This article scientifically analyzes the role and importance of folklore ethnographic communities in shaping the spiritual and moral image of young people, serving to nurture a fully developed person who is the future great Uzbek land.

**Keywords:** Youth, spirituality, values, folklore, universal values, national values, folklore-ethnographic communities, perfect man upbringing.

Badiiy tafakkur rivojining hosilasi boʻlgan xalq ogʻzaki ijodi milliy maʼnaviyatimizning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Adolatli jamiyat qurish va barkamol shaxs tarbiyalash borasida maʼnaviy merosning oʻrni benihoya kattadir. Oʻz oʻtmishi, dini, tarixi, adabiyoti, madaniyati, tili, urf-odatlaridan bexabar xalq oʻz kelajagini qura olmasligini davr isbotlamoqda. Shu bois ham bugungi globallashuv sharoitida yuksak maʼnaviyatli shaxsni tarbiyalash asnosida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy maʼnaviy merosni asrab avaylash, tadqiq etish, kelgusi avlodga yetkazishga har birimiz burchlidirmiz.

Folklor barcha sanʼatning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa koʻpgina sanʼatlar bilan uygʻunlikka ega, shuning bilan birga hech biriga oʻxshamagan oʻziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida sanʼat turidir. Bu soha oʻz ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa sanʼatlar bilan bogʻliq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha aytsak, ogʻzaki ijod xalqning oʻtmishi, buguni va kelajagini oʻzida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bogʻliq ijodiy jarayondir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning maʼnaviyat va maʼrifat hamda madaniyatimizni rivojlantirish yoʻlida olib borayotgan siyosatidan kelib chiqib, milliy ruhni oʻzida asrlar boʻyi ardoqlab kelayotgan, qadimiy anʼanalarni bugungi kunda koʻz-koʻz etayotgan, oʻz ortidan millionlab kishilarni ergashtirayotgan har tomonlama ibrat maktabi boʻlib, omma mehrini qozonayotgan, yoshlar qalbiga maʼnaviyat urugʻini singdirayotgan ijodkorlardan biri bu - folklor-etnografik jamoalaridir. Bugungi kunda folklor-etnografik jamoalari xalqimizning qadimiy anʼanalari, xalq ogʻzaki ijodining noyob namunalarini saqlashda, ularga sayqal berib, yana xalqimizning oʻziga qaytarishda jonbozlik va fidoyilik koʻrsatuvchi ijodiy laboratoriya vazifasini oʻtab kelmoqda.

Inson qaysi jamiyatda yashamasin, u turli moddiy va maʼnaviy qadriyatlar qurshovida boʻlib, oʻz turmush tarzi, munosabati va xatti-harakati, xulq-odobi va urf-odatlarini namoyon etadi. Odam ibtidosidan boshlab son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashab kelmoqda. Umumbashariy, milliy va shaxsiy qadriyatlar majmuasi mavjuddir. Quyosh, yer, suv, havo, oʻsimlik va hayvonot dunyosidan iborat umumbashariy tabiiy qadriyatlar jamiyat va inson boʻlmasa ham yashay oladi, ammo inson bu qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Qadriyat “inson va jamiyat maʼnaviyatining tarkibiy qismi, olamdagi

voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir [4; 89 b.].

Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda milliy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o'z ichiga oladi.

Ma'naviy-axloq qadriyatlarining jamiyat, xalq hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Bunda ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Umuminsoniy qadriyatlar sermazmun va serqirra bo'lib, ijtimoiy ma'no kasb etadi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan har bir shaxsga xos bo'lgan qadriyatlarni bog'lovchi xalqalardan biri, jamiyat va uning fuqarolarini komillikka yo'naltiruvchi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlardir.

Milliy qadriyatlar millat, elatlarga xos moddiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, madaniy, tarixiy belgilarni, xususiyat, munosabat, an'ana, urf-odat, udum, marosimlarni mujassamlashtirgan his-tuyg'u, xislat-fazilat, ma'naviy axloqiy me'yor va qoidalarining yig'indisidir.

Faylasuf olim Q.Nazarov ta'rificha, milliy qadriyatlar tushunchasi muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarinigina emas, balki hudud, madaniy-ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, o'tmishi, turmush tarzi, millat hayotining tartib-qoidalari hamda ular bilan bog'liq milliy xususiyatlar, jihatlar va boshqalarni ifodalaydi [5; 59 b.].

O'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslangan urf-odatlarimizning mohiyatini yoshlarga o'rgatishda, ular qalbida mehr va muruvvat chechaklarini undirib-o'stirishda folklor-etnografik jamoalari dasturlaridan foydalanish ijobiy samara beradi. So'nggi yillarda folklor-etnografik jamoalar repertuarida milliy qadriyatlar va an'anaviy marosimlarining vositasi bo'lmish mehr-muruvvat, saxovat va insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari shakllandi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshladi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. "Yil boshi", "Qozon to'ldi", "Sumalak pishirish", "Hashar uyushtirish", "Lola sayli", "Gul sayli" kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi.

Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda o'zbek xalq og'zaki ijodida vatanparvarlik, adolat, millatparvarlik, insonparvarlik,

yurtsevarlik, el-yurtning himoya qilish, Vatanga sadoqat va muhabbat kabi xislatlarni o'zida jamlagan milliy dunyoqarashning asosiy unsurlari o'z mujassamini topgan. Xalq og'zaki ijodi - milliy g'urur, or-nomus va qadr-qimmat, vafo va sadoqat, jasorat va matonat, olijanoblik va saxovatpeshalik, g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish, bag'rikenglik va halollik kabi fazilatlar sandig'idir. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari - bizning ham tarixiy, ham ma'naviy, ham madaniy, ham huquqiy merosimizdir.

Jamiyat va uning fuqarolarini komilikka yo'naltiruvchi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlardir. Chunki davlat barqarorligi va taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-ruhiy, madaniy-badiiy ildizlariga tayanadi.

Folklor-etnografik jamoalari qayerda tashkil etilgan bo'lsa, o'sha yerlik tub aholining milliy an'analarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib, xalqning o'ziga qaytarishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Masalan, Jizzax viloyatining Zarbdor tumanidagi "Oypari" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi dasturidan joy olgan "Bolangizga alla ayting onalar" mavzuidagi dasturida mehr-muruvvat tushunchasi ona allasi orqali tarannum etilgan [1; 31 b.]. Allada iltijo-yu sehr, mehr qolaversa, bu dunyoda eng nozik his-tuyg'ular, ezgu tilaklar mujassam. Chunki, ona allasigina jajji chaqaloqning qalbiga mehr-muruvvat, muhabbat, oqibat, iymon va insof tuyg'ularini singdira oladi. Ona allasidan bahramand bo'lgan yurtimiz yoshlari momolari, ota-bobolari yaratgan qadriyatlariga mehr qo'yib, ular an'anasini davom ettiradilar. Bundan tashqari jamoada "Sumalak sayli, "Hashar", to'y marosimlari bilan bog'liq udumlar "Kelin salom", "Qalliq o'yin, "Beshik to'yi kabi bir qator dasturlarida qadimiy urf-odat va an'analarimiz o'z ifodasini topgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalari faoliyatida yuksak insoniy fazilat bo'lmish mehr-muruvvatni aks ettiruvchi folklor sahna ko'rinishlari ko'payib bormoqda. Folklor-etnografik jamoalari o'z dasturidagi marosimlar, qo'shiqlar, rasm-rusumlar, xalq ijodiyotining turli xil namunalarini o'z muxlislariga tanishtirish orqali ona diyorimizning muqaddas an'analariga sodiq qolish, uni e'zozlashni ibrat qilib ko'rsatishlari ahamiyatlidir.

Ayni paytda vatanparvar, insonparvar, komil insonni umuminsoniy milliy qadriyatlar uyg'unligida tarbiyalash mumkinligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bunda milliy o'zlikni anglashga e'tibor qaratish, kishida milliy g'ururni tarbiyalash, boshqa insonlarga hurmat tuyg'usini qaror toptirish muhim sanaladi. Zotan, tug'ilib o'sgan joyiga muhabbat, oilaga, ona tiliga, milliy odatlar va an'analarga munosabat shaxsni fuqaro sifatida xarakterlaydi. Shu bois folklor-etnografik jamoalari ota-bobolarimiz asrlar bo'yi asrab-avaylab kelgan qadriyatlar orqali yoshlarni ma'naviy-ahloqiy qiyofasini shakllantirishda, kelajagi buyuk o'zbek yurtining haqiqiy egalari bo'lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. S.Yo'ldasheva. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti. T.: Navro'z – 2014. 162.

2. Tuzuvchi va mas'ul muharir: S. Yo'ldasheva. Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar. Ilmiy seminar materiallari. T.: Navro'z 2014. 191.
3. Tuzuvchi va mas'ul muharir: S. Yo'ldasheva. O'zbek xalqining milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlari. Ilmiy to'plam. T.: Navro'z 2014. – 184.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2007. 707.
5. Q. Nazarov. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. T.: Faylasuflar milliy jamiyati 2004. 85.

## **YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIYAT MARKAZLARIDAGI TO'GARAKLAR FAOLIYATI**

**Karimova E'zoza Nuriddin qizi,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
“Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini  
tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
Tel: +998917762808  
Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov Zokir o'g'li,  
O'zDSMI “Madaniyat va san'at muassasalari  
faoliyatini tashkil etish va boshqarish” kafedrasini o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada yangilanib borayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat markazlarining o'rni, ularda tashkil qilingan to'garaklar faoliyati tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqilgan, shuningdek, aholini madaniyat markazi va undagi to'garaklarga jalb qilish uchun etibor qaratilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar haqida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, san'at, madaniyat markazi, to'garak, besh tashabbus, moddiy va ma'naviy ehtiyoj, yoshlar.

### **Abstract**

This article critically analyzes the role of cultural centers in the development of Uzbekistan, the activities of their clubs, as well as the measures that need to be taken to attract the population to the cultural center and its clubs.

**Key words:** culture, art, cultural center, circle, five initiatives, material and spiritual needs, youth.

Bugungi kunda yangilanib borayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni naqadar beqiyos ekanligi butun ziyoli qatlam, xususan biz kabi bo'lajak madaniyat xodimlariga ham ma'lumdir. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi [1:3].

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq mafkurasini shakllantirish va milliy madaniyatimizni yosh avlodning ongiga

singdirishda katta ahamiyatga ega. Bunda teatr, madaniyat muassasalari va san'at saroylari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, aholining mafkurasini oshiradigan, ongini yuksaltiradigan, odamlarga ma'naviy ozuqa beradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Buning uchun eng avvalo xalqimizning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib ish ko'rmoq joiz. Tarixan ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan keyin shakllangan, lekin bundan ma'naviy ehtiyoj moddiy ehtiyojlardan kelib chiqadi degan xulosaga kelish xatodir [2:18]. Chunki jamiyat rivoj topib borar ekan, ular o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa va munosabatlar o'rnatiladi. Shunga ko'ra til, adabiyot, axloq, san'at va ijod kabilar jamiyat hayotiga kirib boradi va talab ham ortadi.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining kundan kunga o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini o'rgangan holda, yurtimizda bunyod etilayotgan madaniyat markazlarida aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash bilan birga mazmunli dam olishiga etibor qaratilmoqda. Ayniqsa bu borada madaniyat markazlarida tashkil qilingan to'garaklar aholining, xususan, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish hamda san'at turlariga qiziqtirishdagi ahamiyati juda katta. Madaniyat markazlarida to'garaklar, studiya va jamoalarni tashkil qilishning asosiy maqsadi esa aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlarning darsdan va ishdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda tanlangan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir. Madaniyat markazlarida tashkil etilgan to'garaklar barcha uchun moliyaviy taraflama qulay hamda hamyonbob hisoblanadi. Hozirgi kunda madaniyat markazlarida pullik to'garaklar, studiya va jamoalar qatnashchilarining bir oylik to'lov summasining eng kam miqdori viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 10% va undan yuqori, Respublikaning boshqa tuman(shahar)larida 5%dan kam bo'lmasligi lozim[3: 4]ligi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan. Agar bizni buni aniq summada hisoblaydigan bo'lsak, viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida 27 ming so'm Respublikaning boshqa tuman(shahar)larida 13500 so'mni tashkil qiladi. Yuqorida belgilangan summalar o'zgarishi mumkin bunday holatda "pullik to'garaklar, studiya va jamoalarning to'lov summasi – Markazlardagi to'garak ishtirokchilarining ota-onalar kengashi bilan kelishilgan holatda (uni bayonlashtirish orqali) markaz rahbarining tegishli buyrug'i bilan ko'paytirilishi mumkin. [4:138] Qarang to'garaklar narxi juda kam bo'lsada madaniyat markazlartida tashkil etilgan to'garaklarga yoshlarning qiziqishi yuqori emasligini ko'rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib barchamizda o'sha to'garaklarning hozirgi kundagi faoliyatiga qiziqishlar paydo bo'ladi albatta. E'tiborimizni 1-jadvalga qaratsak:

### 1-jadval

T\r	Hududlar nomi	Madaniyat markazlari soni	Markazdagi to'garaklar soni	To'garak qatnashchilari soni
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	58	187	4272
2.	Andijon viloyati	71	352	4475
3.	Buxoro viloyati	49	325	3789
4.	Jizzax viloyati	37	180	1802
5.	Navoiy viloyati	32	133	2245
6.	Namangan viloyati	80	267	3993
7.	Samarqand viloyati	78	418	4747
8.	Sirdaryo viloyati	33	110	1775
9.	Surxondaryo viloyati	74	589	6876
10.	Toshkent viloyati	71	373	6666
11.	Farg'ona viloyati	83	495	5101
12.	Xorazm viloyati	66	308	3684
13.	Qashqadaryo viloyati	60	285	2409
14.	Toshkent shahar	34	399	4144
<b>Jami:</b>		<b>826</b>	<b>4421</b>	<b>57787</b> [5:58]

Yuqoridagi statistic ma'lumotda 2021-yil holati bo'yicha mamlakatimiz viloyatlaridagi madaniyat markazlari, ulardagi to'garaklar soni va to'garak qatnashchilari soni keltirib o'tilgan. Aholi soni hozirgi kunda 35 mlndan oshgan davlatda bor-yo'g'i 57 mingdan ortiq aholigina, ya'ni umumiy aholining 0,16 foizi madaniyat markazlaridagi to'garaklarga jalb qilingan xolos, agar buni faqat yoshlar misolida ko'rsak foiz bundanda past chiqishi tayin.

Barchamizga ma'lumki, joriy yilning 25-mart kuni Oliy Majlis Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasida Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti yuzasidan majlis bo'lib o'tdi. Unda yuqoridagi statistikalarning 2022-yildagi holati aytib o'tildi. Unga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan 826ta madaniyat markazida 4500 dan ortiq to'garak mavjud bo'lib ularda ishtirok etayotganlar soni esa 53 ming nafarni tashkil etadi. Statistika shuni ko'rsatayaptiki to'garaklar soni qisman bo'lsada oshgan bo'lishiga qaramay, unga zid o'laroq to'garak ishtirokchilarining soni ma'lum foizga kamaygan. Qisqa davr va qisqa raqamlarda bo'lsada sohada inqirozning uchrashi har birimizni havotirga solishi kerak deb o'ylayman.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga e'tibor bersak, ularning asosini millat kelajagi bo'lmish yoshlarga bo'lgan e'tibor tashkil qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart kuni ilgari surgan 5 muhim tashabbusi doirasida olib borilayotgan ishlar, ular orasida aynan birinchi o'rinda madaniyat va san'atning ta'kidlab o'tilgani, har bir mahallaga yoshlar yetakchilari jalb qilib, ularning asosiy vazifalaridan biri ham yoshlar o'rtasida san'atning turli yo'nalishlarida to'garaklar, ko'rik tanlovlar, festivallar o'tkazishdan iborat ekanligi ham



davlatimizda madaniyat va san'atga bo'lgan e'tibor yetarlicha ekanligini ko'rsatadi. Ammo bir qator omillar ham borki, ular bugungi kunda yosh avlodni aynan o'sha to'garaklarga borishiga to'sqinlik qilyapti. Bularning asosida xalqimiz ongida qotib qolgan yoinki, endi ildiz otayotgan ba'zi bir g'oyalar tashkil qiladi. O'zbek xalqida qadimdan "bolamni artist qilamanmi, endi?", "bir kami otarchi bo'lishing qoluvdi", "qizim o'yinchi bo'lmaydi" kabi juda qo'pol gaplar, madaniyat va san'at xodimlariga nisbatan noto'g'ri baho berish bobo-buvilarimiz davridan bor bo'lgan. Jadallashgan zamonaviy hayot, yangi texnologiyalar va yangi zamonga o'ttik deganimizda esa, tuturiqsiz blogerlarning behayo videolari, taniqli teleyulduz va san'atkorlarning ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil video va ko'ngilsiz voqelarining tarqalishi nafaqat oddiy xalq orasida, balki ziyoli qatlam orasida ham san'at va madaniyat xodimlariga bo'lgan munosabatni yomonlashtirib yuborgani sir emas. Ammo san'at bu ezgulik, madaniyat esa mamlakatni butun dunyodagi o'rnini belgilab beradigan boylikdir. Bundan yosh avlodni judo qilishni esa bir xalqning madaniyatini inqiroziga teng deb baholasak bo'ladi. Hatto AQSH prezidenti Jorj Vashington 1788-yilda "San'at va ilm-fan davlatning gullab yashnashi, inson hayotining bezagi va baxt-saodati uchun muhimdir" [6:1]. deb ta'kidlagan edi. Ota-onalar o'z farzandlarini san'at sohasida bo'lishlarini xohlamasliklariga sabab bo'luvchi omillar haqida aytib o'tdik. Endi ularning barchamizga ma'lum bo'lgan afzalliklari haqida ham ota-onalarga tushuntirish madaniyat xodimlarining bosh vazifasidir. Masalan birgina raqs to'garaklarini oladigan bo'lsak, ularga munzamat borish, kelajakda buni davom ettirishmasa ham, ayni organizmning rivojlanish davrida raqs bilan shug'ullanish inson tanasi uchun juda foydali. Bu qizlarda qomatning go'zal rivojlanishi uchun yordam beradi, tanada qon aylanishini yaxshilaydi, qizlarda nafislik va jozibadorlik xususiyatlarini shakllantiradi. Shuningdek, ruhiy salomatlik uchun musiqa va nafis harakatlarning ahamiyati juda katta ekanligini tibbiyot ham isbotlagan. Buni garchi farzandi raqsga qiziqsa ham to'garakka olib bormayotgan ota-onalarga tushuntirish, kerak bo'lsa ularning o'zini ham ayni jarayonga taklif qilish lozim.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib yoshlarni san'at va madaniyatga jalb qilish chora-tadbirlarini ko'rish bugungi kun uchun juda muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida [7: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)]. ham aynan yoshlarni musiqa va san'at olamiga bevosita olib kirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga dutor, do'mbira, doyra, tanbur, rubob, g'ijjak va nay kabi milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqida ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi. Undan tashqari musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi, musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi, notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va

o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash tizimiga kiritiladi, o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko‘ra milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san‘at, hunarmandchilik yo‘nalishlarida amaliy to‘garaklar tashkil etilib, amaliy to‘garaklar rahbarlariga “Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘garak rahbari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari qo‘llaniladi.

Bundan tashqari yangi zamonda yangicha ruh bilan ish olib borish, zamon bilan hamnafas bo‘lish, yoshlarga jahon standartlariga mos ravishda ta‘lim tarbiya berish jarayonini tashkil etish ham yuqoridagi qarordan ko‘zlangan maqsadlardan biri hisoblanadi. Qarorga ko‘ra amaliy to‘garaklarni olib borish hisobi “Elektron kundalik” dasturi orqali amalga oshiriladi hamda har chorakda to‘garak ishtirokchilarining hisobot konsertlari tashkil qilinadi. Umumta‘lim maktablari va madaniyat markazlarida “Maktabda madaniyat markazi” loyihasi asosida ixtiyoriylik asosida shartnoma bilan to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi ham kelakdagi ko‘zlangan maqsadga erishishda ijobiy xizmat qiladi. Muhtaram Prezidentimiz Yangi O‘zbekiston strategiyasida shunday yozadi: “O‘g‘il-qizlarimizni san‘at dunyosiga oshno etish, yoshlarimiz jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari, zamon talabi bo‘lgan kompyuter va IT texnologiyalar sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yiladi”. [8: 228] Agarda ana shuncha bepul to‘garaklar tashkil etilishsa butun Yangi O‘zbekiston yoshlari qamrab olinadi. Ulardan esa san‘at va madaniyatga oshno yangi iste‘dodlar kashf etiladi. Bu esa o‘z navbatida tarixan shakllanib kelgan buyuk qadriyatlarimizning, madaniy boyliklarimizning asrab-avaylab, kerak bo‘lsa yanada rivoj topgan holda kelajak avlodlarga yetib borishiga, milliy musiqa va san‘atimizning gullab yashnashiga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Haydarov A. Madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 254-son (7212). 2018-yil 9-dekabr. 4 b.
2. Haydarov.A. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish. “Yangi nashr”. T.: 2016- 208 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019-yil 18-aprel “Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etishga oid normativ hujjatlarni tasdiklash to‘g‘risida” 232-sonli buyrug‘i 1-ilova “Madaniyat markazlarida to‘garak, studiya va jamoalar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Nizom”ning 22-bandi. 17 b
4. Qarang: Xushvaqtov A. Madaniyat va san‘at sohasida iqtisodiy ko‘rsatgichlarni boshqarishning ahamiyati. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. Xorazm Ma‘mun akademiyasi nashrlik bo‘limi, Xiva 2022. 574 b
5. Turdiyeva M. Yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda madaniyat markazlarining o‘rni BMI. Toshkent 2021-yil.
6. Jerry Henderson. “The state and the politics of culture” University Press of America.2005. Chapter 1. Page 1.

7. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi.  
www.lex.uz

8. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston,  
2021. – B 464

## **YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIYAT MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Mo‘minmirzo Xolmo‘minov,**

“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”  
kafedrasi o‘qituvchisi

Email: [mominmirzoxolmominov@gmail.com](mailto:mominmirzoxolmominov@gmail.com)

Telefon raqam:+998901261919

**Asilbek Qolqanatov,**

“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” magistranti

E-mail:[asilbekqolqanat95@gmail.com](mailto:asilbekqolqanat95@gmail.com)

Telefon raqam:+998913048393

### **Annotatsiya**

Maqolada Respublikamizdagi madaniyat markazlarining faoliyati tanqidiy-tahliliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Markaz rahbarlarining pofigizmga berilishi, xodimlarning kasbiy malaka oshirish muammolari va mutaxassislik bo‘yicha oliygohni tamomlagan talabalarning bu sohada ishlamaslik sabablari o‘rganilgan. Madaniyat markazlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan mavjud muammolar keltirilib, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Madaniyat markazlari, muammo, statistika, ko‘rsatkich, rivojlanish, taklif, mexanizm, xodim, rahbar, faoliyat.

### **Аннотация**

В статье критически-аналитически рассмотрена деятельность культурных центров Республики. Были изучены вопросы профигизации руководителей Центра, проблемы повышения профессиональной квалификации сотрудников, а также существующие проблемы неработоспособности студентов препятствующие развитию культурных центров, окончивших ВУЗ по специальности.

**Ключевые слова:** культурные центры, проблема, статистика, показатель, развитие, предложение, механизм, сотрудник, руководитель, деятельность. приведены проблемы, даны предложения по их устранению.

### **Abstract**

The article critically and analytically examines the activities of the cultural centers of the Republic. The issues of profiling the heads of the Center, the problems of professional development of employees, as well as the existing problems of students'

inactivity hindering the development of cultural centers that graduated from the university in their specialty were studied.

**Keywords:** cultural centers, problem, statistics, indicator, development, proposal, mechanism, employee, manager, activity. problems are presented, suggestions for their elimination are given.

Yangi O‘zbekistonni qurish uchun mamlakatimizda barcha jabhalar kabi madaniyat sohasi ham yangicha islohot yo‘lini tanlashi va aniq strategik rejalar bilan jadal rivojlanishi zarur. Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda [1:271]. Xo‘sh, madaniyat markazlarini aql markazlariga aylantirish uchun nima qilishimiz kerak, yoki xalqning moddiy ahvoli madaniyat markazlarida targ‘ib etiladigan, “ma’naviy tarbiya va hayotga” to‘g‘ri keladimi, madaniyatning rivojlanishi nimalarga bog‘liq bo‘lmoqda?

Madaniyatning rivojlanishi xalqning, sotsiumning qiziqishi, ehtiyoji va ijodiy faolligi natijasi bo‘lganida kutilgan natijalar beradi [2:83]. Yangi O‘zbekistonda “yangi ma’naviy makon”ni yaratish, marifatli jamiyatga intilish zaruriyati bor. Oxirgi besh yil ichida esa, sotsiumning ehtiyoji har doimgidek yuqori sur‘atda. Ammo, madaniyat markazlari faolligi eskicha qolmoqda. Endi, bu jarayonlar xorijda hozirgi davrda qanday tusda davom etayotganligiga to‘xtalib o‘tamiz.

1-rasm

#### Zamonaviy madaniyat markazlarini bunyod etish davr talabi



Bugun G‘arb mamlakatlarida iste‘molchilik iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirmoqda. “Barcha narsa sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan tovarga aylantiriladi”, degan tushuncha insonlar ruhiyatiga singdirila boshlandi. Globallashuvning xususiyati madaniyatlarning “duragaylashuvi”ga olib keldi. Fikr va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi bugungi kunning asosiy xususiyati bo‘lib qolmoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor bo‘lmoqda. “Yemak va tomoshalar” shiori ostida insonlarda iste‘molchilik kayfiyati avj oldirildi. “Insonning hamyoni qayerda bo‘lsa, uning qalbi ham o‘sha yerda”, degan halokatli g‘oya ustuvor.

Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadiriyyat sifatida tiqishtirilishi inson ma'naviy olamiga jiddiy tahdid solmoqda[3:6].

Yoshlarimizning rivojlangan davlatlar madaniyatining mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji katta. Chunki, shahar va tumanlarda yoshlar uchun madaniy mahsulot yaratib beradigan, ijodiy ishlab chiqarish manbasi – madaniyat markazlarida ishlash tizimida mas'uliyatsizlik avj olgan. Madaniyat bo'limi mudirlari ongi *pofigizmga* o'rganib qolgan. Ular o'zlarining mavqe va obro'ga qanday munosabatda bo'lsa, o'shani qabul qilib o'tiraveradi, afsuski. Biz madaniyat va san'at sohasi rahbarlarida pofigizmni “yo'q qilishimiz” kerak. Masalan, professor A.Haydarov madaniyat sohasida rahbarlik qilgan yillarini quyidagicha eslaydi: “Madaniyat sohasida qariyb 44 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan mutaxassis sifatida bir gapni ro'yi-rost aytishim mumkin. Ochig'i, juda ko'p rahbarlar madaniyat va san'at sohasida ishlaydigan xodimlarga boshqacha nazar bilan qaraydi. Madaniyat xodimini “artist” deb ataydi. Ayrim hokimlar o'rinbosariga “anavi artistga ayt, mikrofonni yaxshisidan qo'ysin, majlis qilamiz”. Ana sohaga va uning xodimlariga munosabat. Tuman yoki shaharlardagi madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari qay holatda, kutubxona va uning kitob fondi qancha, muzeylar va madaniy meros obyektlarining ahvoli qanday, ularda kimlar ishlayapti, sharoitlari qanaqa?! Bu savollarga ko'ngildagidek javob olish juda mushkul [4:2]”. Bu ham sohadagi katta muammodir. Madaniyat markazlarining asosiy vazifasi targ'ibot-tashviqot ishlaridan iborat emas. U ta'lim-tarbiya maskani sifatida ham xalqqa xizmat qiladi. Madaniyat markazlari ta'lim-tarbiya noformal sektori provayderlaridir. Bugungi kunda madaniyat markazlari nafaqat madaniy faoliyat bilan band bo'lgan, balki yuqori sifatli ma'rifat va ta'lim berish bilan shug'ullanib kelayotgan tashkilotdir [5:19].

Biroq madaniyat markazlari uzluksiz ta'limni o'zgartirishga tayyor emas. Nima uchun? Birinchidan madaniyat markazlari faoliyati to'g'ri tashkil etilmagan. Ularda maxsus ma'lumotli mutaxassislar ishlamayapti. Tadqiqotimizning isboti sifatida quyida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlari xodimlarning statistikasini keltiramiz.

T/r	Hudud nomi	Markazlar soni	Jami shtatlar soni	Jami xodimlar soni	Shundan ma'muriy, ijodiy va texnik xodimlar				
					Oliy ma'lumotli	Shundan madaniyat va san'at soxasini tamomlagan	O'rta maxsus ma'lumotli	Shundan madaniyat va san'at soxasini tamomlagan	O'rta ma'lumotli
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	58	798	883	135	107	614	383	134
2.	Andijon viloyati	71	652	693	113	91	415	300	165
3.	Buxoro viloyati	49	654	693	119	87	435	314	139
4.	Jizzax viloyati	37	449	466	82	65	287	113	97
5.	Navoiy viloyati	32	385	399	67	59	227	179	105
6.	Namangan viloyati	80	831	862	90	68	442	394	330
7.	Samarqand viloyati	78	631,5	738	163	130	406	324	169
8.	Sirdaryo viloyati	35	356,5	369	45	32	211	114	113
9.	Surxondaryo viloyati	74	724,5	763	107	82	486	310	170
10.	Toshkent viloyati	71	530	636	125	108	346	216	165
11.	Farg'ona viloyati	83	904	986	156	136	562	375	268
12.	Xorazm viloyati	66	449,5	555	74	65	238	201	243
13.	Qashqadaryo viloyati	60	619,5	726,5	100	83	429	297	197,5
14.	Toshkent shahar	34	506	544	253	224	225	126	66
	<b>Jami<sup>1</sup></b>	<b>828</b>	<b>8490,5</b>	<b>9313,5</b>	<b>1629</b>	<b>1337</b>	<b>5323</b>	<b>3646</b>	<b>2361,5</b>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi ma'lumotlar bazasidan. 2021-yil dekabr holati.

**Izoh:** Respublikada mavjud madaniyat markazlarida jami 1629+5323+2361,5=9313,5 nafar.

Endi jadvalga yaxshilab e'tibor qarating. Nima uchun madaniyat markazlarida maxsus ma'lumotli mutaxassislar kam? Aslida, oliygohlarda madaniyat va san'at sohasi bo'yicha qabul kvotasi yildan-yilga ko'payib, talabalar soni ortib borayotgan bo'lsa? Quyida e'tiboringiz uchun savolning javobini havola etamiz. Madaniyat markazlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari

T/r	Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari, so'm 2021 yil 1 sentabrdan		
		Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat markazlari	Tumanlar (shaharlar) madaniyat markazlari	Qishloq va shaharcha madaniyat markazlari
1.	Direktor, filial mudiri	1 975 625	X	1 796 025
2.	Badiiy rahbar	1 796 025	1 632 750	X
3.	To'garak, jamoa va studiya rahbari, qo'shiqchilar, musiqachilar*	1 349 380	1 349 380	1 349 380
4.	Rejissyor, baletmeyster, xormeyster, artist, studiya dirijyori, "Xalq havaskorlik jamoalari" va "Namunali bolalar jamoalari" unvoniga ega badiiy havoskorlik jamoalarining musiqa va badiiy rahbarlari	1 632 750	1 632 750	1 484 318
5.	Mutaxassislar: ijodiy to'garaklar va havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha, yoshlar va madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha, sahnalashtiruvchi-rassom, xoreograf	1 632 750	1 632 750	1 632 750
6.	Akkompaniator, liboschi, administrator, kutubxonachi, ovoz rejissyori, operator	1 349 380	1 349 380	1 349 380

\*Ko'rsatilgan oliy ma'lumotli lavozimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 1,08 koeffitsiyentga oshirilgan holda belgilanadi.

Izoh: ko'rsatilgan lavozimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari madaniyat markazlari huzuridagi xalq teatrlari va havaskorlik jamoalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ko'pchilik bitiruvchilar yuqorida ko'rsatilgan oylik maoshi bilan ishlashni xohlashmaydi va madaniyat va san'at oliygohlarini tamomlagandan so'ng doimiy yashash joyidagi madaniyat markazlariga bormaydi. Bu kabi muammolarga soha



faoliyati davomida ko‘plab duch kelishingiz mumkin, shularni inobatga olgan holda, quyidagilarni amalga oshirish zarur.

*Birinchi taklif:* Rahbar zimmasiga yuklatiladigan asosiy vazifalardan biri – xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, yangi texnologiyalar bilan ishlash va ishni tashkil etish uslubiga o‘rgatishdan iborat. Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, bozor munosabatlarini rivojlantirishdagi 80% to‘siqlar tashkilot xodimlari muammolari bilan bog‘liq ekan. Bu muammolar tarkibiga xodimning joriy etilayotgan yangiliklarga qarshiligi, qayta o‘qishni xohlamasligi, yangicha ishlashni istamaslik, tashkilot maqsadlari bilan shaxsiy ehtiyojlarning o‘zaro mos kelmasligi kabilar kirishi mumkin[6:144]. Shu sabab, madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan (828 nafar markaz direktori, 209 nafar badiiy rahbar, 209 nafar bosh mutaxassis, 209 nafar rejissor, 209 nafar xoreograf, 828 nafar ovoz rejissori, 2902 nafar to‘garak (jamo va studiya) rahbari (davlat byudjeti asosida ajratilgan shtatlar), 209 nafar yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassisi, 209 nafar to‘garak va jamoalarning ishini tashkil qilish bo‘yicha mutaxassis) xodimlar malakasini har uch yilda oshirib borish kerak<sup>2</sup>. Yangi xodim ishga kirganda, unga ijodiy va ish ko‘nikmalarini shakllantirish va yo‘l yo‘riq ko‘rsatish bevosita rahbarlarning zimmasidadir.

*Amalga oshirish mexanizmi:* Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan xodimlar malakasini O‘zDSMI huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida (har bir yo‘nalish bo‘yicha malakali mutaxassislarni jalb etish orqali) oshirish bo‘yicha har uch yilga mo‘ljallangan reja-jadval tasdiqlash (reja-jadvalda madaniyat markazlarida mavjud lavozimlar turlari bo‘yicha alohida-alohida) hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish choralarini ko‘rish.

*Kutilayotgan natija:* Madaniyat markazlarida ish samaradorligi yuqori sur‘atlarda ortadi. Markazlarning ma‘muriy va ijodiy xodimlari yangi ish uslubini o‘rganadi va ko‘nikmasini oshiradi. Ansambl va to‘garaklar faoliyati yaxshilanadi, madaniy tadbirlarni o‘tkazishda zamonaviy xorij tajribalarini professor-o‘qituvchilardan o‘rganadi. Barcha xodimlar kasbiy haq-huquqlarni teranroq o‘zlashtirib, me‘yoriy hujjatlar (yangi qaror va farmonlar)ni amaliyotga tadbir etish mahoratini yuksaltiradi.

*Ikkinchi taklif:* Madaniyat markazlari konsert-gastrol faoliyatini yanada rivojlantirishi va xalqqa madaniy xizmat ko‘rsatishini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, ayniqsa madaniyat markazlari yo‘q bo‘lgan, eng chekka qishloq va ovullarda joylashgan mahallalarga ijodiy jamoa hamda texnik jihoz va moslamalarini olib borishda avtotransport vositasi yo‘qligi sababli muammolar kelib chiqmoqda.

*Amalga oshirish mexanizmi:* Qishloq va ovullarimizdagi mahallalarga madaniy xizmat ko‘rsatish uchun mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 1 donadan ko‘chma Avtoklublar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Madaniy xizmatning bunday zamonaviy usuli xalqimiz ma‘naviy-ruhiy ehtiyojlarini tolaqonli qondirishda o‘z ijobiy natijasini berishi shubhasiz. Shunki, avtoklublar konsert-tomosha faoliyati bilan cheklanib

---

<sup>2</sup> Mazkur taklifdagi xodimlar soni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligining 2019-yil 4-iyun “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Madaniyat markazlarining namunaviy shtat jadvalini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 24-son qo‘shma buyrug‘i asosida hisoblangan. Maqoladagi bu ko‘rsatkichda hamma shtatlar qo‘shib hisoblanmagan.



qolmay, cheka hududlar aholisiga kitoblar, gazeta-jurnallar yetkazish, taniqli yozuvchilar, shoirlar, teatr arboblari siyosiy sharxlovchilar bilan muloqatlar uyushtirishni ham amalga oshiradi, ijodiy kechalar tashkil etadi [7:5].

2-rasm



*Kutilayotgan natija:* Qishloq va ovullardagi mahallarga shahar va tumanlardan shu bilan birga respublika miqiyosidan ham ijodiy konsert-gastrollarni tashkil etish imkoniyati oshadi. Shu orqali qishloq va ovullarda istiqomat qilayotgan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish tizimi yaratiladi.

*Uchinchi taklif:* Madaniyat markazlarida xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ishlari talab darajasida emas. Jumladan, MDH davlatlaridagi madaniyat markazlari bilan sherikchilik memorandumlari o'zaro yo'lga qo'yilmaganligini hisobga olib, madaniyat markazlari uchun xorijlik mutaxassislarni jalb etgan holda onlayn mahorat darslarini tashkil etish.

*Amalga oshirish mexanizmi:* Madaniyat vazirligi tomonidan xalqaro hamkorlikning tashkiliy ishlarida faqat vazirlik mutassadilari emas, aksincha madaniyat markazi rahbarlarini birgalikda olib borish va hamkorlik ishlarini o'rgatish kerak. Mazkur jarayonda madaniyat markazi rahbarlari o'z faoliyati doirasidagi ijodiy hamkorlikni tanlashi va keyinchalik birgalikda ishlashi mumkin.

*Kutilayotgan natija:* Xorij tajribasini yangi O'zbekistondagi madaniyat markazlari faoliyatida sinab ko'radi va amaliyotda qo'llaydi. Ijodiy hamkorlikni rivojlantiradi.

*To'rtinchi taklif:* O'zDSMda teatr san'ati talabalari uchun "O'quv teatri" mavjud. Ammo, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish", "Folklor va etnografiya", "Ashula va raqs", "Cholg'u ijrochiligi" yo'nalishlarining "Madaniyat markazi" yo'q. To'g'ri, talabalarni Mirzo Ulug'bek tumanidagi madaniyat markaziga amaliyotga yuboramiz. Lekin, bu o'zini oqlamagan usul ekanligini allaqochoq bilganmiz-ku. Bizning yana bir taklifimiz O'zDSMning ham qoshida madaniyat markazini tashkil etishimiz kerak.

Bugungi avlodning kelajak avlod oldidagi burchi, vazifasi ham o'tmishi ajdodlardan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas [8:295]. Prosessor I.Yo'ldoshev

“Ko‘pchilik ijod mahsuliga ilmiy ish sifatida qaramaydi deya ta’diklab, har bir harakatimizning tamali ilmga borib taqaladi. Shuning uchun ham bu masalaga kengroq qarashimiz lozim ekanligini uqtiradi.

*Amalga oshirish mexanizmi:* O‘zDSMI qoshida tashkil etilib, Institutni rivojlantirish rejsiga kiritiladi.

*Kutilayotgan natija:* Talabalar o‘qish davrida kelajakda ishlaydigan muassasasining funksional vazifalari bilan tanishadi. O‘z mutaxassisligini yaxshiroq tushunadi va bu mohir kadr bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Madaniyat markazlari ishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Madaniyat markazi samarali faoliyat ko‘rsatsa, buni O‘zDSMIning Farg‘ona mintaqaviy va Nukus filiallarining o‘quv jarayonlarida amaliyotga tadbiq etiladi. Agar natija bo‘lmasa bu ham bir tajriba bo‘ladi. O‘quv va amaliyot uyg‘un bo‘lmagan joyda natijani va samarani tahlil qilib bo‘lmaydi.


*Beshinchi taklif:* Hozirda 749 ta madaniyat markazi (79 ta turli tashkilotlarning bo‘sh turgan xonalarida faoliyat yuritadi) o‘z binosiga ega. O‘z binosiga ega madaniyat markazida xususiy-sherikchilik asosida zamonaviy ovoz yozish, foto va video studiyalarini, “Karaoke”, “Book cafe” “Aerobika” to‘garagini tashkil etish. Shu bilan birga, madaniyat markazi qoshida har xil zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish.

*Amalga oshirish mexanizmi:* Aholini ayniqsa yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va madaniyat markazlarini byudjetdan tashqari mablag‘larini ko‘paytirish maqsadida, mahalliy byudjet mablag‘lari, yosh tadbirkorlarini jalb etgan hoda zamonaviy ovoz yozish, foto va video studiyalarini, “Karaoke”, “Book cafe”, “Aerobika” to‘garagini tashkil etish bo‘yicha maxsus tizim ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish. Madaniyat markazi qoshida zamonaviy “reklama media”sini shakllantirish va pullik reklama xizmatini ko‘rsatish.

(3-rasm)

### **Yangi xizmat ko‘rsatish turlari**





*Kutilayotgan natija:* 2022-yilda 3-rasmdagi to‘garak va xizmatlar joriy qilinsa, madaniyat markazlarining har birida pullik tushum yil damomida ba’zaviy hisoblash miqdorida yuqori ko‘rsatkichlarga ko‘tariladi. Eng asosiysi yangi shtat birliklari yaratilib, yoshlarning bandligi ta’minlanadi.

*Oltinchi taklif:* Shahar, tumanlar madaniyat markazlari hududlarida bo‘sh turgan yerlardan samarali foydalanish va “madaniyat servisi” xizmatini yaratish

*Amalga oshirish mexanizmi:* Madaniyat markazi hududida bo‘sh turgan yerlarga tadbirkorlarni jalb qilgan holda ko‘chma bolalar ko‘ngilochar o‘yingohlarini belgilangan tartibda shartnomalar asosida o‘rnatish. Shartnoma asosida madaniyat markazlariga pullik tushumlar tushirish hamda mablag‘larni markazlarning faoliyatini rivojlantirishga sarflanishini ta’minlash.

*Kutilayotgan natija:* Madaniyat markazlariga tashrif buyuruvchilar sezilarli tartibda oshadi va qo‘shimcha pullik tushumlar yo‘lga qo‘yiladi. Madaniyat markazlari qoshida qancha ko‘p pullik servis xizmatlarini tashkil etsak, markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari ko‘payadi. Har oyda xodimlar maoshiga qo‘shimcha miqdorda mablag‘lar qo‘shiladi. Bolalar o‘yingohi uzoqda joylashgan aholi bolalari uchun hordiq chiqarishga zamin yaratiladi.

*Yettinchi taklif:* Kasbiy mahoratini oshirish yo‘lidagi asosiy omil nafaqat kasbga oid mutaxassisliklar, balki rahbarlik mahoratini oshirishga ham tegishlidir. Misol uchun, “General Electric” kompaniyasi inson resurslarini rivojlantirish uchun sarflangan har bir dollar ustiga ustama 3 dollar foyda olar ekan. Ushbu rivojlantirish dasturidagi asosiy e’tibor, yangi texnologiyani o‘zlashtirish va maqsadga intilish yo‘lida samarali faoliyat yuritish uslubini o‘rganishga qaratiladi [9:7]. Shunday ekan madaniyat bo‘lim mudiri va markazi direktorlarining statusi va mavqeni oshirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish samarali yangicha uslublarni o‘rganishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Shu maqsadda soha rahbarlarining malakasini oshirish zarur.

*Amalga oshirish mexanizmi:* Madaniyat bo‘lim mudiri-markaziy madaniyat markazi direktorlarini (206 nafar Madaniyat bo‘lim mudiri-markaziy madaniyat markazi direktori va 3 nafar Farg‘ona va Namangan viloyati madaniyat markazi

direktorlari hamda Toshkent shahar madaniyat markazi direktori) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga 4 oylik “Zamonaviy boshqaruv” va “Boshqaruv mahorati”, “Kreativ boshqaruv”, “Siyosiy madaniyat” kabi malaka oshirish kurslarida o‘qitish. Malaka oshirish yuzasidan Madaniyat vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi o‘rtasida reja-grafik ishlab chiqish va tasdiqlash.

*Kutilayotgan natija:* Madaniyat bo‘lim mudiri-markaziy madaniyat markazi direktorlarining rahbarlik mahorati oshadi, xodimlariga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi, muammoli vaziyatlardan oson chiqib ketish yo‘larini o‘rganadi. Sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash texnikasini oshiradi, bugun bilan hamnafas bo‘lish kerakligini va xodimlariga o‘rnak bo‘lish ko‘nikmalarini egallaydi.

*Sakkizinchi taklif:* O‘zMTK dasturlarida madaniyat va san‘at sohasidagi qarorlarning ijrosi xususida tanqidiy va tahliliy munozaralarni o‘tkazishni va unda jurnalistlar, bloggerlar, yosh tadqiqotchi olim va talabalarning muntazam qatnashish imkoniyatini yaratish kerak. Barcha madaniyat markazlarining veb-sayti faoliyatini yo‘lga qo‘yish va jadallashtirish shart. Ya‘ni, barcha tumanlardagi markazlarning aniq faoliyati yuzasidan ochiq statistik manbalar joylanib borilishi zarur. Chunki, aniq ma‘lumotlar asnosida, soha taraqqiyoti uchun aniq qaror va farmonlar qabul qilinishiga yordam beradi. “Qanchalik achchiq va noqulay bo‘lmasin, men faqat to‘g‘ri va haqqoniy ma‘lumotni bilishni istayman. Bu men uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi[10:104]”.

*Amalga oshirish mexanizmi:* Madaniyat vazirligi tasarrufidagi barcha muassasa va tashkilotlarda.

*Kutilayotgan natija:* Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror, farmonlar soha va keng aholi vakillariga sharh qilinadi. Xalqimizning ijodiy faolligi ortadi. OAVda madaniyat markazi faoliyati keng targ‘ib qilinib, media makonda o‘z o‘rnini yaratadi. Axborot kommunikatsiya faoliyati bilan shug‘ullanadigan mutaxassis yoki matbuot kotibi shtat birligi joriy etiladi.

*To‘qqizinchi taklif:* Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan madaniyat markazlarining statistikasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-mart “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan 3-jadvaldagi ko‘rsatkichlar asosida baholab, madaniyat markazlarini “ranglar kesimi”da taqsimlash kerak.

**Madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining ko'rsatkichlari**

3-jadval

<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar markaziy madaniyat markazlari</b>		<b>Tuman va shahar markaziy madaniyat markazlari</b>		<b>Qishloq va shaharchalar madaniyat markazlari</b>		<b>Umumiy ball</b>
<b>mezon ko'rsatkichi</b>	<b>beriladigan ball</b>	<b>mezon ko'rsatkichi</b>	<b>beriladigan ball</b>	<b>mezon ko'rsatkichi</b>	<b>beriladigan ball</b>	
<b>Yil davomida muntazam ishlayotgan markaz tuzilmalari (to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalari) soni</b>						
15 tadan kam	0	10 tadan kam	0	5 tadan kam	0	0 — 20
15-16 ta	5	10-11 ta	5	5-6 ta	5	
17-18 ta	10	12-13 ta	10	7-8 ta	10	
19-20 ta	15	14-15 ta	15	9-10 ta	15	
20 tadan ko'p	20	15 tadan ko'p	20	10 tadan ko'p	20	
<b>Umumiy xarajatlarida byudjetdan tashqari mablag'larining ulushi (homiyluk xayriyalaridan tashqari), foizda</b>						
30 foizdan kam	0	20 foizdan kam	0	15 foizdan kam	0	0 — 20
30 — 33 foiz	5	20 — 23 foiz	5	15 — 17 foiz	5	
34 — 36 foiz	10	24 — 26 foiz	10	18-19 foiz	10	
37 — 40 foiz	15	27 — 30 foiz	15	20 — 22 foiz	15	
40 foizdan ko'p	20	30 foizdan ko'p	20	22 foizdan ko'p	20	
<b>Yil davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni</b>						
200 tadan kam	0	150 tadan kam	0	100 tadan kam	0	0 — 20
200 — 210 ta	5	150 — 160 ta	5	100 — 110 ta	5	
220 — 230 ta	10	170 — 180 ta	10	120 — 130 ta	10	
240 — 250 ta	15	190 — 200 ta	15	140 — 150 ta	15	
250 tadan ko'p	20	200 tadan ko'p	20	150 tadan ko'p	20	
<b>Yil davomida erishilgan yutuq va ijobiy natijalar (markazda faoliyat ko'rsatayotgan markaz tuzilmalari tomonidan xalqaro va respublika tanlovlarida, festivallarda qo'lga kiritilgan yuqori o'rinlar va boshqalar) soni</b>						
20 tadan kam	0	15 tadan kam	0	10 tadan kam	0	0 — 20

21-22 ta	5	16-17 ta	5	11-12 ta	5	
23-24 ta	10	18-19 ta	10	13-14 ta	10	
25 ta	15	20 ta	15	15 ta	15	
25 tadan ko'p	20	20 tadan ko'p	20	15 tadan ko'p	20	
<b>Asosiy vositalarning saqlanish holati</b>						
“qoniqars iz” (yaroqsiz)	0	“qoniqarsi z” (yaroqsiz)	0	“qoniqars iz” (yaroqsiz)	0	0 — 20
“qoniqars iz” (yaroqli)	5	“qoniqarsi z” (yaroqli)	5	“qoniqars iz” (yaroqli)	5	
“qoniqarli ”	10	“qoniqarli ”	10	“qoniqarl i”	10	
“yaxshi”	15	“yaxshi”	15	“yaxshi”	15	
“a'lo”	20	“a'lo”	20	“a'lo”	20	
<b>Jami ballar:</b>						0 — 100

Ya'ni, “a'lo” – yashil rangda, “yaxshi” – sariq, “qoniqarli” – ko'k rangda, “qoniqarsiz” – qizil rangda taqsimlanadi.

86 — 100 ball to'plagan madaniyat markazlari faoliyati “a'lo”;

71 — 85 ball to'plagan madaniyat markazlari faoliyati “yaxshi”;

50 — 70 ball to'plagan madaniyat markazlari faoliyati “qoniqarli”;

50 balldan past reyting to'plagan madaniyat markazlari faoliyati “qoniqarsiz” deb hisoblanadi [11:333]. Yashil rangda faoliyat olib borayotgan markazlarda ishlaydigan xodimlar malakali mutaxassislardir. Yashil rangdagi madaniyat markazi xodimlari sariq, ko'k yoki qizil rangdagi madaniyat markazlariga shtat birligi saqlanib qolgan holda bir oy muddatga “yaxshi”, “qoniqarli”, “qoniqarsiz” madaniyat markazi xodimlarining mahoratini oshiradi va o'z ish uslublarini o'rgatadi. Agarda o'sha madaniyat markazlari qizildan ko'kka, ko'kdan sariqqa, sariqdan yashil rangga o'tsa, yashil rangdagi markazdan xizmat safariga borgan xodimlar Madaniyat vazirligi va o'sha shahar yoki tuman hokimligi tomonidan moddiy rag'batlantiriladi. Madaniyat vazirligining “Madaniyat va san'at fidokori” ko'krak nishoni bilan mukofatlanadi.

*Kutilayotgan natija:* Qoniqarsiz madaniyat markazlarining ish faoliyati yaxshilanib, respublikadagi madaniyat markazlari o'rtasidagi hududlararo hamkorlik yo'lga qo'yiladi (hozirgi kunda Madaniyat markazlari o'rtasidagi hududlararo hamkorlik umuman yo'lga qo'yilmagan).

Xulosa sifatida yuqorida bildirilgan takliflarning dolzarbligini inobatga olgan holda amaliyotga tezroq tadbiiq etishni tavsiya qilamiz. Bir tomondan bu kabi islohotlar soha xodimlari zimmasiga yangidan-yangi mas'uliyat yuklaydi. Har bir vazifada juda katta ezgulik va ulug' maqsadlar mujassam [12:18].

Yangi maqsadlar sariq intilishimiz Yangi O'zbekiston madaniyati rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, aholining madaniy ehtiyojini qondiradigan yuqori salohiyatli madaniyat markazlarining poydevorini yaratishga imkoniyat yaratadi.

## **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 464.
2. Alimasov V. Manzarov Yu. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy soha: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – B 120.
3. Qobilov Sh. Ma’naviy olamni asrash qayg‘usi // Yangi O‘zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2022. – B. 8.
4. Haydarov A. Madaniyat – ma’naviy komillik poydevori // Teatr jurnali. – Toshkent: 2020. 2-son. – B. 50.
5. Gaziyeu S., Ato H., Rahimov N. Madaniyat markazlarida barcha uchun ta’lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2020. – B. 88.
6. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT bosmaxonasi. – Toshkent 2005. – B.170.
7. Haydarov A. Milliy madaniyat Renessans poydevori // Yangi O‘zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2020. – B. 8.
8. Yo‘ldoshev I. Himmatning qiymati. Fan ziyosi. – Toshkent: 2021. – B. 322.
9. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. – Toshkent: 2005. – B. 170.
10. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: 2021. O‘qituvchi. – B. 184.
11. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.

## **YANGI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA SAN’AT TA’LIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

**Pirmatov Muzaffar Sherzodovich,**  
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”  
kafedrası katta o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san’atga oid falsafiy qarashlari va uning tarbiyaviy ahamiyati ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Maqolada Sharq mutafakkirlari asarlarida san’at va san’atga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinib, bugungi kundagi ahamiyati ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar.** San’at, so‘z san’ati, musiqa san’ati, kitobat san’ati, madaniyat, yoshlar, tarbiya, milliy rivojlanish.

### **Аннотация**

Эта статья была научно изучена философскими взглядами на искусство и ее образовательное значение в историческом наследии средневековых ученых Востока и интеллектуалов. В статье анализируются научные взгляды на искусство и искусство в произведениях восточных мыслителей и показано значение сегодняшнего дня.

**Ключевые слова.** Искусство, словесное искусство, музыкальное искусство, книжное искусство, культура, молодежь, образование, национальное развитие.

### Annotation

This article has been scientifically studied by philosophical views on art and its educational significance in the historical heritage of medieval scholars of the East and intellectuals. The article analyzes the scientific views on art and art in the works of Oriental thinkers and shows the significance of today.

**Keywords.** Art, verbal art, musical art, book art, culture, youth, education, national development.

Bugungi Yangilanayotgan O'zbekistonda san'atshunoslikni, teatrshunoslikni, musiqashunoslikni, madaniyatshunoslikni va madaniy faoliyat sohasidagi boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga e'tibor "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham o'z aksini topdi. Yangilanayotgan O'zbekistonni O'rta asrlar Sharq mutafakkirlari falsafiy merosisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradi-ki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'loqining paydo bo'lishi va voyaga yetishi hanuzgacha dunyo hamjamiyatini o'ylantirib kelmoqda. Ularning asosiy qismi YUNESKOning Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. O'rta asr Sharq allomalari va muttufakirlarining qo'lyozmalari Yevropa va Osiyoning, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Xitoy, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlardagi kutubxonalarning oltin fondlarida saqlanmoqda. Bu bebaho boylik, yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo'lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib materialdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida: "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor bu avvalo. xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekani, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q", - deb ta'kidladilar.

Bugungi tezkor jarayonda O'rta asrlar Sharqi allomalarining ilmiy merosini, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini o'rganish va amalda ommalashtirishga bag'ishlash, ayniqsa, ularning san'atga oid qarashlari va ilmiy tafakkurini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar ma'naviyati dabdurustdan shakllanadigan hodisa emas, uning o'z evolutsiyon yo'li mavjud. Yoshlarimiz ma'naviy dunyoqarashlarini shakllantirishda ma'naviy meros, madaniy



boyliklar, tarixiy va madaniy yodgorliklar muhim o‘rin egallaydi. Qolaversa, diniy va dunyoviy bilimlar, millatning xarakteri, uning salohiyati yoshlarimizning ma’naviy dunyoqarashida muhim, hal qiluvchi omillardir.

Shu bilan birga, yoshlar ma’naviy qiyofasini shakllantirishda o‘ta muhim ahamiyatli yana bir jihat mavjudki, uningsiz hech qanday ma’naviyat to‘g‘risida gapirish mumkin emas. U xalq tarixi, tarixiy xotira.

“Tarixiy xotira milliy g‘urur va milliy iftixor hissining zaminlaridan biridir. Shuningdek, tarixiy xotira - ajdodlar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishi hamdir” [1 B. 389].

Tarixdan bizga ma’lumki, uzoq davrlar davom etgan mustamlakachiliklarga qaramasdan ilm-ma’rifatli xalqimiz yaratish yo‘lida aslo chekinmadi. Bizning xalqimizchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi, biroq O‘rta asr Sharq mutafakkirlari tomonidan jumladan: Nizomiy qo‘lyozmalari, “Tarixiy Vasifiy”, “Iskandarnoma”, Mavlaviy Rumiyning “Masnaviy”si, Navoiyning “Xamsa”si, Rabg‘uziyning “Qissas-ul-anbiyo”, “Tafsiri Qur‘on”, “Ravzatu-s-saf”, “Dostoni Qosim va Go‘ro‘g‘li”, Abdulg‘uziyning “Shajarai turk”, va boshqa ko‘plab asarlar Rossiyaga olib ketilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida O‘zbekistondan tashib ketilgan madaniy boyliklarni vatanimizga qaytarish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etilib, ular jiddiy ishlar olib bormoqdalar.

Hozirgi yoshlarimiz Vatan va millat tarixini, yurtimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini bilmas ekan, o‘z tarixiy xotirasini tiklay olmas ekan, bularning bari milliy rivojlanishimizga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi tezkor jarayonda ilk Uyg‘onish davrida Movarounnahrda ijod qilgan faylasuflar, olimlar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqa san’at ahli o‘z asarlarida talqin qilgan badiiy fikr-mulohazalar o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, fan, san’at va adabiyot islom madaniyati yo‘nalishida rivojlandi va taraqqiy etdi. Bu davrda Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Farididdin Attor, Mirzo Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Bobur, Behzod kabi zabardast daholar o‘z falsafiy qarashlarida san’at va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida purma’no fikrlar bayon qilganlar.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bu davrda dunyoviy ilm-fan ilohiyot bilan bog‘liq holda o‘qitilar, mavjud-Allohni bilish, uning ism-sifatlarini anglash, yani “Alloh go‘zal, u yaratgan narsalar ham go‘zal. U go‘zallikni yoqtiradi, shu bois komil insoning hatti-harakatlari ham go‘zal bo‘lishi, inson go‘zallikka go‘zallik bilan javob berishi kerak” degan aqida asos qilib olingan edi. O‘rta asr Sharqining taniqli faylasufi, musiqa sohasi bilimdoni Al-Forobiy-“Risolai musiqa” asarida: “Yo alhazar, ey musiqa olami, yaxshiyamki, sen borsan, agar sen bo‘lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi?” [2 B. 37]. - deb ta’kidlaydi. Bu davr shoirlari va musiqachilarining ijodidagi asosiy janr madhiya xarakteridagi musiqaviy she’riy-asarlar, hajviy qo‘shiqlar bo‘lib, xalq o‘rtasida juda tez tarqalgan. Musiqa san’atining sehrli kuchi haqida shoir Rudakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Fahriddun Muborakshoh kabi buyuk olimlar o‘z davrida ko‘plab asarlar yaratganlar.

X-XI asrlarda san'atning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni, she'r, qo'shiq, musiqaning san'at vositasi sifatida inson ruhiga ta'siri, go'zallikni his etishdagi ta'siri yanada oshdi.

Bu borada Kaykovus "Qobusnoma" asarida : "Ey farzand, agar shoirlik qilmoqchi bo'lsang, harakat qil toki so'zing oson va foydali bo'lsun, o'zgalari uning sharhiga muhtoj bo'lg'ulik so'zni aytmag'il, san'atsiz va tartibsiz she'r aytmag'il",- [3 B.71]. deb ta'kidlab muallif so'zni go'zallikni idrok etish kaliti sifatida baholaydi.

Shuningdek, muallif "Hofiz va sozandaning zikrida" degan bobida musiqa va qo'shiq san'atning nazariy va amaliy jihatlari haqida to'xtalib: "Ey farzand, agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok va xushro'y bo'lg'il, yaramas xulq, qo'pol bo'lmag'il. Hamma vaqt og'ir yo'llarni chertmag'il, chunki barcha mashq va ohangi bir xilda chertish shart emasdur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'on emaslar, ta'birlari ham bir-birlariga muvofiq emas, ya'ni xalq har xildurlar. Barcha ulus sening sozingdan, ovozingdan bahramand bo'lsin" [4 B.122].

Shuningdek, asarda hofiz va sozandalar she'r va g'azalni ko'p yod bilishlari, har vaqtning o'ziga munosib g'azallar o'qishlari va chiroyli talaffuz qilishlari xususida ham fikrlar bayon qilinadi. San'at ahlining majlislarda holatlarga moslanishlari o'zlarini tutishlari, maqtov va tanqidga, mast-alastlarga munosabatlar, hatto maishat ahli qancha pul bersa shuncha qanoat qilishlarigacha diqqat qaratiladi.

Yana bir ajoyib jihatlar haqida to'xtalmoqchi bo'lsak, o'z davrining yuksak bilimdoni va mutafakkiri Alisher Navoiy o'z asarlari orqali go'zallikni, nafis san'atni yuksak qadrlaydi. Nafis san'at inson ma'naviy olami, kamoli uchun kalit ekanini ta'kidlaydi. Navoiy bir she'rning mazmuni bunday: "...bizga yana bir shifo dorisi berilgan bo'lib, uni san'at deb ataydilar, go'zallik yaratuvchi san'atkorlar chizgan-rasmlar mo'jizakordir. Ular inson ruhiga mayin ta'sir qilish qudratiga egadir" [5 B.18]. Navoiyning san'atga oid, adabiy-estetik qarashlari uning "Majolis ul-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mufdat" asarlarida bayon qilinib, badiiy so'z san'ati, kitobat san'ati, naqqoshlik, hattotlik kabi Sharq san'atining nozik qirralarini tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, Sharq har doim ilm-fan ravnaqiga o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. Ayniqsa, o'zbek xalqi, uning an'anaviy intellektual salohiyati, o'ziga xos tafakkur tarzi, shakllangan ilmiy maktablari, bizning milliy boyligimiz, ayni paytda jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Bugungi tezkor jarayonda yoshlarimizda tashabbus, uyushqoqlik, yaratishga moyillik kuchaymoqda. Hozirgi yoshlarimiz o'zbek xalqining boy milliy madaniy merosi, ota-bobolarimiz yaratgan qadriyatlar, ilm-fan, madaniyat va san'at durdonalaridan nafaqat faxrlanish, ayni paytda ularni ko'paytirish borasida ham qayg'urmoqdalar.

### **Adabiyotlar:**

1. Falsafa. Qomusiy lug'at T.: -2004 y. 389-bet..
2. Abu Nasr Forobiy. "Risolai musiqa", 37-bet.
3. G'.G'ofurov. Sharq javohirlari. Toshkent "Ma'naviyat" 2000. 71-bet.

4. Kaykovus. Qobusnoma. 122-bet.

5. Alisher Navoiy. Asarlar. 15-tomlik. 14-tom. 1967-y. 18-bet.

## **YANGI O‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIGA E’TIBOR ATTENTION TO CULTURE AND ART IN THE NEW UZBEKISTAN**

**Zufarov Zoir Mahmudovich,**

Axborot texnologiyalari kqfedrasi  
dotsenti, E-mail:z-zufarov@mail.ru,  
tel.:(90) 995-42-46

**To‘g‘onboyeva Ziyodaxon**

**Dilshodjon qizi,**

O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti  
MSMTEByo‘nalishi 2-bosqich talabasi  
tel.:(94) 005-72-10

### **Annotatsiya**

Yangilanayotgan O‘zbekistonda juda ko‘plab sohalar qatorida Madaniyat va san’at sohasiga ham alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 112-sonli qaror ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada sohaga qaratilayotgan e’tibor hamda yuqoridagi qaror loyihasi xususida so‘z yuritladi

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, milliy cholg‘u asboblari, taraqqiyot strategiyasi, konsert-gostrol, teatr va sirk tomoshalari.

### **Annotation**

In the renewed Uzbekistan, along with many other areas, special attention is a paid to the field of culture and art. In particular, Resolution PQ 112 “On additional measures for further development of culture and arts” is also important. This article discusses the focus on the sector and the above draft resolution.

**Key words:** New Uzbekistan, national musical instruments, development strategy, concert-tour, teatr and circus performances.

Istiqlol ijtimoiy sohaning yirik va keng ko‘lamli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan madaniyat sohasi, ayniqsa, mamlakatimizning shahar, tumanlari, qishloqlari va chekka hududlarida istiqomat qiladigan aholining barcha qatlamlariga madaniy xizmat ko‘rsatish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlariga xizmat qiladigan madaniyat muassasalariga e’tibor ko‘rsatish, ularning moddiy-texnik negizini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, ularning maqsad va vazifalarini to‘g‘ri belgilash, milliy manfaatlarimizga xizmat ko‘rsatadigan muhim maskanga aylantirish davlatimiz e’tiboridan chetda qolmadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “...Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlari, bebaho me‘moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli asori-atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi”, - degan edi o‘z nutqlaridan birida.

Madaniyat bizning o'tmish tariximizdan so'zlovchi va bugungi kunda boshqalardan o'ziga xos tarzda ajratilib turuvchi qadriyatimizdir. Bugungi kunga qadar, madaniyat va san'at sohasiga mamlakatimizda keng imkoniyatlar qaratilgan va hozirda ham qaratilmoqda. Xususan, sohaga doir qabul qilingan qaror va loyihalar bunga yaqqol misoldir. Misol tariqasida, 2022-yil 2-fevralda qabul qilingan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ112-sonli qaror loyihasidan qisqacha keltirib o'tmoqchiman:

Aholi ayniqsa, olis-olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yartish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahala yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

1. 2022-2023-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin.

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd keltiriladi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslar o'tkaziladi;

musiqa fani uchun ajratilgan, o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamroh dur cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi;

notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi.

o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san'at, hunarmadchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etiladi

Yuqoridagi qaror loyihasida shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida xalqaro va respublika miqiyosidagi festivallarni o'tkazish, Madaniyat vazirligi tomonidan "Madaniyat karvoni" hududlarda konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazish, O'zbekiston davlat filarmoniyasi tarkibidagi badiiy jamoalar tomonidan uning hududiy bo'limlari bilan birga konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazish, Madaniyat Vazirligi tizimidagi davlat teatrlari jamoalarining hududlarga gastrol safarlarini tashkil etish, O'zbekiston milliy simfonik orkestrining Toshkent shahrida yirik konsert-tomosha tadbirlarini tashkil etish" kabi dastur loyihalar o'rin olgan.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Taraqqiyot strategiyasi"(hozirgi kunda mazkur hujjatga o'zgartirish kiritilmoqda)da ham madaniyat va san'at sohasi rivoji uchun mo'ljallangan ishlar alohida ta'kidlab o'tilgan. Binobarin, strategiyaning 5-ustuvor yo'nalishi bo'lgan "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida sohaga oid muhim rejalar ko'zlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi,

"Madaniyat va san'at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi va xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash;

Teatr san'atini rivojlantirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash;

Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta'minlash;

O'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy qilish;

O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish;

Respublika hududida joylashgan madaniy meros ob'yektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog'liq kompleks tadbirlarini amalga oshirish".

Yuqorida keltirib o'tilgan PQ 112-sonli qaror ijrosini ta'minlash doirasida, nafaqat, umumiy o'rta ta'lim, balki, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ham milliy cholg'u ijrochiligi bo'yicha mahorat darslari ajratilsa, ularning vaqtlari yana ham mazmunli o'tgan bo'lardi fukrimizcha. Sababi bugungi shijoatkor yosharda san'atga oshuvtalik, shijoat juda ham kuchli.

#### **Adabiyotlar:**

1. Haydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari, Toshkent, G'afur G'ulom, 2016.-196b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2022-y. 2-fevral. PQ-112
3. O'zbekiston Respublikasining "Taraqqiyot strategiyasi".

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA VA SAN'AT SOHASINI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Turayev Jasur,**  
O'zDSMI Xalq ijodiyoti  
fakulteti Folklor va etnografiya  
yo'nalishi 4-kurs talabasi  
Ilmiy rahbar: **Abdujabborova**  
**Xilola Raxmatilla qizi,** O'zDSMI  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
o'qituvchisi

### Аннотация

Ushbu maqolada Respublikamizdagi umumta'lim maktablarida musiqa fanining o'qitilishi, bu boradagi shart-sharoitlar, yutuq va kamchiliklar, muammolar hamda ularning yechimi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, san'at, madaniya, musiqa, raqs, o'quvchilar.

### Аннотация

В данной статье рассматривается преподавание музыки в общеобразовательных школах республики, его состояние, достижения и недостатки, проблемы и их решения.

**Ключевые слова:** образование, искусство, культура, музыка, танец, ученики.

### Annotation

This article discusses the teaching of music in secondary schools of the republic, its state, achievements and shortcomings, problems and their solutions.

**Key words:** education, art, culture, music, dance, pupils.

Bugungi kunda Respublikamizdagi deyarli barcha umumta'lim maktablarida 1-sinf dan 7-sinf ga qadar haftasiga bir akademik soat (45 daqiqa) dan musiqa darslari, ba'zi maktablarda esa qo'shimcha musiqa va raqs bo'yicha to'garak mashg'ulotlari o'tiladi. Bundan tashqari, birinchi va so'nggi qo'ng'iroq, 21-oktabr – O'zbek tili bayrami, davlatimiz ramzlari (bayroq, madhiya) va 8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, Yangi yil, 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni, 9-may - Xotira va qadrlash kun, ulug' bobolarimiz, mutaffakkirlar, davlat arboblari, yozuvchi va shoirlarimizning xotira kechalariga bag'ishlangan mana'viy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Yuqorida sanab o'tilganlarning deyarli barchasida musiqa va san'at namunalaridan asosiy qurol sifatida foydalaniladi va bu o'z o'rnida yosh avlodning musiqa va san'atga, kuy-qo'shiq, raqs, notiqlik, va cholg'u asboblari bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishga va mehrini oshirishga xizmat qiladi.

Ammo ushbu tashkilotchilik ishlari o'quvchilarning o'rta maktabda ta'lim olish muddatida san'atning biror bir tarmog'ini mukammal o'zlashtirishlari uchun yetarli bo'lyaptimi? Xo'sh, buning uchun qanday islohotlar va chora-tadbirlarni amalga oshirmoq kerak? O'quvchilarning musiqa va san'atni o'qib-o'rganish va amaliyotda qo'llashga, musiqa fani o'qituvchilarining o'z xonandalik, sozandalik va boshqa

mahoratlarini, bilim va ko'nikmalarini butun maktab miqyosidagi barcha o'quvchilarga o'rgatib, shogirdlari orasidan yetuk san'atkorlarni, madaniyat xodimlarini, sohaning zabardast vakillarini yildan-yilga ko'proq yetishtirib chiqarishiga nimalar to'sqinlik qilmoqda? Nima sababdan san'at va madaniyat yo'nalishidagi oliygohlarda aynan o'rta maktabda musiqa va san'at ilmini o'rganib oliygoh ostonasiga kelgan talaba-yoshlar deyarli topilmaydi? Bunday oliygohlarda ta'lim olish uchun musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan o'rta ta'lim muassasalarida bir necha yil o'qigan, yohud san'atkor oilasida dunyoga kelib shu muhitda o'sib ulg'aygan yo bo'lmasa, boshqa bir pullik to'garaklarda ushbu ilmni o'rgangan bo'lishi shartmi? Bu muammolarning yechimi qayerda? Ushbu savollarga maqola davomida javob topishga harakat qilib ko'ramiz.

Navoiy ham "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi" degan edi.

Darvoqe, musiqa inson ruhiyatini ma'naviy oziqlantiruvchi mustahkam quroldir. Ibn Sino insonlarni davolashda musiqadan foydalangani bejiz emas, chunki qalbi, ruhiyati sog'lom inson mustahkam irodaga ega bo'ladi.

O'rta asrlarda bayon etilgan rivoyatlarga ko'ra, g'ijjakni Forobiy yaratgan, Ibn Sino dastlabki ikki torni kvartaga sozlagan, Qulmuhammad Udiy esa g'ijjakka 3-torni qo'shgan. Ungacha ikki simli g'ijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks sado beruvchi torlar soni 8–11 ta bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, ota-bobolarimiz musiqa ilmini o'rganishga katta ahamiyat qaratishganiga amin bo'lamiz.

Bugun ham har bir maktab o'quvchisi biror musiqa asbobini chalishni o'rgansa, o'smirlarning barchasida toza insoniy tuyg'ular kurtak yoza boshlaydi. Bo'sh vaqtlarini faqat internet o'yinlari, ijtimoiy tarmoqlarga sarflamay san'atga safarbar etadilar. Bu ularning kelajak sari intilish istaklarining ortishiga ham xizmat qiladi. Mashhur yozuvchi Stendal aytadiki, "Komil musiqa qalbni shunaqa larzaga keltiradiki, bu hissiyotni sevimli mavjudotlardan bahra olayotgan kabi holatda bo'lgandek his etasiz, ya'ni musiqa, so'zsiz dunyoda bor bo'lgan eng yorqin baxtni ato etadi".<sup>3</sup>

Barchamizga ma'lumki, umumta'lim maktablarida musiqa va san'at ilmini bolalar tafakkuriga yetkazib beradigan asosiy ustun musiqa fani hisoblanadi. Bir necha yillardan buyon mazkur fan bo'yicha malakali mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi ko'pchilik o'rta ta'lim maktablarini qiynab kelayotgan muammolardan biri edi. Respublikamizda musiqa va san'at oliygohlari, ulardagi kvotalar sonining oshirilishi, hukumatimizning so'nggi yillardagi bu sohalarga qaratayotgan e'tibori mazkur muammoni bir qancha yingillashtirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi (ammo ushbu muammo hali butunlay o'z yechim topdi deb ayta olmaymiz. Oliy ta'limda sifatli kadrlarning yetishib chiqarilishi bilan yaqin yillar mobaynida umumta'lim maktablaridagi malakali musiqa fani o'qituvchilarining yetishmovchiligi masalasi o'z yechimini topadi degan umiddamiz), demak umumta'lim maktablarida musiqa va san'atni ravnaq toptirish yo'lidagi eng birinchi masala o'z sohasining ustasi bo'lgan mutaxassislarni jalb qilishdan iborat, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

---

<sup>3</sup> <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/manaviat/4876.htm>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarorida ushbu sohadagi bir qancha salmoqli ishlar qatorida umumta’lim maktablarida ham musiqa, san’at va madaniyat sohalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilishi lozimligi belgilab qo‘yildi. Jumladan, ushbu qarorga muvofiq, musiqa fani o‘qituvchilari 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab kamida bitta milliy cholg‘u asbobida 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab kamida uchta milliy cholg‘u asbobida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lishlari majburiy qilib belgilandi.<sup>4</sup> Bu ham o‘z navbatida fan o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlashlari va malakali mutaxassis bo‘lishlarida muhim ro‘l o‘ynaydi.

O‘quvchilarning musiqiy savodxonlik masalalariga to‘xtalsak, umumta’lim maktablarining barchasida ham malakali musiqa fani mutaxassislari mavjud emasligi xususida yuqorida aytib o‘tdik, lekin shu paytgacha malakali mutaxassislarga ega bo‘lgan maktablarda ham barcha maktab o‘quvchilari musiqa ilmini mukammal o‘zlashtira olgan deya olmaymiz. To‘g‘ri mamlakatimizda o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlov, festivallarda oddiy o‘rta maktab o‘quvchilari g‘olib bo‘lganligi haqida g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilgan o‘quvchi musiqa ustozining sa’y-harakatlari bilan, ustozining bilimlarini to‘g‘ri o‘zlashtirganligi uchun shunday darajalarga ko‘tarilganligi haqida aytib bergan holatlari ham ko‘p quloqqa chalinadi, ammo masala bir yoki bir nechta emas, butun umumta’lim maktablarining barcha o‘quvchilari nega bunday salohiyatga ega bo‘la olishmayotganliklari, hech bo‘lmasa, o‘rtacha darajada musiqa bilimlarini o‘zlashtirmayotganliklari haqida ketmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida biz maqola boshida sanab o‘tgan dars soatlari, to‘garaklar, bayram va tadbirlar o‘quvchilarga musiqa va san’at ilmini o‘zlashtirish uchun kamlik qilayotganligidan dalolat emasmi?

Shu o‘rinda, ko‘plab xonanda va sozanda yoshlarni tarbiyalayotgan, musiqa ilmi yaxshi ravnaq topayotgan musiqa va san’atga ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasiga yuzlansak. Bu ta’lim maskanlarida o‘quvchilar musiqa va san’at bilimlarini puxta egallash uchun asosan, ustozlari bilan yakka tartibda shug‘ullanadilar, jamoaviy darslarda ham o‘quvchilar soni belgilangan me’yorlardan oshirilmaydi va asosiy o‘qituvchiga ko‘maklashish maqsadida jo‘rnovoz o‘qituvchilar xizmatidan ham foydalaniladi. Bundan tashqari, har bir cholg‘u asbobini o‘rganish ishtiyoqidagi o‘quvchi o‘zining shaxsiy cholg‘u asbobiga ega bo‘lishi lozimligi, hafta mobaynida cholg‘u fani ustozini bilan bo‘lib o‘tadigan yakka tartibdagi darslaridan tashqari har kuni eng kamida 2-3 soat vaqtini cholg‘u asbobida o‘z mahoratini oshirish bo‘yicha mustaqil ta’limga sarflashi lozimligi talabi qo‘yiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki musiqa va san’at bilimlarini egallash uchun barqarorlik juda muhim jihatdir, bu bilimlarni egallash uchun sodda qilib aytganda, o‘quvchi barcha sharoitlarga ega bo‘lishi va musiqiy mashg‘ulotlarni kundalik mashg‘ulotlariga aylantirib olishi lozim.

Umumta’lim maktablarida musiqa darslarining 1-sinf dan 7-sinfga qadar haftada bir akademik soat ( 45 daqiqa ) dan o‘tilishi o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini shakllantirish uchun yetarli emasligini yuqoridagi dalillar asosida ham bilib olish qiyin emas. Biz yuqorida musiqiy savodxonlikni oshirish uchun barqarorlik muhim jihat deb aytib o‘tdik, bir o‘ylab ko‘raylik, bir haftada bir marta 25-40 nafar o‘quvchi atiga 45

---

<sup>4</sup> <https://www.lex.uz/uz/docs/-5849580>



daqiqa musiqa darsida ishtirok etishi orqali musiqa bilimlarini puxta o'zlashtirishi mumkinmi?

Umumta'lim maktablarida har bir sinfda 30-35 nafardan o'quvchi tahsil olayotganini kuzatish mumkin, markaziy tuman va shaharlarda, ayniqsa, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 45-50 nafar o'quvchiga yetib boradi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq, sinfda o'quvchilar soni 35 nafardan ortmasligi belgilangan,<sup>5</sup> lekin bunga hanzgacha to'liq amal qilinmay kelinmoqda.

45 daqiqalik darsda 45 nafar o'quvchini qamrab olish mumkinmi?

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 140-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom hamda belgilangan sanitar me'yorlari va qoidalariga muvofiq dars mashg'ulotining davomiyligi 45 daqiqa etib belgilangan.<sup>6</sup>

Soha mutaxassislari tomonidan dars mashg'uloti uchun ajratilgan 45 daqiqa vaqt quyidagicha taqsimlanishi tavsiya etilgan:

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa).
2. O'tilgan mavzuni takrorlash (7 daqiqa).
3. Yangi mavzuni tushuntirish (15 daqiqa).
4. Yangi mavzuni mustahkamlash (10 daqiqa).
5. O'quvchilarni baholash (7 daqiqa).
6. Uyga vazifa berish (3 daqiqa).<sup>7</sup>

Xo'sh, bu taqsimot amaliy fan hisoblangan musiqa fani uchun qanchalik o'zini oqlaydi? Qaror yuzasidan Respublikamizdagi malakali pedagoglar fikrlariga e'tibor qaratsak:

Pedagog Lobar To'xliyevaning aytishicha, amalda har bir sinfda 35-40 nafardan o'quvchi o'tirgan holda 1 akademik soat (45 daqiqa) ichida hamma o'quvchilarni mashg'ulotlarga qamrab olish qiyin masala.

"O'z tajribamdan kelib chiqqan holda aytishim mumkinki, sinfxonada 20-25 nafar bola bo'lganda dars ancha samarali kechadi.

Har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanishingiz, mavzuni batafsil tushuntirib, uni mustahkamlashga vaqt ajratishingiz mumkin. To'g'ri, ko'p narsa pedagogning salohiyati, malakasiga bog'liq.

Lekin o'quvchi ko'p bo'lsa, vaqt chegaralangan bo'lsa, pedagogga bog'liq bo'lmagan holda darsning sifati pasayadi. Ayniqsa, hali yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar bu borada qiynaladi. Bolalarni tinchlantirib, diqqatini darsga qaratish oson ish emas", – deydi Buxoro shahridagi 17-maktab o'qituvchisi Lobar To'xliyeva.

"O'tilgan mavzuni so'rashga 7 daqiqa, yangi mavzu bayoniga 10 daqiqa, mustahkamlashga 10 daqiqa ajratilgan. Sinfda 35 nafar o'quvchi bo'lsa, har biridan bir og'izdan gap so'rab, 1 daqiqadan vaqt ajratganda ham 35 daqiqa tugadi, deyavering.

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/-3137130>

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-3137130>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli [qarori](#) tahririda — *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son

O'quvchilar sonini me'yorlashtirish kerak. Hech bo'lmaganda, matematika, ona tili va adabiyot, kimyo, fizika fanlarida ham ikkiga bo'lib dars o'tilsa, natija ancha yuqori bo'lardi», - deydi Zarafshon shahridagi 2-maktab o'qituvchisi Mehriniso Bobomurodova.

Sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi boshqa ko'plab fanlar qatorida musiqa fani sifatiga ham juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi soni 25 nafardan oshmasligi kerakligini ruhshunoslar ham bir ovozdan ma'qullaydi.<sup>8</sup>

Aslida, cholg'u asbobini chalish mahorati ko'nikmalariga ega bo'lish, qo'shiq aytish sir-sinoatlarini o'zlashtirish uchun soha vakillari ustoz-shogird ana'nalari asosida har kunlik mashg'ulot sifatida ustoz bilan yakka tartibda bilim olganliklarini ko'p marotaba ta'kidlashadi. Umumta'lim maktablarida bu jihatlarni amalga oshirish imkoni bo'lmasa ham o'quvchilar sonini qarorda ko'rsatilgan miqdorga keltirish nafaqat musiqa fani, balki boshqa fanlarning ham sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning o'zlashtirishi bir muncha qiyin bo'lgan fanlar — chet tili, informatika, shuningdek, qiz bolalar va o'g'il bolalar uchun o'quv dasturlari ikki xil bo'lganligi uchun mehnat, jismoniy tarbiya fanlari 2 guruhga bo'lib o'qitiladi. Maktablarda musiqa va san'atni ravnaq toptirish uchun ustoz va shogirdlar o'rtasida dars mashg'ulotlarini yuqoridagi fanlar qatorida har bir sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'lib tashkil qilish va dars soatlarini oshirish bilan ancha ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Bundan tashqari, barcha umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan musiqa fani o'qituvchilarining to'liq xona bilan ta'minlanmaganligi musiqa va raqs to'garaklari tashkil qilishda ham bir qancha muammolarga sabab bo'layotganligini soha vakillari yaxshi bilishadi. Umumta'lim maktablarida musiqa asboblari va adabiyotlarning yetishmasligi, musiqa darsliklarining bolalar salohiyati va yaratilgan shart-sharoitlarga mos ravishda ishlab chiqilmaganligi, fan o'qituvchilari o'z maoshiga sotib olgan cholg'u asboblarni u xonadan bu xonaga ko'tarib yurishi, agar cholg'u asbobiga biror ziyon-zahmat yetsa, yana o'z maoshidan bugungi kun nuqtayi nazari bilan qaraganda, qimmat narhlarda ta'mirlatish mashaqqatlarini chekayotganligi, musiqa va san'atning umumta'lim maktablarida ravnaq topishiga to'sqinlik qilayotgan yana bir katta omillaridandir.

O'z tajribamdan kelib chiqqan holda bu muammolarni hal qilish uchun har bir umumta'lim maktabining rahbaryati tomonidan musiqa fani o'qituvchilariga maxsus xona ajratilishi va musiqa darslari shu xonada tashkil qilinishi, milliy cholg'ularni o'rganish maqsadida ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma va adabiyotlarnilarni olib kelish, musiqa fani darsliklarini qaytadan bolalar salohiyatiga mos ravishda, har bir mavzuni ko'zlangan dars soatlarida o'zlashtirish uchun darslarni nazariy va amaliy shaklda tashkil qilishga moslagan holda ishlab chiqish lozim deb o'ylayman

Yaqin kelajakda ushbu muammolarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarorida aytib o'tilgan maktablarni notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish; 2022–2024-yillar davomida 10130 ta maktab,

---

<sup>8</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2019/03/09/nazariyada-25-nizomda-35-amalda-esa-45-sinflarda-oquvchilar-taqsimotiga-nega-rioya-qilinmayapti>

323 ta bolalar musiqa maktabi, 826 ta madaniyat markazlarini 7 turdagi milliy cholg'ular bilan 3 to'plamdan ta'minlash, buning uchun Respublika va mahalliy budjetlardan teng ulushlarda jami 205 mlrd so'm ajratish, malakali mutaxassislarga asosiy ish joyida ish haqini saqlab qolgan holda musiqa fanidan dars o'tish va to'garak mashg'ulotlarini olib borishga ruxsat berish, musiqa darslarida «Hayotimga hamrohdir cholg'u» shiori ostida cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish, shuningdek, o'quvchilar uchun milliy musiqa cholg'ulari, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etish uchun 2022-yilning o'zida 92 mlrd so'm mablag' ajratish; O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan cholg'u asboblari, ovoz kuchaytirish moslamalari, texnik jihozlar, chiroqlar, maxsus liboslarning O'zbekistonga olib kirilishiga 2025-yil 25-yanvargacha bojxona bojidan ozod etish<sup>9</sup> kabi ko'rsatmalar ijrosini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishning o'zi ham chiroyli bir yechim bo'la oladi, degan umiddamiz.

Shuningdek, qarorda maktab o'quvchilariga kamida bitta cholg'u asbobida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatilishi lozimligi ham belgilab qo'yildi. Darhaqiqat, amalga oshirilayotgan barcha islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning musiqiy salohiyatini oshirish, milliy san'atimizga mehr-muhabbat uyg'otish va shu asnoda komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Bu yo'lda qarorda ko'rsatilgan imkoniyatlardan tashqari maktablarda har bir o'quvchi o'zi qiziqqan bitta cholg'u asbobini o'zi uchun sotib olishi kerak, degan fikrdaman, sababi shundaki, avvalo, har bir fandan o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'quv qurollari sotib olgani kabi cholg'u asbobini ham o'ziga xos bir musiqa darsi uchun qo'llaniladigan o'quv quroli o'rnida ko'rish mumkin; ikkinchidan, sozandalik mahorati, bilim, ko'nikma va malakalari bitta cholg'uga muhabbat qo'yish va uni o'quvchi o'zi xohlagan vaqtda chala olishi bilan ortib boradi; maktabning moddiy texnik bazasi yuqoridagi qaror ijrosi yuzasidan 7 turdagi milliy cholg'ular bilan 3 to'plamdan ta'minlanganida ham butun maktab o'quvchilarini doimiy qamrab olishga yetarli bo'lmaydi, buning uchun o'quvchilar bittadan shaxsiy cholg'u asbobiga ega bo'lishlari zarur deb o'ylayman. Davlat tomonidan ta'minlab berilgan cholg'u asboblari esa cholg'u olishga imkoniyati cheklangan oila farzandariga ko'mak tarzida vaqtinchalik berilib, ijro jihatlari o'rgatilsa, yana bir ijobiy jihat bo'ladi, deb o'ylayman.

Umumta'lim maktablarida musiqa va san'at sohasini rivojlantirish borasida yuqorida sanab o'tilgan va e'tiborim nuqtayi nazaridan chetda qolgan yana boshqa ayrim muammolar bartaraf etilsa va davlatimiz rahbari tomonidan joriy qilingan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarorida ko'rsatilgan islohotlar maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilsa, ishonamanki, yangilanayotgan O'zbekiston maktablarida yaqin kelajakda har bir o'quvchi-yoshlar milliy musiqa va san'atimizga chuqur muhabbat qo'ygan holda musiqiy savodxon bo'lib dunyolarga bo'ylashadilar.

### **Adabiyotlar:**

---

<sup>9</sup> <https://www.lex.uz/uz/docs/-5849580>

1. Dilafro'z HAMROQULOVA, Marhamat tumanidagi 31-maktabning nemis tili fani o'qituvchisining marifat.uz saytida 12/09/2020 sanasida e'lon qilingan e'lon qilingan "[Har bir o'quvchi musiqa chalolsa...!](#)" nomli maqolasi
2. Saodat Abdurahmonovaning kun.uz saytida 14:44 / 09.03.2019 sanasida e'lon qilingan "Nazariyada 25, nizomda 35, amalda esa 45". Sinflarda o'quvchilar taqsimotiga nega rioya qilinmayapti? Nomli maqolasi.
3. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
4. Kun.uz
5. Marifat.uz

## O'ZBEK KINOSIDA TARIXIY BADIY FILMLARNING SHAKLLANISHI

**Nasimov Fotih Hilol o'g'li,**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Kino san'ati, televideniye ixtisosligi Phd doktoranti

### **Annotatsiya**

O'zbek kino san'atida tarixiy filmlarni yaratish jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish, tarixiy janrlarni va voqe'likni mohiyatini teran anglash va filmda aks ettirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kinematografiya, operator, rejissyor, estetik, badiiy, texnik.

### **Annotation**

In the Uzbek cinematography, attention is paid to the study and analysis of the processes of creating historical films, a deep understanding of the essence of historical genres and realities and their reflection in the film.

**Key words:** cinematography, cameraman, director, aesthetic, artistic, technical.

Mamlakatimizda kino sohasi o'tgan 100 yillikda uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ammo mustaqillik yurtimiz rivojining barcha jabhalari qatori kino san'atimizga ham o'zining haqiqiy bo'y-bastini ko'rsatishga imkon berdi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, ma'naviy-madaniy o'zligimizni anglash, san'atimizning o'ziga xosligini saqlab qolgan holda umuminsoniy g'oyalarni ilgari surish, tarixiy haqiqatlarni yuzaga chiqarish va jahon andozalariga xos badiiy asarlar yaratish uchun barcha imkoniyatlar yaratila boshlandi. Endilikda, filmlarimiz o'zligimiz, o'z madaniyatimiz, urf-odat, an'analarimizni keng miqyosda, hech qanday to'siqsiz, erkin ravishda namoyish eta boshladi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan dramaturg va rejissyorlar o'z ijod namunalari bilan jahon ekranlarida ham nom qozona boshladi.

Kino yillar mobaynida ko'plab bosqichlarni bosib o'tgani haqida butun dunyo, xususan, o'zbek kinoshunos olimlari tomonidan batafsil o'rganilgan va turli adabiyotlar orqali bayon qilingan. Kino yaralishidan boshlab, dastlabki davridagi ovozsiz, keyinchalik ovozli, rangsiz, rangli filmlarning o'rganilganlik darajasi yetarlicha. Shuningdek, bugungi kunga kelib, uning bir-biridan farqli turlari hamda

janrlari ham shakllanib bormoqda. Biroq kinoning shunday turi borki, u alohida mehnat va soʻngsiz mashaqqatlarga toʻla, ham katarsis, ham bilim beruvchi tarixiy kinodir.

Tarixiy filmlar – oʻtmishdagi oʻziga xos tarixiy davrlar, voqealar va shaxslar hayotini aks ettiruvchi badiiy filmlar janri. Dunyo miqyosida bu turdagi filmlarning oʻrni va ahamiyati yuqori. Shu xususda, tarixiy filmlar koʻpincha sarguzasht va jangovar koʻrinishda boʻladi, chunki koʻpincha keskin dramatik voqealar, urushlar, toʻntarishlar va shunga oʻxshash voqeʻliklar filmning mavzusiga aylanadi.

1925-yil “Oʻzbekkino” korxonalar idorasi tashkil etildi va “Sharq yulduzi” kinofabrikasi ochildi (Ushbu kinofabrika 1958-yildan boshlab “Oʻzbekfilm” deb yuritila boshlagan). Xuddi shu yili bir qator xujjatli, ilmiy-ommabop filmlar va “Paxta-Orol” badiiy filmi suratga olingan. 30-yillarning birinchi yarmida ilk tarixiy film – “Tong oldidan” (1933-yil, rejissyor: S.Xoʻjayev) filmi suratga olinadi. Shundan soʻng, tarixiy film yaratish boʻyicha oʻziga xos tajribalar davri boshlandi.

XX asrning 40-yillaridan mustaqillik davrigacha yaratilgan tarixiy filmlarda asosan tarixiy shaxslarning hayot yoʻliga, xalq qahramonlari va tarixiy ertaklardagi motivlarga hamda tarixiy adabiy asarlarga murojaat qilingan. Xususan, tarixiy shaxslar haqidagi filmlar sirasiga “Alisher Navoiy” (1947-yil, rejissyor: K.Yormatov), “Ibn Sino” (1956-yil, rejissyor, K.Yormatov), “Furqat” (1959-yil, Y.Aʼzamov), “Hamza” (1960-yil, rejissyor, Z.Sabitov), “Ulugʻbek yulduzi” (1964-yil, rejissyor, L.Fayziyev), “Abu Rayhon Beruniy” (1974-yil, rejissyor, SH.Abbosov) kabilarni kiritish mumkin. Oʻz-oʻzidan maʼlum boʻladiki, xalqning tarixiy qahramonlarini kinotasmalarda jonlantirish istagi kino sanʼati paydo boʻlgan yillardan boshlangan. Yuqorida sanab oʻtilgan filmlar tarixiy voqeʻlik asosida film holiga keltirilgan. Badiiy voqealar bilan boyitilsa-da, tarixiy haqiqatlardan uzoqlashilmagan. Mana shu yillarda xayoliy qahramonlar va tarixiy ertaklar motivlariga ham murojaat qilingan. Xususan, “Nasriddin Buxoroda” (1943-yil, rejissyor, N.Gʻaniyev), “Tohir va Zuhra” (1945-yil, rejissyor, N.Gʻaniyev), “Semurgʻ” (1971-yil, rejissyor, X.Fayziyev), “Yettinchi jin” (rejissyor, M.Aga-mirzayev), “Ali Bobo va qirq qaroqchi” (1970-yil, Hindiston bilan hamkorlikda, rejissyorlar, L.Fayziyev, U.Mehra) kabi filmlar bizga tanish va oʻz syujetlarida qaysidir tarixiy davr elementlaridan foydalanilgan. Qahramonlar va voqealar oʻylab topilgan yoki ertakona motivlardan olingan.

Shuningdek, yirik badiiy asarlar asosida ham filmlar suratga olingan. Romannavis Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” asari asosida ikkita film ishlangan. Ularning biri 1969-yilda rejissyor Yoʻldosh Aʼzamov tomonidan ishlangan film. Filmida bosh rollarni Oʻlmas Alixoʻjayev, Gulchehra Jamilova hamda Gulchehra Saʼdullayevalar ijro etishgan. Filmning ikkinchi varianti esa mustaqillik yillarida 1998-yil rejissyor Melis Abzalov tomonidan suratga olingan. Bu filmida bosh rollarni Behzod Muhammadkarimov, Shahrizoda Dilmurod qizi va Lola Eltoyevalar ijro etishgan. Ushbu filmlarda Oʻzbekistonning qora kunlari boʻlgan “xon zamonlari” haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, bosh qahramonlar hayoti orqali oila va qadriyatlar borasida bahsli masalalar oʻrtaga tashlanadi. Har bir tomoshabinning mazkur filmlar yuzasidan oʻz fikri va qarashi bor. Kimlardir mukammal badiiy asarni film talqinlarini qoralagan holda bu ikki variantga tanqidiy koʻz bilan qaraydi. Shunday boʻlsada, ikki film badiiy

asarning yanada sevimli bo'lishiga o'z xissasini qo'sha oldi, deb ayta olamiz. Xalqimiz esa filmlarning birinchi variantini ko'proq qadrlaydi.

1973-yilda rejissyor Y.A'zamov Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani asosida "Zulmatni tark etib" badiiy filmini ham suratga oldi. Albatta, bu filmni o'sha davr tomoshabinlari qizg'in kutib olgan edi. Biroq oradan bir necha yil o'tib asarga rejissyor M.Muhammedov qayta murojaat qildi. Rejissyor o'z qaydnomalarining birida bu xususda quyidagi fikrlarni bildirgan "Yo'ldosh A'zamov tomonidan suratga olingan "Mehrobdan chayon" filmini ko'rganimdan keyin romanni qayta o'qib chiqdim. Tushundimki, film sho'rolar mafkurasi talablari bo'yicha suratga olingan. Fikrlarimni yozuvchi Xayriddin Sultonov bilan o'rtoqlashdim va undan ssenariy yozib berishni iltimos qildim. Oradan xiyla vaqt o'tib, adib har bir seriyasi qirq besh daqiqali, o'n besh seriyadan iborat ssenariy yozib berdi. Shundan so'ng "Mehrobdan chayon" videofilmi tasvirga tushirildi, tomoshabinlar e'tiborini qozondi".

Mustaqillikning dastlabki yillarida tarixiy filmlarni yaratish bo'yicha harakatlar biroz sustlashdi. Buning boisi, balki tarixni qayta o'rganish va talqin qilishda mustaqillik g'oyalarini singdirish uchun vaqt ko'p ketgandir. Balki, mablag' yoki kadrlar siyosati bo'yicha muammolar yuzaga kelgandir... Aniq sababni keltirish qiyin. 1998-yilda yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari asosida suratga olingan film katta tarixiy voqeaga aylandi. Film rejissyori Sh.Abbosov chin ma'noda o'zbek kinosida revolyusioner maqomiga munosib. Bu film mustabid tuzum, uning eng og'riqli siyosati, "paxta ishi", xalqning mehnat ortidan chekkan a'zimatlari, inson qadri va huquqlarining ochiqdan-ochiq poymol qilinishi borasidagi haqiqatlarni o'rtaga tashlaydi.

Professional rejissyor film suratga olish uchun avvalo, mazmun, g'oya, mavzu, shuningdek, asardagi mantiqiylik va haqqoniylikka e'tibor qaratadi. Mantiq filmdagi asosiy zanjir bo'lib, aynan u asarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Haqqoniylik esa tomoshabinlarning filmga nisbatan shunchaki e'tiborini tortmay, kino orqali aytilajak fikrni to'laqonlik tushunishga undaydi. Zero, haqiqat gohida achchiq bo'lsa ham, insonlarni faqat u to'g'ri yo'lga sola biladi.

Tasavvur qilib ko'raylik, yaxshi rejissyor yaxshi filmni suratga oladi, lekin hamma yaxshi rejissyor ham tarixiy filmni suratga olishi qiyin. Chunki badiiyat va tarixiy haqiqatlarni bir mezonda tutib, ham tomoshaviyligi, ham realligi bilan namunali film yaratish katta salohiyat talab qiladi. Besh-olti kitob o'qish bilan tarixiy film yaratib bo'lmaydi. Rejissyor go'yoki vaqt tuynugidan o'tib, moziyda yashay boshlashi kerak. Keyin esa ijodiy guruh a'zolarini birma-bir zamonasidan uzib, qadim o'tmish bag'riga ko'chirishi zarur. Ana shundagina tomoshabinni kartinadagi voqealarga ishonirish mumkin.

Milliy kinemotografiyamiz tarixida o'ziga xos ijodiy pozitsiyasiga ega, tarixiy filmlar yaratishda yutuqlarga erishgan rejissyorlar yo'q emas. Lekin ularni ko'p deya olmaymiz. Avvalgi mavzuda keltirganimizdek, dastlabki yillarda bu janrda ijod qilgan ijodkorlar safiga N.G'aniyev, K.Yormatov, Y.A'zamov, Z.Sobitov, L.Fayziyev, X.Fayziyev, Sh.Abbosov, M.Aga-mirzayev, M.Abzalovlarni kiritish mumkin. Ularning har biri o'z imkoniyati va davr qarashlari nuqtai nazarida o'z asarlarini yaratganlar. Mustaqillik yillarida esa "Yodgor", "Afandi va Azroil", "Faqat g'alaba",

“Meros” kabi tarixiy badiiy filmlarni H.Nasimov, “Vatan”, “Qo‘rg‘oshin”, Z.Musoqov, “Nazira”, “Ibrat” J.Qosimov, “Islomxo‘ja”, “Ilhaq” J.Ahmedov, “Faridaning ikki ming qo‘shig‘i” Yo.To‘ychiyev, “Avloniy” M.Erkinov, “Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziy” A.Mingnorov, “Oyqiz ertagi” A.Bekturdiyev, “Qo‘qon shamoli” D.Masaidov, “Elparvar” A.G‘aniyevlar tarixiy janrda filmlar yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu sanab o‘tilgan rejissyorlarning har birida o‘ziga xos pozisiya mavjud. Ularning biri shaxsiy xotiralari asosida filmga yondashsalar, biri manbalarga tayanadilar. Biri tajriba uchun o‘z imkoniyatini sinovdan o‘tkazadi. Aslini olganda, har bir film qaysidir uzoq yoki yaqin moziyni o‘zida aks ettiradi. Lekin davrlar talqini nuqtai nazaridan tarixiy filmlardagi haqiqatlar bugungi kun haqiqatlariga mos kelmaydi.

Xalqimiz va ijodkorlar qarashlarida tarix insonni tarbiyalaydi degan haqiqat mavjud. Biz ajdodlari va tarixi bilan faxrlanadigan millatmiz. Boisi, maqtanishga arzigulik qadriyatlarimiz va oltin merosimiz adoqsiz. Ajdodlarimizning faoliyati va katta maktabi bizni doim ilhomlantirgan. Shunday ekan, tarixsiz va tarixiy haqiqatlarsiz milliy kino san‘atini tasavvur etish qiyin. Umid qilamizki, zamonaviy o‘zbek kinosida ham tarixiy filmlar yaratish an‘anasi yuqori saviya va katta qizg‘inlik bilan davom etaveradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000.
2. Akbarov H. “Kino san‘ati tarixi” T.: 2002
3. Muhammedov M. “Rejissura asoslari” T.: 2007
4. Abulqosimova H. “Kinoteleradio tarixi va nazariyasi, darslik. T.: 2008.
5. Rizayev SH. Iztirob san‘ati, T.: “Yangi asr avlodi” 2013.
6. X.Abulkasimova Rojdeniye uzbekskogo kino, T.: 1965.

## **ISSUES OF YOUTH EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MODERN UZBEKISTAN**

Institute of Arts and Culture of Doctoral student  
**Shavkatova Gulnoza Rustam qizi**  
[Shavkatoavg123@gmail.com](mailto:Shavkatoavg123@gmail.com)  
+998977342342

#### **Annotatsiya**

Particular emphasis was placed on the problems of educating young people in modern Uzbekistan, the importance of education in human life and the attention paid to spirituality in our modern society.

**Keywords:** Spirituality, youth, performance, culture, pedagogy, education, worldview, perfection.

#### **Annotatsiya**

Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, bugungi davrda yoshlarimiz tarbiyasidagi muammolar, tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati yoritilgan va zamonaviy jamiyatimizda ma’naviyatga qaratilayotgan e’tibor alohida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Ma’naviyat, yoshlar, spektakl, madaniyat, pedagogika, ta’lim, dunyoqarash, komillik.

#### **Аннотация**

Особый акцент был сделан на проблемах воспитания молодежи в современном Узбекистане, значении образования в жизни человека и внимании, уделяемому духовности в нашем современном обществе.

**Ключевые слова:** Духовность, молодежь, перформанс, культура, педагогика, образование, мировоззрение, совершенство.

Youth is a beautiful time. The faces of young people, the young souls and young love – everything is beautiful. We can describe all the amazing attractions of this only period in life, which is usually remembered during all lifetime, but many youngsters say that their life is followed by numerous troubles. Really, there is no life without problems, but we can't make little account of youth problems.

It is well known from the path of development of any country that the rapid development of a country, its achievements and the well-being of its people depend on the level of attention paid to the education and future of young people in that country. Youth issues are one of the priorities of state policy in Uzbekistan.

In one of his speeches, the head of state said: “I would like to say to our young generation - my sons and daughters: my dear children, in whose veins the zeal of our great ancestors is burning! I hope that you will always be at the forefront of building a new Uzbekistan.»<sup>10</sup>


The future of the younger generation has always been at the center of Uzbek state policy. Even today, large-scale reforms are being carried out in all spheres to overcome the problems that have arisen in our country and to create conditions that will have a positive impact on the development and upbringing of young people. Uzbekistan is a country of young people. The initiative and support of our President will help them achieve their goals.

Today, the effective organization of leisure time of our youth is one of the most pressing issues in our society. Today, social networks are directly stealing the time of our youth. Much of the information published on the Internet is unnecessary for our young people. These conditions cause our young people to lose their personal ideas, to form shallow subconscious thoughts, and even to consolidate their national values. The disrespect for one's parents, the rudeness of one's teacher, the lack of a culture of communication between friends, and the openness of certain situations in families are, of course, very sad.

---

<sup>10</sup> www.yuz.uz





1-picture

This table compares Internet users by age. Sadly, most of them are young. In the age of science and technology, this situation cannot be tolerated. President has recently established the position of youth leader in each mahalla. It was a very good initiative. I would also like to see the establishment of theater clubs for our children in the neighborhoods, as well as small performances with them. It will both a fun game and an educational activity for the kids. Art is one of the most important areas that should serve this education.

Our great ancestor Alisher Navoi said about the education of our youth, the importance of which is better than any play and laughter - Indeed, human morality must not be adapted to any age, but must preserve the original meaning left by generations based on its heritage<sup>11</sup>. From ancient times, our people have been an example to the whole world in morals and ethics. The services of our ancestors and great scholars are invaluable in ensuring that the centuries-old community of morality and great spirituality reaches us in its purest form.

One of the qualities that distinguishes human beings from other animals is politeness. «Etiquette includes all good and noble qualities»<sup>12</sup> - Imam Bukhari said in his book «Adab ul Mufrad» in the definition of etiquette.

Historically, our Jadids, who have struggled to shape our spirituality, have also carried out reforms to educate young people. Haji Muin, one of our nationalist writers who cares about the education and literacy of our youth, says: Those people will never come to their senses again. Work with your pure body and unselfish heart! Young people! The hope of the country is only for your»<sup>13</sup>.

Abdullah Balhi said, «The morality of the nafs is greater than the morality of science, and the morality of knowledge is greater than the morality of science itself.»

<sup>11</sup> "If you want the sun, perfect your profession", Sahhof 2021, p

<sup>12</sup> Imam al-Bukhari "Adab ul Mufrat"

<sup>13</sup> Haji Muin "Youth! The hope of the country is in you alone"Voice of the Workers, 1920

Abdullah ibn al-Mubarak said, «If a person describes me as having the knowledge of the former and the latter as having no manners, I do not regret that I did not meet him. If I hear that a person has the knowledge of the latter, I wish to meet him.»

Ibn Sina said about human modesty: «The beauty that is always present in man is modesty and modesty. Shameless face is like a lifeless body. «Abu Nasr al-Farabi says that a person can be happy with his good manners. Abdullah Avloni, one of the most important enlighteners of the last century, believes that human perfection lies in his mental and physical health, as well as in his manners and good manners. Abdullah Avloni Morality is a set of morals, but good morals do not arise spontaneously. A certain condition for him, says the upbringing. He says this about the role of upbringing in the development of the child.

“A blacksmith's child can be brought up as a scientist,

If his character is broken, even if he is the son of Luqman, he will be a tyrant!”

From the above, it can be concluded that etiquette is the beauty of our nation, the essence of our life.

Because moral and ethical issues have played an important role in human social relations, this issue has long been the focus of leading philosophers and scholars. For example, Abu Nasr al-Farabi wrote in his works that a person can reach spiritual maturity only if he masters moral norms. However, in his view, this is often a reminder that this is done through the emergence of a propensity not only for personal but also for social interests.

The great scholar Abu Rayhan Beruni emphasizes that morality is formed on the basis of a real, practical attitude of man towards man, society and himself. In describing man as a supreme being, Beruni emphasizes that he must be worthy of God-given intelligence, and warns that immorality, evil in man, above all, will bring great calamity to himself and to society.

Moral values include the nature and process of social life of man, society, and peoples, as well as the ethical relationships inherent in events. Moral values are not only universal, but national. In particular, the value has a universal character, national characteristics, its content, status, importance and originality, diversity and richness in society and human development, are inherent in the mentality of our nation and are an integral part of our spirituality. Lives as the basis of our spiritual life.

Focuses primarily on the areas of education and employment, underlining the realization of targets under these Goals as fundamental to overall youth development. Issues related to other Goals including gender equality, good health, reducing inequality, combating poverty and hunger, and action on environmental issues and climate change are also addressed within the scope of the state policy.

It is possible to put in the coverage of times that contradicts my national cadres in the restrictions of the internet and shoot to limit such problems. Promoting spirituality is a great betrayal of the future of our people.

#### **References:**

1. Sh.Mirziyoyev «Together we will build a free and prosperous democratic Uzbekistan», Uzbekistan, 2017

2. Collection “If you want the sun, perfect your profession”, Sakhof 2021, p
3. Imam al-Bukhari “Adab ul Mufrat”
4. Haji Muin “Youth! The hope of the country is in you alone”, Voice of the Workers, 1920
5. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz)
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **YANGI O‘ZBEKISTON LIDERLARI**

**Bektursinova Gulxumar Joldasbaevna,**  
(Ajiniyoz nomidagi nukus davlat pedagogika institute  
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 2- bosqich magistranti)  
[bektursinova.gulxumar@mail.ru](mailto:bektursinova.gulxumar@mail.ru)  
+998913886061

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlariga yaratib berilgan imkoniyatlar, uchinchi renessans davrining talablari, yosh kadrlarga to‘g‘ri yo‘nalish berish, ularning liderlik qobiliyatlarini kuchaytirish va bugungi yoshlar zimmasidagi vazifalar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Yangi O‘zbekiston, Renessans, yoshlar, oila, mahalla, ta‘lim.

### **Аннотация**

В данной статье анализируются возможности, созданные для молодежи Нового Узбекистана, требования Третьего Возрождения, направления молодых специалистов, укрепление их лидерских качеств и задачи современной молодежи.

**Ключевые слова.** Новый Узбекистан, Возрождение, молодежь, семья, махалля, образование.

### **Abstract**

This article analyzes the opportunities created for the youth of New Uzbekistan, the requirements of the third Renaissance, the direction of young professionals, strengthening their leadership qualities and the tasks of modern youth.

**Key words.** New Uzbekistan, Renaissance, youth, family, mahalla, education.

Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik. Oila, maktabgacha talim, maktab va oliy talimni hamda ilimiy-madaniy dargoxlarni bolg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari xisoblanadi. Yurtboshimizning yosh avlodga ulkan ishonchi etibor hamda g‘amxo‘rligi zimmamizga juda katta masuliyat yuklaydi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonda yoshlarga munosabat butunlay o‘zgardi. Yoshlarga oid davlat siyosati asosida yosh avlodning hayotiy manfaatlarini taminlash, ularning ezgu orzu intilishlari, qobiliyat va istedodini ruyobga chiqarishga qaratilgan islohatlar izchil va samarali amalga oshirilmoqda. Bizning ilg‘or bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, yetuk mutaxassis, chinakam vatanparvar insonlar bo‘lib kamoltopishimiz uchun hamma sharoitlar yaratib berilmoqda.

Ko‘plab tengdoshlarimiz parlamentda, hukumat a‘zolari safida, davlat boshqaruvi organlarining masul lavozimlarida, zamonaviy korxonalarda, kichik biznes va tadbirkorlik, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sanat va sport soxalarida hayotimizning barcha javxalarida jo‘shqin faoliyat olib bormoqda. Iqtidorli talabalar uchun Prezident granti tasis etilishi, respublikamizdagi xorijiy o‘quv yurtlarining bakalaviryat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalarining joriy qilinishi, ikki va undan ortiq farzandini shartnoma asosida o‘qitayotgan oilalarga imtiyozli talim krediti berilishi va boshqa yangiliklar yoshlarimizning kelajagi uchun muhim poydevor bo‘ldi. Prezidentimiz tomonidan yoshlarni uy-joy bilan taminlash, ularni mustaqil hayotga tayorlash, oilani mustahkamlash, ajrimlarning oldini olish kabi dolzarb masalalarga alohida etibor qaratildi.

So‘nggi vaqtlarda olib borilayotgan islohotlar sababli yurtimiz haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston” iborasi tez-tez tilga olinmoqda. Bu taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam ko‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofidir. Darhaqiqat, “Yangi O‘zbekiston” da barcha soxalar kabi ajdodlar merosini o‘rganish, xalqimizga, dunyoga yetkazish, e’tirof va extirom kursatishda ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi- degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko‘hna bayramlarimizdan biri Navro‘z - Yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog‘liq qadriyat va an‘analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z!” degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘shurgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni xaqiqat bo‘ladi” [1].

Renessans yoki Uyg‘onish (frans. Renaissance; ital. Renasci) -kayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq kabi leksik manolarni bildiradi. Mashxur nemis sharqshunosi A.Metz birinchi bo‘lib bu atamani metaforik manoda, yani madaniy gullab-yashnagan davrga, asrga va uslubga nisbatan qo‘llagan [2].

Hozirgacha IX–XII va XIV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida moddiy va madaniy hayotda ko‘tarilish, gullab-yashnash, ya’ni “Sharq Renessansi” kuzatilgan. IX–XII asrlarga nisbatan “Ilk Uyg‘onish” davri atamasi ham ishlatiladi. Mug‘ul istilosidan keyingi davr, yani XIV–XVI asrlardagi taraqqiyot Amir Temur va temuriylar davri bilan bog‘lanadi [3]. Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun marifatli dunyoni xayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning manaviy mulki bo‘lib, bu bebaxo boylik yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir” [4].

Demak, bugungi yoshlar ajdodlariga munosib ravishda Markaziy Osiyo hududida Uchinchi Renessans davrini yuzaga keltirishi shart. Zero, xalqimizning uzoq o‘tmishi, tengsiz madaniyati, mard-jasur bobolari, bebaho ajdodlar merosi doimo yangi kashfiyotlar, yangi marralarni zabt etishga undab turadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uygʻonish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun Yangi Oʻzbekiston va Uchinchi Renessans soʻzlari hayotimizda oʻzaro uygʻun va hamohang boʻlib yangramoqda, xalqimizni ulugʻ maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimiz uchun eng katta muammo, bu – bugungi zamon talablariga mos kadrlar yetishmasligini, barcha sohada innovatsion va kreativ fikrlaydigan, ilgʻor texnologiyalarni oʻzlashtirgan mutaxassislariga ehtiyoj juda yuqori ekanini takidlab keladi.

Prezidentimiz oʻz nutqida yoshlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan koʻplab loyixalar, jumladan, yoshlarni ish bilan taminlash, ularning tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish boʻyicha ilgari surgan gʻoyalar ayni biz yoshlarning koʻnglimizdagi ish buldi. Xususan, “Yoshlar: 1+1”, “Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor”, “Yoshlar kichik sanoat zonalarini”, “Loyihalar fabrikasi”, “Yoshlar texno – parklari”, “Yoshlar murojaati” elektron platformasi singari yangi-yangi tashabbuslar hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, ularda jamiyat hayotini oʻzgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, talim tizimidan, bogʻcha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini koʻramiz. Chunki maktabni, talim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni oʻzgartirib boʻlmaydi.

Davlatimiz rahbari takidlaganidek, Oʻzbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib boʻlish uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija boʻlmaydi. Bugun Vatanimizning kelajagini belgilab beradigan, yangi Uygʻonish davrining asosini tashkil etadigan hal qiluvchi soxa- talim-tarbiya tizimi jadal rivojlanmoqda. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks say-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Maktabgacha talim, umumiy talim va oliy talim tizimi mazmunan va sifat jihatidan yangilanib bormoqda. Davlatimiz rahbari oʻtgan yil noyabr oyida Qoraqalpogʻiston Respublikasiga tashrifi chogʻida mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga koʻtarish uchun, avvalo, yangi avlod kadrlarini tayyorlash zarurligini, shu maqsadda yurtimizning har bir hududida bittadan yangi toifadagi maktablar – Prezident maktablari tashkil etilishini takidlagan edi. Joriy yil 20-fevral kuni davlatimiz rahbarining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, qisqa muddatda Toshkent shahrida dastlabki Prezident maktabi qurib bitkazildi. 2019-yilda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus shahrida Prezident maktabi tashkil etildi. Maxsad xalqaro olimpiadalarda, tanlovlarda gʻolib boʻladigan va dunyoning eng yaxshi oliy oʻquv yurtlariga kira oladigan kelajakdagi yetakchilarini, oʻquvchilarini tayyorlash, jahon maydonida raqobatbardosh boʻla oladigan yetakchilarni tarbiyalashdir. Zero uchinchi renessans davri talabi ham shu. Yurtimiz boʻylab “Yosh kitobxon oila”, “Yosh kitobxon”, “Eng kitobxon maktab” tanlovlari oʻtkazilib bu tanlovlarda yoshlarimiz faol ishtirok etmoqda. Davlatimiz rahbarining yoshlarga qarata aytgan quyidagi soʻzlari hammamizni cheksiz toʻlqinlantirdi: “Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya

vaqtingiz ham bekor o'tmasin!. Yoshlik - umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!". Yosh kadrlar zamonaviy texnologiyalarni egallagan bo'lishi, tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv, g'oyalarni shakllantirish, samarali qaror qabul qilish, faol ijtimoiy munosabatlar, moslashuvchanlik, o'z ustida ishlash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi bugungi kun talabiga aylangan.

Opera san'atining ko'p asrlik ijro yo'llarini puxta o'zlashtirish va opera san'ati bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida 2021-2022 o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 24-son bolalar musiqa va san'at maktabi negizida opera san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etildi. Malumki, qoraqalpoq elining o'ziga xos baxshichilik yo'nalishi bor. Mustaqillik yillarida bu yerda opera ham rivojlandi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq baxshilari, xizmat ko'rsatgan artistlar yetishib chiqdi. Bunday maktablarni tashkil etishdan asosiy maqsad – tariximizni, madaniyatimizni chuqur o'rganish, o'zligimizni anglash. Baxshichilik – qoraqalpoq elining ulug' an'anasi, uni rivojlantirish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz, – dedi davlatimiz rahbari Prezident Shavkat Mirziyoyev 2- oktyabr kuni Nukus shahridagi Opera va baxshichilik maktab-internatiga tashrifi chog'ida. Bu muxaddas dargohda qoraqalpoq xalqining farzandi O'zbekiston xalq artisti Jenisbek Piyazov izdoshlari yurtimiz dovrug'ini ulug'laydigan va butun dunyoga tanitadigan farzandlar kamol topishiga aminmiz. Qoraqalpoq xalqi qadimiy va boy tarixga ega. Uning milliy madaniyati, jozibali san'ati, mumtoz adabiyoti, qadriyatlari udum va an'analari olamga mashhurdir. Mustaqillik tufayli qoraqalpoq xalqi juda ko'p qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Adolat va tenglik, ozodlik va erk uchun kurashgan Ernazar Olako'z, Ollayor Do'stnazarov singari xalq qahramonlarining jasoratli, o't yurakli qoraqalpoq farzandlarining orzu-armonlari amalga oshdi.

Tarixdan malumki, yoshlar buyuk o'zgarishlarni amalga oshiruvchi hamda tashuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy madaniyat va manaviyatning qaror topishiga, qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq, Ajiniyoz bobolar ijodiy meroslarining to'la tiklanishiga, aziz xotiralarining ulug'lanishiga yo'l ochib berildi. Bugungi kunda Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qaipbergenov, Tilewbergen Jumamuratov kabi Qoraqalpoq yozuvchi va shoirlarining asarlari xalqlarimiz manaviy xazinasidan munosib joy oldi. Sobir Kamolov, Charjau Abdirov kabi yirik olimlar O'zbekiston fani rivojiga juda katta hissa qo'shdilar. Har bir xalqning o'zligini, milliy mavqei va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug' farzandlari bo'ladi. Ularning qoldirgan o'lmas meroslari shu xalqning nafaqat o'tmishini balki buguni va kelajagini belgilaydi.

Har bitta xalq o'zining milliyligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Qoraqalpoq xalqi azal-azaldan o'ziga hos milliy musiqalariga, ularning mohirona ijrosiga boy xalq. 2021-yil sentyabr oyida II xalqaro baxshichilik san'ati festivali Nukus shaxrida bo'lib o'tdi. Festivalda dunyoning 22 davlatidan 44 ta ishtirokchi va ko'plab xorijiy mehmonlar ishtirok etdi. Bu festivalning qoraqalpoq zaminida o'tkazilgani ham bejizga emas. Chunki bu zaminda bir qancha jirovlar baxshilar yashab ijod qilgan.

Qoraqalpoqlarning ijrochilik san`ati haqida qozoq xalqining mashxur olimi, qoraqalpoq xalqining jiyani Shoxan Ualiyxanov o‘zining “Qozoq poeziyasining shakllari haqida” degan mehnatida qoraqalpoqlar haqidagi afsonani quyidagicha keltirgan: “Ashula dunyoni kezib yurib ko‘p joylarda ashula ashulalab yursa, tinglovchilarning ixlosi ko‘ngildagidek bo‘lmabdi, odamlar qiziqmaganidan so‘ng ashula u erlardan bosh olib ketibdi. Bir kuni ashula qoraqalpoqlar o‘tirgan joyga kelsa, ashulani ular katta mexmondo‘stlik bilan, izzat- hurmat qilib, tong otguncha bajonidil tinglabdi va bundan so‘ng ham yuborgisi kelmay va shu asnoda ayt deb iltimos qilibdi. Shunda u ashulaning haqiqiy egasi shular ekan - deb o‘sha kundan etiboran, qoraqalpoqlarga birinchi ashulachilar, “Saxra b‘lbul‘leri” deb nom beribdi [7]. Shundan beri qoraqalpoqlar bu unvonni nonday aziz bilib ezozlab saqlab kelayotgan ekan. Buyuk ajdodlarimizning ulkan ilmiy merosi yana ming yillar davomida farzandlarimizning barkamol avlod sifatida voyaga yetishida muxim mano-mazmun kasb etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. [https://uza.uz/oz/politics/prezident\\_Shavkat\\_Mirziyoyevning](https://uza.uz/oz/politics/prezident_Shavkat_Mirziyoyevning) O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligi bayramida so‘zlagan nutqi. 31.08.2020.
2. Adam Metz. Musulmon Uyg‘onish davri. Nemis tilidan tarjima, so‘zboshi bibliografiya va indeks D.E. Bertels. N: “Fan”.1966. 456 b.
3. Xayrullaev M. Markaziy Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati. Toshkent: “Fan”, 1994. 136 bet; Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. 314-346-betlar; Shirinov T. Tarixdan etyudlar. Toshkent: “Sharq”, 2014. 336-bet.
4. <https://lex.uz/docs/3600059>.
5. SH.M.Mirziyoyev 2016-yil 10 noyabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bozataw tumanida bo‘lib o‘tgan saylovoldi uchrashuvidagi nutqi.
6. SH.M.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”.Toshkent-2021. 9-10 b
7. M.Nizanov “Qaraqalpaqlar”. Bilim baspasi. No‘kis.2020. 373-b.
8. “Yangi O‘zbekistonning istedadli yoshlari”. Ilmiy ishlar to‘plami. Ikkinchi kitob. Toshkent. “Talim nashriyoti” 2021.5 b

## II SHO‘BA

# MADANIY MEROS VA TA‘LIM TIZIMIDAGI ILMIY INNOVATSION YONDASHUVLAR

---

### O‘RTA OSIYONING QADIMGI VA O‘RTA ASRLAR ARXIVLARI

**Ravshanova Gavhar Ixtiyor qizi,**

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti,  
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti,  
203-guruh talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Ro‘ziyeva Nulifar,*

*“Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik”  
kafedrasi o‘qituvchisi*

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqola, “arviv” atamasi, O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar xonliklar davri va arab xalifaligi davri arxivlari kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari haqida.

**Kalit so‘zlar:** arxiv, O‘rta Osiyo, xonliklar, yozuv, tarix, Xorazm, Buxoro, Xiva, Tuproqqal’a

#### **Annotation**

This article deals with the origin and development of the term "arviv", the archives of the ancient and medieval khanates of Central Asia and the Arab caliphate.

**Keywords:** archive, Central Asia, khanates, writing, history, Khorezm, Bukhara, Khiva, Tuprakkala

#### **Аннотация**

В статье рассматриваются вопросы происхождения и развития термина «арвив», архивы древних и средневековых ханств Средней Азии и Арабского халифата.

**Ключевые слова:** архив, Средняя Азия, ханства, письменность, история, Хорезм, Бухара, Хива, Тупраккала.

**Arxiv** (lot. archivum, yun. archeion — muassasa) — 1) hujjatlar saqlanadigan joy; 2) idoralar, tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar ish faoliyati davomida to‘plangan hujjatlar majmui. Insoniyatning tamadduniy davrlari turli jabhalarini qamrab olgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy munosabatlarni hujjatlarsiz tasavvur etish qiyin. Besh ming yildan oshibdiki, yozuv madaniyati bilan yonma-yon hujjatchilik amaliyoti davom etib kelmoqda. Jahonning turli mintaqalarida ko‘plab hujjat jamlamalari vujudga kelgan. Ular uzoq tarix varaqlarini zarur mazmun bilan to‘ldirishda muhim ahamiyatga ega.



Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishiga hamda davlatchilikning vujudga kelishiga olib keldi. Deyarli bir vaqtda ijtimoiy zarurat tufayli yozuv ham paydo bo'ldi. Qadimiy davlatlar o'zlarining ijtimoiy funksiyalarini bajarish jarayonida turli hujjatlar (qonunlar, farmonlar, mulk va soliq hisobotlari va h.) yaratish hamda ularni saqlashga ehtiyoj sezidilar. Shu tariqa hujjatlarni saqlaydigan muassasalar – arxivlar paydo bo'ldi.

“Arxiv” atamasi lotincha “arxivum” so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “mahkama”, “muassasa” degan ma'noni bildiradi. Lekin bu so'z hozirgi kunda boshqacha ma'noda qo'llaniladi. Arxiv deganda, biz odatda faqat hujjatlar saqlanadigan muassasani tushunamiz.

Bugungi kunda ko'pgina tarixchilar va arxivshunoslar orasida Rossiya istilosiga qadar “O'rta Osiyo davlatlarida hech qanday arxiv bo'lmagan” degan nuqtai nazar yashab keladi. Taniqli sharqshunos olim A. A. Semyonov 1922-yilda quyidagilarni yozgan edi: “Musulmon Sharqida, umuman Turkistonda biz tushunadigan ma'nodagi arxivlarni tasavvur qilolmaydi, negaki idoraviy ishlar nihoyatda boshqacha tarzda olib borilgan”. A. V. Chernov esa o'zining “SSSRda arxiv ishi va uni tashkillashtirish tarixi” nomli o'quv qo'llanmasida to'g'ridan-to'g'ri 1917 yilga qadar “O'rta Osiyo davlatlarida hych qanday arxiv bo'lmagan” deb yozadi.

Bu fikr to'g'ri emas. O'rta Osiyoda qadimgi zamonlardan buyon arxivlar mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda qadimgi arxivlarning paydo bo'lishi bu yerda ilk davlatlarning vujudga kelishi hamda yozuvning tarqalishi bilan bog'liqdir. O'rta Osiyoda xo'jalikning rivojlanib borishi, davlatchilining shakllanishi natijasi o'laroq turli xo'jalik, soliq va yuridik hujjatlarning yaratila boshlandi. Ayni paytda bu hujjatlari ma'lum muddat davomida yoki doimiy ravishda saqlashga ehtiyoj tug'ildi. Natijada hujjatlarni saqlashga mutasaddi bo'lgan shaxslar va muassasalar paydo bo'ladi. Bu muassasalar hozirgi kunda arxivlar, deb ataladi. Demak, arxivlar O'rta Osiyoda qadimgi davrlarda ijtimoiy zarurat yuzasidan vujudga keldi.

Arxivlarda saqlangan hujjatlar zamonlar o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Agar dastlab arxiv hujjatlar bevosita xo'jalik va ijtimoiy hayotni yo'lga solish uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik ular tarixiy jarayonni o'rganish uchun yozma manbalar sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Afsuski, biz O'rta Osiyodagi eng qadimgi arxivlar haqida yetarli ma'lumotga ega emasmiz. Bizgacha yetib kelgan oz sonli yozma manbalarda ular haqida ma'lumot berilmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ayrim arxivshunoslar O'rta Osiyoda to Rossiya istilosiga qadar maxsus arxivlar bo'lmagan degan fikrlarni bildirganlar. Ammo, bu fikrlar haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Avvalo shuni qayd etish kerakki, har qanday davlat hujjatlarsiz faolit ko'rsatishi amri maholdir. Shunday ekan, Ahmoniylar, Yunon-Baqtriya va Kushon davlatlarida zamonigacha kechgan davrda ham arxivlar bo'lgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan yoki hozirga qadar topilmagan. Bundan keyingi arxeologik tadqiqotlar jarayonida O'rta Osiyoda eng qadimiy arxivlarning topilishi ehtimoldan holi emas.

Vatanimiz hududida qadim zamonlarda arxivlarning mavjud bo'lganligi 1948-1950 yillarda Xorazmdagi Tuproqqal'a xarobasida S. P. Tolstov boshchiligida olib

borilgan arxeologik qazishmalar paytida isbotlandi. Bu yerda milodiy III-IV asrlarga oid xorazm tilida yozilgan 100 ga yaqin hujjat topildi.

Bu hujjatlar Xorazm podsholari arxiviga tegishli ekanligi aniqlandi. Ularning 18 tasi yog'ochga, ko'pchiligi oshlangan charmga yozilgan. Hujjatlarning 8 tasi yaxshi saqlangan. Hozirgi kunga qadar 100ga yaqin hujjatdan atigi 26 tasini olimlar o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

Tuproqqal'a arxiv hujjatalarining 2 guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga soliq hujjatlari kiradi. Ular yog'ochga yozilgan. Ikkinchi guruh (teriga yozilgan) asosan xo'jalik hujjatlari bo'lib, ularga podsho xazinasiga tushgan jarimalarning nomi, miqdori hamda qayerdan kelganligi yozib qo'yilgan.

Shunday qilib, tarixiy faktlar O'rta Osiyoda arxivlar qadimgi zamonlardan mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda.

O'rta asrlarda Movarounnahrda arxiv ishi ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan mayda davlatlarda arxivlar mavjud edi. Bu fikrni 1932-1933 yillarda hozirgi Tojikiston Respublikasi Panjikent nohiyasidagi Mug' tog'ida joylashgan qadimgi qasr xarobalaridan topilgan so'g'd arxivi to'la tasdiqlaydi. Mug' tog'idagi so'g'd arxivi deb ataluvchi bu majmua VII asr oxiri va VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni o'z ichiga oladi. Ular So'g'd podsholigiga tobe bo'lgan Panj hokimi saroyi hamda turli viloyatlar hokimlari va amaldorlarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Arablarga qarshi kurash jarayonida Panj hokimi, bir muddat So'g'd podsholigi taxtiga da'vogarlik qilgan Divashtich o'z otryadi bilan Mug' tog'ida joylashgan mudofaa qasriga chekingan. Shunda saroy hujjatlari ham bu yerga keltirilgan. 722 yilda arablar qasrni shturm bilan olib, uni buzib tashlaganlar. Hujjatlar vayron bo'lgan qasr ostida qolib ketgan va 1210-yil o'tgandan so'ng topildi. So'g'd arxivi hujjatlari yurtimizning ilk o'rta asrlar tarixiga doir g'oyat muhim ma'lumotlar beradi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlarda devonxona ish yuritish va arxivlashtirish ishi keng amal qilgan. Ushbu qo'llanmada qadimiy va ilk o'rta asr arxivlari, ularning yetib kelgan darajada qoldiqlari, Somoniylar, Qoraxoniylar, davlatchiligimizning yana bir qator boshqa bosqichlari, nufuzli xonadonlarning arxivlari (Buxoroda Boxarziy vaqflari, Jo'ybor shayxlari arxivi), Buxoro amirligining Qushbegi arxivi, Xiva xonligining Qozilik arxivi, Turkiston general-gubernatorligi arxivi, sovet davri, mustaqillikka erishilganidan keyingi arxiv ishi hamda sohadagi islohotlar qamrab olingan.

Qadimgi Xorazm vohasi Markaziy Osiyo mintaqasida sivilizatsiya jarayonlarning o'ziga xos o'choqlaridan biri bo'lgan. Olib borilgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar buni yaqqol isbotladi. Amudaryo va Sirdaryoning del'talari bo'ylab yuksak o'troq dehqonchilik, shaharsozlik va shaharchilik ijtimoiy munosabatlari mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmidayoq yuksak darajada shakllangan edi. Bu o'rinda Suvyorgan, Amirobod va Tozabog'yob tarixiy-madaniy bosqichlarining bevosita davomiga Xurosondan Janubiy Xorazm orqali kelib qo'shilgan xorasmiylar migratsiyasining passionar ta'sirini alohida qayd etish lozim. Zero, mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillikning 1-choragi davomida Xorazm vohasining tarixiy taqdirida katta rol o'ynagan, voha nomining paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan ushbu

hodisani chuqur tahlil etib, ilmiy asoslangan xulosalar haligacha chiqarilgan emas. Bu masalada ilmiy dalil va isbotli gaplardan ko'ra ko'proq, I. Markvart tomonidan yunon manbalaridagi "xorasmiylar Parfiya bilan Marg'iyona orasida yashaganlar" degan xabardan kelib chiqib, kiritilgan "Katta Xorazm" shartli tushunchasiga shunchaki yuzaki yodoshish va bu orqali Xorazm yetakchiligida qandaydir ulkan, xatto, Kanghani (Kangyuyni) ham birlashtirgan (S.P. Tolstov va uning izdoshlari), janubda Elbrus, Paropamis, Safedko'h tog'lari va Xurosongacha tutash konfederatsiya bo'lganligi haqidagi da'volar bot-bot uchrab turadi. O'z navbatida bu masala maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, hozirgi Xorazm olimchilik an'anasiga oid ko'plab ilmiy-ommabop nashrlarda "Katta Xorazm" tushunchasi mahalliy g'urur manbai sifatida keng tarqalib ketgan. Bu masalaga muayyan oydinlik kiritish yo'lidagi ilmiy fikrlar ham e'tiborga loyiq. Xorazm vohasidagi sivilizatsiyaning tarixiy mohiyati, vujudga kelishi va rivojining bosh omili buyuk Amudaryo bilan bog'liq ekani Abu Rayhon Beruniy tomonidan qayd etilgan. Bunda Sirdaryonig ham rolini albatta e'tirof etish kerak. Chunki million yillar davomida bu ikki daryoning bir- biri bilan tutash tarmoqlari bo'lgan va quyi oqimlarida paydo bo'lgan yuksak madaniyat o'chog'ida har ikkovining ham hissasi teng bo'lgan, desak xato bo'lmaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Is'hoqov Mirsodiq Mirsultonovich, Alimova Rahima Ruskulovna "ARXIVSHUNOSLIK" darslik;
2. Vikipediya Ochiq Ensiklopediyasi;
3. arxiv.uz

#### **РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ**

Кошелева А.Ф. п.ф.н., доцент.  
Курбанова Н.Р. соискатель ГИИКУз

#### **Аннотация**

В статье представлены способы развития творческой личности на базе достижений мировой педагогики. Выделены эффективные, дидактически обоснованные педагогические технологии, способствующие гармоничному решению образовательно-воспитательных задач, стоящих перед высшей школой и творческими вузами Узбекистана.

**Ключевые слова:** склонность, убеждение, психика, совершенствование, инсайт (озарение), инновация, направленность личности, межкультурное пространство.

#### **Annotation**

The article presents ways to develop a creative personality based on the achievements of world pedagogy. Highlighted effective, didactically sound pedagogical technologies that contribute to the harmonious solution of educational and pedagogical tasks facing the higher school and creative universities in Uzbekistan.

**Key words:** propensity, belief, psyche, improvement, insight (synopsis), innovation, personality orientation, intercultural space.

Развитие личности в процессе обучения студентов творческих вузов задача первостепенная. Реформы образовательной сферы Узбекистана затронули все сферы в системе высшего образования, в том числе и область воспитания. Особое внимание при этом отводится развитию гармоничной личности. Подготовки специалистов новой формации в творческих вузах нацелена на понимание и реализацию в учебном процессе простой, но важной установки, при которой развитие личности выступает как альтернатива пониманию «подготовка специалиста узкого профиля». Специфика современного педагогического деятельности и состоит в том, чтобы найти оптимальные средства достижения этих задач. Что же обозначает само понятие современное образование? Оно обозначает решение важнейшей проблемы: создание оптимальных условий подготовки компетентных специалистов, всесторонне разбирающихся в деятельности, готовых к саморазвитию и креативная подготовка специалистов творческих вузов не только тесно увязывается с овладением прочными специальными знаниями, но и с приобретением багажа познаний в культурно-исторической сфере, постижением основ гуманитарных дисциплин. Языки, литература, педагогика, психология позволяют проникнуть в сферу культурно-исторических ценностей и использовать познания этой важной области в своей будущей профессии. Развитие личности при таком подходе составляет один из важнейших компонентов учебного процесса, стимулируя инновационные подходы к его реализации.

Сходство и различие культур определяет острую необходимость для ведения межкультурного диалога, диалога литератур в контексте восточных и западных традиций. Уникальность узбекской культуры, литературы, театра, кино. Она «включает» в себя такие свойства, как красота и миролюбие, любовь к Родине, трудолюбие, милосердие, патриотизм и непринятие насилия. Понимание многозначности и ёмкости узбекской культуры – важнейший фактор для формирования и развития личности интеллектуально наполненной, активной и обладающей современными знаниями об образовательных преобразованиях и процессах, происходящих в социально культурной сфере нашей страны.

Профессор Рустамбек Абдуллаев справедливо утверждает: жизнь, художественная практика, сохранность традиций убеждает нас в том, что чем теснее национальная культура связана с другими культурами, тем интенсивнее она вбирает в себя черты духовного и художественного опыта иных народов, которые приобрели межнациональное, межкультурное и междуховное значения, тем быстрее и плодотворнее она развивается [1].

Современная педагогическая деятельность творческих вузов характеризуется двумя основополагающими тенденциями – проблемно – развивающим обучением с использованием объяснительно – иллюстративных и инновационных подходов и созданием в образовательно – воспитательном процессе максимально эффективной атмосферы творчества. Как показывает длительный педагогический опыт, проявление названных тенденций в процессе

применения тренингов осуществляется наиболее полно и дидактически обоснованно. Тренинги позволяют не только активизировать мыслительные способности студентов творческих вузов, но и использовать самые разнообразные активные методики, основанные на учете психологических и педагогических аспектов современного образовательного процесса.

В ходе обучения с использованием тренингов осуществляется весьма динамичное и естественное формирование и отработка различных способов поиска оригинальных путей решения профессиональных задач, активизация мыслительных способностей обучаемых, которые в результате приводят их к самостоятельности и саморазвитию.

Как правило, упражнения тренинга являются умелым инструментом в руках педагога сочетающим в своем профессиональном деле методы и приёмы духовно-образовательного свойства, гармонично объединенные темой, а иногда и целым циклом занятий. В ходе тренингов наиболее удачно реализуется педагогика сотрудничества, суть которой наиболее ярко отражается в двуединстве процесса обучения – с одной стороны, педагога другой-обучаемый (обучаемые). И обе стороны этого процесса выступают как соиздатели, авторы идей, носители информации. Атмосферы творчества, демократизм образовательного процесса, совместная работа по поиску истины и решению сложных задач наделяют этот учебный процесс большой дидактической силой и воспитательной ценностью.

Руководство тренингом осуществляет либо педагог, либо эксперт, либо режиссер, либо ведущий. В тренинге отрабатываются различные механизмы творчества, но особое место отводится воспитанию вариативности решений, умению формулировать задачи креативно, находить их воплощения в жизни.

В обучении студентов творческих вузов особую роль играет педагогическое обучение. Известный Российский психолог А.А.Леонтьев, анализируя структуру «Особенности этого вида общения» отмечал много этапность конструкции общения, которая предполагает деятельность – взаимодействие – общение – контакт [2].

В умелой и методически обоснованной организации педагогического общения ведущую роль играет преподаватель, при этом важно соблюдение следующих условий:

- создание непринужденной обстановки для педагогического общения;
- четкая формулировка целей общения;
- «включение» в процессе обучения всех уровней общения;
- достижение образовательно-воспитательных задач в процессе творческой деятельности;
- реализация обучения в сотрудничестве в ходе педагогического общения;
- создание условий для умения критически осмысливать получаемую информацию «самостоятельно» добывать её.

При подобном подходе к организации педагогического общения преподаватель налаживает тесный контакт с обучаемыми, помогает добывать

необходимую информацию самостоятельно, критически осмысливать её решать возникающие проблемы творчески, оригинально и главное, самостоятельно.

Творческое начало личности тесно связано с её направленностью. Психологическое обоснование этому явлению было дано в процессе исследования генезиса творчества.

Направленность личности – «совокупность устойчивых моментов, ориентирующих деятельность личности и относительно независимых от наличных ситуаций, направленность личности характеризуется её интересом, склонностями, убеждениями и идеалами, в которых выражается мировоззрение человека» [3].

Особенности человеческой психики позволяют наряду с направленностью личности признавать специфические акты творчества, среди них – озарение (инсайт). Внезапно пришедшая идея, всплывающая из глубин подсознания, позволит находить оригинальное, инновационное по своей сути решение задач. И в этом заключается особая закономерность, специфика творчества. Интуиция, присущая творческому мышлению, наряду с логикой, позволяет найти правильное решение прежде не решенных задач, и накопление знаний в конкретной профессиональной области лишь позволяет решать проблемы любой сложности.

Таким образом, становится очевидной необходимость связи дальнейшего совершенствования образовательного процесса с поиском новых, прежде не использованных способов и технологий обучения и воспитания, которые приведут к усилению потребности творческой молодежи к самообразованию, самосовершенствованию, к духовному и профессиональному росту.

#### **Литература:**

1. Р.Абдуллаев. Традиции музыкальных культур в исследованиях ученых средневековья. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида san’at ва madaniyat масалалари” – Халқаро илмий назарий ва амалий конференция материаллар тўплами, 2015, апрель. 21-22, стр.31

2. А.А.Леонтьев Место интенсивных методов в обучении иностранным языкам. М., 1977

3. А.Ф.Эсаулов «Генезис творчества и закономерности его развития». Вопросы психологии. М:1983 №2, с.92

## ELEKTRON KUTUBXONA HOZIRGI DAVR TALABI

**Xolmurodova Madina Shavkat qizi,**

O‘zbekiston davlat san‘at madaniyat instituti,

Kutubxona-axborot faoliyati,

II kurs talabasi.

madinaxolmurodova001@gmail.com

+998977532903

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola Ma’naviyat tushunchasi asnosida kutubxonalar hayotimizda qanchalar zarurligi, hozirda biz yoshlar an’anaviy kutubxonalardan qay darajada foydalanayotganimiz, Internet tushunchasi va bizning unga bolgan munosabatimiz, foydalanish maqsadlarimiz haqida.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, harakatdagi ong, kutubxona, yozuv, internet, virtual kutubxona, **Elektron kutubxona, Virtual kutubxona, e-kutubxona, e-library, digital library.**

### **Annotation**

This article is about the importance of libraries in our lives in terms of the concept of spirituality, the extent to which we young people now use traditional libraries, the concept of the Internet and our attitude to it, the purpose of its use.

**Key words:** spirituality, active consciousness, library, writing, internet, virtual library, e-library, virtual library, e-library, e-library, digital library.

Yurtimizda tamoman yangi jamiyat qurish mobaynida aynan Iqtisodiyot tushunchasi bilan bir qatorda Ma’naviyat tushunchasiga ham e’tibor qaratilmoqda. Bejizga “Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch- qudratidir”, - demagandi Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida.

Ma’naviyat bu – harakatdagi ong va, albatta dunyoqarash ham. Ma’naviyat inson tarbiyasi, avvalo, oilaviy muhitda shakllanuvchi tushuncha. Kitob o‘qish, bilim olish orqali inson ma’nan o‘sadi. Ongida, dunyoqarashida ma’naviyat hosil bo‘ladi. Aynan kutubxonani ma’naviyat maskani desak adashmaymiz, menimcha.

“Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir”, deyiladi O‘zbekiston Prezidentining “Ma’naviyat-ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi farmonida.

Darhaqiqat, bu vazifalarni bajarish uchun kutubxonalarsiz hech ish qilib bo‘lmaydi.

Lekin bugungi kunda biz yoshlar qay tarzda kitob o‘qiyapmiz, kutubxonalardan qay darajada foydalanmoqdamiz?

Keling, **“Kutubxona”** aslida qanday paydo bo‘lgan va bugungi kunda hayotimizda tutgan o‘rni haqida bir o‘ylab ko‘raylig-a. Insoniyat tarixi kurashlardan, aql va ma‘rifatning rivojidan, uning nodonlik ustidan g‘alabasidan, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat. Insoniyat doimo muntazam taraqqiyot yo‘lidan borgan. Inson tafakkurini o‘zida aks ettirib, saqlab kelayotgan ijtimoiy xotira shu taraqqiyot negizini tashkil etadi. Ijtimoiy xotira insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida biron-bir axborotni yoki ma‘lumotni qayerdadir qayd etish, ro‘yxatga olish, saqlash, qayta ishlov berish, kimgadir, avloddan avlodga yetkazishning o‘sha davrga xos shakllaridan iborat bo‘lgan. Bu shakllar ma‘lum bir sifatga, qiyofaga yoki vositalarga ega bo‘lgan. Jamiyatlar taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida tilning paydo bo‘lishi dastlabki tajribalarni o‘zlashtirib, tahlil qilib, mehnat qurollarini takomillashtirish, ulardan foydalanish jarayonlarida ko‘zga tashlangan. Eng muhim belgilar tuzilmasidan iborat yozuvning paydo bo‘lishi esa fikrlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish, bir kishidan ikkinchi kishiga yetkazish, avloddan avlodga yetkazish imkonini kengaytirdi. Avval xalq og‘zaki ijodi ko‘rinishida, keyinchalik yozma shaklda paydo bo‘lgan ma‘lumotlar almashinuvi og‘zaki va yozma adabiyotning paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada, avval og‘zaki ko‘rinishdagi matnlar yozma shaklga aylandi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan ikkinchi kashfiyot – kitob yuzaga keldi va hamma bilim sohasida adabiyotning mavjudlik shakllariga aylandi. Davrlar davomida kitobning shakl-shamoyili, sifati, bezatilishi, tashqi ko‘rinishi, ishlab chiqarilishi takomillashib bordi. Ammo har qanday shaklda bo‘lmasin, kitobning mohiyati o‘zgarmaydi. Qo‘lyozma holida ham matbaa holida va elektron shaklda ham kitob o‘zining tub mohiyatini, ahamiyatini yo‘qotmaydi, uning o‘rnini boshqa narsa egallay olmaydi. Yozma axborot manbalari bo‘lgan kitob, gazeta, jurnal va boshqalar jamiyat taraqqiyotini, ma‘naviy, ijtimoiy-maishiy talab, ehtiyojlarini to‘la qondirishga qaratilgan va butun insoniyat taraqqiyoti davomida shu vazifani ham bajarib kelgan. Yozma hujjatlar kishilarning o‘zaro fikr almashuv imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, kutubxonalar yozma asarlar umrini uzaytirish vositasi hisoblangan. Boshqa ijtimoiy muassasalar kabi kutubxonalar ham jamiyatning eng zaruriy ehtiyojlari asosida vujudga keldi va turli davrlarda turlicha shaklda rivojlanib keldi. Buning sababi, ma‘lumotlarni qayd qilish, uzatish vositasi sifatida ijtimoiy talabga javob beradigan yozuvning paydo bo‘lishi bilan o‘z-o‘zidan tabiiy holda ana shu yozuvlarni saqlay oladigan muassasalarni vujudga keltirishga ehtiyoj paydo bo‘lgan edi. Shu tufayli ham kutubxonalar avval-boshdanoq jamiyatning mo‘tadil mavjudligini ta‘minlaydigan ajralmas qismi hisoblangan.

Kutubxona – kitoblar va kishilik jamiyati tarixi yig‘indisi bo‘lgani uchun insonparvar muassasadir. Bunda insoniyat erishgan barcha ilmlar, turli fan sohalari bo‘yicha shaklidan, xilidan, turidan, tilidan qat‘i nazar, adabiyotlar to‘plangan. U insoniyat butun borlig‘ining buyuk hujjatlashgan guvohi sifatida yashab kelmoqda. Jamiyat fojeasi kitob o‘qish kamayishidan boshlanadi. “Bizni esa tobora kamayib borayotgan bog‘lar va daraxtlar bilan birga, yo‘qlik qa‘riga singib borayotgan kutubxonalar ham tashvishga soladi. Kutubxonalar nisbatan nega “yo‘qlik qa‘riga singib borayotgan” sifatdoshini ishlatganimizni raqamlar aytadi. Davlat statistika



qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kutubxonalar va axborot resurs markazlarining soni 2000-yilda 6027 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib 400 dona qolgan. 20 yil oldin shaharlarimizda 1013 ta kutubxona bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda ularning soni 361 taga tushgan. Qishloqlarda saqlanib qolgan kutubxonalarga oid raqamlar yana ham hayratlanarli: 20 yil ichida 5014 ta kutubxonadan 39 tasi qolgan xolos, bular aynan 27-oktabr 2021-yildagi fakt. *Qishloqlar mayli, hatto shaharlarda vaziyat ham havas qilgulik emas*” – bu haqda bukbloger Mahin Nursaidova shunday deydi.

Nega kutubxonalar yoppasiga yopilayotgan ilm maskanlari bo‘lishi kerak yoki bunga butun dunyoni qamrab olishga ulgurgan **Internet** sabab bo‘lmoqdam? Har birimizning hayotimizda axborot olamining ahamiyati tobora kuchayib borayotgani kundek ravshan. Hozirgi hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Borgan sari axborot asri bo‘lib, hayotimiz tez suratlarda o‘zgarmoqda. Yaqin o‘tgan ikki yilga nazar solaylik. Koronavirus, pandemiya, karantin bu kabi so‘zlar hammaga tanish. Kuni kechagacha qulog‘imizga chalinib turgan bu so‘zlar bizni internetga tamoman bog‘lab qo‘ydi. Hattoki, bilim maskanlari bo‘lmish maktablarimiz ham internet orqali bo‘ldi. Bilim maskani o‘rnini – “Onlayn maktab” tushunchasi egalladi. Aynan masofaviy bilim olish haqida to‘xtalsak. Pandemiya sharoitida maktablarda onlayn ta‘lim boshlangan bo‘lsa, kutubxonalarda masofadan xizmat ko‘rsatish ya‘ni kutubxonalar o‘z xizmatlarini kitobxonlarga ozmi ko‘pm saytlar orqali ham pandemiyadan ancha oldin boshlagan edi. Kitobxonlar uchun elektron kataloglar mavjud, uning vazifasi kitobxonlarga kerak bo‘lgan adabiyotlarni topib berish. Saytlarga kirib esa kitoblarga buyurtma berishlari yoki kitobning elektron shaklini olishlari mumkin. Bu esa o‘z o‘rnida “Elektron kutubxona”dir. Aslida elektron kutubxona nima? Uning tarkibiy qismlari nimadan iborat? **Elektron kutubxona** – Internetning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda, odatda, ko‘plab kitoblar terib qo‘yilgan, uzun, katta javonlar joylashgan xonalar ko‘z oldimizga keladi. Elektron kutubxonada javonlar vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini esa Internet sahifalari bajaradi. Bu kutubxona ma‘lumotlari elektron ko‘rinishda bo‘ladi va ular kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. U orqali Siz dunyoning ixtiyoriy nuqtasidagi elektron kutubxona ma‘lumotlaridan foydalana olishingiz mumkin. Yana bir qulay tomoni zarur ma‘lumot nusxasini ko‘chirib olishingiz mumkin. Elektron kutubxonadan foydalanishingiz uchun kompyuter, modem va Internet tarmog‘i bo‘lishi yetarli.

Faraz qilaylik, biror bir ma‘lumot bilan tanishish uchun elektron kutubxonadan foydalanmoqchisiz. Kompyuter va Internet yordamida ma‘lumotni bir necha daqiqada topish mumkin. Ma‘lumot dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan bir zumda sizning kompyuteringiz ekranida tasvirlanadi. Buning uchun Siz kompyuteringiz tugmachasini bosishingiz va elektron kutubxonaga kirishingiz yetarlidir. Bir necha daqiqada ma‘lumot ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. Bu mo‘jizani eslatadi. Bu mo‘jiza virtuallik deb ataladi. Unga faqat kompyuter va maxsus tarmoq orqali erishish mumkin. Bir necha yil avval bir maqolani topish uchun o‘ylab vaqt sarflash zarur edi. Bugun esa bu maqsadni amalga oshirish uchun boshqa shaharga borish va vaqt sarflash zarurati yo‘qoldi. Elektron kutubxonalar yordamga keldi. Elektron kutubxonalarni turlicha

nomlashadi: **Elektron kutubxona, Virtual kutubxona, e-kutubxona, e-library, digital library.**

**G'arb mamlakatlarida, masalan AQShda, kutubxonalarni avtomatlashtirish 60-yillardan boshlangan, kitoblarni kompyuterga kiritish orqali elektron kolleksiyalarni yaratish 1971-yildanoq bajarib kelinmoqda. Bizning mamlakatimizda Internet tarmog'ining 90-yillarning oxiri 2000-yillarning boshidan ommalashishi bugungi kunga kelib bizga elektron kutubxonalarni yaratib, mamlakatimiz aholisi va dunyo ahli bilan alishish imkonini bermoqda. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Kutubxonasining kabi markaziy tashkilotlar loyihalari, Internet tarmog'ida tashabbuskor vatandoshlarimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan kolleksiyalar bunga misol.**

Elektron kutubxonalar shu turdagi tashkilotlarki, ular raqamli asarlar kolleksiyalarini ma'lum bir jamoalar yoki jamoalar majmuiga oson va iqtisodiy jihatdan qulay holda foydalanish uchun taqdim qiladi; saralash, strukturasi tuzish, intellectual yo'l ochish, talqin qilish, tarqatish, to'laligicha saqlab qolish uchun zarur resurslar, shu jumladan, ixtisoslashgan xodimlar bilan ta'minlaydi.

#### **Elektron kutubxona imkoniyatlari**

**Elektron kutubxona** odatdagi kutubxonaga qaraganda bir qancha qulayliklarga ega:

- joy tejalishi, ya'ni kitoblarni saqlash uchun maxsus joy zaruriyatining yo'qligi;
- nodir asar va ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalana olish imkoniyatini mavjudligi;

- foydalanishning qulayligi va yangiligi;

- qidiruv tizimlarining mavjudligi;

- ma'lumotlar hajmining cheklanmaganligi;

- ma'lumotni audio, video va kompyuter grafikasi yordamida sifatli va yaxshiroq aks ettirilishi;

- vaqtning tejalishi va cheklanmaganligi, ya'ni undan 24 soat mobaynida foydalanish mumkinligi;

- qo'shimcha xizmatlarning mavjudligi.

- Demak, **elektron kutubxona** – turli ma'lumotlar jamlangan Internet sahifalaridir. Bu sahifa kutubxonalardagi maxsus markaz mutaxassisleri tomonidan ma'lumotlarni muntazam ravishda kompyuterga kiritish va yig'ish orqali tayyorlanadi. Ya'ni ma'lumotlar doimo yangilanib turiladi va kutubxona hajmi kengayib boradi.

- Kutubxona bilan qanday ishlash mumkin. Buning uchun kutubxona manzilini Adres maydoniga yozishingiz zarur. Odatdagi kutubxona singari elektron kutubxona ma'lumotlari ham mavzu yoki alfavit bo'yicha tartiblanadi. Shuning uchun zarur ma'lumotlarni shu tartibda topish mumkin. Virtual kutubxona haqida batafsil ma'lumot bilan quyidagi <http://vlibrary.freenet.uz> sahifasida tanishishingiz mumkin.

Hozirgi kunda elektron kutubxonalar son sanoqsizdir. Kutubxonalar, universitetlar, ba'zi tashkilotlar o'z elektron kutubxonalariga ega. O'zbekistonda ham shunday kutubxonalar mavjud. Quyida ba'zi elektron kutubxona manzillari va tavsifini keltiramiz.

• **Kongress virtual kutubxonasi.** <http://lcweb.loc.gov> – Kongress kutubxonasining elektron ko‘rinishi bo‘lib, u dunyodagi eng yirik virtual kutubxonalardan biridir. Kongress kutubxonasi 1800-yili 24-aprelda tashkil etilgan. Unda 115 milliondan ziyod kitob va hujjatlar yig‘ilgan. Virtual kutubxonada tarixga oid ma‘lumotlar, turli kolleksiyalar, rasmlar axborotlar, yangiliklar mavjud. Bu kutubxona bo‘ylab sayr qilganingizda, unga mujassamlashgan obidalarning uzoq tarixiga safar qilgandek bo‘lasiz.

• **WWW Virtual kutubxonasi.** <http://www.vlib.org> – WWW Virtual kutubxonasi turli-tuman ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi: qishloq xo‘jaligi, iqtisod va biznes, kompyuter texnologiyalari, aloqalar, axborot va jurnalistika, o‘qish, qonunlar, ilm-fan va hokazolar. Kutubxonaning quyidagi bo‘linmalari ham mavjud: Pensilvaniya Davlat Universiteti (USA), Buyuk Britaniya (UK), Shveysariya (Switzerland) va Argentina. Kutubxonada alfavit bo‘yicha so‘z va jumlar bo‘yicha qidirish tizimi mavjud.

• **Gpo Access.** <http://gpo.gov> – US Government Printing Office markazi millionlab ma‘lumotlarni o‘zida mujassamlagan. Unda siz AQSHdagi turli tuman hujjatlar, kitoblar, yangiliklar bilan tanishishingiz mumkin. Har oyda bu kutubxona 28.000.000 ta hujjat bilan to‘ldirilib boriladi. Bu vazifani maxsus elektron ma‘lumotlar bo‘linmasi bajaradi. Maslahatlar va buyurtmalar telefon va elektron pochta orqali bajariladi. Kuniga bir necha minglab foydalanuvchilar bu xizmatdan foydalanadi. Bu kutubxonadan davlat va shaxsiy korxonalar keng foydalanadilar.

Ushbu kutubxonada bolalar uchun maxsus bo‘linma mavjud bo‘lib, bu bo‘linmada bolalar o‘ziga zarur va qiziqarli ma‘lumotlarni olishi mumkin. Bo‘lar: tarix, qonunlar, o‘qishga oid zarur to‘plam va ma‘lumotlardir. Bu bo‘linmaning nomi – AQSH hukumatining bolalar uchun sahifasi. (Ben’s Guide to the US government for kids), manzili - <http://bensguide.gpo.gov>. Marketing va reklama bo‘limi kutubxona kataloglarini ishlab chiqadi va ularni dunyo bo‘ylab tarqatadi.

• **Virginia Commonwealth University.** <http://vcu.library.edu> - Virginia Commonwealth University elektron kutubxonasi. Bu kutubxona universitetning elektron kutubxonasidir. Bu kutubxona o‘zida ko‘pgina kitoblar, maqolalar, jurnallar, audio va video ma‘lumotlarni mujassamlashtirgan. Kutubxona barcha konferentsiyalar, anjumanlar va ma‘ruzalar haqidagi ma‘lumotlarni muntazam e‘lon qilib turadi.

• **Vashington Universiteti Virtual Kutubxonasi.** [www.library.wustl.edu](http://www.library.wustl.edu) - Ushbu kutubxonada quyidagi mavzulardagi ma‘lumotlar mavjud: san‘at va arxitektura, ilm-fan, tibbiyot, qonunlar va hokazolar. Kutubxonaning qidirish tizimi mavjud. Kutubxona ma‘lumotlarga buyurtmalar qabul qiladi.

• **Rossiya Milliy Elektron kutubxonasi.** <http://www.nnc.ru> – Dunyodagi eng yirik ommaviy axborot vositalarining rus tilidagi elektron to‘plamidir. Unda matbuotdagi nashrlar, turli xil ma‘lumotlar keltirilgan. Ma‘lumotlar 2.500 dan ko‘p Moskva, Rossiya mintaqalari, MDX va Boltiq bo‘yi davlatlari axborot manbalaridan olinadi va doimo yangilanib turiladi. Kutubxonaga kuniga 6.500 dan ortiq xujjatlar kelib tushadi va ular to‘la xajmda kutubxonaga kiritiladi. Kutubxonada 4.000.000 dan ortiq hujjatlar yig‘ilgan. Kutubxonada qidiruv tizimi mavjud, u ma‘lumotlarni so‘z va

iboralar bo'yicha topish imkoniyatiga ega. Kutubxona bilan istalgan vaqtda shug'ullanish mumkin. Kutubxona manbalaridan tijoriy usulda foydalanish mumkin. Kutubxona Rossiyadagi eng yirik ommaviy, siyosiy va yangiliklar serveri hisoblanadi.

O'zbekistondagi elektron kutubxonalar manzillari va tavsifi. Biz ta'rifini keltirayotgan ushbu kutubxonalar ilmni rivojlantirish yo'lida tashkil etilgan bo'lib, ulardagi barcha kitoblarni bepul ko'chirib olib mutolaa qilishingiz mumkin.

**1. Ziyonet ta'lim kutubxonasi** – Ushbu kutubxona barcha yo'nalishdagi ta'lim muassalari (maktab, litsey, kollej, universitet) o'qituvchi va o'quvchilari uchun juda katta kitoblarni o'zida mujassamlashtirgan. Saytning o'ziga xos jihatlardan yana biri unga o'zingiz ham electron kitoblarni joylab borsangiz bo'ladi. Saytda quyidagi yo'nalishlarda elektron kitoblarni topish mumkin: Tabiiy-ilmiy, Gumanitar ta'lim, Texnika va texnologiyalar, Madaniyat va san'at, Iqtisod va boshqaruv, Tibbiyot va farmasevtika, Harbiy ish, Badiiy adabiyot, Chet tillari, Buxgalteriya, Qishloq xo'jaligi, Tirik organizm faoliyati xavfsizligi, Turizm, Boshqaruv va axborot texnologiyalari, Ommaviy axborot vositalari, Yo'l harakati qoidalari, Huquqshunoslik, Informatika, Pedagogika, Boshlang'ich ta'lim va boshqa sohalarga oid 110 mingdan ortiq kitoblar, o'quv qo'llanmalar, dissertatsiyalar, diplom va kurs ishlari, monografiya va o'quv darsliklarni yuklab olish mumkin. Sayt manzili: [Ziyonet.uz](http://Ziyonet.uz) kutubxonasi

**2. Ziyo istagan qalblar uchun internet kutubxonasi** – Mazkur onlayn internet kutubxonasi ko'p yillardan buyon mushtariylarga kitoblarni electron shaklga keltirgan holda hadya etib ke moqda. Ushbu internet kutubxonada quyida keltirilgan mavzulardagi kitoblarni mutlaqo bepul topish va oson yuklab olish mumkin:

O'zbek xalq og'zaki ijodi; Alisher Navoiy asarlari; O'zbek zamonaviy she'riyati; O'zbek nasri; O'zbek dramaturgiyasi; O'zbek adabiy tili; O'zbek tilining izohli lug'ati; O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi; Jahon xalqlari og zaki ijodi; Sharq mumtoz adabiyoti; Jahon nasri; Jahon she'riyati; Jahon dramaturgiyasi; Bolalar kutubxonasi; Islomiy kitoblar; Tasavvufga oid kitoblar; Axloq-odobga oid kitoblar; Hikmatlar xazinasi; Tarixga oid kitoblar; Prezident asarlari; Ilmiy-tarixiy, adabiy maqolalar, risolalar; Adabiyotshunoslik; Adabiy antologiya; Adabiy, tarixiy bukletlar; Adabiy esdaliklar, xotiralar; Hajviyot; Tarjimashunoslik; Eski o'zbek yozuvi; Lug'atlar; Chet tillari; Tibbiyotga oid risolalar; Publitsistika; Pazandalik; Sport.

Bundan tashqari ushbu satda audio shaklidagi kitoblar, jurnallar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari darsliklari, maktab darsliklari, mobil kitoblar, rus va qoraqalpoq tilidagi kitoblar, bibliografik nashrlar ham o'rin olgan.

Sayt manzili: [Ziyouz.com](http://Ziyouz.com) kutubxonasi

**3. Talabalar uchun axborot izlash markazi** – Ushbu sayt abituriyentlar, talabalar, o'quvchilar, o'qituvchilar uchun katta manbalarni to'plagan. Unda turli fanlarga oid kitoblar, dars ishlanmalar, testlar, uslubiy qo'llanmalar, tarqatmali materiallar, metodik tavsiyalar, referatlar, prezentatsiyalar, va boshqa materiallarni toppish mumkin. Ushbu saytdagi materiallarni yuklab olish uchun saytdan ro'yhatdan o'tib olishingiz talab etiladi.

Sayt manzili: [Aim.uz](http://Aim.uz) axborot izlash markazi

**4. Xalq ta'limi vazirligining axborot ta'lim portal** – Mazkur sayt orqali darsliklarning electron variantlari, pedagog va amaliyotchilar tajribasidan materiallar,

fanlarga oid videodarslar, videoroliklar, ma’ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, testlar, animatsiyalar, darsda kerakli fotolar, o’rgatuvchi ta’limiy o’yinlar, prezentatsiya va tekst shaklidagi dars ishlanmalari, o’quv reja va dasturlarni topish mumkin. Shuningdek ushbu saytdan ertaklar, hikoyalar, topishmoqlar, she’rlar, rivoyatlar, ta’limga oid elektron dasturlar ham o’rin olgan.

Sayt manzili: [Eduportal.uz](http://Eduportal.uz) Xalq ta’limi portal.

#### **Elektron kutubxonaning asosiy vazifalari:**

– kitobxonlarga taqdim etish qiyin bo’lgan yoki cheklangan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta’minlash;

– faqat elektron shaklda mavjud bo’lgan axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishni ta’minlash;

– katta hajmli axborot bilan ishlashda foydalanuvchilarga shart-sharoitlar yaratish;

– xizmat ko’rsatishning sifati va tezkorligini oshirish, foydalanuvchilarga elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari xizmatlari ro’yxatini kengaytirish;

– kutubxona texnologiyalarini modernizatsiya qilish;

– elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini jahon axborot makoniga integratsiyalash;

– elektron axborot-kutubxona resurslarini uzoq muddat saqlash.

Elektron kutubxona har tomonlama qulay. Lekin bu kutubxonalar kerak emas deganimas. Faylasuf Rey Bredberi aytganidek: “Kitoblarni yoqishdan ko’ra yomonroq jinoyat ham bor,ularni o’qimaslikdir”.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.
2. Berdiyeva Z. *Kutubxonashunoslik (Kasb-hunar kollejlari uchun. Toshkent, “Ilm ziyo”, 2014) darsligidan.*
3. <https://shosh.uz/kutubhona-nurhona-orta-osiyoning-qadimgi-kutubhonalari/>
4. [https://tami.uz/matnga\\_qarang.php?id=230](https://tami.uz/matnga_qarang.php?id=230)
5. <https://saviya.uz/turfa-olam/eng-katta-elektron-kutubxona/>
6. <https://kun.uz/uz/news/2021/10/27/kutubxonalar-yoppasiga-yopilgan-ilm-maskanlari?q=%2Fnews%2F2021%2F10%2F27%2F>
7. <https://baxtiyor.uz/elektron-kitoblar-kutubxonalar-darsliklar/>
8. <https://uzpharmagency.uz/oz/menu/elektronnaja-biblioteka->

## MUMTOZ MUSIQA VA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI

**Yo'ldashev Azizbek Shavkat o'g'li,**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa va san'ati  
instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: "Musiqiy-nazariy fanlar" kafedrası  
katta o'qituvchisi Arzibeyeva Zuhra Ilyasovna

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek milliy mumtoz musiqaning bu kunga qadar yetib kelishida ustozoda xonanda va sozandalar yaratgan ijro maktablari muhimligi aytilgan. Zero, kelajak avlodni ma'naviy barkamollikka erishishda milliy merosni targ'iboti, ustoz-shogird an'analarning ne chog'liq muhim ekanligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** an'ana, ustoz-shogird, musiqiy meros, xonanda, sozanda.

### **Annatasion**

This article emphasizes the importance of performance schools created by singers and musicians in the mastery of Uzbek national classical music to this day. After all, the promotion of national heritage and the importance of teacher-student traditions are shown in the achievement of spiritual perfection of the next generation.

**Key words:** tradition, teacher-student, musical heritage, singer, musician.

### **Аннотация**

В данном статье о произведениях, созданных узбекскими бастакорами в искусстве Узбекистана. Раскрывается уровень важности для сегодняшних творческих молодеж существующий национальной творческой школе.

**Ключевие слова:** традиция, музыкальная наследия, произведения, исполнительство.

"O'zbek mumtoz musiqasi o'tmishdan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkab-u mukammalligi va beqiyos an'analarni o'zida mujassam etganligi bilan o'zga xalqlar musiqasidan ajralib turadi. Ushbu musiqa ijodiyotida xalqimizning o'tmish an'analari, boy va teran ma'nolarga asoslangan tarixi muhrlangan. Ularning har bir namunasi tarixdan bir sadodir. Binobarin, ularni qanchalik o'rganmaylik, qanchalik sirlardan vofiq bo'lmaylik, shunchalik yangi qirralari ochilib, o'zining benazir xususiyatlarini namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek mumtoz musiqasini o'rganish, ularda mujassam etilgan falsafiy g'oyalarni anglash, tarix sadolarini uqib olish, ularning sir-u sinoatlarini idrok etish uchun bugungi kunda imkoniyatlar yetarli."<sup>14</sup>

Barchamizga ma'lumki, o'zbek mumtoz musiqasi shu kunga qadar ustoz-shogird an'anasi asosida avloddan avlodga o'tib kelmoqda, bu davrgacha o'tilgan vaqt mobaynida qator mohir sozanda va xonanda ijro uslub va maktablari zamirida sayqallanib, o'ziga xos shakl va shamoyili bilan biz yoshlarga yetib kelgan. Mumtoz musiqamizni rivoji yo'lida bu an'ana va ustozlarning mehnati beqiyosdir, shu bilan

<sup>14</sup> R.S.Abdullayev. "O'zbek mumtoz musiqasi" (o'quv qo'llanma). Toshkent, "Yangi nashr", 2008

birga ular yaratgan o'ziga xos betakror ijro yo'li har bir sozanda va xonanda uchun zarbulmasal bo'lib kelmoqda. R.Abdullayevning "O'zbek milliy musiqasi" o'quv qo'llanmasi yordamida mumtoz musiqamizning hozirgi kunga qadar yetib kelishini ikki bosqichga bo'lgan holda o'rganishimiz mumkinligi keltirilgan. Bunga ko'ra birinchi bosqich XX asrga qadar bosib o'tilgan yo'l bo'lib, aynan shu davrda ustoz-shogird an'analari kamol topgan va ijrochilik maktablari rivojlangan. Shu o'rinda ijrochilik maktablariga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Har bir cholg'u hamda ovozning o'ziga xos o'ri va sadosi bo'lgani kabi har bir ijro maktablarining ham o'zbek mumtoz musiqasida o'ziga xos o'ri va jilosi bor. O'zbekiston hududida milliy mumtoz musiqa va bastakorlik ijodiyotida Toshkent – Farg'ona, Xorazm va Buxoro ijrochilik maktablari keng tarqalgan. Shuningdek, har bir ijrochilik maktabi o'zining mohir ustoz, xonanda va sozandalariga ega.

Bulardan Farg'ona – Toshkent ijrochilik maktabi vakillari namoyondalari: To'xtasin Jalilov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, G'ulomjon Xojiqulov, Yunusqori Yusupov, Abduhoshim Ismoilov. Buxoro ijrochilik maktabi namoyondalariga Aminjon Ismatov Qodir Suxonov, Asliddin Nasriddinov, O'lmas Rasulov kabi ijrochilar, Xorazm maktabidan esa Allanazar Xasanov, Yusuf Jabborov, Karim Iskandarov kabi ustozlar va ularning davomchilarini misol qilib keltirib o'tish mumkin.

Ikkinchi bosqich – bevosita XX asrdan keyingi va hozirgi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda musiqa ilmini saqlab qolishga yanada katta e'tibor berildi. Misol tariqasida o'zbek mumtoz musiqasining asosi va tayanchi bo'lmish "Shashmaqom"ning notaga olinishini keltirishimiz mumkindir.

"O'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan musiqa cholg'ulari va cholg'u musiqasi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. O'zbek cholg'u musiqasi barcha xalqlar musiqasi kabi o'ziga xos tarix va an'analarga boy. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ushbu musiqaning ajoyib jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam shavq-zavq va huzur baxshida etmoqda. Musiqa ta'sirida shakllanadigan estetik munosabat kishi ruhiy holatiga bog'liq bo'ladi yoki uni belgilab beradi."<sup>15</sup>

Hozirgi o'zbek mumtoz musiqa ta'limi rivojida yangicha yondoshuvlar va samarali o'qitish usullariga asoslanish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda musiqa san'atining maqom cholg'u ijrochiligi uslublarini o'rganish bilan bir qatorda o'zlashtirish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan diqqatni tortadi. Mazkur yo'nalishning maqom cholg'u ijrochiligi ayniqsa, o'ziga xos usullar, tajribalar va mahoratlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Albatta musiqiy merosimizni saqlab qolishda zamonaviy texnologiyalarning ham o'ri juda katta va sezilarli bo'ldi. Ammo ming afsuski, bugungi kunda aksariyat o'quvchi-yoshlar bu texnologiyalardan noto'g'ri foydalanmoqda. Misol tariqasida ustoz-shogird an'anasining va ustozlar ijro maktabining yo'qolib borishini keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda o'quvchi-yoshlar va talabalar asosan bir yoki ikkita ijro maktabi bilan chegaralanib qolishgan bo'lib, ijrodagi badihaviylikni, musiqa asarining o'ziga xos bo'lgan kayfiyatini tinglovchiga yetkazib bera olmayotgani sir

---

<sup>15</sup> R.S.Abdullayev. "O'zbek mumtoz musiqasi" (o'quv qo'llanma). Toshkent, "Yangi nashr", 2008

emas. Ijrodagi bu kamchiliklar ijrochini ijod qilishiga to'sqinlik qilmoqda, o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoqi kamayib bormoqda. Shuning uchun bunday dars qilish usuli samarali natija bermasligi mumkin.

Albatta har bir yosh avlod yangi musiqiy asar olganda dastavval uning nota yozuviga va uning ijro variantlariga murojaat qiladi. Berilgan asarni yodlab bo'lgandan keyin esa asar ustida ishlamaydi. Vaholangki, uning qator cholg'u variantlariga murojaat qilmaydi. Asarni mukammal va to'liq ijrosi uchun ijodiy yondashish muhimlik qilmaydi go'yo. Natijada, bu asar qaysidir ma'noda yuzaki o'rganiladi, o'quvchi uchun sezilarli o'zgarishga sabab bo'lmaydi. Aslini olib qaraganda har bir musiqiy mumtoz asar ijrochini o'z ustida ishlashga, yangidan-yangi xalq qalbida qoladigan ashula va kuylar yozishga undashi kerak. Ana shundagina musiqamiz yanada kamol topadi.

Albatta, bu muammolarni hal etishda, ya'ni ijro maktablari va ustoz-shogird an'analarini saqlab qolishda ustozlar ijro variantlarining o'rni beqiyosdir. Endilikda, mazkur amaliy ehtiyojlar zaruriyati o'laroq, musiqiy ta'limning yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Ularni hal etish uchun quyidagi manbaalarga murojaat etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- Ijro variantlarini ko'paytirish.

Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchi musiqiy asarning faqat birgina varianti bilan chegaralanib qolmasligi zarur. Uning bu asar haqidagi tasavvuri keng bo'lib, o'z ustida ishlashga va kelajakda ijodda o'z ijro yo'lini topishiga yordam berishi kerak.

- Yozma variantlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Bugungi kunda ko'plab yosh talabalarda bu ko'nikma yoki nota savodxonligi yetishmaydi. Buning uchun esa albatta, musiqiy nazariy savodxonlik va mutaxassislik mashg'ulotlari uchun o'quv maskanlarida ko'proq soat ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda talabaning ko'nikma, bilim saviyasi va sifat ko'satgichi yanada yuqori bo'ladi. Musiqaga yo'naltirilgan maktab va kollejlarda o'rtasidagi o'zaro nazariy-amaliy bilimlar bellashuvlarini ko'paytirish ham bo'lajak ijrochi sozanda va xonandalar uchun muhim.

Albatta, bu kabi ilm va mahorat bellashuvlari yoshlarda kelajakka umid bag'ishlaydi va o'z ustida ishlashga undaydi.

Fikrimizga ilova tarzida o'quvchilarda milliy kuylarni idroklash, milliy musiqa janrlarining tuzilishi, ijrolarning xilma-xilligini (variantlarini) farqlash va ijro etilishi bilan birga nazariy va amaliy ko'nikma hosil qilish maqsadida mashg'ulotlarning bir necha turlari: jumladan, faol va noan'anaviy shakllari tavsiya etiladi. Zamon talabidan kelib chiqqan holda dars jarayonida amaliy mashg'ulotlar bilan bir vaqtda pedagogik texnologiyalardan ham foydalanish muhim deb o'ylaymiz.

Xulosa sifatida alohida ta'kidlamoqchimizki, bugungi yosh avlod o'tmishni, o'zining boy merosini mukammalroq bilishi va idrok qilishi uchun musiqiy ta'lim manbaalarining yetarli bo'lishi muhim zamin sanaladi. Mumtoz musiqamizni o'rganish, uni amalda o'zlashtirish musiqa va san'at kollejlari hamda akademik litseylar o'quvchilarining milliy g'ururini shakllantirish uchun asosiy omillardan bo'lib qoladi. Cholg'u ijrochiligi sohasida taniqli namoyandalar tomonidan yaratilgan turli shakllardagi cholg'u kuylari, ijro uslublari hamda usullari yuzasidan ma'lumot hosil



qilish, ular haqida mustaqil fikrni shakllantirish, bilimdon va malakali kadrlarni yetishtirish yoʻlida, oʻzbek mumtoz musiqasi fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Rajabov I. Maqomlar. –Т., 2006
2. Abdullayev R. Oʻzbek mumtoz musiqasi. –Т., 2008
3. Qodirov N. Gʻijjak ijrochiligida mahalliy uslublar. –Т., 2016
4. Ibrohimov O. Maqom asoslari. –Т., 2018
5. Azizboyev S. Anʻanaviy cholgʻu ijrochiligi. –Т., 2019

### **МУСТАФО БАФОВЕВ И ЕГО ПУТЬ К УСПЕХУ**

ГИИКУз, отделение «Вокальное исполнительство»  
студентка 2 курса **Фарходова Комила Дильшод кизи** +998998592667  
Научный руководитель доцент кафедры «Вокал»,  
кандидат педагогических наук  
Маликова Севар Саматовна

В статье рассматривается хоровое творчество, а также, анализируется оратории и хоровые сцены из опер композитора, автора многих произведений различных жанров Мустафо Бафоева.

#### **Mustafo Bafoev and his path to success**


The article discusses choral creativity, as well as analyzes oratorios and choral scenes from the operas of the composer, the author of many works of various genres, Mustafo Bafoev.

«Цель музыки - трогать сердца» говорил Иоганн Себастьян Бах, эти слова остаются актуальными и сегодня, затрагивая сердца многих людей, и мое сердце тронуло музыкантливый композитора, заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан (1995), профессора Государственной консерватории Узбекистана (2008), а так же, автора многих произведений различных жанров Мустафо Бафоева.

10 ноября 1946 году в небольшом селе Ганчкаш города Бухары, в семье Вахадовых Бафо и Зульфийи родился первенец, которого назвали Мустафо. В этой семье все любили петь, в особенности мама.

Мустафо успешно окончил обычную среднюю школу и даже понятия не имел, что всю свою жизнь он посвятит музыке. Он очень любил музыку, но к сожалению отец был против того что бы Мустафо занимался музыкой, отец хотел чтобы он стал агрономом. Но как говорится, музыка приходит тогда, когда ее не ждешь. Когда отец Мустафы уехал отдыхать в санаторий в Наманган, никому не сказав Мустафа решил поступать в музыкальное училище. М. Бафоев с детства любил петь народные песни на свадьбах, на различных праздниках. Как вспоминает композитор, поступления в музыкальное училище, для него самого

было неожиданным решением, и даже не имея знания музыкального языка, он все таки попытался и поступил в 1960 году в Бухарский музыкальный училище, где изучал узбекский национальный инструмент Гиджак. Путь в освоении этого искусства, особенно сложного, но в то же



время прекрасного инструмента, по словам композитора была сложным. Отлично окончив в 1964 году училище, Мустафо Бофоев успешно сдает вступительные экзамены в Ташкентскую государственную консерваторию, и в течение пяти лет обучается в классе выдающегося педагога, доцента кафедры струнных инструментов Владимира Беленского, а также по классу дирижирования у композитора и профессора Мардона Насимова.

После успешного окончания консерватории в 1969 году его направили в Бухарский педагогический государственный институт где он проработал 3 года. Но он горел желанием вернуться в Ташкент, и еще раз поступить в консерваторию, но только теперь, на отделение композиции. На то время у М.Бафоева была семья, жена Дильбар Ражабова и 2 детей. Посоветовавшись с супругой, он все - таки поступает в консерваторию во второй раз. Молодой композитор много трудился, искал свою нишу в огромном мире музыки, свой оригинальный стиль, язык.

Что самое важное является для музыканта, композитора? Это оценка и мнение слушателей и окружающих его людей. Только те люди, которые переступая черту и вознося что-то новое для людей, становятся великими людьми. В том числе и М.Бафоев не боясь перемен, создавал что-то не обычное, новое, то, что еще никто до него никогда не делал. И это у него получалось превосходно, просто и великолепно.

На сегодняшний день, М.Бафоев не только превосходный композитор, но и отличный дирижер, автор многих музыкальных произведений в различных жанрах. Это инструментальные, вокальные, хоровые произведения, оперы и оратории. Хоровой жанр играет важную роль в творчестве Мустафо Бафоева. Почти во всех произведениях композитора различных жанров хор является важным фактором музыкальной драматургии. В своих произведениях, таких как «Газель-сюита» «Лисон ут-Тайр» балетная феяра, композитор стремится осветить отдельные аспекты хора. В творчестве композитора через хор доносятся до слушателей глубокие и сильные эмоции, высокие мысли.

М.Бафоев писал произведения для хора, оперы, симфонии, оратории. Во многих произведениях композитор возвращается к восстановлению древних ладов, традиционных обрядов. Успешно работая в кантата-ораториальном жанре композитор создал ряд произведения которые нашли своих слушателей. Например, ораторию на слова О. Халила “Бухоронома” (1977), для чтеца, солиста, смешанного хора и оркестра, на текст Хафиза “Симфоник маком” (1978) для тенора и оркестра, на слова Бабура “Газал” (1980) для солиста и мужского хора, к 1000 летию Ибн Сина, на рубаи самого ученого хоровую поэму “Накшлар” (1084), а также оратории “Тошкент хакида кўшик”, “Ҳажнома”, “Зафарнома” написанные для солистов, смешанного хора и оркестра. М.Бафоев работает в симфоническом и вокально-симфоническом жанрах. Он обогатил репертуар оркестров ихоров избранными произведениями: симфонической поэмой «Сказание о Шираке» (1974), Симфония для камерного оркестра «Авиценна» № 2 (1984), 5-й хоровой симфонией «Статус Алишера Навои» (1991) на слова Навои. «Концертная поэма» для дутара с оркестром (1989); «Сюиты» (2014 г.) на темы Т.Джалилова.

В 2000 году М.Бафоев участвовал на Международном музыкальном фестивале «Великий шелковый путь» и создал произведение «Бухарский концерт» для виолончели и национальных инструментов - флейты, трубы, дойры и барабанов который был исполнен на Бостонском музыкальном центре. Важную драматургическую функцию здесь играет межстильный контраст, используемый композитором во многих своих произведениях.

До глубины души мое сердце тронуло его произведение «Хамса», первая премьера которого состоялось 28 мая 2017 года в Государственном Академическом Большом театре имени Алишера Навои. Продолжительность спектакля 2 часа 30 минут.



Что такое «Хамса»? От арабского означает «Пятерица». В общем понятии это поэма, который состоит их пяти частей. В нее входит: «Смятение праведных», «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Семь планет», «Стена Искандера». Название поэмы дано самим Навои, которое он интерпретировал как кисть руки (панжа). «Панж ганж» (Пять сокровищ) и ладонь Бога. Опираясь на национальные художественные традиции, Мустафо Бафоев существенно обновляет рамки устоявшихся веками жанров. Так, в оперу

«Омар Хайям» включены сцены празднования Навруза, что перекликается с детскими воспоминаниями композитора, который, будучи мальчишкой, с друзьями выходил далеко за пределы кишлака под Бухарой и собирал тюльпаны, участвовал в сайилях. После этой оперы М.Бафоев написал еще одну оперу-балет под названием «Небо моей Любви» посвященную великому ученому с мировым именем – Фергани.

*В основе оперы лежит подлинный исторический сюжет, который рассказывает о личной жизни и научном творчестве одного из великих ученых Востока – Ахмада аль Фергани. Его жизнь как весы – на одной чаше весов блестящие научные открытия и необыкновенные способности, а на другой – обреченная на несчастье любовь к юной красавице Сафине.*

Главной своей задачей композитор видел в том, чтобы донести слушателям свои определенные мысли. По этой же причине композитор уделяет особое внимание на слова текста, точности мысли. В произведении «Небо моей любви» он раскрывает драматическое значение хоровых сюжетов. Хоровые сцены являются средством выражения людей, разных социальных групп, изображения национальной жизни (ситуации), эпохи, окружающей среды, а также выделения личных трагедий главных героев. В связи со своими драматическими задачами М. Бафоев, использует в хорах своих опер разные хоровые фактуры, важнейшие из которых:

- вариационные хоры полифонического строя, обычно активные в драматических событиях, преимущественно в сольных и ансамблевых эпизодах,
- не меняющие высокие мелодии, хоровые унисоны (преимущественно мужские хоры).

*В своих произведениях М.Бафоев сумел сохранить культурные ценности народа, его духовное наследие на протяжении тысячелетий служили мощным источником духовности для развития общества, и народ Узбекистана, сумел сохранить свои историко-культурные ценности и самобытные традиции, которые бережно передаются из поколения в поколение, что было создано нашими предками на протяжении многих веков. Зрители хотят не только услышать древние звуки, но и понаблюдать за странными действиями исполнителей, попасть в соответствующие ситуации и извлечь из этого очарование. Невозможно привлечь внимание любителей и фанатов, которые видели и знают чудеса света, поверхностными вещами. Первая премьера оперы состоялась в 1998 году на сцене ГАБТ им. Алишера Навои. Кстати этот спектакль до сих пор ставятся в ГАБТе.*

Концерты Мустафо Бафоева проходят в старинных формах, в которых композитор проявляет себя в мире национальных и европейских музыкальных идеологий, как артист, который чувствует себя свободно и непринужденно. В своей статье я бы хотела отметить уровень творчества М.Бафоева, как в «национальном» так и в «европейском» стилях. Кроме того они хорошо были восприняты как поклонниками, так и экспертами, что стало практическим доказательством, как продвинулась узбекская музыка на сегодняшний день.

### **Использованная литература:**

1. Jumayeva L., Baxritdinova N. O‘zbek xor adabiyoti, San’at va adabiyot nashri. T.:1987.

2. Jumayeva L. O‘zbek xor musiqasi tarixidan. T.:2000.

### **3. Sayti Interneta**

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. [www.artmuzik.ru](http://www.artmuzik.ru)

6. [www.classicmuzik.uz](http://www.classicmuzik.uz)

7. [www.artist.uz](http://www.artist.uz)

8. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## **MADANIYAT MARKAZLARIGA MUTAXASSIS KADRLARNI JALB ETISH MASALALARI**

**Maratova Nilufar Laziz qizi,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institute

“Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini

tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Telefon raqam:+998997237409

Ilmiy rahbar: **Mo‘minmirzo Xolmo‘minov Zokir o‘g‘li,**

O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini

tashkil etish va boshqarish” kafedrasi o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Maqolada madaniyat markazlarining hayotimizdagi o‘rni, ularning faoliyati, vazifalari, shuningdek, markazlarmizni yangi bosqichga olib chiqish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, madaniyat markazlariga malakali mutaxassis kadrlarni jalb etish masalalari batafsil bayon etilgan. Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini kengaytirish, aholi orasida milliy madaniyatimizni keng targ‘ib qilish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xalqimizni madaniyatimizga va san’atimizga bo‘lgan e’tiborini kuchaytirish va to‘laqonli jalb etish borasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan muammolarga taklif va mulohazalar bildirilgan. Markazlardagi xodim va rahbar o‘rtasidagi munosabatlarda, muammolarni hal etishda zamonaviy usullar va innovatsion g‘oyalar bilan yondashish kerakligi tavsif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, san’at, madaniyat markazi, ma’naviyat, ijodiy jamoa, kadr, mutaxassis.

### **Annotation**

The article describes in detail the role of cultural centers in our lives, their activities, tasks, as well as the opportunities and conditions created to bring our centers to a new level, the issues of attracting qualified personnel to cultural centers. Suggestions and comments were made on the issues that need to be addressed in order



to expand the activities of cultural and art institutions, to promote our national culture among the population, to organize meaningful leisure time for young people, to strengthen the attention of our people to our culture and art. The relationship between the staff and the manager at the centers describes the need to approach problems with modern methods and innovative ideas.

**Keywords:** culture, art, cultural center, spirituality, creative team, staff, specialist.

Madaniyat va san'at sohasi xalqimizning ma'naviy qiyofasini, uning hayot tarzini ko'rsatib beradigan, bir so'z bilan aytganda, o'zligini namoyon san'at asarlarini yaratish, madaniyat va san'at muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga asoslanadigan, eng muhimi, insonlar bilan ishlaydigan soha hisoblanadi. Darvoqe, Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, "Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi"[1:23]. Bugun xalqimizning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarni tarbiyalashda milliy ma'naviy qadriyatlarning o'rnini oshirish, urf-odat va an'analarimizni keng targ'ib etish borasida yaxlit tizim mavjud. Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat va san'at muassasalar, jumladan, teatr, sirk, san'at saroylari, kutubxona, istirohat bog'lari va madaniyat markazlarining o'rni beqiyosdir. Xususan, madaniyat markazlari jamiyat rivojlanishida va yoshlar ma'naviy ongini yuksaltirishda hamda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda faoliyat yuritib kelayotgan 826 ta Madaniyat markazlarining barchasi o'ziga qo'yilgan quyidagi asosiy vazifalari vazifalarni to'la qonli bajarsa, jamiyat albatta barqaror rivoj topadi deb ayta olamiz. Jumladan,

- aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish;

- xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish;

- bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish va "nutq madaniyati" bo'yicha kurslar tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;

- adabiyot hamda san'at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlari o'tkazish;

- tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman (shahar) festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

- ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiy-madaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish;

- turli xil to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etishdan iboratdir [2:69,70].

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarni samarali bajara oladigan, madaniyat markazlari salohiyatini ko'taradigan malakali mutaxassislar kerak bo'ladi, albatta. Madaniyat markazlari faoliyatini to'liq namunali tashkil etuvchi yetuk kadrlarni esa O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va uning filiallari tarbiyalab voyaga yetkazadi. Bu ta'lim dargohi madaniyat va san'at sohasiga aloqador barcha jabhalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarni yetishtirib beruvchi "fabrika" vazifasini o'taydi. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruviga doir yo'nalishda bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va uning filiallarida 1,5 mingga yaqin talabalar tahsil olmoqda. Yurtimizda madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasi sifatida respublikamizning 10 ta viloyat davlat universitetlarida har bir kursda (*hozirgi kunda jami 3 tadan kurs bor*) 25 nafardan talabalar yangi tashkil etilgan "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishida o'qimoqdalar. Prezidentimiz tomonidan is'tedodli yoshlarni madaniyat va san'at sohasida ta'lim olishlari uchun mahalliy budjet hisobidan har bir tumandan 5 nafardan talabalar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va uning filiallariga qabul qilindi. Respublika boyicha jami 2 mingdan ortiq talaba madaniyat va san'at boshqaruvi sohasida tahsil olayotganini ko'rishimiz mumkin. Ammo hali ham kadrlar masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Ochig'ini aytadigan bo'lsak, ta'lim muassasasini tamomlagan ko'pchilik kadrlarimiz o'z viloyati yoki tumanidagi madaniyat markaziga borib faoliyat yuritmaydi. Bunga madaniyat markazlarimizdagi oylik maoshlarning qoniqarli darajada emasligi ham ta'sir ko'rsatadi. "O'rtacha 1 mln 300-1mln 400 ming oylik olganimdan, boshqa daromadliroq sohada ishlayman", "Ikkinchi mutaxassislikka o'qiyman", "Tadbirkorlik qilarman" degan fikrlar hali institutni tamomlamagan talabalarimizning asosiy maqsadlari bo'lib qolmoqda. Ixtirochi Genri Ford aytganidek, "Mehnatga yarasha haq to'lamasangiz, haqqa yarasha mehnat olasiz". Shunday ekan, respublikamizdagi har bir viloyat, tuman madaniyat boshqarma boshliqlari ushbu ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishlari lozim. Ta'lim muassasasiga qabul qilingan talaba bilan bevosita institut orqali 4 yil davomida birga ishlagan boshqarma boshliqlari madaniyat markazlarini yetuk mutaxassis kadr bilan ta'minlanish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, talabalarning o'z tumanlaridagi madaniyat markazlariga amaliyotga yuborilishi, markazlarning ish faoliyatini, tashkiliy tuzilmalarini quyi bosqichdan o'z tumanlari misolida o'rganishi samarali natijalarga olib keladi. Bu ishlarni tahlil qilishning bir jihati o'ta murakkab, ammo, ikkinchi jihati o'ta qiziqarli jarayon. Sababi, madaniyat va san'at sohasi doimo davlatimiz e'tiborida bo'lgan. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar haqida so'z borganda, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish masalalari o'tgan 5 yilda e'tiborimiz markazida bo'lganini alohida qayd etish lozim" – deya ta'kidlab o'tgan edi [3:137]. Xususan, men O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olib, aynan madaniyat va san'at sohasining bo'lajak boshqaruvchisi sifatida tarbiyalanmoqdaman. Sohamiz davlat siyosati darajasiga

ko‘tarilib, keng imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda. Albatta, bunga “labbay” deya javob bera olishimiz kerak.

Hozirgi kunda madaniyat markazlari faoliyati, umuman, madaniyat va san‘at muassasalari faoliyatini kengaytirish, aholi orasida milliy madaniyatimizni keng targ‘ib qilish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xalqimizni madaniyatimizga va san‘atimizga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytirish va to‘laqonli jalb etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Darvoqe, AQShda mamlakatimizdagi kabi davlat qaramog‘idagi Madaniyat markazlari, madaniyat saroylari, kutubxonalar, teatrlar, muzeylar, dam olish va istirohat bog‘lari yo‘q. Bu esa AQShda madaniyat muassasalari yo‘q degan, fikrga olib kelmasin. Nafaqat AQSh, balki ko‘plab xorijiy davlatlarda shunday. Har bir aholi istiqomat qiladigan joylarda madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatadigan servislar mavjud. Ular davlat byudjetidan mablag‘ talab etmaydi, insonlarning o‘zlari quradi, boshqaradi [4:59]. Qarang, bizda barcha madaniyat va san‘at muassasalarimiz davlat qarmog‘ida, barcha imkoniyatlarni davlat qilib bermoqda. Biz bundan unumli foydalana olayapmizmi? Xalqimiz orasida ham bo‘layotgan o‘zgarishlarga bo‘lgan javob reaksiyasi yetarli emas. Madaniyatga nisbatan konsert, tomosha sifatida qarashlar tugaganicha yo‘q. Madaniyat so‘zini insonlar yengil tushunadigan bo‘lib qolgan, nazarimda. Afsuski, bugun madaniyat markazlari va unda ishlovchi madaniyat sohasi vakillarining statusi xalqimiz orasida yuqori baholanmayapti. Hali-hanuz yurtimizning chekka hududlarida yashovchi aholi tomonidan san‘atkorga “artist”yoki “otarchi”, raqqosalarimizga “o‘yinchi”, boshlovchi-so‘z ustalariga nisbatan “o‘rtakash” deya baho berilishi ko‘nglimizni xijil qiladi. Madaniyat – bu shunchaki dabdabozlik yoki to‘y-u tomosha emas, balki madaniyat-bu xalqimiz ko‘zgidir. Shu bois, biz, madaniyat va san‘at sohasi vakillari, lokomotivlikni qo‘lga olishimiz kerak.

Hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan **826 ta** Madaniyat markazida **8492 ta shtat biriligi** mavjud bo‘lib, **9312 nafar** xodim faoliyat yuritib kelmoqda, shundan oliy ma‘lumotli xodimlar **1629 nafar**, o‘rta maxsus ma‘lumotlilar **5325 nafar**, o‘rta ma‘lumotlilar **1711 nafar** xodimlardir. **9312 nafar** xodimining **647 nafari texnik xodimlar** xisoblanadi. Jami xodimlarning **4582 nafari** madaniya va san‘at sohasini tamomlagan mutaxassislardir. Qarang 60 foiz xodimlar nomutaxassislardan iborat ekan. Shu sababdan ham, madaniyat markazlari uchun malakali mutaxassislar suv va havodek zarur. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 15-martdagi “Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlari direktorlari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 92-sonli buyrug‘i asosan madaniyat markazlarining direktorlariga O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti qoshidagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazida 2022-yilning 15-aprelidan 2022-yilning 30-avgustiga qadar belgilangan reja asosida maxsus qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Quyidagi 1-rasmda tasdiqlangan reja grafik ko‘rsatilgan.





**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI MADANIYAT MARKAZLARI  
ДИРЕКТОРЛАРИ УЧУН ТАШКИЛ ЭТИЛАДИГАН ҚИСҚА МАЛАКА ОШИРИШ КУРСЛАРИ ТЎҒРИСИДА**



Маданият марказлари сонин: **826 та**

Маданият марказлари директорларининг қисқа малака ошириш курсларига жалб этиш режа графиги

2022 йил апрел ойида **75 нафар** (1 та гуруҳда)  
2022 йил май ойида **150 нафар** (2 та гуруҳда)  
2022 йил июнь ойида **178 нафар** (2 та гуруҳда)  
2022 йил июль ойида **213 нафар** (2 та гуруҳда)  
2022 йил август ойида **210 нафар** (2 та гуруҳда)



Назарий – **44 соат**  
( дарслар маъруза тарзда ўтилади )  
Амалий – **18 соат**  
( дарслар семинар тарзда ўтилади )  
Қўчма – **4 соат**  
( дарслар намунали маданият марказлари,  
концерт заллари ва театрларда ташкил қилинади )  
Яқуний давлат аттестацияси – **6 соат**

T/r	Hududlar nomi	2022-yil aprel		2022-yil may		2022-yil iyun		2022-yil iyul		2022-yil avgust	
		Birinchiligi uzumi	Ikkinchiligi uzumi	Birinchiligi uzumi	Ikkinchiligi uzumi	Birinchiligi uzumi	Ikkinchiligi uzumi	Birinchiligi uzumi	Ikkinchiligi uzumi	Birinchiligi uzumi	Ikkinchiligi uzumi
1.	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	-	5	5	5	5	6	8	8	8	8
2.	Andijon viloyati	-	5	5	5	5	10	11	10	10	10
3.	Buxoro viloyati	-	3	3	3	5	6	7	8	7	7
4.	Jizzax viloyati	-	4	4	4	4	4	4	4	5	4
5.	Qashqadaryo viloyati	-	4	4	4	4	5	8	8	9	9
6.	Navoiy viloyati	-	3	3	3	3	3	5	5	5	5
7.	Namangan viloyati	-	8	8	8	8	8	10	10	10	10
8.	Samarqand viloyati	-	7	7	7	7	10	10	10	10	10
9.	Sirdaryo viloyati	-	3	3	3	4	4	4	4	4	4
10.	Surxondayo viloyati	-	5	5	5	9	10	10	10	10	10
11.	Toʻshkent viloyati	-	10	10	10	6	7	7	7	7	7
12.	Fargʻona viloyati	-	8	8	8	8	8	9	10	10	10
13.	Xorazm viloyati	-	5	5	5	8	9	9	9	8	8
14.	Toʻshkent shahar	-	5	5	5	4	3	3	3	3	3
	Jami:	-	75	75	75	81	97	106	107	106	104

**Мақсад ва вазифалар.**

Маданият марказлари директорларининг инновацион ёндашувлар асосида соҳадаги илғор тажрибалар, замонавий билим ва малакаларини ўзлаштириш ва амалиётга жорий этишлари учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларини тақомиллаштириш, шунингдек уларнинг ижодий фаоллигини ривожлантиришни таъминлаш.

**Қўтилаётган натижа.**

Малака ошириш курсини ўзлаштириш натижасида улар (40 фонд) янги билимларга ҳамда танқидий фикрлаш, ахборотни мустақил излаш ва таҳлил қилиш кўникмаларига эга бўлади.

Активация Windows  
Чтобы активировать Windows, перейдите в ра

Rejada belgilanganidek, madaniyat markazlari rahbarlari yangi bilim va ko'nikmalarini o'shlashtiradilar, soha bo'yicha innovatsion yondashuvlar, chet el tajribalari bilan tanishadilar. Markaz rahbarlari hududidagi madaniyat markazlari uchun yangi ruh, yangicha ko'rinish berishlari uchun amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Bugun madaniyat markazlari rahbarlariga hududida aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha asosiy yo'nalishlar ishlab chiqish va ular amalga oshirilishini nazorat qilish, markazning Nizomiga muvofiq faoliyatni tashkillashtirish, markazni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, markaz sohasiga oid hujjatlarni amaliyotga to'laqonli tadbiq etish, ijodiy-ishlab chiqarish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyati rejalarini tuzish, pul mablag'larini to'g'ri taqsimlash, xo'jalik shartnomalari va moliyaviy hujjatlarni imzolash, ishga olish va ishdan bo'shatish, o'z vakolati doirasida buyruq va farmoyishlar chiqarish, mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va yong'inga qarshi choralarga rioya etilishini nazorat qilish, davlat hokimiyati organlari, mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, havaskorlik ijodiy guruhlarni shakllantirish, xodimlar malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, markaz faoliyatidan kelib chiqib (pullik xizmatlar) hisobini yuritish, hisobotlarni o'z vaqtida topshirish kabi bir qator ustuvor vazifalar qo'yilgan. Madaniyat markazi rahbarlari shu vazifalarni bajarmoqdami? Bu savolga ijobiy javob bera olmaymiz, afsuski. Markaz rahbari, avvalo, qo'l ostidagi xodimlarini insoniylik yuzasidan tushuna olishi va nazorat o'rnatishi kerak, eng muhimi, rahbar xodimlari uchun namuna, har tomonlama o'rnak bo'lishi kerak. Bu uchun, albatta, malaka talablariga javob beradigan, muammolarni to'g'ri baholaydigan, uzoqni ko'ra oladigan, chet tilini biladigan sohaning oliy ma'lumotli amaliyotchi mutaxassisi bo'lishi kerak. Qachonki rahbar xodimiga

yuklatilgan vazifani o‘zi qoyilmaqom qilib bajara olsa, shunda ko‘zlangan natijaga erishiladi. Ko‘pchilik markaz direktorlarining chet tilini talab darajasida bilmasliklari madaniyat markazlarini zamonaviy bosqichga olib chiqish uchun g‘ov bo‘ladigan asosiy to‘siqdir. Shu sababli ham institutimizdagi “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishida o‘qitilayotgan talablar uchun hech bo‘lmaganda bitta chet tilini mukammal bilish talab etilishi va bu uchun sharoitlar yaratib berilishi kerak.

Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda [5:271]. Shunday ekan madaniyat markazlarida ishlovchi xodimlardan juda katta mas’uliyat va fidoyilik talab etiladi. Yangi O‘zbekistonda Madaniyat markazlari madaniyat va san’atni xalq orasida yoyuvchi eng katta kuch vazifasini o‘tashi lozimdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. A. Haydarov. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. “Kamalak” nashriyoti. Toshkent – 2019. 192-b.

2. Mas’ul muharrirlar: Haydarov A., Yo‘ldoshev I. “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to‘plami. – Toshkent.: “Oltin meros press”. 2020. – 488-b.

3. Xushvaqtoqov A. Madaniyat va san’at sohasida iqtisodiy ko‘rsatgichlarni boshqarishning ahamiyati. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, Xiva 2022. 574 b

4. Alimasov V. Madaniyat va demokratiya. //O‘zDSMI xabarlar. – Toshkent: 2021. 3(19)-son. – B. 96.

5. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 464.

#### **”KITOBSIZ-TARAQQIYOTGA ERISHIB BO‘LMAYDI”**

**Meliyev Murodbek G‘ayrat o‘g‘li**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Kutubxona-axborot faoliyati” fakulteti

202-guruh talabasi

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining rivojlanishida “Kitob va mutolaaning o‘rni, kitobga muhabbat va yoshlar orasida maksimal darajada kitobxonlikni targ‘ib qilish va ularni kitoblarga qiziqтира bilish haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kitob, mutolaa, kutubxona, taraqqiyot, ilm-fan, madaniyat

### Annotation

This article provides information on the role of books and reading in the development of Uzbekistan, the love of books and the promotion of maximum reading among young people and their interest in books.

**Keywords:** book, reading, library, development, science, culture

### Аннотация

В данной статье представлена информация о роли книги и чтения в развитии Узбекистана, любви к книгам и поощрении максимального чтения среди молодежи и их интереса к книгам.

**Ключевые слова:** книга, чтение, библиотека, развитие, наука, культура.

Kitob bu–mo‘jiza, ko‘ngilga darmon, qalb gavhari, ma’naviyat maskani, birlashtiruvchi qudrat, tafakkurning so‘nmas qanoti, bashariyat xotirasidir.

Kitob bu–oftob. Tabiatning to‘rt fasliga ona zamin, quyosh nuri, tafti qanchalar zarur bo‘lsa, inson ma’naviyatini shakllantirish, ta’lim-tarbiya berishda bebaho va so‘nmas chiroq bo‘lgan kitobning o‘rni ham shu qadar betakrordir. Yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etishga qaratilgan chora tadbirlar tufayli yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalarida kitobxonlik tadbirlari bo‘lib o‘tmoqda.

Kitob–bu do‘st, kitob-muallim, kitob-murabbiy. Yosh nihol-farzandlarimizning ruhan sog‘lom bo‘lib kamol topishlarida, aql salohiyatining barqaror rivojlanishida, hulq-atvorining sayqalanishida kitob mutolaasi o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Kitobsiz-taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi”.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (yoxud o‘qimagan bolaning holi) asarida o‘sha vaqt va zamondagi xalqning ahvoli, savodsizligi, omiligi jamiyatning parokandalikka yuz tutishi, savodlilarning qanday ahvolga tushganligi, boylarning tanqidi ostida qoralanganligi, buning oqibatlarini nimalarga olib kelganligini misol qilish mumkin. Mahmudxo‘ja Behbudiy bunday holatlarni juda yaxshi tushingan va to‘g‘ri baholay olgan. Bunday fojialarni oldini olish yo‘lida asarlar yozgan. Qaysidir ma’noda bizga tarbiya bera olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Behbudiy yashab o‘tgan vaqt va zamonda kattalarning ahvoli (ya’ni boylarning) tarbiyasi shunday bo‘lsa, yosh avlod shunday yetishishsa, bunday jamiyat bilan qanday yetuk buyuk kelajak kutish mumkin? To‘g‘ri aytishadi; “Ertangi kuning bugun nima qilayotganingga bog‘liq”, deb. Agar biz yoshlar bunday holatlarga to‘g‘ri munosabat bildira olsak kelgusi kun kelgusi kelajak uchun nimadir qilaolgan bo‘lar edik. Bu asardagi voqea va hodisalar Behbudiy yashab o‘tgan zamonda ko‘proq uchragan bolishi mumkin. Hozirgi kunda bunday voqea va hodisalar oldingi zamondagiga nisbatan yaxshigina kamaygan. Albatta bu yaxshi. Agar shunday asarlar yozilmaganda edi o‘sha zamonning ogir ahvoli haqida yozgan asarlari bilan bizga yetkazib berolmaganda nimalar bo‘lar edi? O‘sha zamondagi shoir-u shoirlalar, adib-u adibalar bo‘lmaganda kelgusi kun uchun, kelajak uchun g‘aflat uyqusida yotgan jamiyat va

xalqni uygʻotish uchun, juda katta matonat bilan bunday ishlar qilishni sharaf va burch deb bilgan. XIX-XX asrlarda yashab oʻtgan shoir-u shoiralari, adib-u adibalar va undan oldin yashab oʻtgan faylasuf donishmand, buyuk bobokalonlarimiz yaratgan asarlar hozirgi kunda hali ham chuqur maʼnoga ega.

Soʻnggi yillarda bolalar va yoshlarning kitobga kiziqishi kamayib ketganligi toʻgʻrisida gap-soʻzlar tez-tez quloqqa chalinadigan boʻlib qoldi. Axborot texnologiyalarining keng tarqalishi hamda axborot olish va koʻngil yozish uchun yangidan-yangi vositalarning paydo boʻlishi natijasida koʻplab ota-onalar farzandini kitob mutolaasiga jalb etishga qiynalmoqda.

“Milliy tiklanish” partiyasidan nomzod Sarvar Otamuratov ham yosh avlodni kitobga muhabbat ruhida tarbiyalashni qoʻllab-quvvatlashini belgilab olgan. Buning uchun u Oʻzbekiston xalqining tarixi, maʼnaviy-madaniy merosiga doir adabiyotlarni nashr etish bilan shugʻullanayotgan mualliflar, bosmaxonalar, nashriyotlarni iqtisodiy jihatdan ragʻbatlantirish, ularga soliq va boshqa toʻlovlar boʻyicha imtiyozlar berishni taklif qilmoqda.

Zamonaviy texnologiya va vositalar juda keng tarqalgan bugungi kunda yoshlarni, bolalarni kitob oʻqishga qiziqtirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish murakkab vazifa boʻlib qolmoqda. Xoʻsh, butun mamlakat boʻylab kitob mutolaasiga ragʻbatni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Qanday ishlar yoʻlga qoʻyilsa, yoshlar, kitob oʻqishga jon-jahdi bilan intiladi?

Kitobxonlikni targʻib qilishda yangi nashr qilingan asarlar reklamasini keng yoʻlga qoʻyish, mutolaani ommalashtirish boʻyicha ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq va mahallalarda kitobxonlar klublarini tashkil etishni ragʻbatlantirish, bolalar uchun kitob kechalari, oʻqilgan asarlar muhokamalari, sovrinli tanlovlarni tashkil etish, yozda salqin, qishda issiq, qulay mebellarga ega tinch va osuda oʻquv zallari, kitoblarni ijaraga berish, qarzga yoki pulini boʻlib-boʻlib toʻlash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, olis tumanlar, uzoq qishloqlarda kerakli kitoblarga buyurtmalar berish shoxobchalarini barpo etish ham mumkin. Xullas, oʻylasa, bosh qotirsa, muammoni ijobiy hal etishning minglab usullari yaratilaveradi. Modomiki, maqsad bolalarning kitobni ommaviy ravishda sevib oʻqilishiga erishish ekan, bu yoʻlda bor imkoniyatlarni ishga solish, jarayonni ortiqcha, keraksiz va faqat zarar keltirayotgan tashkiliy, maʼmuriy toʻsiq va gʻovlardan xalosa qilish, kitobning hammabopligini oshirish yoʻllarini topish kerak.

Yangi nashr qilingan kitoblar narxi ham odamni mutolaadan uzoqlashtirib yuborishi mumkin. Birgina misol: yaqindagina chop etilgan Lev Tolstoyning “Anna Karenina” asari kitob doʻkonlarida 70 ming soʻm atrofida sotilmoqda. Albatta, kitob chiqarish, bu – biznes. Uning oʻziga xos qonun-qoidalari mavjud. Ammo 70 ming soʻm hamma oilalarning ham byudjyetiga toʻgʻri kelavermaydi. Narx-navo masalasida yana bir bor chuqur mushohada yuritish, arzon kitoblar ishlab chiqilishi haqida oʻylab koʻrish kerak.

Bizni yerdan koʻkka koʻtaradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorugʻlik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam

beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir. Kitob insonni ulugʻlaydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, oʻzi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala boʻlish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos boʻlib, u inson umr yoʻllarini yorituvchi soʻnmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh boʻlguvchi sodiq doʻstdir. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning oʻrni benihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson maʼnaviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini taʼkidlab oʻtganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini “moʻjizalar davri” deya nomlaganlar [3,165-bet]. Bu davrda bolalarga kitob oʻqishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va soʻzlashishni mukammal oʻrganib olishlari lozim. Barcha ezgu ishlarning, bunyodkor gʻoyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga boʻlgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga aʼlo nur boʻladi. Bolada oʻqish malakalarni shakllantirish negizida ogʻzaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yoʻllarida hamroh va maslahatgoʻy, bir umrlik sodiq doʻst – kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda oʻz hissamizni qoʻshgan boʻlardik.

Shu oʻrinda yana bir muhim masala borki, u ham boʻlsa, yoshlarga qanday kitoblarni oʻqitish masalasi. Chunki hozir nima koʻp? Maʼlumot koʻp. Bozor iqtisodiyotini bahona qilgan holda kitob doʻkonlarimizga turli kitoblar kirib kelayotgani bor gap. Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Chanqagan odam sahroda suv topganda unga singan sopol yoki oltin idish farqsizdir“. Yaʼni u qanday qilib boʻlmasin, chanqogʻini qondirishga intiladi. Butun vujudi bilan ilmga intilayotgan yoshlar ham shunday. Oʻzining tafakkurini toʻldirish uchun yaxshimi yomonmi turli kitoblarni oʻqiydi.

Inson bilimli tarbiyasi, kasb-hunarli, baxtli boʻlishining muhim olimi-bu kitobga doʻst boʻlish, hamisha kitob oʻqish, kitob mutolaasini umr boʻyi kanda qilmaslikdir. Kitobga hamroh boʻlgan inson faqat va faqat odamiylik saboqlarini oʻrganadi. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitob mutolaasining alohida oʻrni bor. Har qanday muvaffaqiyatning kaliti bu kitobdir. U kelajagimiz poydevori. Shunday ekan aziz yoshlar kitob oʻqing zero, kitob insonning hayot yoʻlidagi yoʻldoshi boʻlsa, hayot soʻqmoqlaridan mamnuniyat bilan oʻtadi.

### **Adabiyotlar:**

1. “Kitob-xazinalar kaliti” Dilobar Baxronova.
2. Таджибаева Феруза. Oilada bolalarda kitobxonlikni shakllantirish omillari.
3. “Kitob-maʼrifat oʻchogʻi” @INSHOLAR\_OLAMI
4. Mahmudxoʻja Behbudiyning “Padarkush” (yoxud oʻqimagan bolaning holi)
5. Sanjar Said “Bolalar oʻrtasida kitobxonlik muammolari: Sabablar va takliflar”

## SPEKTAKL – DAVR MAHSULI

**Raximova Charos Xamidulla qizi,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Teatr san’ati” ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti (PhD)

[charosraximova961@gmail.ru](mailto:charosraximova961@gmail.ru)

+99893 125 06 25

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada spektakl- davr mahsuli sifatida o‘z davrining yutuq va kamchiliklari, muammo va unga ijodkorlar tomonidan taqdim etilajak yechim ekanligi, Farg‘ona viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan “Seni sog‘indim” spektakli tahlili ustida so‘z yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** musiqali drama, ijodiy jamoa, spektakl, aktyor, obraz, kulminatsiya, xarakter, rejissor.

### **Annotation**

This article discusses the fact that the play is a work of its time, the analysis of the play “I miss you” staged in the Ferghana regional musical drama, creative team, performance, actor, image, climax, character, director.

**Key words:** musical drama, creative team, performance, actor, image, climax, character, director.

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается то, что спектакль является произведением своего времени, проблема и решение предложенное создателями, анализ спектакля “Я скучаю по тебе” поставленного в Ферганском областном музыкальном драматическом театре.

**Ключевые слова:** музыкальная драма, творческий коллектив, спектакль, актер, образ, кульминация, персонаж, режиссер.

Ma’lum davrning ijtimoiy hayot silsilasida hukm surayotgan qarashlar: mafkuraviy ong hamda muayyan axloqiy-huquqiy me’yorlar, san’atning boshqa turlaridan farqli o‘laroq, insonlar e’tiboriga sahnaviy asarlar talqinida uzatilishi nisbatan faol madaniy hodisa sanaladi. Binobarin, teatr sahnasida namoyish etilajak asarlar mavjud davr hayot tarzining amaliy in’ikosi sifatida, tomoshabinga tatimliligi, yuqumlilik reaksiyasining o‘ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, bugunning dolzarb muammolari, real hayotda tipiklik kasb etuvchi ijtimoiy hayot manzaralarni tomoshabin ko‘z o‘ngida gavdalandirib, jamiyat a’zolarini o‘ylantiradigan og‘riqli savollarga to‘laqonli javob topib bera oladigan badiiy-ijroviy pishiq, g‘oyaviy jihatdan mustahkam sahna asarlari taqdim etishni talab qiladi.

Bugun mamlakatimizdagi teatrlar faoliyatida ijobiy siljishlar, aytishga arzigulik ijodiy jonlanishlar yuz bermoqda. O‘zbek xalqi jahon teatr madaniyatining deyarli barcha turlarini egallagan. Lekin xalqimiz o‘z xarakter xususiyati va milliy an’analariga tayangan holda professional teatrning yangi o‘ziga xos turi - musiqali

dramani yaratgan [1, 64]. Shu bois, nafaqat poytaxtda, deyarli barcha viloyatlarda musiqali teatrlar barpo etilgan va ularda so‘nggi yillarda qator ijodiy izlanishlar hamda tomoshabin ma’naviy ehtiyojiga muvofiq asarlar namoyish etilayotgani quvonarli holdir. Xususan, bu borada Farg‘ona viloyat teatrlarida zamonaviy mavzudagi spektakllar ijroviy pishiqligi, mazmunning davr ruhiga hamohangligi bilan alohida e’tirofqa molikdir.

Ma’lumki, Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri mamlakatimiz. madaniy qiyofasining shakllanishida o‘ziga xos muhim o‘rin tutib kelgan.

Shu bois, teatr san’ati yo‘nalishida amalga oshirilayotgan izlanishlar xususida so‘z borar ekan, farg‘onalik san’atkorlar faoliyati haqidagi kuzatishlarimizni havola etishimiz o‘rinlidir. Bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri sanalayotgan yoshlar mavzusi, ularning dunyoqarash va e’tiqodlari masalalariga bag‘ishlangan sahna asarlari Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi viloyat teatrida tomoshabinlarga taqdim etildi. Jumladan, dramaturglar A. Abdug‘afurov hamda M. Komiljonovlar asari asosida sahnaga qo‘yilgan “Seni sog‘indim” spektakli ilk premyeradoq, tomoshabinlar e’tiborini qozondi. Rejissyor Muhammadsoli Yusupov sahnalashtirgan ushbu asar hozirgi mustaqillik sharoitida o‘tib-ulg‘ayayotgan yosh avlod hamda zamondoshlarning axloqiy mezonlariga salbiy ta’sir etayotgan ma’nan tuban, riyokorona muhit vakillari – jinoiy to‘dalar va ularni fosh etishda biz bilan yonma-yon yashayotgan davrimiz qahramonlarining ma’naviy jasoratlari yuksak professional ijrosi bilan tomoshabin olqishini qozondi. Asarda jamiyat a’zolarining ma’naviy dunyosidagi tanazzuliy jihatlar bo‘lgan g‘ayriinsoniy chirkin illatlar – o‘g‘irlik, qotillik, tanfuruslik, odam savdosi, poraxo‘rlik hamda qimorbozliklar, ularga qarshi elning asil farzandlari bo‘lgan iymonli insonlar tomonidan olib borilayotgan murosasiz kurashlar o‘zining sahnaviy ifodasini to‘laqonli shakllantira olgani ahamiyatlidir.

Spektaklning boshi – prologdanoq, endigina mustaqil hayotga kirib kelgan beshkapalik Diyorbekning tasodif tufayli guldek yoshligini allaqachon izdan chiqarib, nopok yo‘llarni ixtiyor qilgan, boshi berk ko‘chaga kirgan qimorboz tengqurlari – Ibo va Tillo kabi chirkin shaxslarning pul, boyluk yo‘lida har qanday tubanliklardan tap tortmasliklari yoritiladi. Aynan mana shu ko‘rinishdayoq, o‘tkir konflikt yuzaga keladi va mana shu tarang vaziyat spektaklning har bir ko‘rinishlariga ma’lum darajada o‘z kuchini saqlagan holda, barcha personajlar taqdiriga ham ma’lum darajada salbiy ta’sir kuchini o‘tkazib, ko‘plar hayotining butunlay izdan chiqarishga muvaffaq bo‘ladi. Taassuflar bilan aytish mumkinki, spektakldagi bunday badbin kimsalar o‘zga yurtlardan kelib, tinchimizni buzayotgan begonalar emas, o‘z zamondoshlarimiz, millatdoshlarimiz! Ularning tubanliklari nafsiga qul kimsalar – haqiqat, adolat izlovchi, sururga intiq, pokiza qalblar tasavvuriga nayza bo‘lib sanchiladi.

Zamondoshlarimizni ma’naviy tubanlik qa’riga tortayotgan bu kabi nafs qullariga nisbatan dadil va murosasiz kurash uchun yo‘lga chiqqan pok iymonli Sultonning Vatanga, o‘z kasbiga sodiqligi, vatandoshlariga bo‘lgan cheksiz muhabbati spektaklning boshdan oxiriga qadar bo‘lgan har bir korinish hamda vaziyatlarda o‘z ifodasini namoyon etib turadi. Zero, tubanlik ajdaholari qarshisida ham mustahkam e’tiqodiga xiyonat qilmagan Sultonning sahnaviy talqini aynan iste’dodli aktyor Muhammadsoli Yusupov tomonidan mahorat bilan ijro etilib, mazkur dramatik obrazni



xarakter darajasiga olib chiqishga erishdi. Aytish mumkinki, spektakl davomida ko‘z oldimizda o‘z dunyosi, o‘z orzu-intilishlariga ega, mag‘rur, iymonli va pok qalbning yorqin obrazini ro‘y-rost aks ettira oldi.

Spektaklda detektiv lavhalar ko‘p bo‘lgani sababli, sahnadagi o‘tkir syujet tomoshabinning diqqatini chulg‘aydi. Dramadagi voqealar mamlakatimizning turli joylarida, jumladan, markaziy shaharlaridan biri – ziyoli oilasida, badbini kimsalar makonida, boshqa o‘rinlarda, chet ellarda yuz berib, xorijdagi yurtdoshlarimiz hayotida ro‘y berayotgan o‘tkir dramatik lavhalar bilan to‘yintirilgani asar qimmatini yanada oshirib, tomoshabin ma‘naviy olamining kengayishi, ruhiy mushohadaning qizg‘in tus olishiga zamin yaratadi. Spektaklning ko‘plab o‘rinlarida boylik, pul, maddunyo uchun vijdonini ham sotishga tayyor ayrim betayin kimsalar shafqatsiz tanqid ostiga olinadi va insonlarni ogohlikka chaqiradi. Qolaversa, Vatanga muhabbat, o‘z mamlakati bilan faxrlanadigan insonning eng buyuk ishlarga qodirligi spektaklda butun mohiyati bilan namoyon bo‘ladi. Unda viloyat prokurori Sulton hamda uning safdoshlari – jinoyat-qidiruv bo‘limi xodimlari (Zulunbek) timsolida yurtdoshlarimiz, yurtimiz tinchligi uchun olib borilayotgan kurashlar tomoshabin ko‘z ongida mahoratli ijro vositasida gavdalantiriladi.

Spektaklning yana bir tarbiyaviy qimmatini shundaki, unda sahna va tomoshabin o‘rtasida ruhan ma‘naviy aloqadorlik – parallelizmning mavjudligidir. Turli yoshlarga mansub tomoshabinlarga muvofiq tarzda, sahnadagi hayotda ham turli avlod vakillari namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, o‘smirlik, yoshlik, o‘rta yosh hamda keksalik davridagi insonlarning o‘y-kechinmalari, ularning hayotga qarashlari sahnada o‘ta ishonarli tarzda namoyon etib beriladiki, har bir tomoshabin o‘zini o‘ylantirayotgan va qiynayotgan jumboqlarga, hayot sinovlariga, beixtiyor spektakl davomida yechim topa oladi va yosh xususiyatlariga ko‘ra mushohada yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, Bahodir (Ohistaning o‘g‘li) qiyofasida o‘smir kechinmalari, uning hayot kuzatishlari, mulohazalari, o‘zi kamol topayotgan oila hamda jamiyat (mahallasi, maktabidagi o‘rtoqlari) borasidagi sodda, bolalarcha qarashlarining guvohi bo‘lamiz. Xususan, Bahodirga oilada halollik tarbiyasi yetarlicha singdirilgan. Bola bobosiga havas qiladi, uning halol, rostgo‘y insonning hurmatli bo‘lishi haqidagi fikrlaridan ruhlanadi. Ammo Bahodir shunchaki bola emas. Uning ham o‘z qarashlari, fikri bor. Mahalladagi tengdoshlari orasida yuz bergan zo‘ravonlik holatini ko‘rganda, haqsizlikdan bola qalbi isyon qiladi. Ammo odamning to‘niga qarab muomala qilishga moyil ba‘zi tengqurlari oldidagi vaqtinchalik mag‘ubiyatidan qalbi parchalanadi. Mazkur lavha tomoshabinlar qatorida o‘tirgan o‘smir-yoshlar uchun ham saboq bo‘lishi shubhasiz. Qolaversa, jamiyatimizning tayanchi, yurtimizning egalari bo‘lgan yoshlarning tipik timsoli bo‘lgan Jahongir (Sultonning o‘g‘li) misolida yoshlarning bugungi kunda baxtini yurtimizdan emas, chet ellardan izlab, katta boylik orttirsa-da, asl jannat Vatanda ekanini voqealar rivojida anglagani, bilimdon, ishbilarmon iqtisodchi sifatida Vatanga qaytib, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishdek ulkan ishga bel bog‘lagan yoshlarimizning tipik qiyofasini ko‘rish mumkin.

Spektakldagi o‘rta yoshga mansub, ya‘ni oila qurib, farzandlar ko‘rgan, bir so‘z bilan aytganda, oila deb atalmish kichik bir shakllangan jamiyat egalari ijtimoiy hayot tarzidagi kuzatishlari, o‘zlarini qiynayotgan muammolarga yetarli yechim topa



olishlarida Ohista, Madiyor, Kenja, Xudoyberdi kabilar yaratgan xarakterli ijroviy mahorat ma'naviy kalit vazifasini o'tay oladi, desak, mubolag'a bo'lmas. Qolaversa, Vasila kabi ayol nomiga dog' tushiradigan badnafs, buzuqfe'l shaxslar, Xolida kabi aldanib, odamfurushlar iskanjasiga tushib qolgan bilimsiz, huquqiy ongsiz yoshlar muammolari sahnada mahorat bilan ochib berilgan. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, spektaklning boshidan oxiriga qadar aktyorlar va tomoshabin o'rtasida so'zsiz, sharh va tushuntirishlarsiz ruhiy muloqot ustuvor bo'lishi tabiiy. Bunda har bir tomoshabin sahnada o'zi yoki tengdoshini ko'rishi, bu boradag barcha muammoli vaziyatlardan yetarli darajada xulosa chiqarishi mumkin. Mana shu jihatdan, teatr tomoshabin oldidagi o'zining "ibratxona" deb atalgan buyuk mas'uliyatini to'laqonli ado eta olgan, deyishga asos bor, albatta.

Ushbu ko'rinishdagi mana shu dialog sahnasi spektakldagi voqealarning eng avj nuqtasi – kulminatsiyasi hisoblanib, uning yechimi hisoblangan lavhalar uch yildan so'nggi voqealar sifatida havola etiladi.

Tomoshabin teatrga tashrif buyurar ekan, namoyish etilayotgan sahna asaridan ma'naviy saboq, hayotiy ibrat olib ketmog'i zarur. Aynan mana shu ijodkorlik talabiga mazkur asar yetarlicha javob bera olgan, desak, aslo mubolag'a bo'lmas. Chunki, asar oxirida tomoshabinga aytilajak o'gitlar bosh qahramon – Sultonning quyidagi monologi orqali yanada yorqinroq namoyon etib beriladi:

*"Donishmanddan so'rabdilar:*

*– Siz uchun eng aziz, eng muqaddas narsa nima?*

*– Vatan! – deb javob beribdi u.*

*– Sabab?*

*– Sababi, kindik qonim to'kilgan zamin, mening onam, meni allalab, beshigimni tebratib kamolga yetkazgan Vatan... Vatan bilan onaning bir-biriga taqqoslanishining boisi ham shunda. Bolalarim! Har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan yerida ildiz otsin, kamol topsin.*

*Vatan tarkini bir nafas o'ylama,*

*Ya'ni ranj-u g'urbat havas aylama!" [2].*

Biz mulohazalarimiz avvalida "in'ikos" atamasini bejiz keltirmadik. Xususan, teatr ijrosi uchun tanlangan asar, hech bir istisnosiz, mavjud davrdagi hayot in'ikosi bo'lishi shart ekan, unda salbiy yoki ijobiy qahramonlar emas, balki, tirik inson qiyofasi, ya'ni turfa xarakterlar, turli-tuman dunyoqarash va e'tiqod egalari, shuningdek, inson bolasi qonidagi pok tuyg'ularga qarama-qarshi ravishda, iymondan yiroq xira tortgan kir qalblar o'rtasidagi omonsiz kurash lavhalari aktyorlarning mahoratli ijrosi vositasidagina tomoshabinga uzatiladi va chin insoniy tamoyillar tinglovchilar ma'naviy olamiga "yuqtiriladi".

"Seni sog'indim" spektakli har bir tomoshabinni befarq qoldirmasligiga aminmiz, albatta. Ammo, san'atshunos sifatida teatr tomoshalarining yuqori darajada sifatli bo'lishi borasida spektakl ijodkorlariga bog'liq bo'lmagan muammolar mavjuddirki, ularni aytib o'tmasak bo'lmas. Sahnaviy ijro mahorati har bir rol ijrochilari – xoh asosiy, xoh epizodik rollar bo'lsin, qiyomiga yetkazib, tomoshabinga havola etildi. Teatrning butun tarixi davomida zamonaviy mavzuni janr va tomoshabin estetik

ehtiyojiga mos-tomoshaviy, ayniqsa, musiqali, omma didiga o'tiradigan, shu jumladan, janrning hamma talablari – yaxlit musiqiy dramaturgiyasidan tashqari ariya, duet, xor, raqs singari tarkibiy qismlarni o'zida jam etgan tarzda yaratilgan bo'lishi doimo dolzarb bo'lib qoldi [3, 245]. Lekin sahna dekoratsiyasidagi mubham chizgilar, asar mazmuniga mos bo'lmagan tushuniksiz tasvirlar tomoshabin diqqatining jamlanishi, butun diqqat-e'tiborning ijroga jalb etilishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi tabiiy. Bu holatga o'ta mas'uliyat bilan chek qo'yish bugunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifaarimizdan biridir. Dekoratsiya, yoritish xizmatlari yuqori sifatga erishilgandagina, aktyorlar mehnati yuzaga chiqadi, tomoshabin o'zi ko'rayotgan sahna asaridan chuqur qoniqish hosil qilishiga erishiladi. Zero, sahnadagi boy dekoratsiya, buyumlar, detallarning zamonaviy ko'rinishlarda bo'lishi tomoshabin tasavvuridagi kundalik ijtimoiy hayot manzarasini sahnada to'laqonli, ishonarli gavdalantirib berilgandagina, real hayotiy tasavvurlarimizni boyitishi mumkin.

Shundagina teatr tomoshalari hayotimiz oynasi sifatida, o'zining amaliy-estetik vazifasini to'laqonli bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Hech qachon unutmaylik: teatr – tomoshabin yashab turgan hayotning mutlaq in'ikosidir [4, 72].

### **Adabiyotlar:**

1. Xamidjon Ikromov. “Davr va teatr.” - “Musiqali teatr: tashabbus va ijro” “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Toshkent 2009 yil. 64 bet.
2. Premyera ijrosi vaqtidagi videoyozuvdan ko'chirib olindi.
3. Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. (Monografiya) Toshkent: O'zDSI bosm on axonasi, 2009-yil, 245-bet
4. Umarov A., Mirzahamdov Z. Ho'qandi latif – san'at ayvoni. // Qo'qon teatri tarixi zarvaraqlari. Farg'ona, 2011., 72-bet.

## **O'ZBEK EKTRAN SAN'ATIDA USTOZ OBRAZINI YARATISH MASALALARI**

**Azizova Nargiza,**

“Kinoshunoslik: kino san'ati tanqidi va tahlili”

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

zigrantv@gmail.com

Ilmiy rahbari: **Ganiyeva E. R.,**

“San'atshunoslik va madaniyatshunoslik”

kafedrasi o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

So'nggi yillarda davlat tomonidan o'zbek kino san'atiga ko'proq e'tibor qaratilib, sohaga islohotlar kiritish maqsadida davlat byudjeti tomonidan doimiy ravishda mablag'lar ajratilib kelinmoqda. Ushbu maqola o'zbek ekran san'atida o'qituvchi va ijtimoiy ta'lim muassasalarining obrazini shakllantirish masalalariga qaratilgan. Tasvirga olingan film va seriallarimizda ustoz siymosiga qay darajada urg'u berilgan,

badiiy taraflama to'laqonli yaratilganmi yoki yo'q? Mazkur maqola mana shu masalalarni o'rganishga yo'naltirilgan.

**Kalit so'z:** ekran san'ati, o'qituvchi obrazi, film.

### **Abstract**

In recent years, the government has been paying more attention to the cinematography of Uzbekistan, and funds have been allocated from the state budget to reform the industry. This article is devoted to the formation of the image of teachers and social education institutions in the Uzbek screen art. What emphasis is placed on the image of the teacher in our films and series, and is the artistic side of this image fully formed? This article is devoted to these issues.

**Key words:** screen art, teacher image, film.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ustoz hamda pedagoglarga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda, hattoki Prezidentimiz 2020-yilning 12-13 dekabr sanasida Xorazm viloyatiga qilgan tashriflari chog'ida "Biz ustoz va murabbiylarning mavqeyini oshirmasdan turib, ta'lim sohasida o'zimiz ko'zlagan natijalarga erisha olmaymiz" (1) deya ta'kidlaganlar. Shuncha e'tibordan so'ng ham o'zbek ekran san'atida taqdim etilgan ustoz va muallim obrazlari to'laqonli shakllantirilmagan. Shu bilan birga davlat ilm-fan sohasida ham shu mavzudagi izlanishlar mavjud emas.

2000-yillarning boshidagi kinoteatrlarni to'ldirib o'tirgan tomoshabinlarning, kinoga bo'lgan qiziqishini kuzatgan bir qator kinoshunos va rejissorlar "o'zbek kino san'ati rivojlanish bosqichida", (2, 167 b.) deya tashxis qo'yishgan. Tomoshabinlarni ekran qarshisiga muhrlagan filmlarning janri va mavzusiga nazar solsak, asosan, drama va komediya. Mavzu e'tiborida sevgi-muhabbat, qaynona-kelin va hozolar. Ayniqsa, badiiy filmlarda bosh rollarni qo'shiqchilar gavdalantirishi ham qaysidir ma'noda saviyasizlikka olib keldi. Ko'tarilayotgan mavzularning bir xilligi va syujet taraflama ham keragidan ortiq o'xshashlik kuzatilaverib, qaysidir ma'noda tomoshabinlarning g'ashiga tegildi. Ana shundan keyin kino mavqeyi yuqorilash o'rniga, o'z yo'nalishini pastga qaratdi.

So'nggi yillarda yaratilgan, o'quv yurtlari yoritilgan filmlarda ustozlarning o'rnini va ahamiyatiga to'xtalamiz. Yosh auditoriyani o'ziga qaratishning eng omadli usullaridan biri bu ularning hayoti aks ettirilgan filmlarni suratga olishda, ana shularga e'tiborimizni qaratamiz.

Birinchi navbatda, 2017-yilda mashhurlikka erishgan Muzaffarxon Erkinovning "Saodat" milliy teleserialiga to'xtalmoqchiman. "Toshkent" telekanali orqali efirda namoyish etilgan serial, jami 45 qismdan iborat. Bosh qahramon Saodat ismli, o'qituvchi qiz rolini aktrisa Zarina Nizomiddinova gavdalantirgan. Voqealar, asosan, Saodatning atrofida aylanadi. Ota-onasidan erta ayrilgan qizning taqdiri, hayot sinovlari haqida hikoya qilinadi. Mavzular ichida g'iyohvandlikka qarshi kurash, mahalla fuqarolar yig'ini hamda militsiya punkti faoliyatini yoritish va yana shunga o'xshashlarini uchratasiz. Asosan, kollej hayoti aks ettirilgan. Serial boshidagi salbiy xarakterdagi o'quvchilar, finalga yaqin ijobiy tarafga o'zgaradi va buning qaysidir

ma'noda sababchilaridan biri Saodatdir. Umuman olganda, serialning yutuqlaridan biri bu aktyorlar jamoasida deb bilaman. Bir qator ustoz san'atkorlardan tortib, yosh iste'dodlargacha mukammal yig'ilgan. To'ti Yusupov, Saidkomil Umarov, Fatxulla Ma'sudov, Rixsi Ibrohimova, Abduraim Abdurahobov, Adiz Rajabov, Asal Shodiyeva, Mirolim Qilichev, Nargiza Salmonova, xullas, uzoq davom ettirishim mumkin.

Ustoz obraziga kelsak, Zarina Nizomiddinovaning ijrosida kamchiliklar kuzatilgan. Obrazini yaxshi ochib bera olmagan. Unga birozgina o'ziga xoslik, boshqa serialdagi o'qituvchilardan ajratib turadigan xarakter yetishmagandek, rolga tayyorlanish jarayonida ustozlarni kuzatish va ulardan o'rganadigan fe'l-atvotlarni o'ziniki qilishi kerak edi, chamamda. Ayniqsa, so'zlarini yod olmay, intonatsiyadagi uzilishlar serial davomidagi tempga o'z ta'sirini doimiy ravishda ko'rsatib kelgan. Xuddi shu holat aktrisa Asal Shodiyevada ham kuzatilgan. Rejissor tomonidan kollej hayotiga iloji boricha ko'proq to'xtab o'tilgan. Mayda o'g'irilik, tabaqalanish, "ommaviy madaniyat" kabi mavzularga e'tibor qaratishgan, balki aynan shular uchun ham serial o'z vaqtida sevib tomosha qilingandir.

Seriillardagi personajlarni o'rganuvchi tadqiqotchi Zaitseva S.A. personajning parametrlar yig'indisini – obraz, xarakter, uslub, tip va stereotip sifatida belgilaydi (3, 74 b). Ehtimol, ushbu sxema bo'yicha filmlar va seriallar qahramonlari obrazlarini batafsil o'rganish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

2021-yilda "YouTube" platformasida o'zbek auditoriyasi uchun haqiqiy "rezonans" qilgan, yoshlar orasida yashin tezligida ommalashib ketgan "Maktab" web-seriali so'nggi paytlar ko'pchilikning tilidan tushmay qoldi. "Social media" kompaniyasining mahsuloti bo'lmish ushbu serial, bor yo'g'i 10 ta qisimdan iborat va xronometrajining kamligi tomosha uchun anchayin qulay. Mashhurlikka erishayotganining bir qancha sabablari bor. Birinchi navbatda, ularda badiiy kengash yo'q, hayotda qanday bo'lsa, hech qanday bo'rttirishlarsiz ekranga ko'shirishgan. So'zlashish madaniyatiga kelsak, asosan, Toshkent shevasidan foydalanishgan, ruscha so'zlar ham ko'p ishlatilgan va aynan shu argument serialni tomoshabinga yanada yaqinlashtirgan. Afsuski, hozirgi yoshlar va o'smirlarning suhbatiga bir qancha muddat quloq tutsangiz, 80% haqoratli, 20% esa kerakli so'zlarni eshitishimiz mumkin.

Voqealar harakatining tezligi ham tomoshabinni ushlab qoluvchi sabablardan biri. Ammo maktab degan dargohda ustozlarning ikkinchi planga tushirib qo'yilganligi shaxsan menga uncha ma'qul kelmadi. Ustozlardan, asosan, urish-janjalni to'xtatuvchi, agar o'xshatish mumkin bo'lsa, boks sport turidagi "referi"ga o'xshatib qo'yilgan. Yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ustozlar mavzusiga ham alohida toxtalish kerak, degan xulosadaman. Maqталinishi kerak bo'lgan kasb egasi ushbu web-serialda operatorlar deyishim mumkin. Byudjeti kam bo'lgan serial bo'lsa ham, texnikaga alohida e'tibor berilgan, yaxshi kameralarda suratga olingan va chiroyli rakurslar tanlangan, yigitlarning urish sahnasi ham did bilan tasvirga olingan. Mening e'tiborimni qozongan ijodkor bu Behzod Yangiboyev bo'ldi, u o'z rolini yashagan desam bo'ladi, ssenariyni o'zi yozgani uchunmi, yaxshi his qilib ijro etgan. Ushbu serialning ikkinchi mavsumi ham suratga olinishi rejalashtirilgan ekan. Umid qilamizki, maktab deganda, faqat urish-janjal emas, balki o'quvchilar o'zi, aslida,

maktabga nima uchun borishlari kerakligini eslatuvchi ta'lim jarayonidan alohida lavhalarni hamda yangicha g'oyalarni ham ko'ramiz.

2021-yilda ustoz va o'quvchilar hayoti haqida hikoya qilinuvchi "Ustoz" seriali "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali efirga uzatildi. Serial jami 20ta qismdan iborat.

Avvalambor, Nazar Eshonqul qalamiga mansub ssenariyga to'xtalmoqchiman. Voqealar yaxshi o'ylab topilgan, syujetdagi bog'lamlar ham yaxshi ulangan. Yoshlar uchun juda ham as qotadigan asarlardan biri bo'lgan, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Bosh qahramon Anvar Azizov o'zi yoshligida sho'x, tarbiyasi og'irlardan bo'lib, so'ngra hayotiga kirib kelgan bir ustoz tufayli 180 darajaga o'zgarib olgani hamda taqdir taqozosi bilan aynan o'sha ustozning o'g'lini, endilikda Anvar yomon yo'llardan olib chiqishi taqdirning o'yinidek. Serialda yana muhabbat uchun kurash, poraxo'r ustozlar, maktablarda erkak ustozlarning yetishmasligi kabi mavzularga urg'u berilgan. Ota-onalar esa farzand tarbiyasiga butunlay bee'tibor bo'lib borayotgani ham asosiy mavzulardan. Ushbu serial boshqa keltirib o'tilgan serial va filmlarimizga nisbatan saviyaliroq bo'lishiga qaramasdan, yoshlar orasida kutilgan darajada ommalashmadi. Buning sababi bosh qahramonlar ichida taniqli yulduzlar kamligi uchunmi? Yoxud reytingi past bo'lgan davlat telekanali orqali namoyish etilganidamikin deb fikr yuritish mumkin. Serialning nomi ham yoshlarni o'ziga birday qarata oladigan deb ayto olmayman, yoshlar uchun ishlangan asarni aynan yoshlar ko'rishi kerak chamamda.

"Maktab - hayotim" filmi 2021-yilda premyera qilingan. Rejissor Ilhom Muhammadibrohimovning kinodagi ilk ishi hisoblanadi. Mazkur kinokartinada ijtimoiy muammolar aks ettirilgan bo'lib, o'qituvchilar va o'quvchilar hayoti haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, kartina voqealarida turli xarakterdagi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi ziddiyatlar va keskin tasodifiy vaziyatlar o'rin olgan. Film premyerasida shaxsan ishtirok etarkanman, namoyish vaqtida tomoshabinlarni ham kuzatishga muvaffaq bo'ldim. Shunda, film o'rtalariga yetganda, aynan voqealar rivojlanib, yanada shiddatli kechish o'rniga, tomoshabinlardagi biroz zerikish holatini kuzatdim.

Filmdagi yutuq bu har bir o'qituvchining oilaviy ahvoli ham ochib berilgani, odatda, faqatgina maktab bilan bog'liq bo'lsa, maktabdagi hodisalar bilan ijodkorlar cheklanishadi. Filmda bosh rolni o'ynagan aktyor Behzod Hamroyev o'z rolini mahorat bilan ijro etgan. Lekin bu personajga qarama-qarshi tanlangan obraz, ya'ni antagonist rolini gavdalantirgan Abror Yo'ldoshev qahramonining nima uchun ichi g'arazga to'la inson bo'lib yetishganiga alohida e'tibor qaratilish kerak edi, chamamda. Uning shaxsiy hayoti qolgan ustozlarnikiday to'laqonli ochib berilmagan. Ikki o'quvchi yoqolib qolishi va ularning sarguzashtlari ham ishonarsiz tasvirga olingan.

Grafika ustasining ishlarida xato va kamchiliklar kuzatilgan. Lekin davrdagi dolzarb mavzularga to'xtalgani e'tiborga arzugulik ish bo'lgan. Misol uchun, o'qituvchilarni majburiy mehnatdan ozod etilishga da'vatni ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarga ota-onasining kasbiga qarab muomala qilayotgan "pedagog"lar ham rejissor nazaridan chetda qolmagan. Ko'tarilayotgan mavzular ham, aktyorlar jamoasi ham yaxshi, ammo filmdagi "ritm" pastligi sezilib qolgan va yosh aktyor,

aktrissalarimizning ijrosida ham birozgina sun'iylik kuzatilgan. Rejissorning endigina birinchi ishi bo'lgani uchun buni to'g'ri qabul qilishimiz mumkin.

2015-yilda "Kamolot Yo'li" buyurtmasiga binoan, postanovkachi rejissiyor Umid Hamdamov boshchiligidagi "Shunqorlar"(5) badiiy filmi suratga olingan. Kinokartina O'zbekistonda navqiron avlodning sifatli ta'lim-tarbiya olishi uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda buning samarasida o'zbekistonlik yoshlar qo'lga kiritayotgan yutuqlar haqida hikoya qilinadi. Ssenariy va sahnalarning uzoq cho'zilmasligi, qisqa-lo'ndaligidan "Hollivud"ning sport drammlarini eslash mumkin. Mavzular orasida maktablardagi qog'ozbozlik, qizlarni balog'at yoshiga yetmasdan erga berib yuborayotgan ota-onalar hamda maktab yetakchisining ta'lim muassasasidagi o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtalgan. Filmning yutuqlaridan biri, bu aktyorlar jamoasining yaxshi yig'ilgani va bir qator iste'dodli yoshlarning kashf etilganligidadir. Misol uchun, Fotih Nasimov, Saida'lo Ma'sudxonov, Mavluda Hikmatova, ayniqsa, bosh rolni ijro etgan aktyor Sur'at Islomov rejissor tomonidan yaxshi tanlov bo'lgan deb aytolaman. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga chorchash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jamoat ishlaridagi faolligini oshirish kabi g'oyalar ham olg'a surilgan. Birgina ustoz ko'plab o'quvchilar hayot tarzining o'zgarishiga, yaxshilanishiga, dunyoqarashining o'sishiga, eng muhimi, yaxshi inson bo'lib tarbiyalanishiga o'z hissasini qo'shganini ko'rishimiz mumkin. Dialoglar qiziqarli va hayotiy gaplardan iborat ekanligi tomoshabinga yanada manzur bo'lishini kafolatlagan desam mubolag'a bo'lmaydi.

Kollej hayoti aks ettirilgan ko'p qismli "Bir kami to'lmagan dunyo" teleseriali "Zo'r TV" kanali orqali 2020-yilda e'fir yuzini ko'rdi. Jami 169 qismdan iborat bo'lib, asosan, mehribonlik uyida taqdirleri tutashgan besh yetim qizning hayoti hikoya qilinadi.

2015-yil Turkiyaning "ATV" telekanali orqali namoyish etilgan "Kirgin cicekler" serialiga mavzu va g'oyasi, syujeti tomonlama juda o'xshash. Hattoki, barcha dialoglar turkchadan, o'zbekchaga shundoqqina tarjima qilib qo'yilgan. Telekanal ushbu serialni suratga olish uchun ketkazgan mablag'i o'rniga, huddi shu serialning original variantini sotib olib, namoyish etsa, har taraflama o'zi uchun kamchiqim, tomoshabin uchun esa sifatliroq mahsulotni taqdim etgan bo'lar edi. O'qituvchi va mehribonlik uyidagi bir ayolning ana shu yetimlar uchun borini berishi, hech kim ishonmasa ham ularga sidqidildan jon kuydirishi tahsinga loyiq. Avvalgi film va seriallar kabi bunda ham ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklarga, pedagogik masalalarga urg'u berilmagan. Asosan, maishiy mavzular yoritilgan.

2019-yilda prodyuser Ahad Qayumning "Ustoz" nomli badiiy filmi premyera qilindi. "You tube" platformasiga o'sha yilning 19-sentabrida joylangan bo'lib, hozirgi kunga qadar sal kam yarim million ko'rishlar sonini yig'gan. Film saviyasi jihatdan ko'proq har kuni e'firga ketuvchi "otalar so'zi"ga yaqinroq. Sinfdozlar o'rtasidagi oqibat, ustozga bo'lgan hurmat, onaga bo'lgan bee'tiborlik va yana shunga o'xshash insoniy tuyg'ularga qurilgan. Ammo ssenariyning mukammal darajada yozilmagani, taftalogiya holatlari haddan ortiq kuzatilishi tomoshabinlarning g'ashiga tegishi aniq. Filmdagi bosh rol, ya'ni ijobiy qahramonni gavdalantirgan aktyor Ahad Qayumning obrazini his qilmay o'ynagani va ijrosidagi sun'iylikni payqashimiz mumkin.

Omnia orasida yaxshigina shuhrat qozongan rejissyor Baxtiyor Safarovning “Meni asra” serialining asosiy qahramonlardan biri Zahida. U institutda ingliz tili fanidan dars beradi. Kulgili tomoni o‘z talabasi bilan nikohdan o‘tadi, yigit undan kichik bo‘lishiga qaramasdan. Rejissor aynan Zahida personajining serialdagi hayotini ko‘rsatish orqali tomoshabinlarga nimani tushuntirmoqchi bo‘lgan? Qahramonlarning motivi nimada? Tushunishimiz bo‘yicha qahramonlarning xatti-harakatining sababi bu sevgi. Ammo rejissor bu g‘oyani ochib berishda shubhali yo‘lni tanladi. Chunki yoritishning bu usuli Zahidaning obrazini negativ tarzda ko‘rsatgan. Bu orqali ustozlar mavqeyiga putur yetkazilgan (4).

Eng achinarlisi, oxirida buning notog‘riligini ko‘rsatisharmikin degan umid bilan serialni kuzatishda davom etdim. Asfuski, umidlarim chippakka chiqdi. Ustoz talabasi bilan baxtli hayot kechirdi, yigitning oilasi qizni qabul qildi, nailoj boshqa yo‘l ham qolmagandi. Bir so‘z bilan aytganda, ustoz siymosi doim ilm beruvchi va yaxshi yo‘lga boshlovchi bo‘lib qolsa, yaxshi bo‘lar edi.

Xulosaviy fikrlarimga ham filmlar bilan to‘xtalmoqchiman, misol uchun yosh rejissorlardan Feruz Bahodirovning “Oliy ta‘lim” qisqa metrajli filmi. U yuqoridagilar kabi katta film emas, ammo o‘zining ichiga sig‘dirgan g‘oyalari bir olam. Oliy ta‘limimizdagi muammolar, jamoat ishlari har narsadan ustunligi, qog‘ozbozlik, talabaning sifatiga emas soniga ko‘proq e‘tibor qaratilishi. Eng yomoni bularning hammasini ustozlarning o‘zi ham bilib turishi va yechim topish uchun na xohishi va na harakati borligini ko‘ramiz.

Shu bilan bir qatorda, “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedrasida Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Osman Kapadzening “Bir kuni imtihonda” qisqa metrajli filmida ham maktab mavzusi, o‘qitish tizimidagi kamchiliklar satirik kulgiga olingan. Baholanayotgan talabalarning bilim darajasiga qarab emas, yuqoridan tekshiruv kelib qolgan paytda o‘qituvchini sharmanda qilmagani, obro‘ olib bergani va formada kelishiga qarab a‘lo bahoni qo‘lga kiritishi juda qiziqarli. Filmda xato, kamchiliklar bor, ammo talaba tanqid qilayotgan mavzuni yoritishda yuqoridagi ijodkorlarda jasorat topilmadi-ku?! Hamma faqatgina mavzuning atrofida aylandi “nuqtasiga hech kim urmadi”. Ammo yosh ijodkorlarniki qisqa metrajli film bo‘lgani uchun tomoshabini seriallar darajasida ko‘p emas, kelajakda tanqidga olgan mavzular o‘z yechimini topadi, degan umiddaman.

Tomoshabinlar qanday film kutadi, masalan, hind filmlarida ustoz asosiy qahramon bo‘lgan (“Xiqchqoq”, “Super 30”, “Yerdagi yulduzlar”). Ta‘lim tizimi haqida hikoya qiluvchi “Hind maktabi”, “Uch savdoyi” filmlarini aytgan bo‘lar edim. Jahondan ham talaygina, misol uchun 2008-yil katta ekranlarga chiqqan “Sinf”, “Meni qo‘yib yuborma” (1989), “Qirol Gambit” (2020), “Vaqtinchalik o‘qituvchi” (2011), “Kurashing va bajaring” (1988), “Zafar: Ron Klarkning tarixi” (2006) kabi filmlar yoshlarga chinakamiga motivatsiya bera olgan deb aytishimiz mumkin. O‘zbek kino san‘atida ham ustoz timsoli, yuqorida keltirib o‘tgan kinokartinalarimizdek suratga olinishi tarafdorimiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Шавкат Мирзиёев: «Если мы не поднимем авторитет учителя, мы не сможем достичь своей цели» [Elektron resurs] URL: <https://kun.uz/ru/news/2020/12/15/shavkat-mirziyoyev-yesli-my-ne-podnimem-avtoritet-uchitelya-my-ne-smojyem-dostich-svoyey-tseli> (21.03.2022).
2. Karimova N. O‘zbekiston badiiy kinosi. T., “San’at” nashriyoti, 2019.
3. Зайцева С. А. Жанр телевизионного сериала как культурный текст. дис. канд. философ. наук: 24.00.01. – М., 2001.
4. Савияси саёз миллий сериаллар. Ёмонликни кўрсатиб, яхшиликка ўргатиб бўладими? [Elektron resurs] URL: <https://kun.uz/news/2021/10/09/havaskorlar-qolidagi-fahsh-targibotchisi-nomusi-bor-qarolmaydigan-sharmsiz-seriallar-haqida> (22.03.2022).
5. Toshkentda zamonaviy yoshlar haqida film taqdimoti bo‘lib o‘tdi [Elektron resurs] URL: <https://kun.uz/uz/91354?q=%2Fuz%2F91354> (25.03.2022).

## **SAN’AT VA MADANIYAT SOHASIDA QAHRAMON AYOL SIYMOSI**

**Qurbonova Dilnoza Toxirova**, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada maqom san’atini butun dunyoga tanilishida ulkan hissa qo‘shgan O‘zbekiston Qahramoni Munojot Yo‘lchiyeva ijodiga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ayol, ona, jamiyat, davlat, san’at, maqom,

### **Аннотация**

Данная статья посвящена творчеству Героя Узбекистана Муножот Юлчиевой, внесшей значительный вклад в признание макомного искусства во всем мире.

**Ключевые слова:** Женщина, мать, общество, государство, искусство, маком.

### **Abstract**

This article focuses on the work of the Hero of Uzbekistan Munojot Yulchiyeva, who made a significant contribution to the recognition of the art of maqom around the world.

**Keywords:** Woman, mother, society, state, art, maqom.

**“Munojotxonda o‘zbek ayoli timsoli mujassam”.**

**Sh.M. Mirziyoyev**

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ong-u tafakkuri, madaniy darajasini ko‘rsatadigan mezonlar ko‘p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma’naviy kamolotini belgilovchi, ta’lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga



bo'lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo'ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ota-bobolarimizning "Ayolini siylagan el ulug' bular" degan hikmatida xalqimizning oliyjanob fazilatlari mujassamdir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'la ishonch hosil qilamiz.

Bugun Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarimiz azizu mukarramlkning baland shohsupalariga olib chiqilayotgani ham aynan ushbu hikmatning bardavomligidan dalolatdir. Davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda: "Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi" [1]. Darhaqiqat, ayol qaysi davr, qanday mavqe, qay bir sharoitda bo'lmasin, baribir muqaddas zot bo'lib qolaveradi. Zotan, ayol yuksalsa, butun bashariyat yuksaladi, degan ibora bor.

Tariximizning qaysi davriga nazar solmaylik, ayol mudom ezgulik timsoli, murabbiy va komil inson tarbiyachisi bo'lib kelganini ko'ramiz. Xalqimizning buyuk tarixida o'zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas iz qoldirgan To'maris, Bibihonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodira, Uvaysiy Anbar Otin va yuzlab ayollarmizni hamisha ehtirom bilan tilga olamiz [2: 220 b]. Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To'marislar avlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda. Necha asrlar davomida O'zbekiston jamiyatida ulug' iste'dod sohibalari yetishib chiqib, ularning ijodi, asarlari, hayot yo'li umuminsoniy fazilatlarni tarannum etib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nodirabegim yozganidek: "Maqsad na edi jahona kelding, kayfiyatingni bayon etib ket" [3: 4 b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq, davlatimiz mustaqilligining 30 yillik yubileyi munosabati bilan yuzlab hamyurtlarimiz qatorida madaniyat va san'at vakillari ham unvon, orden va ko'klak nishoni bilan taqdirlandilar. Eng oliy "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan, o'zining buyuk iste'dodi, noyob va betakror ijodi bilan milliy musiqa san'atini dunyo xalqlari o'rtasida keng targ'ib qilgan, o'zbek mumtoz san'atini yanada rivojlantirishda katta hissa qo'shgan zabardas san'atkor, O'zbekiston Xalq artisti Munojot Yo'lchiyevadir.

O'zbekiston xalq artisti Munojot Yo'lchiyeva 1960-yil 25-noyabrda Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tavallud topgan. 1985-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlab, ustози M.Mirzayevdan an'anaviy xonandalik va maqom san'ati sirlarini o'rgangan. U O'zbekiston teleradio qo'mitasining "Maqom" ansamblida (1980-1982), M.Qoriyoqubov nomidagi o'zbek davlat filarmoniyasida (1982 yildan 1996 yilgacha "O'zbeknavo") xonanda bo'lib o'z faoliyatini olib bordi.

Munajat Yo'lchiyeva maqom yo'llarini chuqur o'zlashtirgani bois, uning ijrosidagi mumtoz xalq qo'shiqlari xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. Shu o'rinda maqom san'ati fidoiylaridan biri, buyuk san'atkorning ustози M.Mirzayevning "Mumtoz asarni anglab yetish uchun o'ta nozik fahm-farosat kerak" degan so'zlarini keltirish joiz. Shuningdek, eng qiyin, eng murakkab yo'nalishda ijod qilish uchun sabr-toqat, mustahkam iroda, tolmas yurak zarur. Qahramonimizning har bir ijrosida shu

jihatlari yaqqol koʻzga tashlanadi. Shundanmi, Munojot Yoʻlchiyeva haqidagi suhbatlarda unga “Maqom sanʼatining qirolichasi”, “Maqom malikasi”, “Maqomning tirik afsonasi” deya taʼrif berishgan [4].

Oʻzbekiston xalq artisti Munojot Yoʻlchiyevani ilk bor muhlislariga sevimli qilgan, hazrat Navoiy soʻzi bilan aytiladigan “Munojot” ashulasini tinglagan betakror damlarimizning hayajonlari faqat oʻsha onlarda emas, hofizani qachon eshitsak, takrorlanadi. Sanʼatkor maromiga yetkazib ijro qilgan “Sarahbori dugoh”, “Moʻgʻulchai navo”, “Talqini ushshoq”, “Munojat”, “Safti Chorgoh”, “Girya” kabi maqom ashulalari deysizmi, “Ey dilbari jonim”, “Ishqing oʻtigʻa” kabi katta ashulalar deysizmi yo “Tanovor”, “Izlayman” kabi xalq qoʻshiqlari boʻladimi, tinglovchini oʻzi yashayotgan olamdan boshqa yana bir olam borligiga ishontiradi [5: 8 b.].

Munojot Yoʻlchiyeva 1997 yilda “Sharq taronalari” 1-xalqaro musiqa festivalida 1-mukofot sovrindori, 1998-yilda “El-yurt hurmati” ordeni hamda 2021-yil, mustaqilligimizning 30-yilligi oldidan “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangani, bularning barchasi tinimsiz izlanish va intilishlar samarasidir. Bu darajaga yetishishda avvalo, fidoyilikda olib borilayotgan mashaqqatli mehnat, dars va amaliyotlarning barakali mevasi sifatida eʼtirof etilishidir. [6]

Oʻzbekiston Qahramoni, asl sanʼat shaydosi Munojot Yoʻlchiyeva yuksak unvon bilan gʻururlanib: “Biz uchun bebaho badiiy qomus boʻlgan maqom sanʼati asrlar necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini ezgu-intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelayotgani bilan eʼtiborga molik. Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy sanʼati, ilm-u maʼrifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom sanʼatiga – ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga oʻzbek xalqi ham munosib hissa qoʻshgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz”, [7] deb minnatdorlik bildirgan edi.

Biz Munojot Yoʻlchiyeva timsolida Yangi Oʻzbekiston madaniyati va sanʼatini rivojlantirishda ulkan hissa qoʻshayotgan oʻzbek ayolining ijtimoiy hayotda faol ishtirok etib, oʻzbekona turmushda gender tenglikni namoyon etayotgan buyuk zamondoshimizni koʻramiz. Oʻzbekistonda erkak qanday ulkan martabaga, shonga erishsa ayollar ham shunday mavqega ega boʻlishi mumkin. Agar shunday ijtimoiy, huquqiy va gender tenglik boʻlmaganida Munojot Yoʻlchiyeva kabi ayollarimizdan buyuk isteʼdod sohibalari chiqmagan boʻlardi.

Xulosa oʻrnida ulugʻ bobokalonimiz Abdulla Avloniyning quyidagi aytganlari bilan soʻzimizni muhtasar qilsak ayni muddao boʻladi: “Vatan tuygʻusi eng insoniy eng moʻtabar tuygʻulardan biridir. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan – Onadek muqaddas, uni qadrlash, eʼzozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik boʻlish, gʻamtashvishlarini baham koʻrish farzandning burchi”dir. Hayotdaha sanʼatda hamsevimli, hurmatga sazovor Munojot Yoʻlchiyeva ana shu burchni ixlos bilan ado etayotgan Oʻzbekiston Qahramoni ekanligi bilan ham ardoqlidir.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotinkizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.// Yangi O'zbekiston -2022. - 8 mar.
2. Ayol ma'naviyat gulshani mavzuidagi II-Respublika ilmiy-nazariy Konferensiyasi materiallari. Jizzax politexnika instituti, -2010. -226 b.
3. Z. Isomiddinov. Bilmaganlarimiz to'g'risida bilganlarimiz –Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi nashryoti, 2021. -116 b.
4. “Maqomlarga jon rishtasin nisor etdim...” // Madaniyat -2021. -30 dek.
5. Z. Mo'minova. Sharqning billur ovozi “Saodat” jurnali 11-son -2021. nou. -32 b.
6. R. Qurbonov. “San'at olamida porlab turgan yulduzlar”. // Madaniyat -2021. -30 dek.
7. Yo'lchiyeva M. San'atsevar xalqim bilan faxrlanaman. //Yangi O'zbekiston -2021. -27 avg.

### **DAVLAT IQTISODIY RIVOJLANISHINI RAG'BATLANTIRISH UCHUN MADANIYAT VA SAN'ATDAN FOYDALANISHNING AHAMIYAT**

**Xo'jamqulov Boburjon Bahtiyor o'g'li,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Xalq ijodiyoti fakulteti  
“Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta'lim yo'nalishi  
4-bosqich talabasi  
[Xojamqulovbobur01@gmail.com](mailto:Xojamqulovbobur01@gmail.com)  
+998995533038

Ilmiy rahbar: **Zumriniso Kozimova,**  
“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Madaniyat va san'at davlat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. “san'at industriyasi” deb ham ataladigan madaniyat va san'at sohasi hududlar uchun bevosita iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ular jamiyatni rivojlantirish va mahalliy qulayliklarni boyitish uchun muhim qo'shimcha hisoblanib, ish o'rinlari yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi, soliq tushumlarini oshiradi va turizm va iste'mol xaridlari orqali mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, Madaniyat va san'at sohalari hayot sifatini oshirishi sababli, jamiyat taraqqiyotining muhim bo'lagi bo'lib, mahalliy sharoitlarni yaxshilaydi va shijoatga ega bo'lgan yoshlarni jalb qiladi.

**Kalit so'zlar:** San'at industriyasi, madaniy meros, iqtisodiy tahlil, ijodiy sanoat, madaniy turizm, hunarmandchilik, dizaynerlik, madaniy strategiya.

#### **Annotation**

Culture and art are important for the state economy. The culture and arts sector, also known as the “art industry,” provides direct economic growth for the regions. They

are an important addition to community development and local amenities, creating jobs, attracting investment, increasing tax revenues, and stimulating the local economy through tourism and consumer procurement. In addition, as culture and the arts improve the quality of life, they are an important part of community development, improving local conditions and attracting energetic young people.

**Key words:** Art industry, cultural heritage, economic analysis, creative industry, cultural tourism, remesla, design, cultural strategy.

### Аннотация

Культура и искусство имеют важное значение для экономики государства. Сектор культуры и искусства, также известный как «индустрия искусства», обеспечивает непосредственный экономический рост регионов. Они являются важным дополнением к развитию сообщества и местных удобств, созданию рабочих мест, привлечению инвестиций, увеличению налоговых поступлений и стимулированию местной экономики за счет туризма и потребительских закупок. Кроме того, поскольку культура и искусство улучшают качество жизни, они являются важной частью развития общества, улучшая местные условия и привлекая энергичную молодежь.

**Ключевые слова:** Арт-индустрия, культурное наследие, экономический анализ, креативная индустрия, культурный туризм, ремесла, дизайн, культурная стратегия.

Madaniyat va san'at bilan bog'liq sohalar mamlakat va hududlar uchun bevosita iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Madaniyat va san'at jamiyatni rivojlantirish va mahalliy sharoitlarni yaxshilash uchun muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Madaniyat va san'at o'z faoliyatida ijodiy muhitni shakllantirib, yangi ish o'rinlarini yaratadi, shuningdek, madaniy tadbirlar aholining xaridlari faoliyatini oshirib pul aylanishini hosil qiladi, hamda xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirib turizm orqali mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi. Madaniyat va san'atga yo'naltirilgan turizm o'z o'rnida ko'plab mehmonlarni jalb qiladi va shu orqali davlat iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. Ushbu ijodiy sektor rivojlanishi nafaqat iqtisodiy daromadlarni oshirib qolmay balki o'ziga xos madaniy jozibaga ega bo'lgan zamonaviy san'at orqali yangicha qiyofa kasb etayotgan hududlarga yosh, iqtidorli, shijoatli mehnat kuchlarini jalb qiladi. Bu o'z o'rnida ichki migratsiyaga tasir qiladi va madaniy hilma-xillik, innovatsiyaga to'la g'oyalarni yangiliklarni olib keladi. Men maqolamda azaliy eskicha qarashlariga barham bermoqchiman ya'ni "madaniyat va san'at davlatga yuk", "uni doimiy qo'llab quvvatlab turish kerak" va shu kabilardan butkul vos kechgan holda san'atning davlat iqtisodiy va ijtimoiy rivojidadagi ahamiyati va undan iqtisodiy rag'batlantirish yo'lida qanday foydalanish kabi fikrlarimni bayon qilganman.

Madaniyat va san'at albatta bir qancha sabablarni hisobga olsak kuchli iqtisodiyotning muhim qismidir. Innovatsion industriyalarni yaratish bilan bir qatorda, uning rivojlanishi hududlardagi har qanday sohada ishlaydigan odamlar va oilalarning ijtimoiy kayfiyatini ko'taradi. Madaniy va san'at sohalarning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini xalqaro miqyosda baholaydigan bo'lsak, hisob-kitoblarga ko'ra, Bu

sohalarda ishlaydigan aholi qatlami yiliga 250 milliard AQSh dollarida daromad olib, butun dunyo bo'ylab 29,5 million ish o'rin yaratmoqda. Ushbu ma'lumotning o'zi ham madaniyat va san'atning ahamiyatini belgilab beradi. Maqolamning ayni bu qismida davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun madaniyat va san'atni qanday jalb qilish mumkinligi haqida ba'zi usullar keltirib o'tmoqchiman.

Har bir davlat o'zining Madaniyat va san'atning iqtisodiyotdagi ulushini tahlil qilishi kerak. Ushbu ijodiy sohalarning iqtisodiy foydasini yaxshiroq bilish uchun davlat o'zining madaniyat va san'atdagi imkoniyatlarini muntazam o'rganib borishi lozim. Bu san'at sanoati ma'lumotlarini o'rganish va san'at aktivlarini doimiy tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Doimiy tahlilni o'tkazish madaniyat va san'atning davlat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini aniqlashga yordam beradi. Bu ularga sohadagi muhim ma'lumotlarni statistik tahlil qilishga imkon beradi, ulardan davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Yig'ilgan ma'lumotlar mahalliy iqtisodiy o'sish, turizm va madaniyat sohasini rivojlantirish kabi muhim masalalarni muvofiqlashtirishda qo'llaniladi. Ijodiy sohalarda davlat va mahalliy iqtisodiy rivojlanishda juda muhim ammo bu omil har doim ham e'tiborga olinmaganligi sababli ham madaniy islohotlar aniq va barqaror bo'la olmaydi.

Davlat iqtisodiy o'sishni san'at orqali rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar yoki tashabbuslarni qabul qilishi kerak. Bunga davlatning madaniyat va san'atdagi infratuzilmasining quyidagi muhim qismlari orqali erishish mumkin:

- **Yakka tartibdagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash** – yakka tartibdagi ijodkorlar har qanday davlatning madaniy iqtisodiyotida muhim ishlab chiqaruvchilardandir. O'z o'rnida qo'llab-quvvatlash uchun davlat ijod kishilarini, tadbirkorlarni va rassomlarning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish uchun kichik grantlardan foydalanishi kerak. Ushbu grantlar san'at xodimlariga o'zlarining ijodiy ishbilarmonlik qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi;

- **Davlat xususiy sherikligi** – davlatlarning har qanday muhim ijodiy soha tarmoqlari bilan hamkorligi ularning ijoddagi mehnat kuchini rivojlantirish salohiyatini oshiradi. Rivojlangan davlatlardagi tajribalar bunday strategiyalar istiqbolli ekanligini ko'rsatadi, chunki ular rejalashtirish va marketing kabi sohalarni rivojiga yordam beradi. Bu mamlakatda madaniy hayotning sezilarli o'sishini ta'minlaydi;

- **Notijorat san'at va madaniyat infratuzilmasini mustahkamlash** – Ko'pchilik notijorat tashkilotlar tadbirkorlar va ijodiy biznes uchun inkubatorlar ya'ni o'qitish, ta'lim yoki rejalashtirish faoliyati bilan xizmat qiladi. Davlat san'at sohasida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga harakat qilar ekan, ijodiy biznes sohasi vakillarini notijorat tashkilotlarning iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashi kerak.

Madaniyat va san'at sohasini rejalashtirishni amalga oshirish ham juda ahamiyatli hisoblanib madaniy imkoniyatlarni chuqur tahlil qilib to'plangan ma'lumotlardan foydalanib mamlakat miqyosida ijodiy sohalarga iqtisodiy foyda keltirish uchun ko'plab loyihalar ishlab chiqsa bo'ladi. Bunday strategiyalar yangi imkoniyatlarni aniqlab beradi va hududlarning san'at orqali iqtisodiy rivojlanishni yana-da oshirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Ushbu jarayonni esa quyidagicha rejalashtirish kerak:

• **Manfaatdor tashkilotlarni topish** – Bu rejalashtirish harakatlarining samarali faoliyatiga asosiy omil hisoblanib bu sohalarning rivojidan manfaatdor bo‘lgan kishilarni aniqlashni o‘z ichiga oladi.

• **G‘oyani aniqlash** – Madaniyat va san‘at sohasiga rahbarlik qiluvchi organ davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga madaniyat va san‘atni hissasini oshirish uchun o‘ziga xos qarashlarini ishlab chiqishi kerak. Bu davlatning iqtisodiy o‘rni va rivojlanishini rag‘batlantirish uchun davlatning madaniy boyliklaridan foydalanishga mo‘ljallangan iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaratadi.

Madaniyat va san‘at sohalari ish bilan ta‘minlaydi turizm va o‘z iste‘molchilari bo‘lgan san‘at ixlosmandlari xaridlari orqali mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantiradi. Madaniyat va san‘at sektorini o‘z ichiga olgan sohalarga hunarmandchilik, reklama, grafika va madaniy turizm kiradi. Ijodiy sanoat soliqlarni shakllantirish orqali hududlar iqtisodiyotiga bevosita hissa qo‘shadi. Madaniyat va san‘at sanoati hududlar miqyosida iqtisodiy manfaatlarni taklif etadi, jumladan:

• **Sayyohlik orqali valyutani jalb qilish** – madaniyat va san‘at tadbirlarga jalb qilingan tomoshabinlar nafaqat tadbirlarga pul sarflaydi, balki restoranlarda ovqatlanish, sovg‘alar va xizmatlar sotib olish orqali mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shadi. Bunga misol qilib 2017-yili “Istiqlol” (hozirgi Xalqlar do‘stligi) sanat saroyida Ispaniyalik xonanda Enrike Iglesias yakkaxon konsert dasturini taqdim etdi. Ushbu konsertni ko‘rish uchun nafaqat hududlardan balki O‘zbekistonga qo‘shni bo‘lgan davlatlardan ham ko‘plab sayyohlar tashrif buyurishdi.

• **Zaif iqtisodiy hududlarga yordam berish** – ijodiy sanoat qishloq joylari va shaharlar aholisiga foyda keltirishi mumkin. Bunga san‘atkorlarni o‘z hududida ham, undan tashqarida ham tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish orqali erishiladi. Bu chekka hududlarda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Turizm sohasini rivojlantirishning asosi madaniyat va san‘atni uyg‘un holda birlashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Madaniy turizm tobora ommalashib bormoqda va shu bilan iqtisodiy o‘rni va rivojlanishining asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. Madaniy meros va turizm barqaror iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Davlat madaniy turizmni rejalashtirish va o‘zlarining noyob san‘at asarlarini sotuv hajmini oshirish uchun innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishlari kerak. Bu ko‘proq tashrif buyuruvchilarni jalb qiladi va turizmning davlat iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sirini oshiradi.

Davlat o‘z iqtisodini yuksaltirish uchun san‘atdan turli yo‘llar bilan hamjamiyatni rivojlantirish va san‘at boyliklarini targ‘ib qilishdan tortib, madaniy turizmga yordam sifatida foydalanishlari mumkin. Shuningdek, davlat o‘zining ijodiy sohasini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqishi kerak. Davlat grantlar taklif qilish va san‘at uchun jamoat joylarini yaratish orqali jamiyatni rivojlantirish strategiyalariga san‘atni kiritish mumkin. Shunday qilib, davlat barqaror va maftunkor madaniyati va san‘atini targ‘ib qilish orqali ko‘p foyda oladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1995.



2. Arjo Klamer Madaniyatning qadri: Iqtisodiyot va san'at o'rtasidagi munosabatlar haqida. Amsterdam universiteti nashriyoti, 1996.
3. Coyne, CJ "Savdo ochiqligi va madaniyati", Mayami, Williamson. 2009.
4. Klaudiya R. Uilyamson va Reychel L. "Iqtisodiy erkinlik, madaniyat va o'sish", Mathers. 2011.
5. Ziyo.com.

## **QORAQALPOQ EKRAN SAN'ATIDA OVOZ REJISSYORLIGINING USLUBIY JIHATLARI**

**Abdreymov Manas Bekpolatovich,**

O'zDSMI Nukus filiali, "Texnogen va dramaturgiya san'ati" assistent  
o'qituvchisi

O'zDSMI 17.00.03 Kino, televideniye san'ati mustaqil izlanuvchisi

[m.abdreymov@mail.ru](mailto:m.abdreymov@mail.ru)

(90) 652-24-25, (99) 288-55-58

### **Annotatsiya**

Bu maqolada qoraqalpoq ekran san'atidagi ovoz rejissorligi masalalarining uslubiy jihatlari, qoraqalpoq filmlarining poydevori, qoraqalpoq filmlarining chet davlatlardagi o'rni. kinoprakat masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ekran, O'zbekkino, Qoraqalpoqfilm, ovoz rejissyorligi, lenta, rejissura, kinematografiya, kino, kinoteatr, san'at, "Tanka" filmi, agentlik, milliy kinematografiya.

### **Annotation**

In this article, the stylistic features of the issues of sound directing in the art of the Karakalpak screen are studied. The role of Karakalpak elephants in fundamental, Karakalpak films in foreign countries. Kinoprakat issues.

**Key words:** Screen, Uzbekkino, Karakalpakfilm, sound directing, tape, directing, cinematography, cinema, cinematography, art, "Tank" film, agency, National Cinematography.

Mustaqillik yillarida milliy kinematografiya rivojiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan katta e'tibor natijasida sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlar yaratilib, ular tomoshabinlar e'tiborini qozondi.

Qayd etish kerakki, kinematografiya sohasida normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi, kino ishlab chiqaradigan yetakchi korxonalar, jumladan, "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyaning moddiy-texnik bazasi jismoniy va ma'naviy jihatdan yangilangan.

Bundan tashqari, aytish kerakki, davlatimiz rahbarining 2017-yil 7-avgust kuni imzolangan "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uzoq tarixga ega va o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan

o‘zbek kino san’ati rivoji uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochib beradi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu muhim hujjatda, eng avvalo, kinematografiya sohasining xalqimiz hayotida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirish, uni hozirgi zamon talablari asosida yanada takomillashtirish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Xususan, milliy kinematografiya san’atini zamon talablari asosida rivojlantirish, yosh kino ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbekkino” Milliy agentligi huzurida Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etiladi. Shu bilan birga, agentlik huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tarkibida kichik kinostudiyalari va zamonaviy formatdagi kinozallari bo‘lgan mintaqaviy madaniy-ko‘ngilochar komplekslar bunyod etiladi.

Bundan tashqari, qarorda kadrlar tayyorlash, yosh iste’dodli va istiqbolli kino ijodkorlari malakasini oshirish, ularning yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil olishiga qaratilgan vazifalar belgilanganligi ham soha rivojida muhim qadam bo‘ladi.

Xorijda munosib baholangan milliy asarlarimizdan o‘zimizning tomoshabinlar ham bahramand bo‘lishi, olim va munaqqidlarimiz badiiy, estetik, g‘oyaviy jihatlarini tahlil etib, jamiyatga, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy olamini boyitayotganini ko‘rsatib berishlarini xohlardik. Buning uchun fundamental tadqiqotlar yaratilishini zarur, deb bilamiz.

Masalan, “Tanka” asarini olaylik, qancha vaqtdan buyon ushbu asarga bo‘lgan e’tibor va ishtiyoq susaymayapti. Hattoki, xorijda “Tanka” namoyish etilganda tomoshabinlar bu filmni dublyajsiz ham yaxshi qabul qilganiga o‘zimiz guvoh bo‘lganmiz. Ammo... bunday fikrni xususiy studiyalar yaratayotgan bir qolipdagi asarlar haqida ayta olmaymiz. Ekrandagi voqealar dramatik jihatdan puxta yozilmaydi. Rejissura ham bo‘sh, zaif ko‘rinadi. Kuni kecha mavzu, qahramon tanlash, hatto filmni metrajini belgilash “markaz”ning ijozati bilan bo‘lgan. Kino olish jarayoni og‘ir kechgan. Texnik vositalar eskirgan, ijodiy-texnik kadrlar masalasi ham bo‘lmagan. Rejissorlar oylab, yillab laboratoriyada qayta ishlanadigan kino plyonkalar, reaktiv ximikatlardan “omon chiqishi”ni yurak hovuchlab kutib turardi. Harakatga keltirish og‘ir bo‘lgan apparatlar yordamida ming-ming metr tasmalarga tasvir tushirilgan.

Bugun ijod erkinligi boshqa sohalar qatorida kino san’atimizga ham katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Bugun davlat studiyalari qatorida nodavlat studiyalarida ham yiliga o‘nlab filmlar yaratilmoqda. Davlat studiyalariga qaraganda, nodavlat studiyalar tayyorlayotgan filmlarning sifati biroz zaifroq ko‘rinadi. Ijod erkinligi degani xohlagan odam qo‘liga kamerani ko‘tarib, kino olsin, rejissyorlik qilsin, rol o‘ynasin, kinoga musiqa bastalasin, degani emas-ku! Bu borada nodavlat studiyalarda rejissura, dramaturgiya, ijrochilik san’ati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lganlarning aksariyati professional tayyorgarlik ko‘rmagan. Misol uchun, sevimli san’atkorimiz Murod Rajabovni mahoratli aktyor sifatida yuksak qadrlaymiz. Kino, teatrda o‘ynagan rollarining hech biriga befarq emasmiz. Ammo rejissor sifatida suratga olgan “Pushaymon”, “Sehrlil billiard” deb ataluvchi filmlarining rejissurasi mutlaqo talabga javob bermaydi. Ayniqsa, “Sehrlil billiard” nihoyatda bo‘sh ishlangan asar. Taniqli rejissyor Nozim To‘laxo‘jayevning “Tanho qayiq” filmi ekspertlar va munaqqidlar



tomonidan yaxshi baholangandi. Ammo nodavlat studiyasida yaratgan “Pushaymon” asarida milliy urf-odatlarini, insoniy fazilatlarini ko‘rsatishga urinish bor, lekin syujet poyma-poy. Bunday zaif filmlar qatoriga “Kulgi shou”, “Tuzoq” kabi filmlarni ham qo‘shish mumkin. Bugun maxsus o‘quv yurtida ta’lim olgan san’atkorlar bilan bir qatorda san’at ilm dargohining zinapoyalarini xatlab o‘tmagan havaskorlar ssenariy yozishga, rejissura bilan shug‘ullanishga oshiqmoqda. Bunday nosog‘lom jarayon kino rivojiga ham, estetik tarbiyaga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy.

Bilasizmi, kino san’atiga qaratilayotgan e’tibor soha xodimlarini quvontirishi bilan birga ishtiyoq va kelajakka ishonch bag‘ishlamoqda. Xususi kinostudiyalarimiz soni ko‘p. Buni ijobiy hol sifatida baholash mumkin. Ammo ular shu paytgacha davlat yordamiga muhtoj edi. Prezidentimizning “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va “Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlaridan keyin ular faoliyatida jonlanish kuzatildi, rivojlanishga intilish paydo bo‘ldi. Mazkur hujjatlarga ko‘ra, sohada tizimli ishlarning yo‘lga qo‘yilishi, davlat tomonidan beriladigan ijodiy grantlar uchun o‘tkaziladigan tanlovlarda xususi studiyalarning ishtirok etishi o‘ziga xos sog‘lom ijodiy raqobatni yuzaga keltirmoqda. Raqobat bor joyda esa rivojlanish, yangilik, yuksalish bo‘lishi tabiiy. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, kinostudiyalarimiz oldida har tomonlama mukammal, yuksak saviyali, badiiy did va mahorat bilan ishlangan kino asarlar yaratish vazifasi turibdi.

Kino – bu, avvalo, san’at. O‘z navbatida, targ‘ibot vositasi ham. Sobiq sho‘ro tuzumi davrida kino shu tuzum mafkurasiga xizmat qilgan. O‘sha paytda ham milliy ruh aks etgan – “Bálent lapızlı baqısı”singari ulug‘ ajdodlarimiz haqida olingan tarixiy kino asarlarimiz bo‘lgan.

Prezidentimizning ijodkorlar bilan uchrashuvdagi ma’ruzalaridan birida 1996-yilga qadar mamlakatimizda mavjud bo‘lgan 342 ta qishki va yozgi kinoteatrlarning 323 tasi o‘tgan yillar mobaynida xususiylashtirilib yuborilgani va ularning asosiy qismi savdo majmuasi, to‘yxona, bozorga aylantirilib, faoliyati butkul o‘zgartirilgan yoki buzib tashlangani aytilgan edi. Bugungi kunda mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan 176 ta kinoteatrdan 8 tasi avariya holatida, 65 tasi jiddiy ta’mirlab, qolganlarining deyarli yarmi faoliyat ko‘rsatmaydi. Achinarli holat, albatta. Bu yo‘nalishda dunyo tajribasini o‘rganish kerak. Rivojlangan Evropa davlatlarida kichik-kichik shaharlarda ham ko‘plab zamonaviy, shinamgina kinoteatrlar borligiga guvoh bo‘lganman.

Kinoprokat masalasi. Shu paytgacha kinoprokat tizimi mutlaqo qoniqarsiz ahvolda edi. Kinoprokatdan tushgan foydaning yarmidan ko‘pi kinoteatr egalari qo‘lida qolib kelmoqda. Bunday sharoitda film ishlab, iqtisodiy foydaga erishish haqida gapirish mushkul...

Prezidentimiz tashabbusi bilan bu borada ham jiddiy islohotlar boshlab yuborildi. Yaqinda mamlakatimizdagi mavjud kinoprokat tizimida ko‘p yillik an’analarni yo‘qqa chiqargan “olamshumul” bir yangilik sodir bo‘ldi – kinostudiyalarning mamlakatimizdagi davlat tasarrufida bo‘lgan mavjud kinoteatrlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalari tugatildi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 24-iyuldagi “Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar

Mahkamasining 6- apreldagi “Respublikada yagona repertuar siyosati yuritilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan respublika kinoprokat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq “O‘zbekkino” milliy agentligi tizimida Respublika kinoprokat markazi va hududlarda filiallari tashkil etilmoqda. Bundan buyon “O‘zbekkino” milliy agentligi tizimidagi barcha kinoteatrlarni milliy va xorijiy filmlar bilan ta’minlash markazlashgan holda Respublika kinoprokat markazi tomonidan amalga oshiriladigan bo‘ldi. Endilikda kinoprokat tizimiga kiruvchi barcha kinoteatrlarda filmlar namoyishini tashkil etish xususiy kino ishlab chiqaruvchilar – studiyalar va distribyutorlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida Respublika kinoprokat markazi tomonidan amalga oshiriladi. Aslida, kinoindustriya bozori talabi ham aynan shu.

Bugun “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan AQSH, Fransiya, Daniya, Xitoy, Hindiston kabi yirik mamlakatlarning nufuzli xorijiy kinokompaniyalari bilan hamkorlik memorandumlari, kelishuvlar, shartnomalar imzolanmoqda. Barchaga *ma’lumki*, mazkur agentlik, davlat nomidan katta ishonch bildirib, yetuk ijodiy tashkilotlarga maxsus buyurtmalar bermoqda. *Misol* uchun, 2016-yilda “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasiga ham katta davlat buyurtmasi berilgan. Davlat buyurtmasiga asosan, “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasida “Ustyurtga yo‘l” (rej. Abduvohid G‘aniev) deb nomlangan badiiy filmi (rus tilida – « Дорога в Устьют «) suratga olingan.

Aytish kerakki, bugungi qoraqalpoq tomoshabinining didini avvalgilari bilan solishtirib bo‘lmaydi. Chunki qisqa davrda qoraqalpoq kino olamiga jahon standartlariga javob beradigan sifatli kinolar kirib kela boshladi. Ayniqsa, “Tanka” filmi barcha kinoijodkarlarni mazkur filmdan keyin davlat buyurtmasi asosida yana bitta yorqin asar, mahalliy studiya tomonidan olingan bo‘lib, qoraqalpoq kino tarixida burilish yasadi, desak yanglishmaymiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. M. Nizanov. Kino qalay jaratiladi. No‘kis 2008 y.
2. Mannonov B. Madaniy-ma'rifiylik muassasalarda texnik vositalardan foydalanish. Tashkent, 2003.
3. Mirzaev Akbar. Ovoz kuchaytirish apparaturasi va xavfsizlik texnikasi. Toshkent: Muharrir, 2013
4. Rahmatullaev D. F. Fonogramma va texnik tahlil.-Toshkent: “Faylasuflar” nahshiryoti, 2014.
5. Abulqosimova H.. Kino teleradio torixi va ishvaariyasi.-Toshkent, 2008.
6. Силин А.Д. Специфика работы режиссёра при постановке масс.театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. М. 1986 г. 63 стр

#### **Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.aok.uz](http://www.aok.uz)
3. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

# MUSIQANING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Xujanov Muhammad Samandar o‘g‘li,**  
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti  
Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

## **Annotatsiya**

Ushbu maqola musiqaning inson hayotidagi o‘rni va insonlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz - xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o‘zida mujassam qilgan holda ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat ekanligiga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar :** Musiqa, ajdod, avlod, tarbiya, estetik, san‘at va ma‘naviy.

## **Annotation**

This article is dedicated to the role of music in human life and the ultimate goal of shaping people's musical culture - the education of harmoniously developed individuals who will build a free and prosperous homeland, combining the well-being of the people, peace and development of the Motherland.

**Key words:** Music, ancestry, generation, upbringing, aesthetics, art and spirituality.

Musiqa shunday san‘at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg‘otishining o‘zini bir mo‘jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta‘lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san‘atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta‘limotga suyanib, insonlarning obyektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste‘dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma‘naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi insonda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, insonni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e‘tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta‘sir o‘tkazadi.

Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Shuning uchun ham barcha xalqlar musiqalari jozibadordir. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to‘lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo‘ladi. Ajoyib

musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sugʻorilgan boʻladi, musiqada hayot va oʻlim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks yetadi. Musiqaning inson ruhiyatiga taʼsir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini oʻziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari sanʼatlar ichida musiqa sanʼatining insonni shaxs sifatida shakllanishiga taʼsir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga taʼsiri, uning ichki dunyosini oʻzgartirishi haqida fikrlar mavjud boʻlgan. Musiqa sanʼati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli taʼsir etadi. Oilada, MTMda, maktabda musiqa mashgʻulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va sanʼatni toʻgʻri tushinishdagi samarali yoʻldir. Musiqa inson his-tuygʻularini, orzu-umidlarini, hohish-istaklarini oʻziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuygʻulariga faol taʼsir etadi.

Musiqa qadimiy sanʼat turlaridan biridir. U sanʼatning noyob turlaridan biri sifatida juda qadimiy tarixga ega. Bu sanʼat turi barcha davr daholari eʼtiborini oʻziga jalb qilib keldi. Arastu: “Musiqa koʻngilga axloqan muayyan taʼsir koʻrsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qoʻshilmogʻi lozim”, - deb taʼkidlaydi.

Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini oshirishda musiqa tengsiz ahamiyat kasb etadi. Musiqa sanʼati Sharqning buyuk allomalari Beruniy, Forobiy, Ibn Sinolarni ham qiziqtirib kelgan. Bu haqida ular maxsus asarlar ham bitganlar. Masalan, Ibn Sinoning “Al-muddohil ila sanʼatal musiqiy” asari fikrimizning dalilidir. U mazkur asarda shunday yozadi: “Musiqa hayotbaxsh, oliyjanob, axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi. Uning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi”.

Olimning musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari Arastu fikrlari bilan hamohangdir. Bundan tashqari, Ibn Sino oʻzining tibbiyotga oid “Kitob an-Najot”, “Kitob ash-Shifo”, “Donishnoma” kabi asarlarida ham musiqa nazariyasi va amaliyoti xususida nodir fikrlarni bayon etib qoldirgan.

Oʻrta Osiyo olimlari Forobiy, Ibn Sino, Najmiddin Kavkabi, Darveshali Changiy kabi allomalarning musiqa haqidagi kitoblari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va musiqa ilmi rivoji uchun hozir ham xizmat qilib kelmoqda. Shuni ham aytish lozimki, Sharq mutafakkirlari musiqa, ashula va maqomlarning yaratilish tarixi, shuningdek, kuylarni tinglash va ijro etishda vaqt va makonning roli xususida ham ibratli fikrlarni bayon etadilar. Masalan, Mirzo Ulugʻbek “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli ravon” va “Usuli otligʻ” kuylarini, Alisher Navoiy “Isfaxoniy” kuyini ijod qiladilar. Jomiy va Binoiylar musiqaga oid koʻplab asarlar yozadilar.

Musiqa sanʼati ahlining ijodiy faoliyati bilan IX-XII asrlarda vujudga kelgan duvozda (oʻn ikki) maqom kuyi bu davrda yangi taraqqiyot pogʻonasiga koʻtariladi, takomillashadi va yangi kuylar bilan boyiydi. Demak, musiqa sanʼati ham sanʼatning boshqa turlari va sheʼriyat bilan uzviy aloqada rivojlandi, mohir sanʼatkor mashshoqlar, bastakor va hofizlar yetishib chiqdi. Nodir va bebaho musiqiy asarlar

yaratildi. Sharq va G'arb tillaridagi ko'pgina manbalarda Forobiyning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan qomusiy xarakterdagi "Kitob al musiqiy al kabir", "Buyuk musiqa kitobi" yaratganligi va bu kitob so'nggi davrlargacha O'rta va Yaqin Sharqda musiqa nazariyasi va san'atning rivojlanishida muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilganligi aytiladi.

Musiqa ko'pincha inson kayfiyatini o'zida aks ettiradi. Shu asnoda, misol uchun, ulovda haydayotgan kishiga eng yaxshi musiqa bo'lib, elektron musiqa hisoblanadi, homilador ayollarga esa olimlar klassik musiqani eshitishni tavsiya qilishadi, axir aynan shunaqa musiqa dunyoga keladigan insonning kelajakdagi musiqiy didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek aytishlaricha, musiqa ijodiy shaxslar sog'ligi va organizmiga ko'proq ta'sir qiladi, ko'pincha ular musiqadan yo ilhomlanishadi yoki musiqa ularni aksincha zeriktiradi. Musiqa fon sifatida ko'pincha bizga sezilmaydi. Savdo markazlari, restoranlar, kiyim do'konlarida u chindan ham juda foydalidir, chunki u o'ziga xos muhitni yaratadi. Ko'pincha musiqa turiga qarab biz muassasa nufuzini aniqlay olamiz. Hozirgi hayotda har bir inson o'z hayot tarziga ega bo'lishni xohlaydi. Bu hayot tarzi kiyimda yoki aksesuarlarda emas, fikrlash va tasavvur qilishda aks etadi. Har birimiz ichimizda chiroyli narsalarni, atrof-muhitni, hayotni yaratishni astoydil xohlaydigan yaratguchi bor va bu niyatlarimiz aynan bizga ma'qul musiqa sababli junbushga keladi. Inson hayoti ikki qismga bo'linadi: atrofdagi hayot va inson qalbidagi o'ziga xos olami. Har birimiz o'ylaymiz, tasavvur qilamiz va orzu qilamiz, va insoniyat bilan parallel ravishda rivojlanadigan musiqa bizning fikrlarimizni yaxlitlaydi va o'z ichiga pozitivlik, o'yinqaroqlik, qo'pollik yoki agressiv holatlarni oladigan tomonga yo'naltiradi. Asrlar davomida, qanday musiqani xush ko'rishlariga qarab, insonning xarakterini ham aniqlay olish mumkin edi. Avvallari musiqiy uslublarni tushunish, hamda xorijiy va milliy kompozitsiyalarni ang'ay olish, inson yashaydigan muhitni aniqlash mumkin edi. Endi esa insonning qanday musiqani afzal ko'rishiga asosan, uning suhbatlashish doirasini, uning hayot tarzini va qiziqishlarini aniqlash, odamlarni submadaniyatlarga aniq ajratish mumkin. Musiqaning shifobaxsh xususiyatlari insonni nafaqat tushkun holatdan chiqaradi, balki jismoniy og'riqlardan xalos ettiradi. O'zini-o'zi davolash har qanday dori-darmonlardan muhimroq va har birimiz mushkul holatlarda aynan shunga umid qilamiz. Kayfiyatni ko'taradigan musiqa insonni yashashga, xursandchilik qilishga va yaxshilikka ishonishga undaydi. U dunyoga yorug'likni singdiradi va uni tinglash esa sayyorada yashovchi insonlar yarmining sevimli mashg'uloti sanaladi. Dunyoning yarmidan ko'pi yaxshi va sifatli musiqa uchun pul to'laydi va bu odamlarning atigi bir qismi uni o'zlari yaratishadi va misli ko'rinmas mashhurlikka erishishadi. Jahon estradasining ijrochilari konsertlar tashkil qilishadi va millionlab odamlar ularga tashrif buyurishadi. Musiqa insoniyatni birlashtiradi, uni yaxlitlikka olib keladi. Xohlagan tovush bizda ma'lum bir hissiyotni uyg'otadi, ba'zida biz qayg'uga ko'milishni, ba'zida esa to'xtalmas quvonchga erishishni xohlaymiz. Biz har kuni boshdan kechiradigan ko'pgina hissiyot va tuyg'ular hayotda to'qnash keladigan voqealar bilangina emas, balki radio va televideniya eshittiriladigan qo'shiqlar bilan ham paydo bo'ladi. Shunday qilib, tezkor ovqatlanish restoranlariga kirganda, fondagi musiqa bizni tezroq yeyishga, do'konlardagi zamonaviy va pozitiv musiqa esa

boshimizda yangi obrazlar paydo bo'lishiga undaydi. Musiqa doimo bizning xotiralarimiz bilan parallel harakatlanadi va har bir insonda uning insonligi bilan bog'liq qo'shiqlar bor. Shunga misol qilib, buyuk fir'avn Ramzesning o'g'li Moisey o'z insonligidan musiqani eshitib, o'zining haqiqiy kelib chiqishini esladi. Siz esa shunday holatni his qilganmisiz? Shubhasiz, ha. Har birimizda shunday payt bo'lganki, insonligimizdan qo'shiqni eshitganimizda, biz baxtiyor va g'amsiz vaqtlarimizni batafsil eslaganmiz. Musiqa – kuchli assotsiativ omildir, chunki qo'shiqni bir marta eshitgandayoq, uni butun umrga eslab qolish mumkin va uni kelgusi bor eshitishganga, taxminan qanday davom etishini bilamiz. Bunday kuchli ta'sirni hatto suratdan ham ololmaymiz, birorta surat bilan to'qnash kelganimizda, kelgusi safar u bilan yuzmayuz kelganda, katta gumon borki, u bizga boshqacha ko'rinadi. “Kamil musiqa qalbni shunaqa larzaga keltiradiki, bu hissiyotni sevimli mavjudotdan bahra olayotgan kabi holatda bo'lgandek his etasiz, ya'ni musiqa, so'zsiz, dunyoda bor bo'lgan eng yorqin baxtni ato etadi.” Stendal yaxshi musiqaga juda to'g'ri tasvirni bergan. Kimdir bu bilan rozi bo'lishi, kimdir esa bo'lmasligi mumkin, ammo bir narsa aniqki: Musiqa insonni yashashga va harakatlanishga undaydi va so'zsiz, musiqaning bizga bo'lgan ta'siri juda-juda katta.

Xulosa qilib aytganda, musiqaning inson hayotidagi o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari estetik tarbiya berishda musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga keldik:

- Musiqa – insonlar estetik tarbiyasida asosiy o'rin tutadi.

- Insonlar musiqiy estetik madaniyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo'lib kelgan. Chunki jamiyat ma'naviyatining asosini shaxs ma'naviyatining yuksakligi, qolaversa, insonlarning musiqiy estetik madaniyatning shakllanganlik darajasi tashkil etadi.

- Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari imkon darajasida tashkil etilgan, ammo kichik yoshdagi insonlarni estetik tarbilash uchun davr talabi asosida musiqa mashg'ulotlarini yanada takomillashtirish va qo'shiq o'rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda.

- Insonlar ma'naviy-estetik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan tadbirlarda qo'shiq va raqslardan ko'proq foydalanish lozim.

- Insonlarning musiqaga qiziqishini oshirish maqsadida muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerak.

Demak, musiqaning inson hayotidagi o'rni va insonlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz –

xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Insonlarning musiqiy iste'dodi va zakovati o'zining cheksiz imkoniyatlari, mo'jizaviy tabiati bilan bizni hayratga soladi va maftun etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2017.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. - 140 b

3. Asqar Feruza. Musiqa va inson ma'naviyati. –T.: O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi, 2000. 81b
4. Ahmedova Z. Milliy musiqa madaniyati va uning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi roli. Avtoref. dis. ... fals..fan nomz. –T.: O'zMU. 2005. 177 b
5. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. –T.: Fan, 1999.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi. Yillik statistik to'plami. 2004. –T: 2005.116 b.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12-jild. –T.: 2006. 571 b
8. <http://library.ziyonet.uz>
9. [www.classicmusic.uz](http://www.classicmusic.uz)
10. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 2 jild. T. Ma'naviyat,1998 . 235-bet
11. <https://zamin.uz> › o'zbekiston

## **SAN'AT VA MADANIYAT ORQALI INSON QADRINI ULUG'LASH**

**Shomurodov Amriddin Bo'ronovich,**

O'zDSMning

Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish

hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi

1-kurs sirtqi

[ashomurodov582@gmail.com](mailto:ashomurodov582@gmail.com) +998993363733

Inson qadrini ulug'lagan yurt, kelajagi buyuk davlatdir. Milliy qadriyatlarimiz, urf odat va ananalarimiz orqali xalqimizning qadr-qimmatini yuksak cho'qqilarga ko'tarish. Xalqimizning madaniy-ma'rifiy tushunchalarini oshirish.

So'nggi paytlarda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash maqsadida ko'p islohotlar amalgam oshirilmoqda. Shu jumladan madaniyat va sa'at orqali. Qadim urf-odat va ananalarimizni hozirgi zamon yoshlariga yetkazish orqali. Xalqimizning qadrini yuqori cho'qqilarga ko'tarish maqsadli amalgam oshirilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvida shunday ta'kidlagan edilar: “Bir haqiqatni esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmassa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat-bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir.

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning “Yangi O'zbekiston” muhbiriga bergan intervyusida. Sohada tubdan yangilanishlar olib borilayotgani hammamizga ma'lum. Biroq madaniyatimizni rivojlantirishda talaygina kamchiliklar mavjud. Masalan madaniyat va san'at muassalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yo'q. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida tayinli tizim mavjud emas. Busiz aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish qiyin



vazifa. Aksariyat hududlarda texnik bazaning eskirganligi sababli, ularning to‘laqonli xizmat ko‘rsatishiga imkon bermaydi. SHu muammolarni imkon qadar bartaraf etsak.

Soha fidoiylari xalqimizning qadrini, aholining madaniy tushunchasini oily cho‘qqilarga olib chiqishga harakat qilishadi. Yana bu sohada oshirilayotgan islohotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak. Davlatimiz rahbari “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi o‘zbekistonni barpo etishda anashu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, tayangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz” degan edilar.

Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyat barpo etish. Insonparvar demokratik davlat qurish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Islohotlardan ko‘zlangan aniq maqsad, inson qadrini ulug‘lash. Jamiyatda shaxs sifatida xalqimizning madaniy, huquq va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish. Barcha sohalaridagi yangilanishlarda asosiy omil qilib olinayotganligi buning yaqqol misolidur. Bu tamoyillar O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va qabul qilinayotgan qonunlarda o‘z aksini topmoqda.

Davlatimiz rahbari 2022-yilni bejizga “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla” yili deb nomlaganlari yo‘q. Chunki xalqimizni har tomonlama yuksaltirish, va inson qadrini, diniy, ma’naviy, milliy-madaniy dunyoqarashlarini kengaytirish asosiy maqsadimizdir.

Inson dini, irqi, millati, kelib chiqishidan qat’iy nazar. Yurtimizda hamma sharoitlar yaratish. Bag‘rikeng va odil davlat yaratishda samarali mehnat. Mashaqqatlarga qaramasdan olg‘a intilib. Orzuyimizdagi muhitni barpo qilamiz, albatta. Bunda biz xalqimiz ongu shuurini, qalbini milliy ma’naviy qadriyatlarimiz bilan boyitish. Ommaviy madaniyat, yod g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasliklari uchun kurash olib borishimiz lozim.

Qolaversa, davlatimiz rahbari 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan. O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida. 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham. Xalqimizning madaniyatini ulug‘lash maqsadida qo‘shimcha chora tadbirlar belgilab berdi. Bunda ma’naviy va ma’rifiy sohalar rivojlantirilib. SHu maqsadda “Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi amalgam oshiriladi. Madaniyat va san’atni yuksaltrish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Bunda 2022-yil 2-fevralda O‘zbekiston respublikasi prezidenti. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan. Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ 112-son qarori qabul qilindi. Bu qarorda sohani rivojlantirish uchun yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

Qarorda quyidagi vazifalar belgilab olindi. Maktablarda o‘quvchilarga musiqa, milliy cholg‘u asboblarni chalishni o‘rgatish maqsadida. Musiqa fanidan tashqari qo‘shimcha to‘garaklar tashkil etib. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish. Tasviriy san’at to‘garaklarida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkillashtirish.

O‘quvchilar ishtirokida lektoriy konsert dasturlari tashkil etish. Davlatimizning barcha hududlarida teatrlar faolyatini yo‘lga qo‘yish. Madaniyat vazirligi chekka



hududlarda gostrol safarlar uyshtirish uchun, barcha qulayliklarga ega avtobuslar xarid qilishi. Yil davomida konsertlarni tizimli tashkillashtirish. Maktablar va madaniyat maskanlariga cholgʻu asboblari yetkazib berish. Madaniyat va sanʼat fidoiylarini har yil mukofotlash maqsadida. Madaniyat va sanat milliy mukofotini taʼsis etish. Amalga oshirilgan ishlarni aholiga yetkazish maqsadida.

Oʻzbekiston teleradiokompanyasining Madaniyat va maʼrifat telekanali. Madaniyat vazirligining bosh hamkori etish. Va yana koʻplab vazifalar belgilab berildi.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalgam oshirgan holda. Maktab va madaniyat muassasalari orqali. Milliy madaniyatimiz, sanʼatimiz, qadim qadryatlarimizni har bir xonadonga kirib borishini taminlash asosi koʻzda tutilgan. Har bir oilada sogʻlom muhit, madaniy tarbiya, qadim urf odatlarimiz va sanʼatimizning naqadar qadrliligi va bebaho ekanligini namoyon etadigan muhit yaratish uchun xizmat qiladi. SHahar va qishloqlarimiz, olis chekka hududlarimizda millatimiz faxri, vatanimiz gʻururi boʻlgan madaniyatimiz va sanʼatimiz orqali. Insonlarda koʻtarinki kayfiyat uygʻotish. Xalqimiz orqali madaniyatimizni jahon miqyosida, yuqori oʻrinlarga chiqarish maqsad qilib qoʻyilgan. Shuncha islohotlar, qabul qilinayotgan qonunlar.

Sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga javoban. Bizning xalqimiz, jonkuyar fidoiylarimiz bilan bir qatorda turib oʻzlarining oz boʻlsa ham hissalarini qoʻshsalar nur ustiga alo nur boʻladi.

Bu boshlangan islohotlar, yangilanishlar. Yaratilayotgan sharoitlar. Samarasini bera boshladi desak xato boʻlmaydi. Islohotlar boshlanganiga uncha koʻp vaqt boʻlmagan boʻlsada. Natijalar sezilarli darajada bilinib qoldi. Misol qilib oʻzimizning yangi tashkil etilgan Gʻozgʻon shahrimizni oladigan boʻlsam. SHahrimizda madaniyat boʻlimi kengaytrilib.

Koʻplab toʻgaraklar tashkillashtirilmoqda. Milliy cholgʻu, aktyorlik va rassomchilik toʻgaraklari tashkil etilib, folklor jamoalar tuzilib. Bayramlarda aholi uchun turli dasturlar, marosimlar tashkillashtirilib. Milliy qadryat, anana va urf-odatlarimizning qanchalar qadimiy va muqaddasligini aholiga namoyish etilmoqda. Shu harakatlar, islohotlar va yangilanishlarning barcha-barchasi inson qadrini ulugʻlashda qoʻyilgan odim qadamlar desak mubolagʻa boʻlmaydi degan fikrdaman.

### **Adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil madaniyat va sanʼat sohasi rahbarlari bilan oʻzkazgan yigʻilish.

2. “Yangi Oʻzbekiston” Muhbiri Munojot Moʻminova 2021-yil 21 yanvardagi maqolasi.

3. Shavkat Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy gʻoyamizning poydevoridir” kitob 4-bet

4. Jaloliddin Ergashev Namangan mutaxassislik texnologiya institute. Yengil sanoat texnologiyasi fakulteti dekani. “Inson qadrini ulugʻlash eng oily saodat” internet maqola.

5. SHavkat Mirziyoyev “Taraqqiyot strategiyasi”

6. O‘zbekiston respublikasi prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantrishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar” to‘g‘risidagi 02 02 2022-yildagi PQ 112-son qarori.

## MONTAJ SAN’ATI

**Sobirova Sayram Muxsinaliyevna,**  
[sayram.sobirova@mail.ru](mailto:sayram.sobirova@mail.ru)

O‘zDSMI

Kino, televideniye va radio san’ati fakulteti o‘qituvchisi

### Annotatsiya

Kino – bu universal til. Kino san’ati voqealar barchaga birdek tushunarli bo‘lgan tasviriy ketma-ketlik orqali beradi. Ovozsiz filmlar davri kino tilini shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrni tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, XX asrning birinchi choragida montaj san’ati badiiy ifoda vosita sifatida shakllangan va rivoj topgan.

**Kalit so‘zlar:** Kino, ovozsiz film, montaj san’ati, badiiy ifoda vositasi, L. Jannetti montaj tasnifi, ta’sir, sistema

### Abstract

Cinema is a universal language. Film is a system of a moving images. The era of silent cinema was an important stage in the active formation of the cinema language. A study of this period shows that in the first quarter of the twentieth century, montage developed as a means of artistic expression.

**Key words:** cinema, silent cinema, montage art, means of artistic expression, montage classification by L. Giannetti, impact, system.

Kinoda montajning kadr ichi va kadrlararo turlari mavjud. Kadr ichi montaji planlar, rakurslar va harakatlar orqali quriladi. Kadr ichi montaji kadrning mazmuniy makoniga olib kiradi, ijodkorning (muallifning) voqeaga, asardagi personajga munosabatini ochib beradi. Kadr ichi montaji odatda ritmik jihatdan sokin, uzun kadrlaridan (montaj kadrlaridan) tashkil topadi. Bunda kadr ichi dinamikasini asosiy shakllantiruvchi omil sifatida kelib, ekran kompozitsiyasini tomoshabinlar ko‘z oldida o‘zgartiradi. Bu travelling yoki transfokator tasvirga olish va obyektlarni harakati asosida amalga oshiriladi. Kadr ichi montajining eng yuqori namunalarini L. Viskonti, A. Tarkovskiy, M. Antonioni filmlarida kuzatishimiz mumkin. mumkin.

Kadrlararo montaj – bu montaj kadrlari hamda frazalarni butun ekran matniga birlashtirish. Kadrlararo montaj tashqi shakllantiruvchi vazifasi voqeani boshqarish, ma’naviy detalni aiqlashtirish, emotsional hamda dramatik holatni kuchaytirish kabilardan iborat. Uning yordamida ekran asarini yuqori dinamikaga, konfliktni esa o‘z o‘rnida yuqori intensivlikka erishtirish mumkin.

Demak, montaj kino paydo bo‘lgandan mavjud. U XX asrning birinchi choragida film badiiy ifoda vositsi sifatida shakllandi va kinoning alohida san’at turi sifatida insoniyat madaniyatida o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu ovozsiz kino davri edi. Amerikalik professor Luiz Jannetti “Understanding Movies” asarida XX

asrning birinchi choragida montaj san'atini shakllanish davri va xususiyatlariga asoslanib tasniflab chiqdi hamda uni realistik, klassik va formalistik uslublarga bo'ldi [1].

L. Jannetti bo'yicha montaj tasnifi:

Epizodlar tasvirlangan bir kadrli filmlar ("Poyezdning stansiyaga kirib kelishi" filmi, rejissor aka-uka Lyumerlar) – kadrlarni voqealar ketma-ketligi va uzviyligi nuqtai nazaridan ulash ("Oyga sayohat" filmi, rejissor J. Melyes) – klassik montaj ("Millatning tug'ilishi" filmi, rejissor D.U. Griffit) – mavzuli montaj ("Glen Glud haqidagi o'ttiz uch voqea" filmi, rejissor Fransua Jirar) – abstrakt montaj [1].

L. Jannetti tasnifi realistik montaj deb ekran asarlarining ilk paydo bo'lgan davrdagi bir kadrli (voqealar izchillikda bayon etilgan) filmlarga aytiladi. Klassik montaj – bu XX asr boshlarida shakllangan voqeani izchil tarzda ko'rsatishga qaratilgan montaj. L. Jannetti o'z nazariyasida formalistik davr montajiga ta'rif berar ekan, uni (formalistik montajni) kinematografning alohida san'at turi sifatida shakllanishi va montaj san'atining metaforik xususiyatlarini ochilishi bilan bog'laydi. Realistik davrga kino paydo bo'lgan ilk davrlarda yaratilgan bir kadrli filmlar kirib, aka-uka Lyumerlarning "Poyezdning stansiyaga kirib kelishi", "Ishchilarning fabrikadan chiqishi", "Devorning qulashi" kabi filmlari yaqqol misol bo'ladi. Bu davrda filmlarning asosan ssenariysiz, dekoratsiya va aktyorlarsiz tasvirga olingan. Reportaj usulidagi bunday filmlarni mazmuni qisqa vaqtda ko'rsatilib, bitta montaj kadridan iborat bo'lgan.

Kadrlarni voqealar ketma-ketligi va uzviyligi nuqtai nazaridan ulash (izchil montaj) montaj usullarini o'rganishda ilk qadamdir. Film voqealari sabab-oqibat tarzida, xronologik ketma-ketligida shakllantirilgan. Masalan, J. Melyesning "Oyga sayohat" filmida voqealar xronologik ketma-ketlikda bayon etiladi. Birinchi kadrda astronomlarning muloqoti, ikkinchi kadrda kosmik ekspeditsiyaning yo'l olishi, uchinchi kadr oyga qo'nish, keyin oyliklar bilan to'qnashuv, qochish, quvish, qutilish, va Fransiyaga tantanali qaytish. Murakkab syujetli tugun, voqealar rivoji, kulminatsiyasiga ega voqealarni ko'rsatar ekan, J. Melyes bularning barchasini bir kadrda ko'rsata olmas, hikoyani bir necha epizodlardan tashkil topgan bo'laklardan yig'ib chiqdi. Uzviylikni yo'qotmagan holda kadrdan-kadrga o'tishlarni mohirlik bilan shakllantirdi.

Keying bosqichni L. Jannetti klassik montaj deb ataldi. Uning asosiy usullari Amerikalik rejissor D.U. Griffit tomonidan ishlab chiqilgan:

Kadrdagi obyekt harakat yo'nalishiga ko'ra montaj (qahramon chapdan chiqib ketsa, o'ngdan kirib kelishi).

Kadrdagi personaj nigohining yo'nalishi bo'yicha montaj (qahramon kadr ortidagi biror narsaga qarashi va personaj qaragan obyekt).

Analitik montaj – kadrdagi obyektlar masshtabining ortib borishi (personajning uzoq plani, personajning umumiy plani, personajning birinchi o'rta plani, detal).

Sintetik montaj – kadrdagi obyekt masshtabining kichrayib borishi (personajning yirik plani, personajning ikkinchi o'rta plani, personajning uzoq plani)

Munosabat chizig‘i ( $180^\circ$  qoidasi) — dialog sahnalarini tashkil etuvchi kadrlarni ulashda (personajlarning umumiy plani, bitta personajning o‘rta plani, ikkinchi personajning o‘rta plani).

Parallel voqealar montaji — umumiy mavzu bilan bo‘g‘langan ammo turli makonlarda bir vaqtning o‘zida sodir bo‘layotgan ikki yoki undan ko‘p voqealarni ulashda. Odatta parallel holda bir vaqtning o‘zida sodir bo‘layotgan voqealar kulminatsiyada kesishib, yagona epizodga birlashadi. Amerikalik rejissor D.U Griffitning (1875-1948) “Betoqatlik” (1916) filmida parallel montajga ko‘plab misollar uchramiz. Rejissor filmning so‘ngi epizodida voqealarni parallel tarzda berish orqali uni o‘tkirlashtirib, dinamikasini oshib borganini kuzatiladi. Yakuniy epizodda quyidagi voqealar parallel tarzda yuz beradi: ayol nohaq ayblanib, qatl etilayotgan erini qutqarib qolishga shoshilmoqda; aybdorga chiqarilgan hukm ijrosi amalga oshirilishi boshlandi; ayolning erini qutqarishi uchun kerak bo‘lgan eng muhim shaxs bo‘lgan gubernatorning shahrni tark etayotganligi. Parallel voqealar tuzilishi quyidagicha:

1) Ayol avtomobilda erining beayb ekanligini isbotlashga shoshilganicha poyezda ketayotgan gubernatorning ortidan yeldek bormoqda.

2) Qamoqxonada mahkum ustidan oliy jazo amalga oshirish boshlandi.

Gollivud qonunlariga ko‘ra qutqaruv oxirgi daqiqalarda sodir bo‘ldi. Bir necha syujet chiziqlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirib borishni Griffit adabiyotdan oldi va tasvirlar orqali, bir sahnadan boshqasiga o‘tish orqali filmlar strukturasi yangicha tarzda shakllantirishga erishib, bu usul uchun klassik misol bo‘lgan yuqoridagi epizodni yaratdi. Griffitning filmlarida syujetlar ko‘pqatlamlikni kasb etdi. Buguni kunda filmlarning bunday usulda tuzulishi odatiy hol bo‘lsa-da, D.G. Griffit parallel montajni qo‘llashda va o‘z davri tomoshabinlari filmlarni qabul qilish va idrok etish shakllangan ko‘nikmalarini buzishida, ya‘ni filmning bir syujet chizig‘li dramaturgiyasini buzilishida prodyuserlar katta qarshilik ko‘rsatishgan.

Ovozisiz filmlar davri montaj san‘atini tadqiq etgan L. Ganetti tasnifidagi uchinchi bosqich nafaqat montaj qonuniyatlarini yaxshi bilishni, balki uni asosiy badiiy uslub sifatida qo‘llashni nazarda tutadi. 1920-yillarda ijod qilgan rus formalistlari deb tanilgan sobiq ittifoq reissorlari bu bosqich montaj san‘atiga katta hissa qo‘shishdi. L. Jannetti o‘zining tasnifida bu davr uchun boshlang‘ich nuqta sifatida “Kuleshov effekti”ni ko‘rsatdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, montajni nazariy jihatdan o‘rgangan ilk rejissor — bu Lev Kuleshov bo‘ldi. U film tasmalari ustida amaliy ishlar olib bordi. Lev Kuleshov o‘zing tajribalari bilan montajning film stukturasiidagi vazifalarini aniqlashtirdi. Xususan, “Kuleshov effekti” montaj san‘ati asosiy tushunchasiga mos bo‘lib, quyidagicha izohlanadi: kadrlar ketma-ketligida birinchi kadrning mazmuni o‘zidan keying kadr mazmunidan kelib chiqib o‘zgaradi.

“Kuleshov effekti” Lev Kuleshov tomonidan o‘tkazilgan kadrlarning invariant ulash tajribasi natijasida yuzaga keldi. Ucha variantning barchasida ham birinchi kadr (yirik planda aktyor I. Mozjuxinning yuzi) o‘zgarmay qoldi. Ammo undan keyingi kadr har bir variant uchun o‘zgardi. Birinchi variantda, maysazordagi qizaloqning umumiy plani. Ikkinchisida, vafot etgan yosh ayol umumiy plani. Uchinchisida, yirik

planda tarelkadagi qaynoq sho'ruva. Bu kadrlarni tomosha qilganlar Mozjuxin yuz qiyofasi uch marta o'zgarganini ta'kidlashib (ularda hayrat, g'am hamda ochlikni), har bir variantlarda aktyor yuzida turli xil hissiyotlarni ko'rishdi va uni buyuk aktyor deb ta'riflashdi. Mozjuxin kadri o'zgartirilmay takrorlangan bo'lsa-da, o'zidan keyingi kelgan kadr natijasida u turli xil ma'no kasb etdi. Kuleshov montaj usullarining birinchi kashfiyotchisi emas, ammo u kinematografik obrazlar montaj san'ati orqali shakillatirilishini nazariy hamda amaliy ravishda tizimli isbotladi.

Lev Kuleshov kinoning asl badiiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan bir qator tajribalar o'tkazdi.

L. Jannetti tematik montajining yana bir turi sifatida qiyosiy montajni keltiradi. Oddiy qiyoslash, taqqoslash orqali hosil bo'ladigan mazmun haqida to'xtaldi. Bunga misol sifatida Dziga Vertovning "Kinoaparart ko'targan odam" filmidagi erta tongda shaharning uyg'onishi tasvirlangan epizodini ko'rsatish mumkin. Rejissor kadrlarni shunday joylashtirdiki, kadrlar ketma-ketligi parallel harakatlar tarzida qurilib, yuzini yuvayotgan ayol kadrlari "yuvilayotgan" uy kadrlariga o'xshatiladi. Bu kadrlar tizimi quyidagi shaklda tuzilgan:

- a) ayolning tog'oradan suv olib yuzini yuvishi;
  - a.1) shlangdagi suv chiqindi idishlarini tozalashi;
- b) ayol ko'zlaini sochiq bilan artadi;
  - b.1) ayol uylar derazasini artadi;
- c) ayol kipriklarini pirpiratadi;
  - c.1) derazadagi jalyuzilar tebranadi.

Dziga Vertov faqatgina hujjatli kadrlarga asoslanib, reportaj kontekstidan olingan kadrlarning kerakli-ketma-ketlikda birlashtirish asosida, faqat hujjatli film suratga olish bilan shug'ullanib, voqelikning poetik obrazini yaratish mumkinligini isbotladi.

Bu davr rejissorlari kino turli kadrlarning ulanishi orqali yaratilishi va undagi g'oyani rejissor o'zi istagan holda berishi mumkinligini: montajda film mazmuni va shakli tug'ilishini isbotlashdi.

### **Adabiyotlar:**

1. Giannetti, Louis D. Understanding movies / Louis Giannetti. -- Thirteenth edition. P. 135-192

## **SAN'AT, MADANIYAT JAMIYATNING YURAGIGA TO'G'RIDAN TO'G'RI TASIR QILADIGAN, TILAGIGA KO'CHADIGAN TUYG'ULARNI TARBIYALAYDI**

**Ulug'ova Nozima Baxtiyorovna,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Nukus filiali, Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi bo'limi  
2-bosqich talabasi  
**ulugovanozima04@gmail.com**  
**+998919709713**

### **Annotatsiya**

Har qanday soha boshqalardan ajralgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan to'g'ri tasir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi.

**Kalit so'zlar:** ijodkor, idea, teatr, san'at, madaniyat, adabiyot.

Istiqlol yillarida san'at va madaniyat sohasini yanada rivojlantirish uchun qabul qilingan ko'plab farmon va qarorlar Yurtboshimiz rahnamoligida yaratuvchanlik yo'lidan buyuk maqsadlar sari borayotgan xalqimiz, ayniqsa, ijod ahli ruhiyatiga kuch qudrat bag'ishlovchi ilhombaxsh manbalardir. Ushbu tarixiy hujjatlarning asosiy g'oyasi va tamoyili insonni ulug'lash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosimizni ona diyorimizni tarannum etuvchi san'atimizni, madaniyatimizni yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarish, asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazishdir.(1.b.3) Yangilanayotgan O'zbekistonimiz taraqqiyotida san'at va madaniyatimizning o'rni va rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat inson fa'oliyati va shu fa'oliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuyidir. Madaniyat, musiqa, adabiyot, baddiy tasvir, memorchilik teatr, kinomatografiya turmish tarzi kabi fa'oliyatlarda namoyon bo'ladi. «Madaniyat»- jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va fa'oliyatining turli ko'rinishlarida shuningdek ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Alisher Navoiy yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga ma'naviy yuksaklikga erishishning asosiy mezonini deb insonparvarlik g'oyalariga muvofiqlikni tushinadi. «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvoffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa belgilovchi ahamiyatga egadir» deb ta'kidlaydi birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov. Madaniyat nima ekanligi, uning tarixi, taraqqiyotdagi o'rni haqida to'xtaldik. Endi u bilan chambarchas bog'liq holda, birgalikda yonma-yon rivojlanadigan va mavjud bo'ladigan san'at va uning tavsifiga e'tiborimizni qarataylik.

San'at ijtimoiy ong va inson fa'oliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy fa'oliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Keyinchalik madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida soha sifatida asta sekin ajralib bordi. San'at odamlarning estetik talablarini qondirishi bilan birga o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Ularning turli maqsad his-tuyg'u, manfaat, idealarini ifoda etgan. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. San'at insonning moddiy va ma'naviy fa'oliyatidagi bilimi, tajribasi mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi. San'atni tushinish uning kishilar hayotidagi o'rnini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida jiddiy bahslarga sabab bo'lgan. Shunga ko'ra san'at mazmuni obyektiv va subyektiv hayotiy va xayoliy omillar birligidan tashkil topadi. San'at inson uchun estetik zavq-shavq manbayi, inson hayotiga go'zallik baxsh etadi. Odamlarda voqelikga nisbatan hissiy munosabatlarni shakllantiradi, hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi. Hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi. Tarbiya vositasi, hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, yomonlikdan nafratlanishga chorlaydi, odamlar orasidagi ma'naviy ko'priq, muloqot vositasi, odamlarning badiiy estetik didini tarbiyalaydi. Ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi.

“San'at olami koinotdek cheksiz. Undagi son sanoqsiz yulduzlardan ba'zilarining shulasai vaqti-vaqti bilan yorqinroq ko'rinadi-da, uchib ko'zdan g'oyib bo'ladi yoki uzoqlashib xiralashib qoladi. Faqat yaqinroqdan bilganlarga ularning qanchalar yorqin ekanini ko'radi”. (4.b.4) San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamlarga lazzat baxsh eta oladigan uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishdan iborat. So'ngi yillarda Yurtimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodi va havaskorlik san'atini yanada omalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga fa'ol integratsiyalashuvini taminlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi, aynan madaniyat va san'at tashkilotlarining «Do'stlar klublari» fa'oliyatini yo'lga qo'yish orqali ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, moddiy texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratilishi, madaniy meros obyektlari va san'at ashyolarini restavratsiya qilish bo'yicha milliy maktab, shuningdek xalq cholg'ulari, milliy raqs, maqom yo'nalishlaridagi Respublika tanlovlarining qayta tiklanishi jamiyatimizda San'at va madaniyat sohasining e'tiborga molik jihatlari desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda muntazam ravshda o'tkaziladigan xalqaro maqom san'ati anjumani, xalqaro baxshichilik festivali «Sharq taronalari « xalqaro musiqa tanlovi «

Buyuk ipak yo'li « xalqaro folklor san'ati festivali, «Raqs sehri « xalqaro festivali tashkil etilib o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi. Aholi ayniqsa olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, buning uchun Respublikaning barcha hududlarida teatr, muzey, ko'chma sirk, hayvonot bog'lari, kinoteatrlar fa'oliyatini doimiy ravshda yo'lga qo'yish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta'kidlagan edilar: «Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda madaniyat- bu xalqimiz jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonimizning yangi qiyofasini yaratishga kelishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim». Darhaqiqat insoniyat ma'naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san'atsiz kechmaydi. Mamlakatimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish va depsinish davrini boshidan o'tkazib keldi. Lekin so'ngi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Eng quvonarlisi, butun yer kurrasiga kelgan balo - pandemiya sharoitida ham yurtimizda madaniyat va san'atga bo'lgan e'tiboridan chetda qolmadi.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi fa'oliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori mazkur soha vakillarining, keng ko'lamdagi san'at ixlosmandlarining uzoq kutilgan orzulari, istaklarini ro'yobga chiqarishga katta imkoniyat, sharoit yaratadi. Yangi O'zbekistonimizda madaniyat sohasida ham shaklan, ham mazmunan o'zgarishlarni kuzatyapmiz. Har bir insonda fikrlash, erkin mustaqil bo'lishi kerak. Omaviy tarzda bir xil fikrlash halokatli. Bunda ijod ham rivojlanish ham bo'lmaydi. Ana shu ma'noda o'ylamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o'zlikni unitishga olib keladi. Ayni paytda dunyo, adabiyoti, madaniyati va san'atdagi ilg'or, umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan g'oyalarni o'rganish, o'zlashtirish talab etiladi. Har qanday soha boshqalardan ajralgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri tasir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirmonovichning San'at va madaniyat sohasi vakillari uchun yana bir tuhfasini y'ni ,O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, «O'zbekkino» milliy agentligi, O'zbekiston badiiy akademiyasi, O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyishmasi, O'zbekiston teatr arboblari uyishmasi, Respublika Ma'naviyat va marifat markazi hamda keng jamoatchilikning madaniyat va san'atning jamiyatimiz ijtimoiy ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, soha hodimlarini qo'llab quvvatlash maqsadida



15-aprel sanasini «O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san‘at xodimlari kuni» deb e‘lon qilinishi haqidagi qarori bu albatta Yangi O‘zbekistonda san‘at va madaniyatimizning o‘rni beqiyos ekanidan darak beradi. Madaniyat va san‘atga mustaqillikni mustahkamlovchi kuch, xalqimiz ayniqsa, yoshlarda milliy g‘urur, mardlik va jasorat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi vosita sifatida yuksak e‘tibor qaratilmoqda. Jamiyatni sog‘lom ezgu-maqсадlar sari birlashtirib, uning o‘z muddolariga erishish uchun ma‘naviy ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor- san‘at yordamida ma‘naviy- ma‘rifiy tarbiyani yuksak darajaga ko‘tarish bugungi yangilanish davrida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.(2.b.167.)

Xulosa o‘rnida takidlash joizki Madaniyat va san‘at sohasi boshqaruv ishlarini takomillashtirish maqsadida tomosha san‘ati an‘analarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san‘atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy texnik negizini yanada mustahkamlash, islohotlarda teatr arboblarning faol ishtrokini taminlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi baddiy barkamol sahna asarlari yaratish kabi masalalarni amalga oshirish bugungi kunning qat‘iy vazifalari qatoridan joy olganligi Mustaqil O‘zbekistonda kelajak avlodlari san‘atsevar yoshlari uchun cheksiz imkoniyatlar eshigi ochilishidan dalolat. Xususan “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida maktab ta‘limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahri va hududlarimizda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar soni ko‘payib bormoqda. “Besh muhim tashabbus” dasturi, “Barkamol avlod” markazlari doirasida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish uchun bu yilning o‘zida 36 mingta qo‘shimcha to‘garak tashkil etilib, 874 mingga yaqin bola ularga jalb etildi. Shuningdek, ta‘lim muassasalari, kutubxona va o‘quv markazlariga qariyb 100 mingta san‘at va sport inventarlari, kompyuterlar, 600 mingga yaqin kitob yetkazib berildi.(3. b.53 ) Bularning barchasi biz yoshlar uchun qilinayotgan say-harakatlardir. Ushbu e‘tiborga loyiq bizlar ham Yangi O‘zbekistonga yangi iqtidor, yangi shijoat va yangicha dunyoqarash asosidagi loihalarimiz bilan javob qaytarishimiz lozim.

#### **Adabiyotlar:**

1. Haydarov A. “Madaniyat va san‘at sohasini boshqarish asoslari”-Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2016.26-bet
2. Karimov I.A. “Ma‘naviy yuksaklik yo‘lida”-Toshkent. O‘zbekiston,1998.167-bet
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”- Toshkent. 2021. 53-bet.
4. Aliyeva N. “San‘at- mening hayotim”-Toshkent. 2019. 4-bet.
5. Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va tasirini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. «O‘zarxiv» agentligi Axborot xizmati. 2020.

## KINO SAN'ATIDA TARIXIY MAVZULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Xakimov Saidaxmad Qo'zijon og'li,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Kino va televideniye rejissorligi" yo'nalishi  
2-bosqich magistranti

Inson tuyg'ulari va tafakkuriga jonli namunadan ko'ra kuchli ta'sir yo'q. Kino ana shunday jonli namunalarni taqdim etadi. Film kishilarni his etish va fikrlash, nafratlanish va e'tiqod etishga o'rgatadi. Inson ongida ko'rgan tomoshalari eshitganlari va o'qib bilganlariga qaraganda uzoqroq muddatga saqlanib qolar ekan.

2018-yil boshqa ijtimoiy sohalar qatorida kinomatografiyada ham ulkan o'zgarishlar davri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgustdagi PQ-3176-son va 2018-yil 24-iyuldagi PQ-3880-son qarorlari e'lon qilindi. Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida sohada bir qator islohotlar o'tkazildi. Joriy yilning 15-avgust kuni MTRK Media-markaz binosida Xalqaro Press-klubining "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish: tarixiy an'analar, muammolar, yangicha badiiy sifat va maqsadli sarmoyalar" mavzusida sessiya bo'lib o'tdi.<sup>16</sup>

Shavkat Mirziyoyev 2020-yil noyabr oyida "O'zbekfilm" kinostudiyasida amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirar ekan, kino san'ati faxriylari, rejissyorlar, soha mutasaddilari bilan suhbatlashdi. "Keyingi paytlarda e'tibor va rag'bat berilgani bois kinoasarlarni mazmuni o'zgardi. Xususan, «Imom Termiziy», «Islomxo'ja», «Elparvar», «Qo'qon shamoli», «101», «Ibrat» kabi tarixiy filmlar ishlandi. Oxirgi yillarda yaratilgan kinolarimizning soni kam bo'lsayam, ma'nosi bor, - deya ta'kidlab o'tdi.<sup>17</sup>

"O'zbekkino" Milliy agentligi tomonidan o'zbek milliy kinosi sifatini tubdan yaxshilash, xalq qahramonlarining badiiy timsolini filmlarda gavdalantirishga xizmat qilish maqsadida "O'zbekkino" Milliy agentligi qoshidagi Badiiy kengash tomonidan 2018-yilga mo'ljallangan kino loyihalar tanlovi e'lon qilindi. Oldingi yillardagi tanlovlardan farqli o'laroq, bu yilgi tematik rejada tarixiy mavzudagi kino loyihalar salmoqli o'rin egallaydi. Badiiy kengash tomonidan tasdiqlangan va ishlab chiqarishga tushirilgan 23 ta badiiy filmdan 11 tasi tarixiy mavzuda edi.<sup>18</sup>

Kino san'ati faqat hozirgi kun, hozirgi avlod to'g'risida film yaratish bilan zamonaviy bo'lib qolmay, balki buyuk tariximizni jonlantirish bilan ham zamonaga xizmat qiladi. Insonparvarlik, vatanparvarlikni targ'ib etgan, demokratik qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan tarixiy shaxslar tasvirlangan, zamonamiz bilan hamnafas,<sup>19</sup> yoshlar tarbiyasi uchun xizmat qiladigan filmlarni ekranga olib chiqish lozim.

Tarixiy-sarguzasht, tarixiy-inqilobiy va tarixiy-biografik filmlarni ko'rganda tomoshabin estetik zavq olish bilan birga, o'z xalqining o'tmishi bilan tanishadi, otabobolarning tarixidan, turmush tarzi, urf-odatlarini, qilgan ishlaridan voqif bo'ladi.

---

<sup>16</sup>Press-club.uz

<sup>17</sup> <https://uzreport.news/>

<sup>18</sup>Press-club.uz

<sup>19</sup>"Kino asoslari" X. Abulqosimova

Kino san'ati tarixidan ma'lumki, "Alisher Navoiy", "Ulug'bek yulduzi", "Abu Rayxon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino", "Zaxiriddin Muhammad Bobur" singari filmlar va videofilmlarimiz mavjud.

Bugungi kunda esa tarixiy mavzudagi xujjatli filmlardan "Mirzo Ulug'bek. Osmon toqiga qo'yilgan narvon", "Jaloliddin Manguberdi", «Imom Termiziy», "Islomxo'ja", "Elparvar", "Qo'qon shamoli", "101", "Ibrat", "Ilhaq" kabi filmlarimiz dunyo yuzini ko'rmoqda.

"Mirzo Ulug'bek. Osmon toqiga qo'yilgan narvon" hujjatli filmi rejissor Bahodir Yo'ldoshev tomonidan suratga olingan bo'lib, filmda Sharqning buyuk mutafakkiri va Movarouunnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy merosi haqida hikoya qiladi. Mazkur kinoasar 2017-yilda 74-Xalqaro Venetsiya kinofestivalida "Eng yaxshi xorijiy hujjatli film" nominatsiyasida nufuzli "Kineo" mukofotiga sazovor bo'ldi, Italiyaning Iskya orolida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda esa "Eng yaxshi hujjatli film" nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

Jahongir Axmedovning "Islomxo'ja" tarixiy badiiy publististik filmi ham jahon kinoijodkorlari e'tiborini tortdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jahongir Axmedov o'zining bu filmi orqali tarixda Islomxo'ja nomli buyuk shaxs bo'lganligini, uning ilm-fan, san'at va madaniyatga o'zining qo'shgan xissasi qay darajada ekanligini va shu bilan birga uning hayoti va taqdiri, ayniqsa sirli o'limi haqida aniq faktga asoslangan ma'lumotlar va rasmiy xujjatlar asosida hikoya qiladi.

Urush davri haqida suratga olingan "Ilhaq" filmi, bir mushtipar onaning birdaniga, [bir emas](#), ikki emas, beshta o'g'lidan ayrilgan ayol haqida. Ushbu film besh o'g'lidan ayrilgan onaning jasorat va sabr timsoli ekanligini ko'rsatadi. Har qanday film estetik zavq baxsh etishi bilan birga ma'naviy ozuqa ham berishi kerak. Xalq orasida, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda katta e'tibor va e'tirofqa sazovor bo'lgan "Ilhaq" filmi o'zbek kinosidagi yaxshi yangilik bo'ldi. Uning, ayniqsa, prezidentimiz tomonidan alohida e'tirof etilishi keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. "Iste'dodli yosh rejissor Jahongir Ahmedov suratga olgan ushbu ajoyib filmni men juda katta qiziqish va hayajon bilan tomosha qildim. Xalqimiz hayotining eng og'ir, eng fojiali davriga bag'ishlangan bu asar qahramonlik qasidasi bo'lib, [har qanday](#), odamning ham qalbini larzaga soladi. Dahshatli urush tufayli beshta bahodir o'g'lidan ayrilgan, umrining oxirigacha farzandlarini ilhaq bo'lib kutgan Zulfiya Zokirova siymosida o'zbek onalari, o'zbek ayollariga mansub eng buyuk fazilatlar nihoyatda teran ifoda topgan", deydi davlatimiz rahbari.

"O'zbekkino" MA buyurtmasiga binoan prodyuser Zafar Yo'ldoshev hamda rejissor Abduvohid G'aniyev tomonidan suratga olingan "Elparvar" tarixiy filmi o'spirin yigitning buyuk sarkardalar, xususan, Jaloliddin Manguberdi jasoratidan faxrlanishi, uning qalbida vatanparvarlik tuyg'ularining uyg'onishi va bu yo'lda ko'rsatgan ezgu ishlari haqida hikoya qiladi.

Yangi kinoasarning suratga olish ishlari Buxoro, Xiva shaharlarida hamda Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan. Film uchun Xiva shahrida alohida dekoratsiya yaratilgan. Bosh rollarni yosh aktyor Abdug'ofur Isaxanov hamda aktrisa Feruza Yusupovalar ijro etgan. Bundan tashqari O'zbekiston xalq artisti Muhammad Rafikov, Shafolat Rahmatullayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fotih Jalolov, Tohir

Saidov, Seydulla Moldaxanov, Lola Eltoyeva, Farhod Abdullayev, aktyorlar Alisher Uzoqov, Jamshid Sagatov, Turg'un Beknazarov, Anjelika Esimbetova, Azim Yo'ldoshev singari aktyor va aktrisalari filmda turli rollarni ijro etishgan.

Bu filmlar tomoshabinlarni naqadar boy tariximizni anglashida zaruriy vosita hisoblansa, jahon axli uchun esa o'zbek ma'naviyati na'munasi sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy davr talabi ham shu – buyuk tarixni jonlantirish va ekranga olib chiqish. Shunday ekan, biz kino ijodkorlari tomonidan yaratilgan tarixiy mavzudagi yangi kinolarni kutib qolamiz!

### **Adabiyotlar:**

1. "Kino asoslari" X. Abulqosimova
2. Press-club.uz
3. uzreport.new

### **TURIZM VA TEATR:**

#### **Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston tarixi, san'ati va madaniyati bilan tanishishda teatr san'atining ahamiyati**

**Xakimova Nigina,**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,  
"Teatr san'ati" yo'nalishi 2-bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada teatr san'ati turizm sohasi uchun ham xizmat qila olishi haqida tavsiya beriladi.

### **Аннотация**

В данной статье делается вывод о том, что театральное искусство также может служить индустрии туризма.

### **Annotationa**

This article suggests that theatrical art can also serve the tourism industry.

Turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. Shu bois ham dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Yurtimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu boradagi imkoniyatlardan to'la foydalanishga keng yo'l ochmoqda.<sup>20</sup> Yurtimiz boy madaniy-ma'naviy merosi, o'tmish va zamon uyg'unlashgan shaharlari, yuksak tafakkur va turmush tarzini o'zida aks

---

<sup>20</sup> www.uza.uz

ettiruvchi urf-odatu an'analari, go'zal tabiati, so'lim maskanlari bilan dunyo sayyohlarini o'ziga tortmoqda. Natijada O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar ko'lami yildan-yilga oshib bormoqda. Sayyohlar sonini yanada oshirish, ularni yurtimizga ko'proq tashrif buyurishlari uchun nima qilish kerak?

O'zbekiston o'zining boy tarixiga ega. Yurtimizdagi tarixiy-me'moriy va arxeologik obidalarimiz 7300 dan ortig'ini tashkil etadi. Bularning ko'p qismi esa Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent kabi shaharlarimizda joylashgan.

Sayyohlar O'zbekistonga kelishgach gidlar - ya'ni ekskursiya yetakchilari, kuzatib boruvchilar -yo'riqchilar va tarjimonlar tomonidan bizning boy tariximiz, shaharlar tarixi, me'moriy obidalar tarixidan, kelib chiqishi va paydo bo'lishidan xabardor bo'lishadi. Shaharlarni, go'zal maskanlarni tomosha qilib, sayr qilishadi. Bizning milliy matolarimiz bo'lgan atlas va adraslarni ko'rib, xarid qilishadi, milliy taomlarimizni tanavvul qilishadi. Lekin bular yurtimiz haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi.

O'zbekistonimizning madaniyati, urf-odatlarini—yu an'analari, yashash muhiti, ajdodlar yodi, ularning fan va madaniyatga qo'shgan hissasi va jamiyatda tutgan o'rni, ayniqsa xalq og'zaki ijodiga oid bo'lgan asarlardagi afsonaviy xalq qahramonlari haqidagi ma'lumotlardan to'liq habardor bo'la olishmaydi.

Bu kabi ma'lumotlarni sayyohlarga qisqa vaqt ichida spektakllarimiz orqali yetkaza olishimiz mumkin. Chunki teatr san'ati sintetik san'at bo'lib, o'zbek teatri o'z spektakllarida bizning milliyligimiz, urf-odatlarimiz, milliy an'analarimizni yoritib beradi, ikkinchi tomondan esa tarixiy shaxslar va afsonaviy xalq qahramonlari obrazlarini sahnada jonlantirib, ham O'zbekiston tarixini, ham xalqimiz rivojiga hissa qo'shgan buyuklarimiz hayotini sahnaga olib chiqadi. Natijada O'zbekiston sayyohlar ongida uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolishiga o'z hissasini qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi", degan fikrni qat'iyat bilan ta'kidlagani bejiz emas.<sup>21</sup>

Bu esa teatr jamoasidan yanada o'z ustida ishlashni, sayyohlarga manzur bo'ladigan spektakllar yaratishni va ularni ko'paytirishni, eng asosiysi esa til o'rganib, spektakllarni chet tilida sahnalashtirishni talab qiladi.

Teatrlarimizda yuqorida ko'rsatilgan mavzulardagi spektakllarimiz juda ko'p. Masalan, urf-odatlarimizni va milliyligimizni yoritib beradigan spektakllarimizga "Kelinlar qo'zg'aloni", "Farmonbibi arazladi", "Andishali kelinchak", "O'zbekcha raqs", "Chimildiq", "Jaydari kelin", "Momo yer" kabi spektakllarimiz misol bo'lsa, xalq qahramonlari va ajdodlarimiz taqdir yo'llarini yoritgan spektakllarga esa "Jaloliddin Manguberdi", "Sohibqiron", "Mirzo Ulug'bek", "Alisher Navoiy", "Navoiy va Bayqaro", "Yulduzli tunlar", "Alpomishning qaytishi", "To'maris" kabi spektakllarimizni aytib o'tishimiz mumkin. Ushbu asarlarni boshqa tillarda sahnalashtirib, xorijiy mexmonlarimiz e'tiboriga havola etishimiz mumkin.

---

<sup>21</sup> <https://m.sputniknews-uz.com>

Chet tillarda sahnalashtirilgan spektakllar mehmonlarimiz uchun qulaylik yaratsa, yana bir tomondan teatr san'ati uchun yangilik hisoblanib, jahon sahnalariga chiqish uchun ham imkoniyat yaratib beradi.

Shunday ekan, har bir soha rivojlanayotgan bir paytda teatr san'atini ham rivojlantirish va uni boyitish biz yoshlarning zimmasidagi muhim vazifalarimizdan biridir.

Biz yoshlar o'zbek xalqiga, kelajagimizga, yurtimiz ravnaqiga bee'tibor bo'lmaylik va Vatanimiz istiqboli uchun o'z hissamizni qo'shib boraylik.

### **Adabiyotlar:**

1. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
2. <https://m.sputniknews-uz.com>

## **НУРЛИ ЙЎЛ БОШИДА**

**(Каттакўрғон шаҳар драма театрининг илк қадамлари)**

**Пардаев Шавкат Низомович,**

О'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
“Teatr san'ati” ixtisosligi 1-курс мустақил изланувчиси

### **Аннотация**

Ушбу мақолада Шўролар даврининг илк кунларида Марказий Осиёда, хусусан, Каттакўрғон шаҳрида олиб борилган маданий маърифий ишлар, шаҳар театрининг илк қадамлари ҳақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** Каттакўрғон, Шўро, театр, труппа, спектакл, образ, актёр.

### **Аннотация**

В данной статье проводится анализ культурно-просветительских работ в Центральной Азии и первые шаги Каттакурганского драматического театра в начале Советский эпохи.

**Ключевые слова:** Шўро, театр, труппа, спектакль, образ, актёр.

### **Annotation**

This article discusses the cultural and educational work carried out in Central Asia in the early days of the Soviet era, in particular, in the city of Kattakurgan, the first steps of the city theater.

**Key words:** Kattakurgan, Shura, theater, troupe, performance, image, actor.

Бутун Ўрта Осиёда бўлгани каби Самарқандда ҳам 1917 йил инқилобидан кейинги даврда нафақат революцион кучлар, балки муҳолифат ҳам халқни ўз ортидан эргаштириш иштиёқида турли-туман оқимлар, партиялар ташкил этади. Уларнинг асосий вазифалари аҳоли ўртасида ўзларига ишонч уйғотиш, шу орқали омма ичида етарли қўллаб-қувватловчи кучларга эришиш эди. Натижада шаҳарда бир неча тилли мактаблар, қатор театр труппалари пайдо бўлади.

1919 йил ноябрида Каттакўрғон гарнизони сиёсий-оқартув (политпросвет) мудирлари Михаил Алексеев минтақадаги бошбошдоқликни тугатиш мақсадида

Самарқанд вилоят ва Бухоро хонлигига қарашли рус посёлкалари Революцион ҳарбий Советига қуйидаги ахборотни йўллайди.

“Қаттақўрғон шаҳар ҳарбий комиссарлиги қошидаги рус ҳаваскорлари труппаси ҳаракатдаги ҳарбий қисмлар қизил аскарларига ўз митинг-концертлари, спектакллари билан юксак маданий хизмат қилмоқда. Аммо маҳаллий аҳоли орасидаги маданий-оқартув ишлари кўнгилдагидек эмас. Хатирчи, Ҳашдала, Пайшанба, Зирабулоқ, Жўш, Митан, Иштихон, Файзиобод волост ва кентларида Совет ҳокимиятини пропаганда қилиш учун маҳаллий мусулмон тилидаги ҳаваскорлар труппаси, миллий концертлар етишмайди. Бунинг учун шаҳардаги ўзбек, татар ҳаваскорларини бирлаштириб, ягона халқ театри тузиш ва уларни кентларга сафарбар қилмоқ зарур...”

Қаттақўрғон шаҳрида фаолият юритаётган рус труппасининг асосий таркиби 1919 йилнинг 13 майида Қаттақўрғон Ҳарбий гарнизонига Бутун-Россия театр жамияти йўлланмаси билан юборилган Александр Михайленко раҳбарлигидаги 18 нафар профессионал ва ярим профессионал артистлар эди. Шулар орасида А. Михайленко 1918 йили Мейерхольд раҳбарлигидаги “Роспролеткульт” курсини тамомлаган, Л.Е.Сашко-Любимов Бутун Россия театр жамиятининг кўчма “РЭНОМЭ” циркида ишлаган рассом ва режиссёр, ҳам актриса, ҳам балетмейстерлик қилган Елена Никифорова ҳам бор эди. Рус труппаси 1919-1920 йилларда Трахтенбергнинг “Ялмоғиз”, А. Н. Островскийнинг “Чўмич ҳам мой, қошиқ ҳам...”, М. Горькийнинг “Қуёш болалари”, М. Лермонтовнинг “Маскарад” асарларини сахналаштиради.

Энди юқоридаги иқтибосда келтирилган “Шаҳардаги ўзбек, татар ҳаваскорларини бирлаштириб, ягона халқ театри тузиш ва уларни кентларга сафарбар қилмоқ зарур бўлиб қолмоқда...” жумласига изоҳ бермоқчимиз.

1919 йилда Қаттақўрғон шаҳрида учта мусулмон труппаси мавжуд эди. Шулардан бири Г. А. Бойкина ва Ғ. А. Камол раҳбарлигидаги татар “Сайёр” труппа (ҳозирги Ғалиаскар Камол номидаги Ленин орденли Татаристон Davlat академик драма театри) си эди. Мазкур труппа артистлари Бари Тарханов (1892-1933), Солиҳ Сайдашев (1900-1954), Нури Соқаев (1885-1927), Нафига Арапова (1902-1943), Фотима Камолова (1903...), Камол-1 (1893-1933), Соҳибжамол Волжская (1892-1979), Гулсум Болгарская (1891...), Карим Тинчурин (1887-1947), Сулаймон Валиев (1899-1956), Фотима Ильская ўз репертуарларидаги “Эр ва хотин”, “Аршин мололон” (Узиер Ҳожибеков), “Насриддин Афанди” (Н. Исенбет) ва “Сомон бозори” (К. Нажмий) спектакллари ҳамда “Шарқ кечалари” деб номланган концертлари билан аллақачон томошабин эътиборини қозонганди.

Уларнинг томошаларидан илҳомланган маҳаллий зиёлилар ҳам ўз труппаларини вужудга келтириш ниятида шаҳардаги “Октябрь” клубида турлитуман театрлаштирилган тадбирлар уюштирардилар. Бу тадбирларни сахналаштиришда татар труппасининг актёри Солиҳ Сайдашев яқиндан ёрдам берарди. Бора-бора труппанинг концерт, бир сахнали спектакллар сифатидаги ишлари кўрина бошлади ва унга Коммунистик ёшлар иттифоқи (КСМ – Коммунистический Союз Молодёжи) деб ном беришади.

Айни дамларда “Луначарский номидаги ишчилар клуби”да иккинчи мусулмон труппаси ҳам фаолият юритарди. Бу труппага Тошкент шаҳридаги “Турон” гуруҳининг вакили Шавкат Каримхўжа раҳбарлик қиларди. У “Турон” труппасида “Медҳат пошшо”, “Турк сулоласи” каби пантуркизм ва панисломизмни пропаганда қилувчи пьесаларни сахналаштирган миллатпарвар киши бўлиб, бу ерда ҳам ўз ғояларини ҳаваскорларга сингдира бошлайди. Шунинг натижаси ўлароқ, рус труппасининг вакили, rassom Л.Е. Сашко-Любимов биан биргаликда “Сичқоннинг ўлими мушукка кулги” деб номланган спектаклини сахналаштиради. Гарчи сюжети номаълум эсада, номи ва режиссёрнинг миллатпарварлиги асар Туркистон Мухторияти ағдарилгандан кейин ўрнига келган революцион ҳукуматнинг устидан кулган сатира, деб ўйлашимизга асос яратади.

Мусулмон ҳаваскорларининг спектакллари ўша давр учун характерли бўлсада, лекин ғоявий жиҳатдан Шўролар ҳукуматининг мавқеига жиддий таъсир кўрсатарди. Чунки уларга раҳбарлик қилувчи режиссёрлар барча катта-кичик сахна асарларни турк тилида қўйишга интилишар, спектакль олдидан артистларга туркча ҳарбий кийим кийдириб, сахна олдида чиқарар, духовой оркестр жўрлигида туркча “Кема келар”, “Турк ўғлони” деган миллатчилик қўшиқларини айттиришар, бундай маросимлар маориф системасига аллақачон кириб борганди.

1920 йилнинг охирида Коммунистик ёшлар иттифоқи (КСМ) труппаси асосида Туркистон Комсомол Ёшлар иттифоқи (КСМТ) театри ташкил этилади ва унга Каттакўрғон гарнизони қошида фаолият юритаётган рус труппаси ҳам қўшиб берилади.



# کاتھ قورغان تومن معارف شعبه سینک

۲ دیکابر ۱۹۲۱ میل

مروه ۵۲۱

## قراری

РОССИЙСКАЯ  
Федеративная Советская  
РЕСПУБЛИКА  
Каттақұрғанск.  
ГОРОНО  
САМАРКАНДСК. ОБЛ.  
"3" января 1921 г.  
№ 4 / 7  
2. Каттақұрған

۱  
مسلمان ایشچی - دهقان قیزل عسکر همده کامونیست - بالشیویلر  
دیپوتاتلری شهر ساوینی ۲۰ - دیکابدن اوله راق "اکتیابر" نامیده غی  
کامونیست یا شلر تروپه سینئ مسلمان - ک.س.م.ت. (تورکستان کامستال  
یا شلر ساییوزی) تیاتروسیفه این ترلیسون .

۲  
ک.س.م. - دیکان یازوو باشمه ارقی تیاتورغه سیرلگان اینوینتر ایشیا گره باسلین  
۳  
اوزناق جلیلا و گه معارف شعبه سینک تیاتراوچون ۲۰ دانه یومشاق اترغیج  
کریسلر ، ۴۰ - دانه فانوس ، ۱۰ - دانه گاز دوره پیلته چیراق اورس مانی (کرسون)  
۵ - دانه طنبور ، ۵ - دانه دو تار ، ۲ - جفت قاس نغاره - ۴ - دانه کرای ، ۲ - نای  
۲ - دانه دائره ، ۱ - دانه روسچه پائینا لباس اطاق ضروریت و ۳۶ - نفر ارتستلر معاشی  
اوچون ۵۰ - مینگ انچه برلسین!

۴  
والاستارغه باماق اوچون ۳ - عروه ، ۳ - ات ، ریشیسیار ص سیداشیوگه ا-ته  
فایتون اله کوچبر برلسین .  
تماشادن تاپیلغان انچه (معارف حسابچیسیفه آچیات بولنده مرارتالب تاپشیرلسین  
کاتھ قورغان تومن معارف شعبه سی مدیر ب. شاکریکاو  
ایچاچی کاتب سعید اوغلی

Каттақұрған туман маориф шўбасининг (КСМТ) театрини ташкил этиш тўғрисидаги қарори (1921 йил)

**Қаттақўрғон туман маориф шўъбасининг  
20 декабрь 1920 йил, нўмер 521/5**

**ҚАРОРИ**

**1-параграф**

Мусулмон деҳқон қизил аскар ҳамда большевиклар депутатлари шаҳар совети 20 декабрдан ўлароқ “Октябрь” номидаги Коммунистик ёшлар труппаси (ни) Мусулмон КСМТ (Туркистон комсомол ёшлар союзи) тиётрусига айлантирилсун.

**2-параграф**

КСМТ деган ёзув босма орқали тиётруға берилган инвентарь ашёлариға бўлсин.

**3-параграф**

Ўртоқ Жалоловга Маъориф шўъбасига тиётру учун 200 дона юмшоқ ўтирғич креслолар; 400 дона фонус; 10 дона газ давра пилта чироқ; ўрус мойи (киросун); 5 дона танбур, 5 дона дутор, 2 жуфт кос ноғора, 4 дона карнай, 2 най, 2 дона доира, 1 дона русча пианино; либос олмоқ зарурият(и) ва 24 нафар артистлар маоши учун 5 минг оқча берилсин.

**4-параграф**

Волостларға (волость, яъни, вилоятдан кичик худудий бирлик) бормоқ учун арава, 3 от, режиссёр С. Саййидашевга 1 та фойтун ила кўчириб берилсин. Томошадан топилғон оқча маъориф ҳисобчисига отчёт йўлинда ҳар эрталаб топширилсин.

**Қаттақўрғон туман маъориф шўъбаси мудир: Б. Шокирбеков.  
Ижрочи котиб: Саййид ўғли.**

Театрнинг рус ва ўзбек труппалари штати, техник состави, репертуар плани, бир йилда сахналаштириладиган янги асарлари сони, шунингдек, томошабинларни жалб қилиш режаси белгиланади ҳамда ўзбек коллективи хизмат қилиши керак бўлган кентлар, волостлар ажратилади.

Труппа состави 38 актёрдан (18 таси ўзбек), музикачилар 12 кишидан, хор состави 25 кишидан иборат бўлган. Режиссёрлар таркибидаги 2 кишидан биттаси ўзбек труппаси учун белгиланган. Ўзбек труппаси бош режиссёри этиб Солиҳ Сайдашев, мудир (директор) лавозимига Б. Жалилов, режиссёр ёрдамчиси вазифасига эса Ш. Каримхўжа тайинланади. Рус труппасининг ҳам мудир (директор), ҳам бош режиссёри лавозимига Алексей Михайленко, рассомликка Л. Е. Сашко-Любимов, бош балетмейстерликка Елена Никифорова тайинланади. Театр Қаттақўрғон шаҳар маориф шўъбаси ва ишчи, деҳқон депутатлари шаҳар Совети ихтиёрига муқим қилиб берилади. Ҳар иккала труппанинг бир йилда

сахналаштирадиган асарлари 12 та (шундан 4 таси янги), бир ойда кўрсатадиган спектакль ва концертлари 20 марта қилиб шаҳар касаба союзлари нормировка ва тариф комиссияси томонидан белгиланади. Театрда костюм, грим, парик ва бошқа реквизитлар етишмаслигини ҳисобга олиб, жамоага умум даромаднинг 25 процентини зарурий сахна ашёларига сарфлаш ҳуқуқи берилади.

Шаҳардаги 175 ўринли «Октябрь» клуби, шаҳар боғидаги 560 ўринли ёзги бино ўзбек артистларига, шаҳар ҳарбий комиссарлиги фаоллар зали эса рус труппасига бепул берилади. Шунингдек, ўзбек артистларига Хатирчи, Ҳашдала, Иштихон, Митан, Зиёвуддин, Нарпай, Нурота, Пайшанба, Қизилтепа, Ёждувон волост ва уездларида; рус труппасига янги Бухоро (Когон), Ёждувон ва европаликлар жойлашган посёлкаларда томошалар кўрсатиш вазифаси юклатилади.

#### **Адабиётлар:**

1. Муҳаббат Туляходжаева. “История театра”. Изд: Илм-Зиё-Заковат, 2021-г.
2. Бурҳон Исломов. “Изланиш” Изд: Самарканд, 1981-й.
3. Шухрат Ризаев. “Баҳодир Ёўлдошев театри” Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015-й.

### **OVOZ REJISSYORLIGI TARIXI VA TARAQQIYOTI (Ovozsiz filmdan ovozli filmgacha bosib o‘tilgan yo‘l)**

**Dilorom Izatullayevna Mirsaidova,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,

17.00.03-Kino san’ati. Televideniye

ixtisosligi mustaqil izlanuvchisi

tel: +998911332182

e-mail: mirsaidova.dilorom@mail.ru

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ovozsiz kinolardan ovozli kino yaralguncha bosib o‘tilgan yo‘l, ijodkorlarning fikrlari ko‘rsatilgan. Ovozning kino sohasida muhim o‘rin tutishi va texnik ta‘minot keltirib o‘tilgan. Dunyoda ovoz rejissyorlik sohasini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi. Muallif ovoz rejissyorining ijodkor sifatida shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini tahlil qiladi. Maqolada ovoz rejissyorining obraz yaratishdagi roli hamda zamonamiz ovoz rejissyorining asosiy kompetensiyalari bayon etilgan. Maqolada zamonaviy ekran san’atlarida tovush rivojlanishining asosiy tendentsiyalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ovozli-vizual, ovoz, subsonik, ekspressiv, ovoz effekti, kinematografiya, g‘oya, tempo-ritm.

#### **Annotation**

This article shows the journey from silent films to sound films, the views of the creators. The important role of sound in the field of cinema and technical support are mentioned. Issues related to the development of the field of sound directing in the world will be discussed. The author analyzes the main trends in the formation and

development of the sound director as a creator. The article describes the role of the sound director in creating the image and the main competencies of the modern sound director. The article describes the main trends in the development of sound in modern screen arts.

**Key words:** sound-visual, sound, subsonic, expressive, sound effect, cinematography, idea, tempo-rhythm.

Ovozli havaskor kino yaratish haqidagi suhbatni ovozli kinoning tabiati, uning estetikasi va ekspressiv imkoniyatlari, ovozli-vizual tasvir qanday sintezlanishi, muallifning niyati qanday amalga oshirilishi haqida umumiy suhbatdan boshlanishi kerak. Kinoning asosiy g'oyasi. Ko'p sonli turli xil ekspressiv vositalar bugungi kinematografiyani boshqa san'at turlaridan yaxshi ajratib turadi. Uning plastikliigi va tempo-ritmik konstruksiyalari, tovush ekspressivligi va xilma-xil ovozli-vizual yechimlari bilan montaj kabi ijodiy unsurlar kiritilgan vizual tasvir materiallari mavjud. Ijodiy g'oyani amalga oshirish uchun rejissyor bugungi kunda juda ko'p turli xil texnik vositalarga ega, masalan, ovoz, rang, ovoz balandligi, stereoskopiya, stereofoniya, format va boshqalar.

Albatta bu boyliklar asta-sekin to'planib bordi, chunki kino san'atining o'zi o'sib, takomillashib bordi u kamtarona havaskor suratga olish bilan boshlandi, 1895 yilda Fransiyada Lui Lumiere tomonidan suratga olingan.

Jahon kinosining butun tarixi – bu yangi shakllar va ijodiy echimlar, texnologik texnikalar va boshqa ifoda vositalarini izlash tarixi.

Shu sababli, professional kino ishlab chiqarishning rivojlanish tarixi va alohida kinostudiyalarning rivojlanish tarixi o'rtasida taqqoslash va o'xshashlik yaratishga urinish juda foydali bo'lishi mumkin. Zero, havaskorlar studiyasi rivojlanishining xarakterli bosqichlari, uning shakllanishi va takomillashuvi, yuzaga kelayotgan ijodiy-texnikaviy muammolarni yengib o'tish go'ya professional kino san'atining rivojlanish bosqichlarini takrorlaydi. Ochig'i, kino ishqibozi o'zining chegaralari bilan "orzuli va mumkin bo'lgan" o'rtasidagi abadiy "qaychi" bilan, kasbiy sirlarni idrok etishga bo'lgan ochko'z ishtiyoqi bilan barcha "ijodkorlik azoblari"ga duch kelishini bilish qiziq bo'ladi, uning barcha ko'tarilishlari va tushishlari, muvaffaqiyatlari va umidsizliklari, yo'qotishlar va to'satdan kashfiyotlar – bularning barchasini o'z davrida "kino kashoflari", haligacha izlanib kelayotgan kino san'atiga birinchi yo'llarni ochgan odamlar boshdan kechirgan.

Lyumer va birozdan keyin Mel'es o'zlarining birinchi lentalarini namoyish qilishda allaqachon ovozni ifodalashga ehtiyoj sezilar va har xil hiyla-nayranglarga murojaat qilib, ekran harakatlariga ovozli hamrohlik qilishga harakat qilishdi. Bular etishmayotgan tovush komponentini kinoga kiritish uchun birinchi sodda urinishlar edi.

O'zining rivojlanishi butun subsonik davri davomida kino ekranda ko'rsatilgan harakatni ovoz bilan kuchaytirishga keskin ehtiyojni boshdan kechirdi. Birinchi ovozsiz kinolar odatda musiqa bilan birga bo'lgan. Buning uchun musiqachilar taklif qilindi: pianinotchilar, skripkachilar, qo'shiqchilar va hatto butun ansambllar. Musiqa bilan tugallangan ovozsiz kinoga hamrohlik qilish juda keng tarqalgan shaklga aylandi



va shu bilan birga ovozsiz kinoni yaratish muammosini murosa yechimining bir turiga aylandi. “Musika, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri talaffuz qilinadigan tirik so‘zning ifodasini almashtirishi kerak edi” [3, 123].

Ba‘zan rejissyor kinoni yanada qiziqarli qilishga urinib, unga syujetni tushuntiruvchi, kayfiyatni yaratuvchi misralarni kuylash bilan hamrohlik qilgan. Boshqa hollarda, kino namoyishi paytida ekran orqasiga maxsus taklif qilingan aktyorlar joylashtirildi, ular davom etayotgan harakatni kuzatib borishlari va turli xil “tovushlar” ni takrorlashlari kerak edi. Alohida satrlarni va hatto butun iboralarni talaffuz qilish, ba‘zan esa shovqinlarga taqlid qilish, keyin har bir sahnada rejissyor tomonidan mo‘ljallangan hamma narsani ovoz chiqarib berish edi.

Ovozsiz kinolarda ovozli tasvirlar shaxsning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu vizual va ovozli hislarni idrok etishning birligi, shuning uchun ovozsiz kino davrida vizual vositalar yordamida tovush yo‘qligini qoplashga harakat qiladigan texnikalar tug‘ilishi bejiz emas. Tovushlarni yozib olish va takrorlash, natijada tovush xarakteristikalaridan foydalanish va ovozli tasvirlarni yaratish imkoni bo‘lmagan holda, ovozsiz kino ustalari ularning yordami bilan kadrdagi tovushni his qilish uchun barcha turdagi vizual effektlarga murojaat qilishdi. Bunga ba‘zan kinoga tomoshabinlar e‘tiborini jaranglayotgan narsalarga qaratuvchi kadrlarni kiritish orqali erishilgan: hushtaklar, nog‘oralar, karnaylar va boshqalar. Qichqirgan olomonning o‘rta va umumiy kadrlari bilan almashinadigan qichqirgan og‘izlarning alohida yaqin planlari yaratilishi kerak edi, g‘azabning kuchayish hissi. Shunday qilib, jiringlash qo‘ng‘iroqlarining yaqin planlari ularning urish ritmida o‘rnatildi; turli o‘lchamdagi qo‘ng‘iroqlar tasvirlarining rejalarini o‘zgartirish har qanday tezlikda amalga oshirilishi mumkin, bu sekin yoki tez qo‘ng‘iroqni bildirishi kerak.

Mashhur tanqidchi Marten ta‘biri bilan aytganda, “ovozsiz tovushli effekt” deb ataladigan “Napoleon” kino ssenariysidan parcha:

“... Qo‘ng‘iroqlarning to‘rt xil yaqindan ko‘rinishi... Yana to‘rttasi qo‘ng‘iroqlarning oldingi juda qisqa rejalaridan kattaroqdir. To‘rtta yangi samolyot (hatto kattaroq va tezroq qo‘ng‘iroqlar). To‘rt soniyada navbatma-navbat yuzta qo‘ng‘iroq [4. 41].

Harakatlanuvchi soat qo‘llari yoki tebranayotgan mayatnik etishmayotgan tovushlarni almashtirdi va vaqtning o‘tishini ramziy qildi. Harakatlanuvchi poyezd g‘ildiraklarining taqillashi ma‘lum bir ritmda o‘rnatilgan aylanuvchi g‘ildiraklarning rejalarini ko‘rsatish bilan aniqlandi.

Ovozsiz kinoda sahnaning ovozli atmosferasini takrorlashga harakat qilib, tomoshabinga ovoz bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa ko‘rsatildi; bu juda ko‘p qo‘shimcha materiallarni jalb qilishga, har xil uzilishlar, har xil detallarni yaqinlashtirishga olib keldi. Bu “ovoz effekti” yaratilishi kerak degani bo‘ldi. Bularning barchasi, tabiiyki, vizual diapazonni chalkashtirib yubordi, harakatning rivojlanishini sekinlashtirdi, ekrandagi voqealar rivojini sekinlashtirdi va idrok etishni qiyinlashtirdi. Vizual vositalar yordamida kino dramaturgiyasining sekin ochib berilishi ko‘plab mualliflarni his-tuyg‘ular va fikrlarni etkazishning “tovushli” shakllaridan qochishga, hamma narsani imo-ishora va mimika yoki montaj texnikasi bilan cheklashga majbur qildi.

Ovozsiz kino estetikasi asosan majburiy edi va ovozning yoʻqligi bilan belgilanadi. Uning oʻziga xosligi u yoki bu tarzda kino asarining mazmuni, gʻoyasi, hayot haqiqatini faqat tasviriy vositalar yordamida etkazish zarurati bilan bogʻliq edi. Qisqa kadrlarni tez, hissiy jihatdan tahrirlash oʻsha davrning koʻplab kinolariga xos edi, hatto ularning eng yaxshilari ham kino harakatining parchalanishidan aziyat chekardi.

Subsonik kinoda montaj san'atining jadal rivojlanishini shu bilan izohlash mumkinki, montaj asosiy maqsaddan tashqari, tom ma'noda tovushni "yaratishi" kerak edi, ya'ni montajga tushuntirish rejalari kiritildi, shunda tomoshabin ekranda nima sodir boʻlayotganini toʻgʻri idrok eta oladi.

Ovozsiz kinoning estetikasi muayyan aktyorlik uslubini talab qildi. Ta'kidlangan mimika va imo-ishoralar ustunlik qildi.

Barcha qiynchilik va qarama-qarshiliklarga qaramay, jim kino sezilarli badiiy ifodaga erishdi, oʻz tarafdorlari va muxlislariga ega boʻlgan alohida san'at turiga aylandi.

Vaholanki, ovozsiz kino asarlari qanchalik yuksak baholanmasin, har qancha iqtidorli muallif boʻlmasin, ularning jim bolalari oʻsha davr mahsuli boʻlganligini va bu ham hali yosh kino san'atining nomukammalligi tufayli yuzaga kelganini tan olmay boʻlmaydi va shu qator uning texnik vositalari.

Jahon kinosining koʻplab ustalari ovozsiz shakllarning bu nomukammalligini his qila boshladilar va tovushni orzu qila boshladilar. "Ovozsiz san'atning eng ajoyib asarlari: "Ona" Vs. Pudovkin, A. Dovjenkning "Yer", R. Klerning "Somon qalpoq", V. Shestromning "Shamol", K. Drayerning "Janna d'Arkning ehtiroslari" - bularning barchasi, J. Sadoul, "tovush va soʻz uchun faryod qildi" [5, 222].

Taniqli kinorejissyorlar Deyn Karl Drayer va fransuz Rene Kler oʻz kinolarini sahnalashtirayotganda muammolarga duch kelishdi, ularni faqat ovozli kinematografiya bilan hal qilish mumkin edi.

"Janna d'Arkning ehtirosi" kinoida K.Dreyer unvonlardan keng foydalandi, ularga teatrlashtirilgan dialog ma'nosini berdi, biroq bu personajlarning bir-birini almashtirib turishi montaj ritmini buzdi. K.Dreyerga "imzolar emas, haqiqiy soʻzlar kerak edi. U oʻshanda shunday degan edi va ayni paytda kinoda gaplashish texnikasidan hali toʻliq foydalana olmaganidan afsusda ekanligini bildirgan [6, 220].

Rene Kler "Qomon qalpoq" asarida kreditlarni deyarli yoʻq qildi, spektakl dialogini botqoqda boʻlgani kabi bir qator aksessuarlar, atributlar va yuz ifodalari bilan almashtirdi va quvnoq musiqa bilan kuzatib bordi.

"Parij tomlari ostida" kinoida R.Kler allaqachon tasvir va tovushning kontrapunktal uygʻunligi tamoyilini amalga oshirgan. U lablari qimirlasa-da, ovozi eshitilmaydigan suhbatdoshlar bilan sahna koʻrinishlarini oʻynadi. Bu erda koʻplab kino tasvirlari vizuallik hisobiga emas, balki ovoz xususiyatlari hisobiga yaratilgan. Shunga qaramay, ushbu kino oʻzining barcha afzalliklari bilan hali ham haqiqiy kino asariga aylangani yoʻq. Soʻzning tovush shakllariga estetik ehtiyoj sovet rejissyori A. Dovzhenko tomonidan ham keskin sezildi. "Arsenal" ovozsiz kinoida u temir yoʻl halokatining oʻta majoziy tasvirini koʻrsatdi.

Ovozli soʻz oʻrnini bosuvchi sarlavhalar har doim Dovzhenko kinolarida muhim rol oʻynagan, koʻpincha sheʼriy. Ularsiz koʻp narsa oʻz qiymatini yoʻqotgan boʻlar edi. Shunga qaramay, sarlavhalar tufayli montaj ritmining buzilishi va plastika rejissyorni ehtiyotkorona harakat qilishga majbur qildi.

Uning “Yer” ovozsiz kinoi (sokin kinoning tan olingan durdonasi) 1931-yilda chet elga eksport qilingan, ammo muvaffaqiyatli boʻlmagan, chunki u erda ovozli kino allaqachon paydo boʻlgan.

Bu vaqtga kelib, ovoz yozish texnologiyasini takomillashtirish ovoz va tasvirning sinxron kombinatsiyasini olish imkonini berdi. Amerikada “qoʻshiq” va “gaplashuvchi” deb ataladigan kinolar keng tarqaldi. 1927-yilda chiqarilgan birinchi “qoʻshiq” kinoi – “Jazz qoʻshiqchisi” mashhur qoʻshiqlar va ariyalar bilan yangradi.

Darhaqiqat, bu ovozsiz kino boʻlib, unda bir nechta dialog va qoʻshiqlar kiritilgan. Uning muvaffaqiyatini faqat ommaning sinxron qoʻshiqning “moʻjizasi”ga, shuningdek, mashhur qoʻshiqchining tashqi koʻrinishi va ovozigga nisbatan sodda hayrat bilan izohlash mumkin edi.

Birinchi “gaplashuvchi” kino – Nyu-York chiroqlari” 1929-yilda chiqqan edi. Montaj sanʼatining rivojlanmaganligi, suratga olish paytida kameraning jim turishi birinchi “yuz foiz gapiradigan” kinolar shunchaki kino boʻlishiga olib keldi. teatrlashtirilgan spektakllarning nusxalari. Mamlakat tashqarisida Amerikaning “gapiruvchi” kinolari tomoshabinlar eʼtirofiga duch kelmadi. Fransuzlar gʻazablanib, dialoglarni tushunmay, fransuz nutqini talab qilishdi. Britaniyaliklar kinolarni hayratda qoldirdilar, chunki amerikacha aksent bilan suhbatlar koʻpchilik uchun kulgili va tushunarsiz boʻlib tuyuldi. Bu bir muncha vaqt “gapiruvchi” kinolarning chiqarilishini toʻxtatdi. Biroq, tomoshabinlarning salbiy munosabati ham, tijorat fikrlari ham ovozli kino rivojlanishini kechiktira olmadi.

Kino texnologiyasini yanada takomillashtirish ovozli-vizual va tovushli tasvirlarning hissiy kuchidan yanada samarali foydalanish imkonini berdi. Suratga olish kamerasining harakatchanligi, ovoz va tasvirni alohida yozib olish, ovoz komponentlarini alohida tashuvchilarga yozib olish – bularning barchasi ovozli-vizual kompozitsiyalarning xilma-xilligi bilan ovozli kinolarni yaratishga yordam berdi. Kinoning u yoki bu asosli yechimi, kontseptsiyasi va hayotga tatbiq etilishi haqida jiddiy suhbatlashish imkoni paydo boʻldi.

Kinoda tovushning paydo boʻlishi ijodiy usullarni, badiiy obrazlarni qurish tamoyillarini qayta koʻrib chiqishga va butun ekspressiv vositalar tizimini qayta koʻrib chiqishga olib keldi. Kasbiy mukammallikning koʻplab oʻrnatilgan tamoyillari qayta koʻrib chiqishni talab qildi. Ijodiy fikrlashning yangi tovush-vizual shakllari paydo boʻldi.

“Ovozning kinoga kelishi nafaqat voqelikni ekranda aks ettirish texnikasidagi inqilob edi. Bu muqarrar ravishda kino sanʼati uslubi va poetikasida inqilobga olib keldi. Ovozli kinoda ekspressiv vositalarni tanlash sezilarli darajada kengaydi, endi ular yordamida tasvirlarni uch oʻlchovli qurish, hayot hodisalarini ochish va munosabatlarning oʻziga xosligiga erishiladi. Insonning ichki dunyosi uning atrofdagi hayot tovushlarini idrok etishi orqali uzatilishi mumkin.

Ichki monolog kabi badiiy texnikani amalga oshirish mumkin bo'ldi. Ovozli kinematografiya kino dramaturgiyasiga ham tub o'zgarishlar kiritdi. Kino qurilishiga asos bo'lgan scenariy yangi badiiy vositalarga ega bo'lib, insoniy tuyg'ularni, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq va nozikroq o'rganish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Amanmuradov Sh., Mirsaidova D. Ovoz rejissyorligi mahorati. O'quv qo'llanma. T.: 2018.
2. Аманмурадов Ш. Музыкально шумовое оформление. Учебное пособие. Т.: 2019.
3. Мартен М. Язык кино. М., «Искусство», 1965, с. 123.
4. Корганов Г., Фролов И. Кино и музыка. М., «Искусство», 1964, с. 41.
5. Садуль Ж. История киноискусства, с. 222.
6. Садуль Ж. История киноискусства. М., Изд-во иностр. лит., 1957, с. 220.

### **JADIDLAR TOMONIDAN OLIB KIRILGAN DRAMA JANRI – SAN'AT VA MADANIYATNING YANGI TIMSOLI SIFATIDA**

**Raxmanova Mavluda Erkin qizi,**  
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti  
2-kurs magistri

#### **Annotatsiya**

Maqola yurtimiz tarixining XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida muhim ijtimoiy – siyosiy va madaniy o'zgarishi bo'lgan jadidchilik harakati va ularning namoyondalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, shu jumladan, dastabki teatrlarning vujudga kelishi hamda jadid dramalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, teatr, dramaturgiya, xalq teatri, drama janri, Mahmudxo'ja Behbudiy, "Padarkush" dramasi, Abdulla Avloniy, "Turon" truppasi.

#### **Abstract**

The article provides information about the significant socio-political and cultural changes in the history of our country in the late XIX and early XX centuries, the work of the Jadid movement and its representatives, including the emergence of early theaters and the peculiarities of Jadid dramas.

**Key words:** jadidism, theater, dramaturgy, folk theater, drama genre, Mahmudkhoja Behbudi, drama "Padarkush", Abdulla Avloni, troupe "Turon".

XX asr boshlarida ming yillik o'lka adabiyotining qat'iy qonun tusini olgan aruz vaznidagi mumtoz na'munalari o'rnida tamomila yangi mazmun va shakldagi yevropacha yunalish kasb etgan badiiy adabiyot shakllana boshladi. Fap6



adabiyotining roman, hikoya, barmoq vaznidagi she'r turlari Turkiston ijodkorlari tomonidan mahalliy adabiyotga moslangan holda dadil qo'llanila boshladi. O'zbek adabiyoti asrlar davomida turli bosqichlardan o'tib, XX asrning boshlarida faoliyat olib borgan jadid ma'rifatparvarligi davrida, shubhasiz, taraqqiy etdi. Milliy adabiyotimiz uchun mutlaqo yangi janr bo'lgan dramaturgiyaning paydo bo'lishi va shakllanishi bu davr adabiyotidagi katta yutuq sifatida baholanishga loyiq. Oz fursatda bu yunalishning iste'dodli namoyondalari paydo buldi. Shu bilan birga XX asrning 10-yillaridan o'zbek jadid dramaturgiyasining tajribalari kurtak yozdi. Dastlabki dramaturglar yetishdi.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo'lgan yirik iste'dod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san'ati arboblarni ham tarbiyaladi. Jadidshunos taniqli olim professor Begali Qosimovning ta'kidlashicha, ularning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg'in faoliyat ko'rsatganlari saksondan ortiq bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Sayidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Vasliy Samarqandiy (1869-1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), To'lagan Xo'jamiyrov-Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Muhammadsharif So'fizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Sadridin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza Hakimzoda Ni'oziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938) va boshqalar shular jumlasidandir.

Jadid dramaturgiyasi mazmun-mohiyat va shakl-mundarija jihatidan nafaqat o'sha davr ijtimoiy-madaniy hayoti uchun, balki o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ham yangi xususiyatlarni taqdim qildi. Avvalo janr masalasini olaylik: jadid dramaturgiyasi tragediya janri bilan boshlandi. (M.Behbudiy "Padarkush"). Keyin unda komediya (Hoji Muin, A.Avloniy, Hamza) janri tarkib topdi. Nihoyat, drama janrida yozish keng urf bo'ldi (Fitrat, Hoji Muin, A.Avloniy, Hamza). Jadidlar umumiy ma'noda bu janrlarni «pesa» deb yuritganlar.

Jadid adabiyotida dramaturgiya ya'ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko'zga tashlanadi. Jadid g'oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san'atining ta'sir ko'rsatishi kuchli bo'ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarning aksariyat nomayondalari o'z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog'liq holda olib bordilar.

Jadid teatrining manbalari haqida so'z borganda, odatda ozarbayjon va tatar teatrlarining, Toshkentga va Turkistonning boshqa yirik shaharlariga gastrolga kelgan rus teatrlari ta'siri tilga olinadi. Turkiston Rossiya qo'shinlari tomonidan zabt etilganidan so'ng, 1877-yildan boshlab Turkistonga rus antrepenerlarining drama truppalari, Peterburgdagi Mariinsk teatrining artistlari gastrolga kelib, o'z spektakllarini namoyish etishgan.

Tatar va ozarbayjon teatrlari esa Turkistonga 1911-yildan boshlab gastrolga kelishgan. "O'zbek tomoshabinlarining tatar teatri namunalari bilan tanishishlari, - deb yozadi akademik Mamajon Rahmonov, - avvalo Turkistonda yashovchi tatar havaskorlari spektakllari orqali bo'ldi" [1,264]. Tatar va ozarbayjon xalqlarining tillari ham, milliy an'analari va urf-odatlari ham yaqin bo'lgani uchun o'zbek xalqining ilg'or vakillari, jumladan, jadidlar shu teatrlarning spektakllarini zavq bilan tomosha

qilganlar. Ular shu bilangina kifoyalaniq qolmay, Turkistonda ham milliy teatr san'atini barpo etish lozim, degan qarorga kelganlar. Jadid ziyolilari orasida teatr asarlarini yaratish va uni sahnaga qo'yish harakati ozarbayjon, tatar teatr truppalari va teatr asarlarining Turkistonga 1910-1912-yillarda kirib kelishi bilan ayniqsa kuchaydi. Bu jadid dramaturgiyasining o'ziga xos birinchi xususiyatidir.

Ikkinchi xususiyat, zamonaviy Osiyo tarixidagi teatr san'atining taraqqiyoti yozma dramaturgiyaning paydo bo'lishi "masxarabozlik va qiziqchilik" san'ati tarixi bilan bog'liq bo'lib, bu san'at turli ko'rinishlarda to hozirgacha davom etyapti. Masxarabozlik va qiziqchilik teatr shakliga professor M. Qodirov shunday ta'rif beradi: "...bir zamonlar bu tushunchalar "masxara", "muqallid" shaklida ifoda qilingan. Ularda o'ziga xos dramaturgiya bor, qaxramonlar qiyofasini o'z qobiliyati, aqli, mijoz, xissiyoti, tanasi, harakatlari bilan gavdalantiruvchi aktyorlar bor, ularning o'yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo'yingki, teatr san'atining barcha alomatlari muhayyo. Bu teatrning hozirgi zamon teatridan ayirmasi shundaki, uning maxsus binosi va sahnasi yo'q, xalq, aktyorlari o'z spektakllarini istagan vaqtda, turli sharoitlarda gir atrofi tomoshabinlar bilan qurshalgan o'ziga xos halqa – "sahna"da ko'rsatib ketaverganlar... Ammo masxarabozlik va qiziqchilik – bu xalqning marosimlari, urf-odatlarini bilan tutashib ketgan ibtidoiy shakldagi teatr emas, balki og'zaki an'anadagi professional teatrdir" [2,36-37].

Dramaturgiyaning jadid adabiyotida yozma namunalari paydo bo'lguniga qadar kechgan tarixi ana shu masxaraboz va qiziqchilar teatrida ijro etib kelingan og'zaki drama ko'rinishlaridan iborat. Bular shunchalik uzviylashib ketgan san'at hodisalariki, ularning yaratuvchisi ham ijrochisi – targ'ibotchisi ham masxaraboz va qiziqchilarning o'zidir. Uzoq yillar davomida og'zaki dramalarning yuzlab namunalari yaratildi, bir qancha ijrochilari yashab o'tdi. Zohiran ham, botinan ham keskin farqlari yaqqol ko'rinib turgan an'anaviy xalq teatri o'zbek jadid teatri va dramaturgiyasi shakllanishiga muayyan ta'sir ko'rsatdi, uning rivojlanishi, mustahkamlanishiga o'ziga xos hissa qo'shdi. Tabiiyki, bu jarayonda u ba'zi umumiy jihatlar ham kasb etdi [3].

Jadid dramaturgiyasining o'ziga xos uchinchi xususiyati – pesalarda davr ijtimoiy hayotidagi dolzarb masalalarning ko'tarilganligida ko'rinadi. Milliy teatni yo'lga qo'yish, millat ruhini, ongini o'stirish uchun maishiy turmushdan olib yozilgan dramatik asarlar lozim edi. Dastlabki dramatik asarlarda ham ma'rifat va jaholat, ilm va ilmsizlik masalasidan bahs qilindi. Matbuot sahifalarida ko'tarilgan ijtimoiy illatlar, jaholat mavzusi dramalarda ham qalamga olindi. To'rtinchi xususiyat, dramalarning turli xil janrlarda yaratilganligidir. Dramaturgiya janrlari xususida Mahmudxo'ja Behbudiy: "Har zamoni bir usuli ehtisobi bordur. Bu zamonda tiyotrxonalar ham yamon va zararlik odatlarni ehtisob va tanqid qilib yomonligini, qabihini xaloyiqqa ko'rsatib va'z va nasihat etguvchi bir joydur. Tiyotrxona sahnalarida qo'yulaturg'on asarlar fojia, ya'ni qayg'ulik, mazhaki, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqqa ko'rsatilur. Ul voqeadagi yomonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qochib, yaxshilikg'a harakat qilmoqg'a, tiyotrd ko'rsatilg'on voqealar sabab bo'lur", – deydi. Bundan anglash mumkinki, Behbudiy teatr sahnasida qo'yiladigan asarlarni uch janrga ajratadi:

- “Fojia, ya’ni qayg‘ulik”;
- “Mazhaka, ya’ni kulgu”;
- “Drama, ya’ni hangomalik” [4,174].

“Fevral inqilobigacha yuzaga chiqqan pesalarning juda ko‘plari fojiadirlar. Ba’zi kulgilar ko‘rilsalar-da, ular bir pardalik kichik asarlar bo‘lib, fojia qo‘yilganidan so‘ngra, bir oz ovutib qo‘ymoq uchun, sahnaga qo‘yilar edilar” [5,88]. O‘sha davrda fojiaga bunday katta e’tibor berish ham tasodifiy hodisa emas edi. Bu davr taqozosi, ijtimoiy vaziyat, mavjud turmush tarzi talabi bilan yuzaga kelgan hodisa hisoblanadi.

Bu davrda teatr san’atidagi islohotlar haqida jadid matbuoti xabar berib turardi, Bexbudiy nashr etgan “Samarqand”, “Oyna”, “Sadoiy Turkiston” ro‘znomalari shular jumlasiga kiradi. Bundan tashqari, teatrni taraqqiy qilmoqning birinchi sababi ekani to‘g‘risida Behbudiy (“Tiyotr nadur?”), Avloniy (“Tiyotr xususida munozara”), Tavallo (“Teatr haqinda”, “Teatrga maxsus”), Abdulla Qodiriy (“Bizda teatru ishining borishi”), Abdulhamid Cho‘lpon (“Maskavdagi dramstudiyamiz”, “O‘zbek davlat truppasi”, “Teatr- san’at”, “Sahnamizda”) kabi jadid ziyolilari qator maqola va asarlar e’lon qildi. Jadid dramaturgiyasi tadqiqotchisi Shuxrat Rizayev ularning bu izlanish va harakatlariga quyidagicha baho bergan edi: “Millatni ma’rifat nuri bilan uyg‘otib, ozodlik va taraqqiyot tantanasini orzulagan jadid ziyolilar maslak yo‘lidagi buyuk amallardan biri teatr, deb tushundilar va shu yo‘lda say-harakat boshlab, qisqa bir muddatda g‘oyat shoyon samaralarga yetishdilar” [6,51].

Yana bir tadqiqotchi olim Toshpo‘lat Tursunov: “Jadidlar teatrni milliy madaniyatning yangi shakli sifatida targ‘ib qilish bilan birga, uning g‘oyaviy asosini tashkil etuvchi repertuar – drama, tragediya va komediyalarni yaratish, ijrochi truppalarni uyushtirish, ularning iqtisodiy va boshqarish muammolarini hal etishni ham o‘z zimmasiga oldilar. Jadidlar o‘zbek teatrining ham targ‘ibotchisi, ham yaratuvchisi bo‘lib maydonga chiqdilar. Ularning ko‘pchiligi bir vaqtda targ‘ibotchi, tashkilotchi, dramaturg, rejissyor, aktyor sifatida ijod qilgan fidoyilar edilar” – degan fikrni bildirib o‘tgan [7,21-22]. Bundan shuni anglash mumkinki, jadid vakillari teatrni mukammal san’at asari holiga keltirish uchun bor kuch-g‘ayratlarini ishga solib, iqtidor va iste’dodlarini namoyish etganlar. Ana shu iste’dodlarini ishga solgan holda jadidlar xalqni ma’rifatli qilish uchun birinchi bor milliy teatrlar tashkil qildilar. 1913-yilda Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Tavallo tashabbuslari bilan Toshkentda O‘rta Osiyodagi birinchi – a’zolari soni 25 kishidan iborat bo‘lgan - “Turon” teatr truppasiga asos solindi. Bu haqda Abdulla Avloniy o‘z “Tarjimai holi”da shunday yozadi: “1913-yildan boshlab xalqni ko‘zin ochmok, madaniyatga yaqinlashtirmok uchun teatrga kirishib, teatru ishlarini yulga qo‘yuvchilarniig boshlug‘u bo‘lub, Turkistonning bir necha shaharlariga borib o‘zbeklar orasida teatrga yul ochdim. ... “Turon” ismli *teatralna blagotvoritelniy* jamiyatni yuzaga chiqardim” [8,110]. Avloniyning bu so‘zini Miyon Buzruk Solixov xam kayd etgan: “1913-yildan boshlab havaskor tusida to‘plangan bu to‘da 1914-yil oxirida rasman “Turon to‘dasi” nomi bilan o‘tiladi va tobora tashkiliy tus ola boradi” [5,79]. Drama san’atini sevuvchi bu musulmonlar jamiyati o‘z oldiga teatr san’atini targ‘ib qilish, xalq uchun spektakllar tashkil etish va namoyish qilishni maqsad qilib olgan edi.

“Turon” teatr truppasi sahnalashtirgan birinchi spektakl bu Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansub bo‘lgan “Padarkush yoxud o‘qumagan bolaning holi” dramasi edi. Turkistonda teatr faoliyati yanada kengayib ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylana bordi: “XX asr boshlarida Andijon, Buxoro, Xorazm, Qo‘qon shaharlarida musiqali teatr truppalari mustaqil badiiy to‘garaklar tashkil etilib, keyinchalik ular professional teatr jamoalariga aylandi” [9]. “Oyina”ning 42-soni va “Sadoyi Turkiston” gazetasining 35-sonida bsrilgan xabarlarga ko‘ra, Samarkandda milliy dramaturgiyamizning yangi namunalarini yaratishga bel bog‘lagan g‘ayratli muharrir-dramaturglar ko‘rina boshlaydi. Shu kezlari Turkiston turmushidan olib, quyidagi pesalar yaratiladi: “Axxmad porina”; “Tuy”; “Boy ila xizmatkor”; “Isloh(i) maktab hakida kengash majlisi”; “Eski maktab xoli”; “... eshigida qonli ko‘z yoshlarimiz”; “Ko‘knori”.

1911-1917-yillar mobaynida yaratilgan dramatik asarlarda xuddi she‘riyatda bo‘lgani kabi ilm-ma‘rifat tushunchasi targ‘ib qilindi. “Padarkush” (Domulla, Ziyoli), “Yangi maktab, eski maktab” (Komilboy, jadid muallimi) kabi dramalarda asosan ma‘rifatli shaxs – yozuvchi estetik idealini belgilagan ma‘lum bo‘ldi. Maktablarni isloh qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng egallagan ochiq fikrli yoshlarni tarbiyalash, buning uchun ota-onalarning ham zamon yangiliklaridan xabardor bo‘lishi lozimligi ham aks etdi. “Baxtsiz kuyov” (Qodiriy), “Biz va Siz” (Avloniy), “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (Hamza), “Mazluma xotin”, “To‘y” (Hoji Muin) kabi dramalarda yozuvchi estetik ideali maishiy turmush va qahramonlar fojeasi fonida tasvirlandi. Fojeaga duch bo‘lgan har bir qahramon aslida millat va jamiyatning biron bir illatini, kamchiligini o‘zida ifodaladi.

Abdulla Qodiriy shu davrda yaratilgan sahna asarlari aslida zamonning ko‘zgusi ekanligi, unda jamiyatdagi barcha kamchiliklar aniq namoyon bo‘lishi haqidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Teatr, turmushdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko‘z oldimizg‘a mujassam etib ko‘rsatuvchi bir oynadir. Ish shundog‘ ekan, biz ham o‘z teatrimizni ko‘rganda turmushimizning aksini ko‘rmagimiz kerakdir” [10,2]. Behbudiy teatr haqida yozgan maqolasida shunga o‘xshash quyidagicha ta‘rif berib o‘tgan edi: “... Tiyotr ibratnomadur, tiyotr va‘zxonadur, tiyotr ta‘zir adabidir. Tiyotr oyinadurki, umumiy hollarda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: Tiyotr va‘z va tanbih egguvchi hamda zaralik odat, urf va taomilni, qabix va zararini aynan ko‘rsatguvchidir” [11]. Qodiriy ta‘biri bilan aytganda: “Yoshlarimizning tarbiya yeri maktab bo‘lsa, kattalarimizniki teatrlardir” [10,2]. O‘zbek jadid dramaturgiyasi hamda teatrining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo‘ldi. Shuning uchun ular tomonidan yaratilgan dramatik asarlarda mavzu ko‘lami jihatidan davr hayotidagi barcha ijtimoiy masalalar qamrab olingan.

### **Adabiyotlar:**

1. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. - 1968.
2. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san‘ati. Toshkent, 1981.

3. Qarshiyeva G. Jadid dramaturgiyasiga xos xususiyatlar. “Jahon adabiyoti jurnali”, 2007-yil, 10-son.
4. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar . Tuzatilgan va to‘ldirilgan 2-nashri. Ma’naviyat,1999. 174-bet.
5. Solixov B. O‘zbek teatri uchun materiallar. –T.: O‘zdavnashr.1935.
6. Rizayev SH. Jadid dramasi. – T.: Sharq, 1997.
7. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi, - T.,2009.
8. “Milliy uyg‘onish na o‘zbek filologiyasi masalalari”, 110-bet.
9. Nusratova SH.I. Istoriya formirovaniya uzbekskogo teatra. <http://jurnal.org/articles/2016/iskus1.html>.
10. Qodiriy A. Bizda teatru ishining borishi. “Ishtirokiyun” gazetasi, 1919-yil 11-dekabr,239-son.
11. Behbudiy M. Tiyotr nadur? “Oyna” jurnali, 1914-yil, 29-son.

## **TA’LIM TIZIMIDA MULTIMEDIALI O‘QUV KURSLARINI YARATISH VA FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

**Zufarov Zoir Mahmudovich,**

(Axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti,

E-mail:z-zufarov@mail.ru, tel.:(90) 995-42-46)

**To‘g‘onboyeva Ziyoda, Olimjonova Mardona,**

(Xalq ijodiyoti fakulteti, MSMTEB yo‘nalishi 2-kurs talabalari)

### **Annotatsiya:**

Maqolada ta’lim tizimida multimedia elementlaridan foydalanish samaradorligi, Autoplay Media Studio dasturi yordamida o‘quv kurslarini yaratish va dasturning keng imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim tizimi, multimedia texnologiyalari, o‘quv kurslari, Autoplay Media Studio.

### **Annotation:**

The article provides information on the effectiveness of the use of multimedia elements in the education system, the creation of training courses using Autoplay Media Studio, and the wide range of possibilities of the program.

**Keywords:** Education system, multimedia technologies, training courses, Autoplay Media Studio.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning ta’lim tizimida informatsion va kommunikatsion texnologiya vositalarining integratsiyasi bo‘yicha, o‘quv jarayonini ilmiy - metodik ta’minlash va yangi axborot texnologiyalari yordamida ta’lim tizimidagi ishlarni birlashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilmoqda. Bu esa o‘z vaktida O‘zbekistonda keng omma uchun mo‘ljallangan ochiq ta’lim muxitini shakllantirish istagini yuzaga keltirdi.

Ta'lim sohasidagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta'lim tizimini texnik jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim tizimida multimediali o'quv kurslaridan foydalanish nazariy materiallarning namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jarayonlarning imitasion animasiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu uchun o'quvchilarning o'quv sinflari, kompyuter sinflari, o'qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy xonalarda, kutubxonalarda amaliy shug'ullanishlarini tashkillashtirish lozim bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalaniladigan barcha multimediali o'quv kurslari amaliy tadbiquddan va tajribadan o'tgan bo'lishi bilan birga, o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak. Multimediali o'quv kurslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o'quv jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ta'lim tizimida yaratilayotgan multimedia o'quv kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri, shu mavzuni o'rganishning ma'lum bir nozik jihatlari bilan aniqlanadi, ular esa o'z navbatida katta sondagi ko'rgazmali materiallarni talab qiladi, chunki ularning ishtirokisiz jonli dunyoning turli tumanligini, uni qurishni zarurligini, biologik, ximik va fizika jarayonlarning hosil bo'lish mexanizmini va

rivojlanishini to'liq namoyish qilib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi uchun multimediali o'quv kurslarini yaratishda shu sohaning asosiy didaktik masalalaridan biri – o'qitishni modellashtirish va tasavvurlash obektlariga ta'sir qilishning umumiy metodlari muhim o'rinlardan birini egallaydi. Multimedia o'quv kurslari avvalgi tradision o'quv qo'llanmalardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Shu jumladan, o'quv materiallarini o'quvchilarga tavsiya etish multimediali: grafika, animasiya, video, ovozli va tovushli harakatlar, real voqea va hodisalarni modellashtirish kabi boshqa ko'plab elementlar orqali amalga oshiriladi, chunki ular natural obektlar va ko'rgazmali qurollarning kamchiliklarini ma'lum bir miqdorda yoki to'liq qoplash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarni o'rganayotgan mavzular bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishda va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. chunki ular natural obektlar va ko'rgazmali qurollarning kamchiliklarini ma'lum bir miqdorda yoki to'liq qoplash imkonini beradi. Multimedia o'quv kurslarida o'quv materiallarini to'ldiruvchi va uning qabul qilish darajasini oshiruvchi ko'rgazmali vositalari alohida jadvallar, grafik sxemalar, rasmlar va boshqalardan iborat bo'lgan slaydlar, videofilmlar va boshqa shunga o'xshash ko'rgazmali nazariy materiallar orqali tasvirlanilishi mumkin.

Multimedia o'quv kurslarini yaratishda va ulardan foydalanish lokal kompyuter va Internet tarmog'i keng imkoniyatlarni ochib beradi. Multimediali o'quv kurslarini butun dunyo kompyuter tarmog'iga joylashtirilishi, ulardan o'quv jarayoni foydalanishda to'g'ridan-to'g'ri murojoat qilish, o'quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o'rganish faoliyatini shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, multimedia o'quv kurslarini yaratishda eng avvalo turli dasturiy vositalar bilan yaratiladigan interfaol komponentalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Keyingi yillarda multimedia hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir. Istalgan fayl yoki fayllar to'plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun Autorunmenyusi hosil qilishda Autoplay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi. Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin. Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta'minlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obektlarni kiritish mumkin. Amaliy dastur uchun grafik qobiqlarni yaratish, uni avtomatik ishga tushirish uchun Autoplay Media Studio barcha kerakli fayllarni o'zi yaratadi. Foydalanuvchilar zimmasiga esa faqat qattiq disk va kompakt diskni yozish uchun tayyor loyihalarni shakllantirish vazifasi qoladi.

Autoplay Media Studio dasturi muhitida Visual Basic, Visual C++, Java, Macromedia Flash kabi qator tizimlarda yaratilgan hujjatlarini ham bema'lol qayta



ishlash mumkin. Dastur yordamida animatsiyalanuvchi menyuni, kataloglar daraxtini, ma'lumotlar bazasini va shunga o'xshash obektlarni nafaqat tez yaratish, balki ularni boshqarish ham mumkin. Avtomatik ishga tushuvchi oynalarni o'zining kutubxonasidagi "niqob"lardan foydalangan holda ixtiyoriy shaklda (formada) yaratish mumkin. Bunday "niqob" sifatida .jpg, .bmp va .png kabi formatdagi fayllardan foydalanilsa ham bo'ladi. Qolaversa, ma'lumotlarni CD uchun tayyorlagan holda uni dasturning o'zidan turib, CD yoki DVDga yoza olishi Autoplay Media Studio dasturi naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o'zi ochiluvchi arxiv ko'rinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin. Bundan tashqari, dasturga matnni orfografik tekshirish imkoniyati ham kiritilgan. Dasturning bu xossasi uning Label, Paragraph va Button kabi obektlari bilan birga ishlaydi. Agar dastur kompyuterga to'liq versiya bilan o'rnatilgan bo'lsa, matnni orfografik tekshirish uchun uning kutubxonasida juda katta hajmdagi lug'atlar bo'lishi mumkin. Shunday qilib, AutoPlay Media Studio 8.5 ning yangi versiyasi quyidagi imkoniyatlarga ega holda iste'molga chiqarilgan.

1. Avtomatik ishga tushuvchi xususiy menyu, interfaol taqdimotlar, multimedia-ilovalar, sanoqli daqiqalarda dasturiy ta'minotlarni yaratish;
2. Loyihaga turli-tuman fotografiya, musiqa, video, animatsiya, matn va boshqalarni biriktira olish xususiyati;
3. Web-ilova yaratishga mo'ljallangan mukammallashgan instrumentlar;
4. XML, SQL va shifrlash mexanizmlari bilan ishlay olishi;
5. RTF-formatli hujjatlar bilan ishlay olishi;
6. Slayd-shou bilan ishlash imkoniyati;
7. Matn rangini o'zgartirish uchun RadioButton obektining mavjudligi;
8. Bosmaga chiqarishning kengaytirilgan funksiyasi;
9. Obektlarni formatlash imkoniyati;
10. Kalit so'zlar yordamida qidiruv tizimining mavjudligi;
11. CD, DVD kabi kompakt disklarga yozish imkoniyati va hokazo.

Multimedia hujjatlarini tayyorlash, uning dasturlanuvchi qismlari uchun scriptlar yozish, tayyorlanayotgan amaliy dasturni boshqarish interfeysini yaratishda bu obektlar dasturchiga imtiyozli yordam ko'rsatadi. AutoPlayning ajoyib xususiyatlaridan yana biri shundaki, bu obektlar xossalarini tanlash uchun maxsus xossalar panelini ham dasturchiga taqdim etadi va u orqali bir qiymatli xossalar qiymatidan samarali foydalanish mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Xudayberdiyev S.A. San'at ta'limida axborot texnologiyalari, Toshkent, Navro'z, 2021y., 452b.
2. Samigova G.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, Monografiya, Toshkent, Ishonchli hamkor, 2021y., 88b.
3. Дилова Н.Г. Вспользование интерактивных методов в школьном обучении. Вестник интегративной психологии. №21, 2021u., С.51-54.



4. Zufarov Z.M. The Introduction of Artificial Intelligence to Human Life and Its Types, International Journal of innovative research (IJIRSET), May 2021, 10:5, P. 5228-5230.

5. Dilova N.G., Saidova M.J. Innovative approach to education is a factor for developing new knowledge, competence and personal qualities. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021, 1:10, P. 148-153.

## **QORAQALPOQ TEATR SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, DASTLABKI IJODIY USLUB VA SAHNAVIY SHAKLLAR**

**Mamutov Paraxat Allambergenovich,**

O'zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali  
direktorining birinchi o'rinbosari, 17.00.01. – Teatr san'ati  
ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi (PhD) doktorant.

**Aytmuratov Baxtiyar Kenyesbayevich**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Aktyorlik san'ati (Qo'g'irchoq teatri aktyorligi  
san'ati) mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

Tel: +99894-459-13-13, +99899 454-81-91

elektron pochta: [Para.13.13@list.ru](mailto:Para.13.13@list.ru)

[baxtiyar.aytmuratov.91@mail.ru](mailto:baxtiyar.aytmuratov.91@mail.ru)

### **Annotatsiya**

Bu maqolada 1926 yildan e'tiboran uzluksiz faoliyat ko'rsatib kelayotgan, mustaqillik davrida ham o'z faoliyati bilan boshqa ijodiy jamoalarga o'rnak bo'lib kelayotgan Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrlarining rivojlanish bosqichlari xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Rejissyor, aktyor, spektakl, teatr, tarix, uslub, metod

### **Annotation**

In this article is mentioned the stages of development of the Karakalpak State Academic Musical Theater named after Berdakh, which has been operating since 1926 and has been an example to other creative communities even during independence period.

Keywords: - Director, actor, play, theater, history, style, method

Har bir davr o'ziga xos badiiy asarlarni yaratish bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Bu haqiqat ijodkorning tamoyillari va uning mafkuraviy va estetik atrofida talqin qilinishi, badiiy va tushunarli vositalar tizimi hisoblanadi. Uning yordamida inson badiiy vositalar orqali boshqa bir qiyofani o'ziga xos jihat bilan yaratadi. San'atning rivojlanishida bunday hodisalar badiiy uslub deb ataladi.

Uslub – teatr san'ati tadqiqi misolida kam o'rganilgan nazariy masalalardan biri. Bu balki an'anaviylikka asoslangan milliy dramaturgiyada syujetlar, obrazlar, ramzlar bir xilligi ijodkorning uslubiy individualligini ma'lum darajada cheklaydi, degan

qarashlar tufayli bo'lsa kerak. Adabiyotshunoslikda uslubga doir berilgan ta'riflarni qisqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, metod – ijodkor asarlarida namoyon bo'lgan xususiyatlarning umumiy ko'rinishi bo'lsa, uslub – ijodkor asarlarida ko'ringan uning individualligi, o'ziga xosligidir. Boshqacha aytganda, metod – umumiylikka, uslub – xususiylikka tayanadi. Ijodiy uslub shakllanish jarayonini 1926-yildan e'tiboran uzluksiz faoliyat ko'rsatib kelayotgan, mustaqillik davrida ham o'z faoliyati bilan boshqa ijodiy jamoalarga o'rnak bo'lib kelayotgan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri miolida tadqiq etamiz.

Teatr tarixidan ma'lum bir necha davrlarni o'z ichiga olib, haqiqiy bugungi kundagi teatr, qoraqalpoq xalqida XX asrning boshlarida shakllanadi. 1918-yilning yanvar oyida RSFSR Xalq ta'limi Komissariatining “Teatr bo'limini tuzish haqida”gi qaroridan so'ng barcha shaharlarda har-xil ma'naviy-ma'rifiy ishlarini olib borishga, teatr konsert tashkilotlarini tuzishga ahamiyat qaratilgan. Shu yillardan boshlab professional teatr tashkil qilish uchun bor imkoniyatlaridan foydalangan.

1919-yilning mart oyida Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumanida RSFSR musiqa-drama jamoasining Qoraqalpog'iston bo'limi ochilib, unga Amudaryo bo'limida teatr havaskorlar jamoalarini birlashtirish, ularga rahbarlik qilish, shaharlarda pullik spektakllar, konsertlar, boshqa tomoshalar ko'rsatish, shuningdek markaziy shaharlardan malakali teatr xodimlarini va sirk taklif qilish vazifalari yuklatiladi. 1919-yilning oxirida Qo'ng'irod tumani o'qituvchi Qosim Yamashevning rahbarligida 18 kishidan iborat tatar havaskorlar to'garagi tashkil qilinib, unda o'zbek, qoraqalpoq, qozoq yoshlari ham ishtirok eta boshlagan.

“Teatr”, “Teatr truppasi” degan nomlar qoraqalpoq xalqi orasida, 1920-yillarning o'rtasidan boshlab keng tarqala boshlaydi. Sobiq ittifoq respublikalarining ko'pchiligida teatr bo'lmaganligi bois, teatrga barcha xalqlar qiziqib qaray boshlaydi. Ushbu yillardan boshlab teatrlar har bir xalqda milliy tilida gapirib ish olib boradi [1, 9-10].

1920-yilning yozida Hamza Hakimzoda Niyoziy Xorazmga kelib, “Sayyor” truppasini tashkil qilib rahbarlik qila boshlaydi.

1920-yilning oxirida Hamza rahbarlik qilgan “Sayyor” truppasi To'rtko'l, Xo'jayli va Qo'ng'irod shaharlarida gastrol safarida bo'ladilar. Uning namoyishlarini xalq katta qiziqish bilan tomosha qiladi.

1920-yilning sentabrda Mehnatkashlar deputatlari Amudaryo bo'limi Otqaruv Qo'mitasining qarori bilan To'rtko'l'da katta shahar klubin, kutubxona va kinoteatr ochadilar. Maxsus shtat birliklariga ega bu klub Qoraqalpog'istondagi eng daslabki madaniyat markazi bo'lib hisoblangan. Bu klubda shahardagi rus, tatar, o'zbek, qozoq teatr drama to'garaklari o'zlarining tomoshalarini navbat bilan namoyish qilib turgan [2].

1925-yili To'rtko'l pedagogika texnikumi tabiat fani o'qituvchisi Zarip Fatixovich Qasimov texnikum o'quvchilaridan qoraqalpoq milliy truppasini tashkil qiladi. Ushbu yil truppa “Baybishe-Toqal”, “So'nggi tayanish” spektakllarini va konseri dasturlarini shahar xalqiga namoyish qiladi.

“Tong nuri” truppasi bo'lib shakllangan davr 1926-1930 yillarni o'z ichiga oladi. Truppada ijodiy va texnik xodimlar soni 13 ta odamdan iborat bo'ladi. Jolmurza

Aymurzayev, Aytbay Matyakubov, Genjebay Ubaydullayev, Madreyim Matjanov, Jumagul Seytova, Qurbangul Bekmuratova, Maryam Temirxanova, Perdegul Sayekeyeva, T.Ismetullayeva, Q.Allaniyazov, Bayniyaz Seytov, J.Pirnazarov, O.Toremuratovlar edi.

Bu insonlar nomlari “Tong nuri” truppasining, bugungi qoraqalpoq teatrining qaldirg‘ochlari bo‘lib tarixda mangu qoldi. Bu yillari teatr havaskor teatrlar qatoridan o‘rin olgan edi. Sahnalashtirilgan spektakllar juda oddiy. Aktyorlar sahna nutqini, aktyorlik mahoratlarini bilmasdi. Shunga qoramasdan dramaturgiya rivojlandi. Musiqali dramalar yozildi. Tomoshabinlar musiqali asarlarni sevib tomosha qilardi. Bu yillardagi ijodiy uslubni juda oddiy, havaskorlar jamoasi deyishimiz mumkin.

Milliy truppaning rahbari, rejissyori, artisti va dramaturgi bo‘lib har xil ijodiy va ma‘muriy ishlarni olib borgan Abdirman Utepovning mehnatlari katta bo‘ldi. Ammo, ularning rejissyorlik ish usullari professional darajada emas edi. Sahnalashtirilgan pesalar suflyor orqali namoyish qilingan. Spetakllarga maxsus dekoratsiya, chiroq, rekvizit, butafor va boshqa komponentlar ishlanmagan. Chunki bu davrda, spektakllarga dekoratsiyalarni maxsus ishlab chiqish, teatr dasturiga kiritilmagan edi. Kechki spektakl, konsertlarga afisha, kishilarning ko‘chalarda maxsus baqirishlari bilan aytilardi, yoki karnay-surnaylar orqali xabarlantirilgan.

1930-yillar nafaqat qoraqalpoq teatri rivojlandi. Tomoshabinlar didi ham o‘ydi. Teatrda xalqning qiziqishi o‘ydi. Dramaturgiya, spektakl haqida chuqur fikrlaydigan tomoshabinlar kela boshladi. Agitdramadagi asarlarning o‘rniga teran ma‘noga ega spektakllarni talab qila boshladi. Bu omillar teatrning ijodiy uslubining va usulining o‘zgarishida yordam berdi. Dramaturgiya haqida uning bugungi kundagi ahvoli haqida gazetalarda har xil tanqidiy makolalar chop etilib turdi.

Qoraqalpoq dramaturgiyasi 1930-yillari rivojlanish bosqichida edi. Teatr mahalliy dramaturglarning bir aktli, satirik xarakterdagi pesalarini qo‘yishni xohlamas edi. Endilikda katta hajmdagi, mukammal syujet asosida yozilgan pesalar zamon talabi edi. Mahalliy dramaturglar asarlariga qaraganda ko‘proq tarjima asarlar sahnalashtirildi. Tarjima asarlar bilan nafaqat tomoshabin estetik didi o‘ydi, balki dramaturglar ham tajribasi takomillashdi. Moler, N.Ostrovskiy, V.Vishnevskiy, M.Gorkiy asarlari tarjima qilindi. Bu yillari dramaturgiya yangi yosh dramaturglar bilan to‘ldi. Asan Begimov, Jolmirza Aymurzayev, Mirzag‘aliy Daribayev, Raxim Majitov, Najim Davkarayev, Sapar Xojaniyazov singari mualliflar asarlarida yangi mavzu, g‘oya va yangi obrazlar sahnada paydo bo‘ldi. “Xorlikdan azod”, “Bu kim?” (A.Begimov), “Hokislilar”, “O‘z tayog‘i o‘ziga” (J.Aymurzayev), “Qora yuraklar”, “Gumon” (R.Majitov), “Buyaqchi vakil” (A.Utepov), “Bag‘dagul” (S.Majitov), “Kuklan botir”, “Yangi odamlar”, “G‘arib oshiq” (M.Daribayev), “Aysha” (S.Xojaniyazov) shular jumlasidandir.

Teatr san‘atiga e‘tibor 1930–1939-yillarda kuchli bo‘ldi. Mana shu siyosiy iqtisodiy jarayonlari ta‘siri va barcha jamoat tashkilotlari, umuman xalqlarimiz tomonidan teatr san‘atiga yangicha e‘tibor va yangicha san‘atga bo‘lgan o‘zgacha muhit vujudga kelib, jamiyatimizning ongida, estetik ma‘naviy o‘rinni egallay boshladi. Bu yillari teatrda badiiy rahbar va bosh rejissyor vazifasini Abdiraman Utepov boshqardi. Ko‘proq mahalliy mualliflarning A.Begimov, J.Aymurzayev,

S.Majitov, R.Majitov, M.Daribayev, A.Matyakubovlarning har qil janrdagi asarlarini va ozerbayjon dramaturgi S.Rahmonning “Arshin mal alan” komediyasini sahnalashtirdi.

Teatr san’ati musiqali asarlari bilan xalqimiz ko’ngillaridan joy oldi. Qoraqalpoq teatrida o’zbek rejissyorlarining kelib ishlashi, hamkorlik natija berdi. Ijodiy uslub shakllana boshladi. 1930–1939-yillar qoraqalpoq teatrining davlat teatrlari safiga qo’shib, malakali teatrlar bosqichiga endi ko’tarilayotgan davri bo’ldi.

Moskva GITISni qoraqalpoq studiyachilari 1939-yili bitirib teatrga kelishi, katta tarixiy voqea bo’ldi. Qoraqalpoq davlat teatri, K.S.Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali komediya va drama teatri deb nomlana boshladi. Teatr o’zining haqiqiy malakali kadrlar bilan to’lib ijodiy jarayonin boshlagan davr edi. Studiyachilar o’zlari bilan birga A.Ostrovskiyning “Kambag’allik ayb emas”, Molerning “Skapenning hiylasi”, V.Vishnevskiyning “Birinchi otliq armiya” spektakllarini olib keladi. Aktyorlar mahorati, rejissura, dramaturgiya barchasi a’lo darajada bo’lgan bu spektakllarni ko’rib tomoshabin ham teatr haqida yozib kelayotgan adabiyotshunoslar ham qoyil qolishdi. Haqiqiy teatr ijodiy uslubining shakllanganini tan olishdi. Bunga asos sifatida jahon teatrlari tajribalarini o’rganib har tomonlama qoraqalpoq teatr san’atiga yangicha usul va uslub olib kirganligi teatr ijodiy uslubining shakllanishini ko’rsatadi. Bitiruvchilar orasida taniqli san’atkorlar, ustozlar Turesh Allanazarov, Yuldash Sharipov, Yuldash Mamutov, Sapar Xodjaniazov, Sofiya Karabayeva, Tərbiya Jolimbetova, Yaxit Allamuratova, Xalmurod Saparov, Baltabay Aymanov, Saodat Yusupova, Sabirbay Utepbergenov, Madireyim Matchanov, G’aniy Doshumov, Rejepbay Saydov, Pirlepes Tilegenov, Isax Shadiyevlar qoraqalpoq teatrining birinchi malakali kadrlari bo’lib tarixda qoldi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Allanazarov T. Qaraqalpaq teatrida milliy rejissuraning qaliplesio‘i: N: Bilim,1996. – B. 9-10.
2. Juzimbetov A. uy arxividan foydalanildi.
3. Bayandiyev. T. Karakalpakskiy teatr. – T.:Fan, 1971.
4. T.Allanazarov, istoki i formirovaniye karakalpakskoy sovetskoy dramaturgi i teatra. – N.: 1964 g.
5. Karakalpakskiy gosudarstvenniy teatr imeni K.S.Stanislavskogo 1930-1967 g. Ocherk istoriy. Izdatelstvo (fan – Uzbekskoy SSR). – T.:1971 g.

## MILLIY ESTRADA SAN'ATINING ILK KO'RINISHLARIGA NAZAR

**Nazarova Inoyatxon Baxtiyorxo'ja,**

O'zDSMI, "Sahna nutqi" kafedrası o'qituvchisi  
3-bosqich mustaqil izlanuvchi (PhD)

E-mail: [inoyatkhoneazarova@gmail.com](mailto:inoyatkhoneazarova@gmail.com)

Тел: 90-320 50 65

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tadqiqotchilar M.Rahmonov, M.Qodirovlarning ilmiy izlanishlari izchil o'rganilgan hamda, tadqiqotchi sifatida munosabat bildirilgan. Ayniqsa o'zbekistonda XIX-XX asr oxirlarida an'anaviy teatr vakillari qiziqchi va masxarabozlar hayoti va ijodi ko'rib chiqib tahlil etilgan.

**Kalit so'z:** teatr, estrada, qiziqchi, masxaraboz, aktyor.

### **Annotation**

In this article, the scientific researches of researchers M. Rakhmonov and M. Kadyrov have been studied and commented on as a researcher. Especially in Uzbekistan in the late XIX–XX centuries, the life and work of comedians and comedians were analyzed.

**Key word:** theater, pop art, comedian, clown, actor.

Estrada san'atining yurtimizdagi ilk rivojlanish shakllarini teatr tarixi kesimida ko'rib chiqamiz. Teatrshunos olim, akademik Mamajon Rahmonovning "O'zbek teatri tarixi" kitobida "Xalq o'z milliy teatri juda qadim zamonlardan buyon "masxara" yoki "masxarabozlik", ayrim tumanlarda esa "qiziqchilik", aktyorlarni esa masxaraboz yoki qiziqchi deb atab kelgan [1, 42]. "Qiziqchilik o'zbek an'anaviy tomosha san'atining qadimiy ko'rinishlaridan biridir. Qiziqchilik janrning o'z tabiati, badiiy xususiyati va ijrochilik an'analari bor. Ushbu san'at uzoq asrlardan buyon ustozdan shogirdga o'tib, qayta-qayta sayqal topib, yana qanchadan-qancha zamona to'loqlariga dosh berib, bizning kunlarimizgacha yetib keldi" [2, 7].

An'anaviy teatr yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan professor M.H.Qodirov: "Masxarabozlik bilan qiziqchilikni (bir zamonlar bu tushunchalar "masxara", "muqallid" shaklida ifoda qilingan) nega teatr deymiz? Chunki ularda o'ziga xos dramaturgiya bor, qahramonlar qiyofasini o'z qobiliyati, aqli, mijozi, hissiyoti, tanasi, harakatlari bilan gavdalantiruvchi aktyorlar bor, ularning o'yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo'yingki, teatr san'atining barcha alomatlari muhayyo" [3, 36] - deb ta'riflaydi.

Professor M.Qodirovning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, o'zbek an'anaviy teatri yurtimizning turli go'shalarida masxaraboz va qiziqchi aktyorlar o'z faoliyatini uch lokal viloyatlarda olib borgan. Ularning eng yorqin namoyondalari Buxoro, Xorazm masxarabozlari va Farg'ona qiziqchilari hisoblanadi. Yurtimiz XVIII–XIX asrlarda turli xonliklar tasarrufida bo'lib, ularning san'atga munosabati ham turlicha bo'lgan. An'anaviy teatr san'atining ko'rinishlaridan Qo'qon xonligida o'tadigan namoyishlardagi xushchaqchaqlik, zavq-shavq, o'yin kulguga moyillik, eng asosiysi,

xonlikdagi kirdikor va illatlarni ochishga bo‘lgan intilishni yorqin misollarda ko‘ramiz. An’anaviy teatr ijodkorlari xalqning himoyachisi sifatida, zulmkorlarga qarshi harakatlanishga undashi, salbiy illatlarni o‘tkir tig‘li so‘zlar orqali tanqid ostiga olishi bilan aktyorlar ijodida o‘z aksini topdi.

Qo‘qon tarixchilaridan Mullo Qosimxojining 1840-yilda Madalixon saroyida Bidiyorshum truppassi tomonidan o‘ynalgan “Mudarris” spektakli tafsilotlari to‘g‘risida yozib qoldirgan xotiralari mavjud. Qo‘qondagi o‘zbek teatri repertuarining mavzusi, mazmunga boyligi, professional aktyorlik san’ati, tomoshabinga katta ta’sir ko‘rsatganini qayd etadi.

“Sozanda va ashulachi hofizlar, raqqoslar Chorsuning har ikki tomonidagi choyxonalarga bo‘linib o‘tirardilar. Tomosha sozandalarning mashqi bilan boshlanardi, o‘yinni korfarmon boshqarardi. Davraga xofizlar chiqardilar, so‘ngra bir nafas askiya ketardi. Shundan so‘ng raqosslarga navbat keladi, oxirida bir necha spektakl ko‘rsatiladi” [1, 42].

1866-yilda Rossiya bilan Qo‘qon xonligi tinchlik ahdini tuzadi va bu har sohada rivojlanishga sabab bo‘ladi. Ammo turli urushlar tufayli xazinasini bo‘shagan Xudoyorxon soliqlarni oshirar, tinimsiz xalqni ezish orqali o‘z xazinasini to‘ldirishni maqsad qilgan. Ayyor xon bu zo‘ravonlikni oqibati yomon bo‘lishini sezgan holda, vaziyatni yumshatish maqsadida san’atkorlardan unumli o‘z nafsi yo‘lida foydalangan. Turli tomoshalar, sayllar tashkil qilish orqali xalqni chalg‘itgan. Harbiy orkestrdan tashqari saroyda 75ta musiqachi xofiz sozandalar, 60 kishilik raqs ansambli, 30 kishilik aktyorlar truppassi bo‘lgan. Truppa rahbari Zokir eshon boshchiligida Rizo qiyiq, Sa‘di Mahsum, Normat qiziq, Boybuva qiziq, Ro‘zi gov, Baxtiyor, Shomat qiziq, Davlat qiziq, Kalsariq qiziq, Avliyoxon kabi qiziqalar ijod qilgan. «Masxarabozlik va qiziqchilik – o‘tkir komediya, muqallid, serzavq hikoya, hajviy qo‘shiq, kulgili o‘yin degani; bu – yomonlarga nisbatan gurzi bo‘lsa, yaxshilarga optimistik kayfiyat, kulgi, g‘ayrat, rohat baxsh etuvchi ajoyib xalq san’ati. Bu teatr artistining masxaraboz (masxara), qiziqchi (qiziq), taqlidchi (muqallid) deb nom olgani bejiz emas. Masxaraboz, qiziqchi va muqallid – hajv va tanqid, hazil va taqlid, qahqaha va xanda ustasi demak. Zotan, ularning san’ati komedik-hajviy yo‘nalishga ega, asosiy quroli satira va yumordir. Ana shu qurol bilan aksar mehnatkash xalq ommasi pozitsiyasida turib zolim, sudxo‘r boylarni, poraxo‘r amaldorlarni, munofiq ruhoniylarni masxara va fosh qilganlar” [1, 36,37].

Buxoro xonligida XVIII–XIX asrda san’atning turli shakllari keng tarqalgan. 1870-yil Rossiyadan sayoxatga kelgan L.R.Kostenko, 1878-yilda Buxoroda bo‘lgan I.L.Yavorskiy ko‘rgan spektakllari xaqida yozib qoldirganlar, ammo saroyda aktyorlar truppassi bo‘lganmi yoki yo‘q bu xaqda aniq ma’lumot keltirilmagan. Buxoro xonligidagi tomoshalar bilan Qo‘qon xonligida qo‘yilgan tomoshalarning farqlari ularning mazmuni bilan bog‘liq. Qo‘qon xonligida ijtimoiy mavzular ularga nisbatan aktyorlarning munosabati ijro qilingan bo‘lsa, Buxoro amirligida qo‘yilgan spektakllar sodda, oddiy insonlarning turmush-tarzi yoki hayvonlarga o‘xshatish, shunga o‘hshash harakatga qurilgan voqealar tasvirlangan. Yusuf qiziq birinchi marta Buxoroga Muzaffarxon taxtni egallagan davrida ijodiy safarga borgan bo‘lsa, ikkinchi marta Olimxon davrida boradi. “1897-yillar bo‘lsa kerak, Muzaffarxon Farg‘ona general

gubernatoriga xat yozib bizni majburan Buxoroga olib ketdi. Buxoroga talaygina yangi o‘yinlar tayyorlab bordik. Ammo bizning ishimiz yaxshi qizib ketmadi. Qozi va ulamolar ustidan kuladigan o‘yinlarni ko‘rsatishga amir Muzaffarxon xohish ko‘rsatmadi. Chunki saroyda o‘tgan sayil va bazmlarda amir yonida Buxoro Shayxul islomining o‘zi ham o‘tirar edi. Biz Buxoroga borgan kunlarimizda Farg‘onaning sersuxan va sernazm askiyalaridan namunalar ko‘rsatdik. Ammo hech kim tushunmadi va o‘zimizdan boshqa hech kim kulmadi. Qochiriq so‘zlar va shirin hikoyalar ham behudaga ketdi. Shundan so‘ng yig‘indagilarni qiziq qiliq va taqlidlar bilan kuldiradigan bo‘ldik” [1, 140].

Buxoro amirining saroyidagi fitna, aldov, fisqu-fasod saroy mulozimlari, harbiylar, din peshvolari ustidan kulgi va kinoyalar saroy muhitida bunday tomoshalarni ko‘rsatishga cheklanishlar bo‘lganligini, o‘sha davrda ham saroy ahli fikricha zararli, havfli, noqulay bo‘lgan nutq yoki ommaviy muloqotni bartaraf etishga harakatlar bo‘lgan. Ammo ta’kidlash kerakki, Buxoroning chekka qishloq tumanlarida xalq orasida yurgan aktyorlar saroy mulozimlari, din peshvolari ustidan kulib, turli muammo va kamchiliklarga tik qarab, unga o‘z tanqidiy munosabatlarini bildirgan holda tomoshalar qo‘yishgan.

Xorazm xonligida musiqa, raqs, xofizlar ijrosi xaqidagi ma’lumotlarni, Xorazmga sayohat qilgan rus sayohatchilarining yozib qoldirgan esdaliklaridan bilish mumkin. Shulardan rus savdogari Abrosimov, Xorazm xoni Muxammadaminxon (1846-1855) saroyida bo‘lgan bir tomosha to‘g‘risida esdaliklarida yozadi. Saroy bog‘larining birida musiqachilar uchun chodir, undan tashqari supa, ya’ni estrada sahnasida qo‘g‘irchoqbozlar chiqishidan tortib, xofizlar ketma-ketlikda konsert namoyish qilishganini eslaydi. E’tirof etish kerak, Xorazmda kichik shakldagi va katta spektakllar musiqa hamohangligida namoyish qilingan. Raqs, harakat va pantomima ustun bo‘lgan. M.Rahmonov pantomima spektakllari ikki guruhga bo‘linganini, hayvonlar va maishiy mavzuda bo‘lganini yozadi. Spektaklda bir aktyor teatri namoyish etilib, unda bir aktyor ikki uch personajni ijro qilgan, hikoya va raqsni ham professional darajada ijro etgan.

“XVIII–XIX asrda saroyda ishlagan truppalar repertuarida ijtimoiy mavzuning aks ettirilishi xonliklardagi siyosiy ijtimoiy muhitdan kelib chiqib turlicha bo‘lgan. Bu masala ham xonliklardagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga bog‘liq edi. Ijtimoiy mavzuni aks ettirishda, Qo‘qon saroyida ishlagan truppalarning o‘z g‘oyaviy pozitsiyasining o‘tkirliigi, Buxoro va Xiva xonliklari saroyida ishlagan truppalardan ajralib turgan. Qo‘qon truppassi repertuarida “Muddaris”, “Zarkokil”, “Sirkataroq azizlar”, “Shayxul islomning sud munozarasi”, “Rais”, “Imom domlaning mahalladan haydalishi”, “Xon hajvi” yoki “Osilsin”, “Avliyo”, “Farzand duosi”, “Hoji kampir”, “Mozor” kabi yuzlab satirik asarlar mavjud edi” [1, 42].

Yuqoridagi fikrlarni isbotlash maqsadida Qo‘qon aktyorlari ijodiga mansub “Farzand duosi” spektakilining tarixi va ijrosiga to‘xtalamiz. Qo‘qonlik aktyorlaridan biri, Zokir eshon saroydagilarga qarshi chiqib, ularning ko‘nglidagini namoyish qilmay, o‘z qarashlarida turib, saroyning turli kirdikorlarni sahnaga olib chiqqan. Shu sabab, saroy ayonlari aktyorlarni saroydan quvg‘in qildirishga erishganlar. Saroydan haydalgan aktyorlar xalq ichida yurib ularning turli holatlaridan yanada ta’sirlanib ijod

qilganlar. Ana shunday vaqtlarda aktyorlar yanada qiziqarli ham bir vaqtning o'zida mushohadali vaziyatni sahnalashtirganlar. Aktyor Zokir eshon boshchiligida "kuf-sufchi eshonning" o'tkir nafasi tufayli bepusht ayollar eshonga borib, farzandli bo'lishayotgani haqida tarqalgan gaplar ustidan o'tkir kulguli holatlardan iborat tomosha sahnalashtiriladi. Bu xaqiqat emasligini anglagan tomoshabin, "kuf-sufchi eshonning" sodda odamlarni aldab, poraxo'rlik, ta'magirlik, yo'li bilan ayollarni yo'ldan urib qilgan harakatlari ustidan qahqaxa otib kuladi. Bu spektaklda Eshon rolini Normat qiziq, kelinchak rolini Rizo qiyiq ijro etib, eshonning kirdikorlarini o'ta ustalik bilan ochib berishga erishishgan. Syujeti satira va yumorga boy spektaklda, eshonning "kuf-suf" qilishi, yoniga kelgan mijoz qo'lini ushlab, uning dardiga davo bo'lish bahonasida, ayollar jamoliga shu tariqa to'yishini aktyorlar mohirona parodiya qilishgan. Ushbu spektaklni estradaning "ijtimoiy parodiya" turiga kiritish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. M.Rahmonov. O'zbek teatr tarixi. Toshkent. Fan, 1968. – 42 b.
2. I.Abdurahmonov, O. Sultonov "Mirza qiziq teatri" Toshkent -2005 7 bet.
3. M.Qodirov. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent. O'qituvchi, 1981. – 36 b.

### **QORAQALPOQ XALQINING ULUG' SAN'ATKORI OYIMXON SHOMUROTOVANING ILK IJODI**

**Altinoy BERDIBAYEVA,**  
O'zDSMI dramatik aktyorlik san'ati  
yo'nalishi 1-kurs magistri

#### **Annotatsiya**

Maqolada xalq artisti, Qoraqalpog'iston teatr arbobi va qo'shiqchisi, jamoat arbobi Oyimxon Shomrotovanning hayoti va serqirra ijodi, sahnada ijro etgan ilk obrazlari tarixiy manbalar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpoq xalqi, ovul, og'ir yillar, ocharchilik, ashula, o'qish va izlanishlar davri, To'rtko'l, teatr to'garagi, sahna va ijro.

#### **Annotation**

The article reveals the life and work of the People's Artist, Karakalpak theatrical figure and singer, public figure Oyimkhon Shomrotova, the first images she performed on stage on the basis of historical sources.

**Key words:** Karakalpak people, aul, difficult years, famine, early singing, period of reading and research, Turtkul, theater circle, stage and performance.



Oyimxon Shomurotova - Qoraqalpoq aktrisasi, xonanda, qoraqalpoq vokal san'atining yirik namoyandalaridan (metssosoprano). O'zbekiston (1944) va Qoraqalpog'iston (1944) xalq artisti.



Oyimxon Shomurotova turmush o'rtog'i shoir Amet Shomurotov bilan

Qoraqalpoq sahnasining guli, Amu bo'yining bulbuli bo'lgan Oyimxon Shomurotova o'zining umri davomida teatr sahnasida ko'plab obrazlarni yaratib katta shuhrat qozongan zabardast va matonatli san'atkor edi. U o'zining 60 yildan ortiq umrini sahnaga bag'ishlagan. Oyimxon Shomurotova aktyorlik faoliyati bilan bir qatorda qoraqalpoq xalq qo'shiqlarini shirali ovozda betakror xush ovozda ijro etgan va jonli ovozda 200 dan ortiq qo'shiqlarni, 100 dan ortiq pesalarda bosh rollarni ijro etgan [1].

San'atkorning ijodi va yaratgan obrazlari tarixi Qoraqalpog'istonda qisman o'rganilgan bo'lsa ham, O'zbekistonda deyarli o'rganilmagan. Holbuki, bu ajoyib san'atkor, nafaqat o'z elida, balki Markaziy Osiyoda o'z davrida ma'lum va mashhur edi. Biz bu maqolada uning ilk ijodi haqida fikr yuritish bilan cheklanamiz.

Oyimxon Shomurotova 1944-yili "Qoraqalpog'iston xalq artisti" unvonini oladi. 1950-yili "O'zbekiston xalq artisti" unvoni, 1968-yili Ittifoq xalq artisti unvoni beriladi. Shuningdek, 2004 yili O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov farmoni bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofatlandi [1].

Oyimxon Shomurotova (1917.10.6. Qo'ng'iro't tumani - 1999.29.5. Nukus) Qo'ng'iro't tumanining 7-ovulida Turdimambet oilasida ikkinchi farzand bo'lib, dunyoga keladi. Oyimxon tug'ilganida katta akasi Amet 10 yoshga to'lgan edi. U davr ocharchilik, yetishmovchilik zamoni edi. Qishloqda bir to'yib ovqat yegan kishi eng baxtli inson hisoblanar edi. Dadasi Turdimambet baqshishilik (baxshichilik) bilan ham shug'ullangan. Baxshichilik bilan topgan non bilan tirikchilik o'tkazgan. Qahatchilik yillarida hatto topgan moli bilan barcha qishloqdoshlarining qornini to'yg'azgan ekan. Oyimxon tug'ilganda "Muborak bo'lsin deb kelgan qishloqdoshlariga biroz dutor chalib qo'shiq aytib beribdi. Oyimxon 5 yoshga to'lganidan so'ng dadasi 1922-yilning oxirida Qo'ng'iro't atrofida bosqinchilar tarafidan o'ldirilgan. Kichkina Oyimxon dadasidan yoshgina ayrilib akasi Amet, oyisi Ajar opa va singlisi Bibixon bilan qoladi [2].

1924-yilning kuzida qishloqda yangi tipdagi maktablar ochila boshladi. Shu yilning kelasi kuzida Oyimxon birinchi sinfga o'qishga boradi. U paytlari maktab deganlari eski uy bo'lgan, hozirgidek yorug' sinf xonalar, partalar bo'lmagan. Bir kuni sinfdosh qizlari Oyimxonga qo'shiq aytib ber, sen yaxshi kuylaysan-ku, hammamiz mazza qilib tinglaymiz, degandan so'ng, birdan bor ovozi bilan qo'shiqni sinf xonaning ichida yangratib yuboradi. Hattoki muallimaning kelganini payqamagan Oyimxon qo'shiqni davom ettira beradi. Muallima ham qo'shiq tugaguncha indamay tura

beribdi. Oyimxonga sinchkovlab, sin ko‘zlari bilan qarabdi. O‘shandan beri Oyimxon opa bolalikdagi ustoziga keng fe‘lligi va kechiruvchanligi uchun bir umr minnatdor bo‘lgan [3].

Kunlar o‘tib maktabda qo‘shiq aytuvchi havaskorlarni yig‘ib tuman yoshlar anjumaniga borib qatnashtirish uchun tayyorgarlik boshlandi. Anjuman o‘tgach, Oyimxonni Abdurahmon Utepov tuzgan teatr direktori To‘lak og‘a Saribayev qishloqdagi teatrga ishga chaqiradi. Oyimxon bu kishining aytganiga quvonsa ham, onasi va akasi rozi bermasligini o‘ylar ekan, “Men onamdan qo‘rqaman, akam urishadi”,- deb javob beradi. 1931-yilning bahorida qor endi eriy boshlagan bir paytda teatr direktori To‘lak Saribayev Oyimxonni teatrga olib ketmoqchi bo‘lib uylariga keladi. Lekin onasi bilan akasi biz artistlikka yubormaymiz, deb turib oladi. To‘lak og‘a ketganidan so‘ng Oyimxon o‘ylanib qoladi. Onasining ko‘ngliga qarasa ham teatrga borish uning oliy maqsadiga aylangandi. Bu gaplardan keyin onasi qizining dilida nima borligini bilgisi kelib, Qo‘ng‘irotda nima gaplar bo‘layotganligini so‘raydi. Oyimxon qo‘rqa-qo‘rqa onasiga javob beradi. To‘rtko‘ldan kelgan vakil yigit:

- Singlim, kelajakda sen artist bo‘lasan yoki muallima, chunki ovozing yaxshi ekan, mening bilan ketasanmi? - deydi. Vakilga:

- Onam ruxsat bermaydi, bu men tanlagan kasb emasligini aytdim, deb javob beradi. Onasi qizining javobiga quvonib:

- Baraka top, qizim, har kimning mish-mish gaplaridan qutuldim, - deb ko‘z yoshlarini artadi. Biroq Oyimxonning ich-ichidan qo‘shiq aytaman degan hislar jo‘sh urardi. Yosh g‘unchadek qizning borgan sari qo‘shiq kuylashga havasi, ixlosi avj olib yuragi aytgan so‘ziga bo‘ysinmay boshlaydi, qo‘shiq aytish niyatidan voz kechmaydi. Oradan uch-to‘rt oy o‘tib yana teatr direktori keladi. Bu gal Abdurahmon Utepovning shaxsan salomini yetkazib 3 oy ishlab, keyin To‘rtko‘lga o‘qishga yuborishini aytadi. Oyimxon bu safar yo‘q deya olmadi. Chunki u bir yechimga kelgan edi.

Ertasiga onasiga shahardagi opam chaqiribdi, deb yo‘lga tushadi. Opachasining uyiga qo‘nib, ertasiga qishloqdagi klubga boradi. Shunday qilib, Oyimxon o‘z umri, kelajagi uchun dastlabki qadamini tashlaydi, ya‘ni qishloqdagi teatrga yo‘l oladi. Bolalikdan niyat, armon qilgan xayollari uni teatr degan maskanga yetaklaydi. Yaxshi niyat uchun o‘z onasini, “Opacham chaqiribdi” deb aldagani ham uning teatrdagi ishlashga bel bog‘lagani, artist bo‘lish orzusi va oliy maqsadi uchun edi.

Uning To‘rtko‘l teatridagi faoliyati, katta sahnaga chiqishi, xalq o‘rtasida tanilishi mana shu tarzda boshlangan edi. Oyimxon Shomurotovaning sahna va umr yo‘llari yangi avlodimiz uchun elga sodiq xizmat etish namunasi bo‘lib qoladi. “Bog‘dagul” spektaklidagi Bog‘dagul, “Gulsara”dagi Oysara aktrisaning sahnadagi ilk obrazlaridir.

Keyinchalik milliy va tarjima asarlar asosida sahnalashtirilgan drama, musiqali drama va komediyalarda salmoqli, aktrisa ijodi va milliy teatr tarixini bezaydigan badiiy barkamol obrazlar yaratdi. O‘zbek sahnalarida o‘ynalgan spektakllarning ko‘plari qoraqalpoq teatrlarida ham qo‘yilgan, ko‘plari ilk bor qoraqalpoq teatrida dunyo yuzini ko‘rgan. Bu asarlarda O.Shomurotova Halima (G‘. Zafariy, “Halima”), Arzixon, Oypara (M.Dariboyev, “Yangi odamlar”, “Ko‘klen botir”), Raushan (J. Oymurzayev, “Raushan”), Shohsanam (T.Ollanazarov, “G‘arib Oshiq”), Anna Ivanovna (A.Ostrovskiy, “Kambag‘allik ayb emas”), Sanam (T.Bayandiyev,

“Qoraqalpoq qizi”), Parshagul (S.Xo‘janiyozov, “Suymaganga suykalma”), Gulchehra (U. Hojibekov, “Arshin mol olon”), Barchin (“Alpomish”) va boshqalar. Ijodining so‘nggi yillarida u ko‘proq onalar timsolini yaratdi. “Qirq qiz” (A.Shomurotov, I.Yusupov) dagi Oqsuluv ona, “Taluas” (S.Xo‘janiyozov)dagi Oybika, “Oygulobod” (J.Oymurzayev)dagi Damegul, “Momo yer” (Ch. Aytmatov) dagi To‘lg‘anoy orazlarini ijro qilgan.

Oyimxon Shomurodovanning jarangdor va yoqimli qo‘shiqlari respublika radiosining oltin fondidan o‘rin olgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. T.: 1996. B.195.
2. Ayinxan Shamuratova. Teatr – o‘mrin ham tag‘dirim. “Bilim” basmasi. No‘kus. 2016. 24 b.
3. Ayinxan Shamuratova. Teatr – o‘mrin ham tag‘dirim. “Bilim” basmasi. No‘kus. 2016. 49 b.

### **MUSIQALI REATR AKTYORLIGINING OVOZ USTIDA ISHLASH USLUBLARI**

**Nilufar Usmonova,**  
O‘zDSMI “Musiqali teatr  
aktyorligi yo‘nalishi” 1 kurs magistri

#### **Annotatsiya**

Maqolada yurtimizda faoliyat yuritayotgan musiqali drama teatrlari sahna asarlari namoyishi jarayonlarida kuylovchi aktyorning musiqadagi xatti-harakati, ariyalarda ovozning ahamiyati, ovoz ustida ishlash yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** San‘at, milliy, teatr, ovoz, obraz, vokal, ijro, ariya, diopozon, kuylovchi aktyor, tembr, tempo-ritm.

#### **Annotation**

The article discusses the behavior of the singer in music, the importance of sound in arias, and ways to work on sound during the performances of musical drama theaters in our country.

**Key words:** Art, national, theater, sound, image, vocals, performance, aria, diopozon, singing actor, timbre, tempo-rhythm.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan teatrlarning ko‘pchiligi musiqali drama teatrlari hisoblanadi. Ushbu teatrlar o‘zining ko‘plab musiqali sahna asarlari namoyishi bilan xalqimizga xizmat qilib kelmoqda.

Musiqali asarlarda musiqa so‘z bilan, sahna xatti-harakati bilan bog‘lanadi. Kuylashni o‘z kasbi deb bilgan har bir inson, professional ovozga ega bo‘lishi bilan birga, ifodali, chiroyli, savodli kuylashni o‘rganishi shart. Ifodali kuylash bu maqsadga muvofiq kuylashdir. Kuylash holatlari turlicha bo‘lib, lirik, dramatik, tantanali, hayajonli, shiddatli, mungli, muloyim va h.k. kuylash mumkin. Ammo

musiqali teatr aktyorlari kuylaganda aniq qo'yilgan maqsad, xatti-harakat, berilgan shart-sharoit, ya'ni aktyorlik mahoratining butun kompleksidagina erishishi mumkin.

Musiqali teatr aktyorlari faqatgina ovozga suyanib qolmasdan ariya kuylayotganda asardagi qahramonning dardi, ichki kechinmalarini his qilib, o'zidan o'tkazib musiqada gapirsa u ariya bo'ladi, aks holda spektakldagi qo'shiq bo'lib qoladi.

Qo'shiqchilik mahorati bilan aktyorlik mahoratini tengma-teng qo'llay olgan aktyorgina musiqali teatr sahnasiga mos aktyor xisoblanadi. Ko'pincha ba'zi aktyorlarda ovoz birinchi o'ringa chiqib, o'zi kimningdir timsolida ekani esidan chiqib qoladi, ba'zi aktyorlarda esa buning aksi bo'ladi, ya'ni, musiqali teatr sahnasida dramatik teatr aktyoriga o'xshab ko'rinadi. Stanislavskiy kuylashga o'z munosabatini bildirib, shunday deydi: "Kuylovchilar, umuman hamma insonlar kabi, chiroyli, savodli gapirolmaydilar. Mana shuning uchun ham ko'pchilik holatda talaffuz va diksiya noaniqligi tufayli kuylash go'zalligi yo'qoladi". (1. B-386)

Ko'pchilik aktyorlar go'zal tembrli ovozga ega bo'lganlari bilan nima haqida kuylayotganini, nima demoqchi ekanligini, ularni nima hayajonlantirayotganligini bilmaydilar yoki ovozini yo'qotguncha baqirishi noto'g'ri. Bunday ijro tomoshabinda ularni u yoki bu notani yuqori pardada olishigina hayajonlantiradi, xolos. Bunday asarni badiiy deb bo'lamaydi. Chunki aktyor o'z ijrosi bilan tinglovchiga ta'sir etmayapti, o'zining kechinmasiga uni sherik qilolmayapti va badiiy to'laqonli obraz yaratolmayapti. Bu yerda shuni aytib o'tishimiz kerakki, go'zal musiqa va yaxshi ovoz eshituvchilarga ma'lum bir me'yorda ta'sir etadi.

Shunday ekan, musiqali teatr sahnasida musiqiy aktyorlar kerakligini unutmasligimiz lozim. Musiqali teatrda musiqiy aktyorlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat;

- musiqali teatr aktyorlari ariyadagi yoki qo'shiqdagi har bir jumlaning "shunchaki" emas, balki mazmun mohiyatini bilib kuylash kerak;

- musiqali teatr aktyorlari doimo ovoz ustida ishlashi, malakasini oshirib borishi kerak;

- aktyor kuylash davomida diksiyasi ustida ishlashi zarur. So'zning ma'nosini tushunish uchun tomoshabinning vaqti ketmasligi kerak. Har bir ariyaning matnini tahlil qilish, tomoshabinga kerakli fikrni yetkazib berishni aniklash kerak;

- jonli chalinayotgan musiqani eshitib, o'sha musiqa tempida nafas olishi va musiqaga uyg'un harakat qilishi lozim.

Ma'lumki, rejissyor, bastakor va dramaturg hamkorlikda bitta yaxlit asar ustida hamfikir bo'lib ish olib borishadi. Qo'shiq, ariya va duetlar kuylovchi aktyorlar ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Ba'zida noto'g'ri tanlangan qo'shiq yoki ariya aktyorlar ijrosida yaqqol sezilib qoladi. Bunday holatlar avj pardalarni kuylayotganda, ovozda siqqlik paydo bo'lishiga olib keladi. Tabiiyki so'zga o'tganda tomoq qirishlar va nutqda nuqsonlar sezila boshlaydi [2]. Buning uchun spektakl jarayonida ariya va duetlar yuqori pardalarda ekanligiga qarab, musiqachilar, orkestr sozandalari va albatta kuylovchi aktyorlar bilan birgalikda ishlab ijroga sayqal berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Musiqali drama aktyorlari o'zbek musiqali dramalari tarixini yaxshi bilishi, mumtoz musiqali dramalarda mahorat bilan kuylab, elga tanilgan san'atkorlar

mahoratini arxiv manbalaridan topib tinglashlari, ayniqsa, radio fondlarida saqlanuvchi efir orqali berilayotgan radiospektakllarni tinglashlari zarur. Ayniqsa, “Mahalla” va “O‘zbekiston” radiokanallarida berib boriladigan tungi eshittirishlarni muntazam eshitib borishga harakat qilishlari lozim. Muqimiy nomidagi o‘zbek davlat musiqali drama teatri artistlari E.Jalilova, Mahmudjon G‘ofurov, Farog‘at Rahmatova va boshqa san’atkorlarning ashula va ariyalari musiqali drama teatri oltin xazinasidan o‘rin olgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, aktyor qahramon so‘zi ichki mohiyati bilan yoki undagi tub ma’nosini tushunishi lozim. Kuylovchi aktyor qanchalik chiroyli kuylamasin, agar u so‘zni va musiqiy tovushni hayajonli musiqiy ijro etmasa, o‘z tuyg‘ulari bilan aytayotgan so‘zning tub ma’nosini jonlantirmasa va shu tuyg‘ular bilan kerakli jozibani uyg‘otmasa, uning ijrosi hech qachon badiiy ifodalikka yetib bora olmaydi. [3]. So‘zlarda va tovushlarda aktyorning jonli dil kuyi eshitilsagina musiqiy nutqning go‘zalligi va undagi yashirin tuyg‘ularni to‘la-to‘kis baholash mumkin bo‘ladi.

Bugungi ziddiyatli jarayonda teatr san’atida yuksak badiiy va haqqoniy, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish – barcha san’at turlari kabi teatr san’ati uchun ham asosiy mezon bo‘lishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste’dodli dramaturg va rejissyorlar, aktyorlarni tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Stanislavskiy K.S. Moya jizn v iskusstvs. -M.. “Iskusstvo”. 1954. S. 386.
2. M.Isroilov bilan bo‘lgan suhbatdan (2022 yil, 13 yanvar).
3. Muhammedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. T.: 2008. B. 5.

## **MUSIQALI TEATR AKTYORLARINING SAHNA NUTQI USTIDA ISHLASH MUAMMOLARI**

**Xolida Saidova,**

O‘zDSMI Musiqali teatr  
aktyorligi yo‘nalishi 1-kurs magistri

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada aktyor nutqining takomillashtirish omillari, sahna nutqi mahoratini egallashda nutq texnikasining mukammalligi, nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari, aktyor ijrosida ohang va so‘z bilan ishlash haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** sahna nutqi, nutq texnikasi, diksiya, ovoz, talaffuz, tovush, so‘z, mashq.

### **Annotation**

This article discusses the factors that improve an actor’s speech, the perfection of speech technique in mastering stage speech skills, ways to overcome speech imperfections, and the use of tone and word in an actor’s performance.

**Key words:** stage speech, speech technique, diction, voice, pronunciation, sound, word, exercise.

O‘zbekiston davlat sana’at va madaniyat institutida aktyor-talaba bo‘lish baxtiga muayassar bo‘lgan har bir yigit yoki qizga sahna nutqi darsi o‘tiladi. Aktyorlar nutqini takomillashtirish omillaridan biri nutqning ravon bo‘lishi kerakligidir. Nutqning aniqligini ta’minlashda ma’lum shart – sharoitlar bor. Shulardan eng muhimi – nutq texnikasidir.

Sahna nutqi mahoratini egallashda nutq texnikasini mukammal bilib olish va unga amal qilish lozim bo‘ladi. Nutq texnikasining qismlaridan biri bu diksiyadir. Yaxshi diksiya bu so‘zlar talaffuzidagi aniqlik, har bir unli va undosh tovushlarning meyoriy talaffuz etilishidir. Tabiiyki dars jarayonning ilk bosqichlarida aktyorlarning nutqida kamchiliklar uchraydi, bunday nutqiy kamchiliklarni muntazam mashqlardan foydalangan holda uni bartaraf etish mumkin. Sahna nutqi fanida talabalar mashqlarni bajarishdan oldin uning nutq organlaridagi kamchiliklar sahna nutqining mutaxassis o‘qituvchilari tomonidan aniqlab olinib, keyin o‘sha kamchilikni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlar beriladi.

Bu mashqlarga xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblanmish tez aytishlar, maqollar va topishmoqlar, hikmatli so‘zlar, bolalar she’ri, ertaklar va boshqa asarlar kiradi. Ular o‘zining rang-barangligi, mazmundorligi, ulardan chiqarilgan xulosalarga boyligi bilan talabalarni mustaqil fikr yuritishga va xotirasini mustahkamlashga, tasavvur va dunyoni anglashdagi intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Har bir talaba qaysi janrga murojaat qilmasin, uning boy tarixini o‘rganishi, bu boradagi fikrlarini o‘zida jamlashi, xotirasida saqlashi va o‘z nutqida jonli tarzda tomoshabinga yetkazib berishga intilishi zarur.

Tez aytishlar ustida ishlash aktyorlarning tilini charxlaydi. Tez aytish fikr va maqsadga qo‘yib ishlanganda tezligi muhim emas, chunki bunda aktyor to‘g‘ri talaffuz qilish bilan birga munosabat bilan ishlashga erishiladi. Yana urg‘uga qo‘yib, urg‘u ko‘chirib, savol-javob, tezlikka qo‘yib ishlasa ham bo‘ladi. Talabning nutqidagi qaysi tovushda kamchilik bo‘lsa, tez aytishlar o‘sha tovushga olinsa maqsadga muvofiq. Misol uchun: tovushida kamchiligi bor talabalar “Salimning sozi soz sozmi, Sunbulaning dutori soz sozmi?”, “Sora saralaydi, Lola allaydi” tez aytishini olib ishlashi mumkin. Bundan tashqari talabalarda I, O‘, L-R, Sh tovushlarida ham nutqiy kamchiliklar uchraydi.

Maqollar va hikmatli so‘zlar ustida ishlashda talaba tahlil jarayoniga ahamiyat qaratishi, nima haqda fikr yuritilganligi, kimga yoki nimaga qaratilganligi aniqlanib, nutqda jonlantiradi. Maqolda atilgan so‘zda ma’naviy tarbiya, maslahat, ogohlantirish, natija, chiqariladigan xulosalar jamlangan bo‘ladi.

Musiqali teatr aktyorlari nutqi ustida ishlash drama, qo‘g‘irchoq aktyorlaridan farq qiladi. Nimasi bilan degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Musiqali teatr aktyorlari so‘z bilan ishlaganda yuqoridagi aytilgan fikrlarga amal qilgan holda yana ijro paytida ohangga ahamiyat berishi zarurdir. Ohang o‘zgarishi sababli nutq jonli, his-tuyg‘ularga ta’sir qiladi va harakatga undaydi. Agar musiqali teatr aktyorlari ijro davomida voqeadan kelib chiqib ovoz ohangini o‘zgartirmasa, ishonchsizlik paydo bo‘ladi, bu ijrodan esa tomoshabin zerika boshlaydi. Matn bilan ishlaganda undagi mantiqiy

urg'ularni to'g'ri qo'yishi, voqeadan kelib chiqib, ovozning balandligi, tezligi va ohangini o'zgartira olishi kerak.

Bugungi kunda oliygohda o'qish uchun talabalar zamon talabiga mos o'quv xonalarida bilim olmoqda, ustozlar to'rt yil davomida nutqni kamchiliklardan bartaraf etgan holda bo'lajak aktyorlarni teatr sahnalariga, san'at olamiga kuzatib qo'yishadi. Misol uchun so'zlarning oxirgi bo'g'inini yamlab yuborish, urg'ularni noto'g'ri qo'llash sababli so'zda boshqa ma'no kelib chiqishi, keraksiz joyda baqirib gapirish, ovozni to'g'ri yo'naltirishni bilmaslik kabilardir.

Ohangni ziravor bilan solishtirsa bo'ladi. Kerakli miqdorda qo'shilgan "ziravor", nutqingizga "maza" kiritib, uni tomoshabinlarga yoqimli qilib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijrochilik san'atida so'z muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyorlarning butun rol ustidagi ishi so'z bilan, til bilan hamda insoniy nutq bilan bog'langan. Shu boisdan sahna nutqi teatr sana'tining ajralmas qismidir.

Ijodkor aktyorlar tomoshabinga ta'sir eta olishi, ishontira olishi uchun uning nutqi to'g'ri va ravon bo'lishi bilan birga, har bir so'zdagi tovushlar aniq va talaffuz meyoriga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa talabalar nutqining aniqligini ta'minlashda muhim omillardan biri nutq texnikasini o'rganish bilan birga, badiiy o'qish namunalari orqali ham tarbiyalanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Inomxo'jayev S. Badiiy o'qish asoslari. –T.: O'qituvchi, 1973.
2. Po'latov I. Sahna nutqi. –T.: O'qituvchi, 1994.
3. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. –T., 1965.
4. Usnatov R. Musiqali teatr aktyorini tarbiyalash usullari T.: 2008.
5. Xamidova M. Aktyorskoye iskusstvo uzbekskoy muzikalnoy dramy –T.: Fan, 1987.

## **O'ZBEK SAN'ATKORI VALIJON UMAROV REJISSURASI VA KASBIY PEDAGOGIKASINING O'ZIGA XOSLIGI**

**Dilorom Oripova,**  
O'zDSMI Dramatik teatr rejissyorligi  
yo'nalishi 1-kurs magistri

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada pedagog va rejissyor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Valijon Umarovning pedagogik ijodiy faoliyati, aktyorlik va rejissyorlik kurslarida ta'lim berish uslubiyatining o'ziga xoligi, jahon va o'zbek teatr san'ati pedagogikasi, aktyorlik maktablari an'alarining davomiyligi, aktyorlik va rejissura tendensiyalari, sahna asarining yaxlitligi va badiiyligi, Shuningdek, o'zbek sahna asarlarida zamonaviylik va milliylik uyg'unlashuvi muammolari haqida so'z boradi.



**Kalit soʻzlar:** teatr, rassomchilik, artist, musiqali drama, institut, Ilhom, studiya, aktyor, Vaxtangov, sahnalashtiruvchi, spektakl, festival, gʻoya, kompozitsiya, obraz, fojea, nominatsiya, romantizm, anʻana, pafos, lirik, sahnaviy makon, hatti-harakat, uslub, personaj, janr, drama, unvon.

### **Abstract**

This article deals with the pedagogical and creative activity of the teacher and director, Honored Artist of the Republic of Uzbekistan Valijon Umarov, the originality of the teaching methods in acting and directing courses, pedagogy of world and Uzbek theater arts, acting schools. the continuity of their mothers, the tendencies of acting and directing, the integrity and artistry of the stage work, the creative effectiveness of Valijon Umarov's research. There is also talk of a modern and national combination of works of art staged in Uzbek theaters.

**Key words:** theater, painting, artist, musical drama, institute, Inspiration, studio, actor, Vakhtangov, staging, play, festival, idea, composition, image, tragedy, nomination, romanticism, tradition, pathos, lyric, stage space, action, style, character, genre, drama, title.

Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan artist, rejissyor, pedagog Valijon Umarov 1955-yili Angren shahrida tugʻilgan. 1978-yili Teatr va rassomchilik sanʻati institutini tugatib, dastlab, Samarqand viloyat musiqali drama teatrida, “Ilhom” teatr studiyasida rejissyor boʻlib ishladi va bir muddat Oʻzbekiston davlat sanʻat institutida aktyorlik mahoratidan dars berdi.

1986-yili Moskvada Vaxtangov teatri qoshidagi B.Shukin nomidagi teatr bilim yurtining aspiranturasini tugatgach, Toshkentga qaytib, respublikaning turli teatrlarida sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida faoliyat olib bordi. V.Umarov 80-yillar rejissyorlik avlodi vakili. Uning dastlabki “Oq otlar uchun vals”, “Temir xotin” (“Ilhom” teatr-studiyasida), “1001 kecha” (Yosh tomoshabinlar teatrida) spektakllaridayoq rejissyor ijodidagi oʻziga xoslik, originallik sezilib turardi.[1].

1996-yili Valijon Umarov Sirdaryo viloyat teatriga bosh rejissyor etib tayinlanadi. Ushbu jamoa bilan ishlash davomida ijodkor bir qancha qiziqarli va badiiy yuksak spektakllar sahnalashtirishga muvaffaq boʻldi. Xususan, H.Jovidning “Amir Temur” asari asosidagi spektakli Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan oʻtkazilgan festivalning bosh sovrinini qoʻlga kiritdi. Spektakl rejissyorlik gʻoyasining aniqligi va kompozitsion yaxlitligi bilan ajralib turardi. Ushbu spektaklda rejissyorning jonli va serqirra obrazlar yaratish borasida aktyorlar bilan ishlash iqtidori yaqqol koʻzga tashlanadi.[2].

1998-yili Valijon Umarov Usmon Azimning “Kunduzsiz kechalar” asari asosida spektakl sahnalashtirish uchun Oʻzbek Milliy akademik drama teatriga taklif etiladi. Ulugʻ oʻzbek adibi CHOʻlponning fojiali taqdirini oʻzida aks ettirgan ushbu spektakl teatr jamoatchiligi tomonidan yuksak baholandi. 1999-yili boʻlib oʻtgan “Andijon bahori” festivalida spektakl bosh sovringa sazovor boʻldi va ijodkor “Yilning eng yaxshi rejissyorlik ishi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Ayni shu yili Valijon Umarov Hayitmat Rasul asari asosidagi “Piri Koinot” spektaklini sahnalashtiradi. “Piri Koinot” spektakli oʻzida romantik pafosga aktyorlik



talqini, shoirona lirik muhit hamda sstenografiyadagi mahobatli, hayratlanarli tomoshaviy obrazni mujassam etgani bilan ajralib turadi. Spektakl voqealari asosini ulug‘ olim al-Farg‘oniy hamda unga qarshi bo‘lgan eskicha qarashga ega, xudbin kuchlar o‘rtasidagi ziddiyat tashkil etadi. Bu esa sahnadagi harakatlarning o‘ziga xos bosimini ifoda etadi. [3].

Dramaturg Usmon Azim qalamiga mansub “Adibning umri” spektakli taniqli o‘zbek adibi Oybek hayotiga bag‘ishlanadi. Mualliflar adibning tarjimai holidagi dalil va hujjatlar asosida dramatism manbaini topishga intilishadi. Natijada davr farzandi Oybekning ruhiy olami yaqqol aks etib, undagi barcha qalb tug‘yonlari, tashvish va shodliklar, ikkilanish hamda to‘fonlar namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalq eposining o‘ziga xos, takrorlanmas sahnaviy talqinini yaratish maqsadida Valijon Umarov dramaturg Usmon Azim bilan hamkorlikda Bobur nomidagi Andijon viloyat teatrida “Alpomishning qaytishi” spektaklini sahnalashtirdi.

Rejissyor ayni shu spektaklning mavzu va g‘oyasini kuchaytirgan holda ayrim o‘zgartirishlar bilan poytaxtdagi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtiradi. Spektakl ertakona muhitdan yuksalib qahramonona poetik ruhiyat kasb etadi. Alpomish haqidagi afsona baxshi ijrosi ostida aks ettirilar ekan, uning shoshmasdan, xotirjam bir tarzidagi ijrosida qahramon taqdirining murakkab burilishlari ifodalandi. Rassom Sh.Abdumalikov tomonidan ishlangan spektakl sstenografiyasida ham spektakl voqealari mos ravishda qahramon qismatining turli holatlari goh yorqin ranglarda aks etsa, goh sirli, sarg‘ish, sovuq ranglarda ifodalandi.

O‘zbek milliy akademik drama teatridagi A.Kassanovning “Daraxtlar tik turib jon beradi” nomli dramasi chet el dramaturgiyasi namunasi sifatida sahnalashtirilgan.[4]. Rejissor Valijon Umarov talqini bilan tanishar ekanmiz, uni, klassik asarlarni sahnalashtirishda zamonaviy va tarixiy mavzular borasida professional tajribaga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Negaki, “Daraxtlar tik turib jon beradi” tomosha qilar ekanmiz, beixtiyor bu drama teatr jamoasining ulkan yutug‘iga aylanganligiga ishonch hosil qilamiz. Sababi, dramadagi obrazlarga mos aktyorlar guruhi tanlanganligi, ularning professional tajribaga egaligi, talqinning yuqori saviyada ekanligini ko‘rib, shunday xulosaga kelish mumkin.

2013-yilga kelib Milliy teatr jamoasi Qo‘chqor Norqobilning “Quyoshni sen uyg‘otasan” nomli dolzarb mavzudagi zamonaviy asarini sahnalashtiradi. Dramatik spektaklni - rejissor Valijon Umarov, rassom Shuhrat Abdumalikov va bastakor Alisher Rasulovlar hamkorlikda yaratgan. Spektaklda umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan - vatanga sadoqat, tug‘ilib o‘sgan go‘shaga muhabbat, ona matonati, o‘zbek ayolining sabr-toqati, shukronalik, qanoatlilik kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. Rejissyor bu drama talqinida - o‘zbek oilasida ustuvor bo‘lgan qadriyatlarga asoslanib, ona va kelin obrazi orqali o‘zbek ayollarining sabr bardoshini, irodasini, matonatini, turli qiyinchiliklarga qaramasdan oila sha’nini ulug‘lay olishi kabi jihatlarini ochishga urg‘u beradi.

Valijon Umarov 1998-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni bilan taqdirlandi. Valijon Umarov o‘zining rejissyorlik faoliyati davomida zamonaviy jahon teatrlaridagi muhim o‘zgarishlarni o‘zlashtirgan holda, yangi shakl va mazmun bilan boyitgan tarzda o‘zbek teatrining an’analarini davom ettirib kelmoqda.

Xususan, 2004-yilda sahnalashtirilgan “Ayolg‘u” spektaklini misol qilib keltirishimiz mumkin. Musiqa va plastik harakatlar asosiga qurilgan ushbu spektaklda ayollar taqdirining o‘ziga xos qiyofasi lirik bir holatlarda tasvirlanadi. Uning asosida xalq folklor qo‘shiqlari, ichki kuchli epik ruhiyat sezilib turadi. Spektaklda ayollarning hayotga muhabbati, shodligi, g‘ami, iztiroblari, baxtga bo‘lgan intilishlari ifoda etiladi. Shuningdek, Valijon Umarov 1984-2003-yillar orasida Toshkentdagi san‘at institutlarida pedagogik faoliyat davomida “Dramatik teatr va kino aktyorligi” va “Dramatik teatr rejissoriigi” yo‘nilishi talabalariga mahorat sirlaridan saboq berib kelgan. Talabalar bilan birgalikda Vaxtango aktyorlik va rejissorlik maktabini va ijro uslubiyatini asl holicha saqlab kelmoqda. Valijon Umarovning o‘ziga xos ishlash uslubidan biri professional teatr aktyorlari va oliygoh talabalari bilan tajriba sifatida spektakllar sahnalashtirib, bo‘lajak aktyorlarni teatrdagi o‘z ijod yo‘lini topishiga ko‘maklashadi. O‘zbek Milliy Akademik drama teatrida “Uvaysiy”, “Quyoshni sen uyg‘otasan”, “Ogoh bo‘ling odamlar”, “Tun albatta o‘tadi” sahna asarlari tajriba sifatida teatr aktyorlari va talabalar bilan birga sahnalashtirilib, katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Valijon Umarov 2013-yil 19-sentabr kuni Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining bosh direktori lavozimiga tayinlandi. Uning rahbarligida keng jamoatchilikni jalb qilgan holda turli anjumanlar, davra suhbatlari, seminarlar, konferensiyalar hamda qator festivallar o‘tkazildi. Uning rahbarligi davrida respublika teatrlarida ijodiy jonlanish kuzatilib, g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak professional spektakllarning paydo bo‘lishi asta-sekin tomoshabinlar e‘tiborini torta boshladi. Har yili 155 ga yaqin yangi spektakllar sahnalashtirilib, teatr jamoalari turli mamlakatlarda o‘tkazilib kelinayotgan ko‘plab nufuzli xalqaro festivallarda mamlakatimiz teatr san‘atini dunyo miqyosida munosib targ‘ib etmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Valijon Umarov hozirda O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri bosh rejissori vazifasida faoliyat olib bormoqda. Teatr sahnasida “Tanho qayiq”, “Ko‘chki”, “Hayrat-ul abror” kabi asarlarni sahnalashtirib, shuningdek, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Dramatik teatr rejissorligi” bo‘limi talabalariga mahorat sirlarini o‘rgatib kelmoqda. Valijon Umarov “Aktyorlik san‘ati” va “Rejissyorlik” bo‘limi talabalaridan birinchi o‘rinda kasbga sadoqat, sahnaviy erkinlik, sahnaviy diqqatni shakllantirishga e‘tibor qaratadi. Drama san‘ati talabalaridan kelib chiqib pedagog aktyorlik va rejissyorlik san‘atining eng asosiy elementlaridan hisoblangan, diqqatning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishishda uchraydigan ma‘lum muammolar bilan kurashishga harakat qiladi. Agar talaba sahnada o‘z diqqatini obyektga qarata olsa bu albatta yutuq lekin sahnada talabaning diqqat obyekti bo‘lishi shart. Bu vazifani o‘quv dasturida qisqa muddat ichida bajariladigan mashqlar orqali ado etib bo‘lmaydi. Bu mashqlar birinchi bosqichdan to‘rtinchi bosqichgacha olib boriladi. Bundan maqsad sahnaviy tarbiya uchun zarur asoslarni yaratishdir.

Poytaxt teatrlaridan tashqari, Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona viloyat teatrlarida sahnalashtirgan spektakllari Respublika va Xalqaro festival va ko‘rik tanlovlarda sovrindor bo‘lib kelmoqda.

### **Adabiyotlar:**

1. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T. Ho‘jaev tarjimasi. Toshkent.196y.
2. Ikromov I. Davr va teatr. O‘zbekiston milliyensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2009.
3. Mahmudov J. 20-asr rejissurasi namoyondalari. Alisher Navoiy nomidagi O‘.M.K. 2015.
4. Горчаков Н. Режиссерский уроки Станиславского. Москва -1951.
5. Немерович-Данченко В.И. О творчестве актёра. М., “Искусство” 1984.
6. Tursunov T. XX asr O‘zbek teatr tarixi. Toshkent. 2010.
7. Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. – San’at instituti bosmaxonasi, T.: 2003.
8. Ismoilov T.. Tarix va sahna. –G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashiryoti, T.: 1998.
9. Захаров М. Театр без вранй. Москва. 2007.
10. Встречи с Меэрхолдом. Москва. 1967.
11. Zohidova N. Toshxo‘ja Ho‘jayev. Toshkent. 1980.
12. Мухтаров И. Театр и классика.- Т.: F. Фулом, 1988.

## MUNDARIJA

<i>Ibrohim Yuldashev. Soʻz boshi</i> .....	3
--	---

### I SHOʻBA. YANGILANAYOTGAN OʻZBEKISTON TARAQQIYOTIDA SANʼAT VA MADANIYATNING OʻRNI

<i>Artikova Umida Raimovna, D.M.Malikova. Uchinchi Renessans – Yangi Oʻzbekistonda sanʼat va madaniyat</i> .....	4
<i>Shuxratbek Islomov Hamroyevich, Zumriniso Kozimova. Kino va yoshlar (kinoning ijtimoiy vazifasi nimada?)</i> .....	9
<i>Abdumannofova Xushnavoz Abduxamid qizi. Yangilanayotgan Oʻzbekiston taraqqiyotida maʼnaviyat, odob-axloq va maʼrifatning oʻrni</i> .....	13
<i>Mahkamboyev Sarvarbek Shamsiddinovich. Tasvir orqali hidni his qilish mumkinmi?</i> ....	19
<i>Toʻychiyev Joʻrabek Muqimjon oʻgʻli. Yangi maʼnaviy makon</i> .....	23
<i>Azizova Shaxnoza Agzamovna. Zamonaviy oʻzbek kinosining bugungi kundagi yutuqlari</i> .....	25
<i>D. Ikramova. Artistic culture as a special field of culture</i> .....	29
<i>Исаева Галия Абдухатовна. Роль балетного искусства в развитии нового Узбекистана</i> .....	32
<i>Axamatov Abdulla Odil ogʻli, Zumriniso Kozimova. Yangi Oʻzbekistonda kutubxonalar va kitobxonlikka qaratilayotgan eʼtibor</i> .....	36
<i>Nishonova Jumagul Ibrahimjon qizi. Specific trends in the development of youth social culture in the renewal of uzbekistan</i> .....	39
<i>Davletbaeva Gulayim Daryabay qizi, G. Abipova. Yangilanayotgan Oʻzbekistonda sanʼat va madaniyat sohasi masalalari</i> .....	43
<i>Бектурсынова Гулмира Жолдасбаевна. Третий ренессанс в глазах Каракалпакской молодежи</i> .....	46
<i>Mejliyeva Maknuna Toshmurod qizi, Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotida yoshlarning maʼnaviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish masalalari</i> .....	50
<i>Karimova Eʼzoza Nuriddin qizi, Moʻminmirzo Xolmoʻminov Zokir oʻgʻli. Yangilanayotgan Oʻzbekiston taraqqiyotida madaniyat markazlaridagi toʻgaraklar faoliyati</i> .....	54
<i>Moʻminmirzo Xolmoʻminov, Asilbek Qolqanatov. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotida madaniyat markazlarini rivojlantirish: muammolar va yechimlar</i> .....	59
<i>Pirmatov Muzaffar Sherzodovich. Yangi Renessans poydevorini yaratishda sanʼat taʼlimi va uni shakllantirish omillari</i> .....	71
<i>Zufarov Zoir Mahmudovich, Toʻgʻonboyeva Ziyodaxon Dilshodjon qizi. Yangi Oʻzbekistonda madaniyat va sanʼat sohasiga eʼtibor attention to culture and art in the new Uzbekistan</i> .....	75
<i>Turayev Jasur, Abdujabborova Xilola Raxmatilla qizi. Umumtaʼlim maktablarida musiqa va sanʼat sohasini oʻqitishdagi muammolar va ularning yechimlari</i> .....	78
<i>Nasimov Fotih Hilol oʻgʻli. Oʻzbek kinosida tarixiy badiiy filmlarning shakllanishi</i> .....	84
<i>Shavkatova Gulnoza Rustam qizi. Issues of youth education in the development of modern Uzbekistan</i> .....	87
<i>Bektursinova Gulxumar Joldasbaevna. Yangi Oʻzbekiston liderlari</i> .....	91

## II SHO‘BA. MADANIY MEROS VA TA‘LIM TIZIMIDAGI ILMIY INNOVATSION YONDASHUVLAR

<i>Ravshanova Gavhar Ixtiyor qizi, Ro‘Ziyeva Nulifar. O‘rta Osiyoning Qadimgi va O‘rta asrlar arxivlari</i> .....	96
<i>Кошелева А.Ф., Курбанова Н.Р. Развитие творческой личности в процессе обучения</i> .....	99
<i>Xolmurodova Madina Shavkat qizi. Elektron kutubxona hozirgi davr talabi</i> .....	103
<i>Yo‘ldashev Azizbek Shavkat o‘g‘li, Arziyeva Zuhra Ilyasovna. Mumtoz musiqa va ustoz-shogird an‘anasi</i> .....	110
<i>Фарходова Комила Дильшод кизи, Маликова Севар Саматовна. Мустафо Бафоев и его путь к успеху</i> .....	113
<i>Maratova Nilufar Laziz qizi, Mo‘minmirzo Xolmo‘minov Zokir o‘g‘li. Madaniyat markazlariga mutaxassis kadrlarni jalb etish masalalari</i> .....	117
<i>Meliyev Murodbek G‘Ayrat o‘g‘li. Kitobsiz – taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi</i> .....	122
<i>Raximova Charos Xamidulla qizi. Spektakl – davr mahsuli</i> .....	126
<i>Azizova Nargiza, Ganiyeva E.R. O‘zbek ekran san‘atida ustoz obrazini yaratish masalalari</i> .....	130
<i>Qurbonova Dilnoza Toxirovna. San‘at va madaniyat sohasida qahramon ayol siymosi</i> ...	136
<i>Xo‘jamqulov Boburjon Bahtiyor o‘g‘li, Zumriniso Kozimova. Davlat iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish uchun madaniyat va san‘atdan foydalanishning ahamiyati</i> .....	139
<i>Abdreymov Manas Bekpolatovich. Qoraqalpoq ekran san‘atida ovoz rejissyorligining uslubiy jihatlari</i> .....	143
<i>Xujanov Muhammad Samandar o‘g‘li. Musiqaning inson hayotidagi o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari</i> .....	147
<i>Shomurodov Amriddin Bo‘ronovich. San‘at va madaniyat orqali inson qadrini ulug‘lash</i> .....	151
<i>Sobirova Sayram Muxsinaliyevna. Montaj san‘ati</i> .....	154
<i>Ulug‘ova Nozima Baxtiyorovna. San‘at, madaniyat jamiyatning yuragiga to‘g‘ridan to‘g‘ri tasir qiladigan, tilagiga ko‘chadigan tuyg‘ularni tarbiyalaydi</i> .....	158
<i>Xakimov Saidaxmad Qo‘zijon og‘li. Kino san‘atida tarixiy mavzularning bugungi kundagi ahamiyati</i> .....	162
<i>Xakimova Nigina. Turizm va teatr: xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston tarixi, san‘ati va madaniyati bilan tanishishda teatr san‘atining ahamiyati</i> .....	164
<i>Пардаев Шавкат Низомович. Нурли йўл бошида (Каттакўрфон шаҳар драма театрининг ilk қадамлари)</i> .....	166
<i>Dilorom Izatullayevna Mirsaidova. Ovoz rejissyorligi tarixi va taraqqiyoti (ovozsiz filmdan ovozli filmgacha bosib o‘tilgan yo‘l)</i> .....	171
<i>Raxmanova Mavluda Erkin qizi. Jadidlar tomonidan olib kirilgan drama janri – san‘at va madaniyatning yangi timsoli sifatida</i> .....	176
<i>Zufarov Zoir Mahmudovich, To‘g‘onboyeva Ziyoda, Olimjonova Mardona. Ta‘lim tizimida multimediali o‘quv kurslarini yaratish va foydalanish samaradorligi</i> .....	181
<i>Mamutov Paraxat Allambergenovich, Aytmurotov Baxtiyar Keçyesbayevich. Qoraqalpoq teatr san‘atining rivojlanish bosqichlari, dastlabki ijodiy uslub va sahnaviy shakllar</i> .....	185
<i>Nazarova Inoyatxon Baxtiyorxo‘ja. Milliy estrada san‘atining ilk ko‘rinishlariga nazar</i> ..	189
<i>Altinoy Berdibayeva. Qoraqalpoq xalqining ulug‘ san‘atkori Oyimxon Shomurotovaning ilk ijodi</i> .....	192

<i>Nilufar Usmonova. Musiqali teatr aktyorligining ovoz ustida ishlash uslublari</i> .....	195
<i>Xolida Saidova. Musiqali teatr aktyorlarining sahna nutqi ustida ishlash muammolari</i> .....	197
<i>Dilorom Oripova. O‘zbek san’atkori valijon umarov rejissurasi va kasbiy pedagogikasining o‘ziga xosligi</i> .....	199